

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

«IQTISODIYOT» FAKULTETI

**MILLIY VA JAHON IQTISODIYOTI
fanidan**

(MA'RUZA MATNI)

Termiz-2014

Ushbu ma'ruzalar matni «Iqtisodiyot» fakultet ilmiy kengashida muhokama qilinib, 2014 yil «____» avgustdagi 1-sonli majlis bayonnomasi bilan ma'qullangan.

“TAVSIYA ETILGAN”

“Iqtisodiyot” kafedrası
majlisida muhokama qilingan va tavsiya etilgan

Kafedra mudiri _____ dots. E.X.Avazov
(majlisning 1-sonli bayonnomasi 28 avgust 2014 yil)

Taqrizchilar:

1. Avliyakov A. i.f.n – TerDU «Iqtisodiyot» kafedrası.
2. Mamajonova T.A. - TerDU «Iqtisodiyot» kafedrası.

Tuzuvchilar:

o'q. Usmanov CH., SHodiev A. A.
« Milliy va jaxon iqtisodiyoti» fani
(ma'ruzalar matni), - TerDU, 2014 y.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan, mustaqil taraqqiyot yo'liga asoslangan holda bozor iqtisodiyotiga to'la ishonch bilan o'tib bormoqda. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, «Siyosiy mustaqillik rivojlangan, o'zaro mutanosib, to'laqonli iqtisodiyot bilan mustahkamlanmas ekan, u bor-yo'g'i quruq, balandparvoz gaplar, soxta obro' orttirish vositasiga aylanib qolaveradi». Mustaqillikning o'tgan yillari davomida milliy xo'jaligimiz iqtisodiy jihatdan mustahkamlanib, inqiroz holatidan chiqarildi va uning ko'pgina sohalarida barqaror o'sishga erishildi. Bozor mexanizmining tarkibiy qismlari qaror topdi va uning infratuzimlari vujudga keltirildi, hozirgi kunda esa iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotni har taraflama erkinlashtirish amalga oshirilmoqda. eng muhimi, shu davr ichida milliy istiqlol g'oyasi va mafko'rasi shakllanib, kishilarimiz ongiga singib bormoqda.

Qo'ygan dastlabki qadamlarimiz natijasida shakllanib kelayotgan milliy iqtisodimiz yangi asrda umumiy uyimiz – yangilanayotgan vatanimizning hayotiy asosini, uning kelgusidagi taraqqiyot manbaini tashkil etadi.

Bunday yangilanish jarayonida biz uchun ilgari uncha tanish bo'lmagan qonun-qoidalar, tushunchalar, xo'jalik yuritish mexanizmlari, usullari, tamoyillari kirib kelmoqda. Mulkdorlar, tadbirkorlar, tijoratchilar, aksionerlar, bankirlar, birja egalari va xodimlari, menejerlar, brokerlar va bozor iqtisodiyotining boshqa amaliyotchilaridan iborat yangi ijtimoiy guruh va qatlamalar shakllanmoqda.

Mazkur fan mamlakatimizda yashayotgan hamma fuqarolarning daromadlari, turmush darajasi iqtisodiyot rivojlanishi va uning taraqqiyoti bilan, ularning ijodiy mehnati natijasida milliy mahsulotning ko'payishi, bu mahsulot to'g'ri taqsimlanishi va undan maqsadga muvofiq foydalanilishi, shuningdek, milliy pul barqarorligi bilan bog'liqligini o'rgatadi hamda milliy istiqlol mafko'rasining fuqarolar ongida shakllanishida, ularning intellektual kamolotga erishuvida muhim ahamiyat kasb etadi.

1-MAVZU. «O'ZBEKISTON MILLIY IQTISODIYOTI» FANINING MAZMUNI, MOHIYATI VA VAZIFALARI

1.1. «O'zbekiston milliy iqtisodiyoti fani va uning predmeti

Respublikamiz mustaqillikka erishganligiga va deyarli barcha xalqaro tashkilotlarning teng huquqli a'zosiga aylanganiga qisqa vaqt bo'ldi. Ammo shu vaqt ichida respublikamizning o'ziga xos xususiyatlarini qamrab olgan iqtisodiy siyosat shakllanib, istiqbolli yo'nalishlar belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida» kitobida bozor munosabatlarini normal rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar qayd qilib o'tilgan.

Endilikda milliy iqtisodiyotimizning turli yo'nalishlari va tarkibiy qismlarini jahon bozori bilan qiyosiy o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston milliy iqtisodiyoti jami sohalar, uyushmalar, korxonalar, tashkilotlarning yig'indisi bo'lib, ular yagona iqtisodiy tizimga, umumiy qonunlarga va rivojlanish maqsadlariga asoslangan holda o'zaro birlashgan.

O'zbekiston Respublikasining xalq xo'jaligi yaqin o'tmishda umumittifoq xalq xo'jaligi majmuasining tashkiliy qismiga kirardi. SHu bilan birga sobiq ittifoqdagi mehnat taqsimotida asosan xom ashyo yetqazib beruvchi mavqeini egallardi.

Bunday sharoitlarda «milliy iqtisodiyot» tushunchasi haqida so'z yuritish huquqiga ega emas edik. endilikda O'zbekistonda siyosiy va davlat mustaqilligi kamol topishi bilan uning milliy iqtisodiyoti shakllana boshlayapti. Bu o'rinda qayd etish joizki, milliy iqtisodiyot bozor iqtisodiyoti munosabatlarini o'rganuvchi barcha aniq fanlar nazariyasiga, uslubiga tayanadi. Iqtisodiyotni samarali tartibga solish bilan uning shakllanishiga qulay iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy vaziyat yaratiladi. Jahondagi barcha rivojlangan mamlakatlarda milliy iqtisodiyotning o'ziga xos boshqarish modellari mavjud. Ularni yaratishda har bir mamlakat o'zining barcha xususiyatlarini hisobga olgan. Albatta, o'larda har bir mamlakatning geografik joylashishi, iqtisodiy va tabiiy resurslari, iqlimi va qolaversa, demografik tuzilishi inobatga olingan. Bu o'rinda ko'p tilga olinayotgan Janubiy Koreya, SHvetsiya, Turkiya modellarini misol qilib ko'rsatishimiz mumkin.

SHu bilan birga iqtisodiyotning umumiy nazariyasi mavjud. Uni chuqur bilmay turib, iqtisodiyotni rivojlantirib bo'lmaydi. SHuning uchun milliy iqtisodiyotda bozor sharoitiga mos infratuzilmaviy takomillashuv, samarali bozor strukturasining shakllanib borish jarayoni bilan mos ravishda yangi bozor iqtisodiyoti institutlari yaratilib boriladi.

Istiqlol o'zbek xalqi uchun taraqqiyotning butunlay yangi, keng ufqlarini ochib berdi. YUrtimizda tarixan qisqa, mazmunan boy mustaqillik yillarida asrlarga tatigulik ulug' o'zgarishlarga asos solindi. Kuni kecha tasavvurimizga sig'magan hodisalar bugun oddiy voqeilikka aylanib bormoqda.

Mustaqilligimizning 20 yilligi munosabati bilan islohotlar natijalarini sarhisob qilish, yutuqlarimiz mazmun-mohiyatini chuqurroq o'ylab ko'rish, hali qilib ulgurmagan ishlarimizni ro'yobga chiqarish haqida fikr yuritish, tahlil qilish ham muhim, ham dolzarb.

Milliy model dunyo hamjamiyati tomonidan mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti asoslariga o'tish borasida olib borilayotgan islohotlar o'ziga xos «O'zbek modeli» nomi bilan atalmoqda. Yangi jamiyat qurishning bu modeli bugungi kunda xorijlik olimlar va siyosatchilarni qiziqtirmoqda. Hamdo'stlik davlatlari orasida rivojlangan eng maqbul, eng samarali yo'l deb tan olinmoqda. Bundan 5-6 yil avval, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyatiga shubha bilan qaragan siyosatchilar, iqtisodchi olimlar ham bugun bizning tajribamizni o'rganmoqdalar, ayrim jihatlarini o'zlarida tatbiq etmoqdalar.

O'tgan qisqa vaqt ichida O'zbekistonda iqtisodiyotning barcha ko'rsatkichlari bo'yicha Hamdo'stlik davlatlari orasida kam pasayishga erishildi. Ular orasida birinchi bo'lib, 1996 yildan boshlab asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha barqaror o'sish ta'minlanmoqda, ijtimoiy larzalarsiz chuqur tuzilmaviy o'zgarishlar amalga oshirilayapti.

Buning siri nimada? Buning siri avvalambor, milliy modelimizning o'ziga xosligi, unga bozor iqtisodiyotning ma'lum bir turi yoki muayyan bir davlat yo'li to'g'ridan-to'g'ri ko'chirib olinmaganligida, o'z taraqqiyot yo'limizni tanlashda mamlakatimizning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit va salohiyatidan, xalqimizning tarixi, milliy urf-odatlarini, diniy e'tiqodidan kelib chiqqanidir.

Bizdagi islohotlar jarayoni bilan yaqindan tanishib chiqqan finlandiyalik iqtisodchi olim Yarmo eronen shunday deydi:

«Sobiq ittifoq respublikalari ichida bizni ko'proq O'zbekiston tajribasi qiziqtiradi. Chunki qisqa vaqt ichida «O'zbek modeli» o'zini oqladi. Birinchi bo'lib sizlarda o'sish boshlandi. Sizlarga qo'shni davlatlarda bo'lganimda, ularning ayniqsa, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish butunlay izdan chiqqanini ko'rdim. Ekin maydonlari 50 foizga kamayib ketibdi. Hosildorlik esa undan ham ko'proqqa tushib ketgan. Chorvachilikda tuyoq soni keskin kamaygan. O'zbekistonda esa umuman boshqa manzara. Qishloq xo'jaligi o'tish davrining eng og'ir yillarida ham bir maromda rivojlandi. Bu esa tanlangan yo'lning to'g'ri ekanligidan dalolat beradi.»

Shuningdek, mamlakatimizning geografik joylashuvi nuqtai nazaridan kelib chiqqanda uing dengiz arteriyasidan uzoqda joylashganligi iqtisodiy savdo aloqalarida ma'lum noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Lekin, bu degani bizning aloqalarimiz samarasi pasayib boradi, degani emas. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ushbu aloqalarni rivojlantirishning boshqa yo'llarini izlab topish talab etiladi. Hunonchi, havo va avtomobil yo'llari transportini rivojlantirish shular jumlasidandir.

Bu yashirin imkoniyatlar milliy mustaqillikka erishilgandan so'ng ancha kengaydi. Milliy iqtisodiyotimizning ichki yalpi mahsulot hajmida eksport miqdori o'sib bormoqda. Eksport qilinadigan tovarlar jumlasiga neft mahsulotlari, uran, oltin qo'shildi. Paxta tolasini eksport qilish oxirgi yillar ichida 49,2 foizdan 38,6 foizgacha pasaydi. Meva-sabzavot va poliz mahsulotlari hamda ularning qayta ishlangan mahsulotlarini eksportga chiqarish hajmi ancha ortdi. Neft va benzinni import qilish batamom to'xtadi. Ishlab chiqarish vositalari va ehtiyot qismlari importi 15,3 foizdan 47,2 foizgacha o'sdi va 2002 yilda eksport importdan ko'p bo'ldi.

Albatta bosib o'tilgan yo'lga muammolarga ham duch kelinmoqda. Lekin, eng muhimi, islohotlarning umumiy strategiyasida sobit to'rgan holda taktikamizga yo'l-

yo'lakay tuzatishlar kiritib boryapmiz. Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga muayyan chorakda, har yili chuqur tahlil orqali baho berib kelinmoqda. Nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilish choralari ko'rilmoqda, zarur hollarda esa davlat dasturi qabul qilinmoqda.

Ayniqsa, ba'zi bir davlatlardagidek parlament safsatabozliklariga yo'l qo'yilmay, o'z vaqtida qonunlar qabul qilish, zarur bo'lganda zudlik bilan tuzatishlar kiritish, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari qabul qilish orqali islohotlarning huquqiy asoslari takomillashtirib borilishi yutuqlarmiz asosi bo'lmoqda.

Darhaqiqat, sanoat tarmoqlari tarkibini statistik raqamlar orqali tahlil qiladigan bo'lsak, istiqlol yillarida o'zgarishlar qanchalik ulug'vorligi yaqqol namoyon bo'ladi. Ayniqsa, uni sobiq ittifoq davridagi sanoat tuzilmasi bilan solishtirganda, qisqa vaqt ichida strukturaviy siyosatning amaliy natijalari, bunyodkorlik ishlarining salobati ko'z oldimizda yorqinroq gavdalanadi.

Eski sanoat tuzimida yengil sanoatning, aniqrog'i, paxta tozalash sanoatining mavqei juda yuqori edi. Aksariyat mintaqalar sanoatida uning salmog'i 70-80 foizni tashkil qilgan bo'lsada, katta xom ashyo resurslariga ega bo'lgan hududlarda yakuniy tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmagan edi. Bizdagi og'ir sanoat korxonalarining hammasi sobiq markazga bo'ysuganligi, ularning aksariyatida mahalliy xom ashyo, aholi talab va ehtiyojlariga aloqasi yo'q mahsulotlar chiqarilishi, texnologik jihatdan bizning hududda boshqa sanoat korxonalari bilan bog'liq bo'lmagan.

Ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti tarkibida xalq iste'moli mollarining ulushi atigi 37,1 foizni tashkil etganligi bois o'zimizga kerakli iste'mol tovarlarining aksariyat qismi chetdan keltirilar edi.

Bunday og'ir vaziyatda sanoatni qaytadan tiklash bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rilganida, bizda ishlab chiqarish keskin tushib ketishi, sanoatda band aholining 300-400 ming nafari ishsiz qolishi mumkin edi.

Iqtisodiy mustaqillikka erishish uchun islohotlarning dastlabki bosqichidanoq yoqilg'i-enegetika majmuasining yuqori sur'atlar bilan rivojlanishini ta'minlash, neft va gaz ishlab chiqarish hajmlarini oshirib borish hisobiga mamlakatimizda energetika mustaqilligiga erishish vazifasi qo'yildi.

CHunki, O'zbekiston hududida neft sanoatiga asos solinganiga qaramasdan, biz neft mahsulotlariga bo'lgan talabimizni ta'minlay olmay kelardik. 80- yillarda respublikamizga har yili chetdan 6 million tonna atrofida neft mahsulotlari tashib kelingan. Mustaqilligimizning dastlabki yillarida valyuta tushumimizning asosiy manbai hisoblangan paxta tolasining 600ming tonnasini Rossiyaga yoqilg'i mahsulotlariga ayirboshlashga majbur edik.

Mamlakatimiz, xalqimiz taqdirini o'zimiz hal qilish huquqini olganimizdan keyingi 4-5 yil ichida yuz yillar davomida ro'yobga chiqmagan orzularimiz amalga oshadi. 1999 yilda 1991 yildagiga nisbatan neft qazib olish hajmi 3,7 barobar ko'paydi. Xom ashyodan tayyor yoqilg'i mahsulotlari ishlab chiqaradigan Buxoro neftni qayta ishlash zavodi ishga tushirildi, natijada biz nafaqat mamlakatimiz neft mustaqilligini ta'minlab qolmasdan, balki xorijga yoqilg'i mahsulotlarini sota boshladik. 2002 yilda eksport qilingan mahsulotlarning 7,9 foizini yoqilg'i va elektr energiya tashkil qildi.

O'zbekiston sanoatida mashinasozlik va metallni qayta ishlash tarmog'ining mavqei kun sayin ortib bormoqda, ayniqsa, uning tizimida avtomobilsozlikning tashkil topishi jiddiy tuzilmaviy o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keldi. Bu sanoatda barqaror o'sishni ta'minlashning muhim omili bo'lmoqda.

Istiqlolgacha oddiy velosiped ishlab chiqarilmagan O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida birinchi, dunyoda 28- bo'lib avtomobil ishlab chiqaradigan mamlakatga aylandi.

Hozirgi kun yangi tarmoq tizimida yillik quvvati 200ming yengil avtomobil ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan «O'zDEUavto», avtobus va yuk mashinalari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan «SamKo'chavto» qo'shma korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Ularga butlovchi qismlar ishlab chiqaruvchi o'ndan ortiq yangi korxonalar tashkil qilindi. Mamlakatimizda 40 dan ortiq korxonalar ular bilan hamkorlikda ishlamoqda, avtomobilsozlik sanoatida hozir 14 mingga yaqin ishchi va xizmatchi mehnat qilmoqda.

Ustuvor yo'nalish sifatida O'zbekiston sobiq ittifoqdagi respublikalaridan farqli o'laroq, ichki bozorni xorijdan sotib olingan boshqa mollar bilan to'ldirish emas, balki o'zimizda importning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish yo'lidan borayapti. Hamdo'stlikdagi qator mamlakatlar valyuta zahiralarini va chet el kreditlarini oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olishga sarflayotgan bo'lsa, bizda keng iste'mol mollari ishlab chiqaradigan zamonaviy texnologiyalarni olib kelish, qo'shma korxonalar tashkil qilish ustuvor vazifa deb belgilangan.

Iste'mol mollarining eng zarur turlarini o'zimizda ishlab chiqarish nafaqat valyuta resurslarimizni tiklash, davlatimiz iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, balki mahsulot tannarxi tushirilishi orqali aholini ijtimoiy muhofaza qilish imkonini ham berdi. «O'zbek modeli»ning o'ziga xos tomoni aynan shunda namoyon bo'ldi.

Struktura siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni o'zimizda ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Natijada faqat oxirgi ikki yilda oziq-ovqat mahsulotlari va xalq iste'moli mollari import qilish 2 barobar, jumladan, qandolat mahsulotlari 2 martaga, un va un mahsulotlari 5 hissa, alkogolli va alkogolsiz ichimliklar 17 martaga, kiyim- kechaklar 7 barobar, poyabzal 4 martaga kamaydi.

Bu o'zgarishlar mamlakat iqtisodiyoti uchun ustuvor hisoblangan boy tabiiy, qishloq xo'jaligi, mehnat resurslaridan samarali foydalanish hisobiga amalga oshirilmoqda. Korxonalarni, ayniqsa, kichik va o'rta korxonalarni zamonaviy hamda ixcham texnologiya, eng yangi asbob-uskunalar bilan jihozlashga alohida e'tibor berilayapti.

Aholi zich joylashgan, qishloq xo'jaligi xom ashyosiga boy hududlarda tayyor sanoat mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalar tashkil qilishga alohida e'tibor berilmoqda. yetmish yilda oddiy bir tsex qurilmagan uzoq, chekka qishloqlarimizda ham mahalliy xom ashyo resurslaridan tayyor iste'mol mollari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan zamonaviy qo'shma korxonalar barpo etila boshlandi.

Masalan, yangi qurilgan «Anteks» hissadorlik jamiyatiga qarashli 4 ta korxona aholi zich yashayotgan qishloqlarda qurildi. Yirik to'qimachilik majmuasini bunyod qilish uchun bir yarim milliard so'm sarmoya sarflandi. Faqatgina xorijdan zamonaviy asbob-uskunalar sotib olish uchun 26 million AQSH dollari ishlatildi.

Korxona ishga tushgandan keyin 3 ming nafardan ortiq qishloq aholisi ish bilan ta'minlandi. Andijon viloyatida tayrlanayotgan paxta tolasining anchagina qismini shu joyning o'zida qayta ishlash imkoni yaratildi.

Ushbu majmua tarkibiga kirgan tikuv fabrikasi Bulqoboshi qishlog'ida ishga tushirildi. Germaniya, Italiya va AQSHda ishlab chiqarilgan zamonaviy dastgohlar o'rnatilgan mazkur texnika to'liq kompyuter dasturi asosida ishlaydi. Yiliga 3 million dona ko'ylak, shim, erkaklar kostyumi ishlab chiqarayotgan korxonaning salkam 70 foiz mahsuloti chetga sotilmoqda.

«O'zbekiston milliy iqtisodiyoti» fanining predmetiga yuqorida qisqacha izoh berilgan. U xalq xo'jaligini yagona tizim sifatida o'rganadi. Xalq xo'jaligi har bir tarmog'ining rivojlanishi, tartibga solinishi va ularning o'zaro aloqasini o'rganish ana shular jumlasiga kiradi.

«O'zbekiston milliy iqtisodiyoti» fanining vazifalaridan yana biri- mamlakat iqtisodiyoti tarkibiga kiruvchi tarmoqlar, sohalar va majmualarning o'ziga xos xususiyatini va o'zaro aloqasini o'rnatishdan iborat.

1.2. Milliy iqtisodiyot jarayonlari ob'ektlarini iqtisodiy baholashda makroyondashuv

Milliy iqtisodiyotda ro'y berayotgan jarayonlarni baholashda, albatta, makroiqtisodiy tomondan yondashiladi. Demakki, butun mamlakat miqyosida ro'y berayotgan o'zgarishlar kuzatiladi va tahlil qilinadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida oldimizda to'rgan eng muhim vazifalardan biri iqtisodiyotda jami ishlab chiqarish natijalarini hisoblab borishdir. Buning uchun milliy hisob-kitoblar tuzish borasida kerak bo'ladigan ba'zi muammolarni hal qilish lozim. Bir butun iqtisodiyot uchun ham ijtimoiy hisob-kitoblarning zaruriyati ana shunga misol bo'la oladi.

Milliy iqtisodiyot jarayonlarini baholashga makroiqtisodiy yondashuv uni barqarorlashtirish, milliy valyutamizni mustahkamlash, kapital qurish dasturi, iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan yangilanish yo'lini davom ettirish rejasini yangilash, qonunchilik yoki huquqiy tartibni mustahkamlashdan iboratdir.

Respublikamizda iqtisodiyotning asosini tashkil etuvchi ishlab chiqarish sohasiga alohida e'tibor berilmoqda. Ushbu sohaning eng asosiy tarmog'i sanoatning an'anaviy rivojlangan turlari qishloq xo'jaligi mashinasozligi, kimyo sanoati kabilar bilan bir qatorda mutlaqo yangi sanoat sohalarini tashkil etish zarur. O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri qishloq xo'jaligi hisoblanadi. Uning asosiy bo'g'ini bo'lgan paxtachilik eng rentabellidir. SHu sababdan, paxtachilikni rivojlantirish, uning tarmoq infrastuzilmasida qulay, mos hajmini, salmog'ini aniqlash, shuningdek, tola sifatini tubdan yaxshilab, dunyo standarti darajasiga keltirish eng dolzarb muammodir.

Davlatimiz nisbatan katta hududga ega va uning geografik o'rni ham alohida xususiyatlarga molik. Bu holat qurilish va transportni ham jadal sur'atlar bilan rivojlantirish vazifasini qo'yadi. YAlpi ishlab chiqarish maydonlarini, uy-joy, madaniy-maishiy muassasalar, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarining mustaqil moddiy-texnik poydevorini yaratish qurilish sohasining mazmunini tashkil etadi.

1.3. Iqtisodiy fanlar orasida «O'zbekiston milliy iqtisodiyoti» kursining o'rni

Iqtisodiy fanlar orasida «O'zbekiston milliy iqtisodiyoti» kursining o'rni beqiyos salmoqlidir. Barcha iqtisodiy fanlar iqtisodiyotning turli jabhalarini o'rganishsa, «O'zbekiston milliy iqtisodiyoti» xalq xo'jaligini yagona bir tizim sifatida yoritadi. Milliy iqtisodiyotdagi jarayonlarni o'rganish, ularni tahlil qilish, kelgusidagi rivojlanishini takomillashgan yo'llarini ko'rsatish va iqtisodiyotni tartibga solishni bevosita shu kurs o'rganadi. Nainki bu, balki yalpi milliy mahsulot, yalpi ichki mahsulot, sof milliy mahsulot, milliy daromad va shaxsiy daromad kabi ko'rsatkichlar tahlili asosida mamlakat iqtisodiyoti xususida ham aynan u fikr yuritadi. «O'zbekiston milliy iqtisodiyoti» fani mamlakatdagi mehnat bozorini o'rganadi. Siyosat borasida u monitar va fiskal siyosatlarning mohiyatini, shu bilan bir qatorda davlat byudjeti kamomadini bartaraf etish yo'llarini ko'rsatadi.

Iqtisodiyotni tartibga solishda soliqlar tizimi orqali tartibga solishni ko'rsatib, tadbirkorlik faoliyatining ahamiyatini ochib beradi.

Xususiy lashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish jarayoni milliy iqtisodiyotda qanday o'zgarishlarga olib kelganligini raqamlar asosida izohlaydi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida milliy iqtisodiyotga muvofiqlashgan quyidagi vazifalarni yoritish ko'zda tutilgan: milliy iqtisodiyotning boshqaruv tizimi, iqtisodiyot rivojlanishining makroko'rsatkichlari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlarini tartibga solish, pul va kredit tizimi, mehnat bozori va uni tartibga solish muammolari, atrof-muhitni muhofaza qilish.

Bundan tashqari milliy iqtisodiyotning asosiy muammolaridan biri milliy iqtisodiyot hajmi va o'sish sur'atlarini hisoblash ham hisoblanadi. Tarkibiy tuzilishini nazarda tutganda, albatta, YAMM, YAIM, SMM, MD kabi makroiqtisodiy holatni xarakterlovchi ishsizlik darajasi, inflyatsiya darajasi va iste'mol baholari indeksi kabi ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Iste'mol baholari indeksi, odatda, iste'mol qilinadigan tovar va xizmatlar narxi bazis davriga nisbatan o'zgarishining o'rtacha darajasini aks ettirishdir.

2-MAVZU. MILLIY IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA O'LCHOV XUSUSIYATLARI

2.1. Milliy iqtisodiyot tushunchasi

Har bir mamlakat iqtisodiyoti o'ziga xos milliy, diniy, siyosiy xususiyatlarga ega. U shu mamlakat ichida milliy hamjamiyatlar, ya'ni ijtimoiy guruhlar va kishilar hamjamiyatlari iqtisodiy aloqalarini tashkil qilishning o'zaro ichki aloqalar bilan bog'liq va integratsiyalashgan shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Bu milliy iqtisodiyotning ta'rifidir. endi millat o'zi nima ekanligiga to'xtalamiz.

Millat ikki ma'noda tushuniladi:

- kishilarning tarixiy tarkib topgan shakli;
- mamlakat, davlat.

«Iqtisodiy ta'limotlar tarixi» fani millat tushunchasiga yondashuv doimo o'zgarib turishini ta'kidlaydi. David Rikardo millatning tabiiy omillariga unumdorligi notyokis bo'lgan tuproqqa ega jo'g'rofiy makon sifatida qaraydi. U bu omillar iqtisodiy faoliyat xarakterini belgilab beradi (Portugaliya vino, Buyuk Britaniya esa gazlama ishlab chiqaradi) deb hisoblagan.

Styuart esa millat, bu hudud, ayni paytda shunday hududki, uning ichkarisida ishlab chiqarish omillari harakatchan va bu harakatchan davlat chegaralari bilan cheklangan, deb bilgan.

R.Bar iqtisodiy jihatdan millat tushunchasini yanada murakkabroq ta'riflaydi, ya'ni millatning iqtisodiy kontseptsiyasini beradi. Uning fikrcha:

a) avvalo millat – bu, o'z tabiatiga, kelib chiqishiga, xarakteriga va faoliyat sharoitlariga ko'ra, farqlanuvchi faoliyat markazi;

b) millat – bu, kuchlar markazidir. Uning ta'siri geografik va qiyosiy makon doirasidan kelib chiqadi;

v) millat - iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sabablarga ko'ra, imtiyoz beruvchi birdamlik markazidir.

SHunday qilib, millat dunyoning undan boshqa millatlarni farq qildiruvchi va ular bilan o'zaro aloqada bo'lish zaruriyatini tug'diruvchi siyosiy va ma'naviy xarakterga, o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan bir bo'lagidir.

Ayni paytda millat tushunchasiga uning iqtisodiy atamasi izohini berib o'tish ham zarur:

1.Iqtisodiy munosabatlar yig'indisi;

2.Hudud, guruhlar;

3.Iqtisodiy munosabatlarning funktsional yoki tarmoq jihatlarini o'rganuvchi fan sohasi.

SHunday qilib, milliy iqtisodiyot – bu, mamlakat xo'jaligi, uning tarkibi (strukturasi) alohida elementlarining o'zaro aloqasidir. Milliy iqtisodiyot bir mamlakatdagi individlar, oilalar, guruhlar va davlatning iqtisodiy faoliyati ma'lum integratsiya va o'zaro bog'liqligi bilan xarakterlanadi. SHu sababli milliy iqtisodiyotni faoliyatning turli qaror va faktlari oddiy yig'indisi, deb tushunmaslik

lozim. Iqtisodiyotning vazifasi turli iqtisodiy sub'ektlar faoliyatini birlashtirib turuvchi aloqalarni ko'rsatib berishdan iborat.

Mamlakat milliy hamjamiyat sifatida oliy hokimiyatga ega va bu hokimiyatga iqtisodiy faoliyatning barcha sub'ektlari bo'ysunadi. Mamlakat – bu, ma'naviy printsiptir. Uning aholisi jamiyatda ro'y berayotgan barcha hodisa va jarayonlarga javob berish xususiyatiga ega.

Mamlakatning iqtisodiy birligini uning valyutasi belgilaydi. Har bir mamlakatning rivojlanishi uchun, bu yerda unga potentsial shart-sharoitlar yaratiladi.

2.2. Milliy iqtisodiyotning amal qilishini ta'minlovchi omillar

Milliy iqtisodiyotga jahon iqtisodiyoti tizimining bir qismi sifatida qaraladi. O'z navbatida, milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari nafaqat ichki omillari, balki tashqi omillari bilan ham belgilanadi.

SHu tufayli milliy iqtisodiyotning amal qilishini ta'minlovchi omillar ikki guruhga - tashqi va ichki omillariga ajratiladi. Ammo bu omillar o'zaro bog'liq ekanligini unutmashlik kerak.

Tashqi omillar umumlashtirilgan holda quyidagi guruhlarga ajratiladi:

- iqtisodiy;
- siyosiy;
- demografik;
- madaniy.

Tashqi iqtisodiy omillarga:

- xalqaro mehnat taqsimoti;
- u yoki bu davlat jahon bozorida dominantlik qilishi kiradi.

Tashqi siyosiy omillar turli shakllarda namoyon bo'ladi:

- embargo e'lon qilish;
- mamlakatning turli savdo ittifoqlariga qabul qilinishi;
- qulay rejimlilik;
- harbiy bloklarga kirish;
- urush holati.

Tashqi demografik omillarga u yoki bu mamlakatda a) ishsizlik xavfini keltirib chiqaruvchi ishchi kuchi migratsiyasi oqimining o'zgarishi yoki aksincha; b) to'lov balansi strukturasini yaxshilash misol bo'la oladi.

Ichki omillarga quyidagilar kiradi:

- milliy iqtisodiy faoliyat agentlari, ya'ni alohida shaxslar, guruhlar va davlat;
- bu faoliyatni tashkil etish shakllari;
- mamlakat miqyosida va doirasida iqtisodiy faoliyatni tahlil qilish imkonini beruvchi omillar.

Iqtisodiy rivojlanish darajasini o'lchovchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar majmuasi va ularning tavsifi quyidagicha:

Milliy iqtisodiyotda mamlakat rivojini tavsiflovchi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar toifasiga YAMM, SMM, MD, SHD va SHID kiradi.

YAMM - xalq xo'jaligining moddiy hamda noishlab chiqarish sohalari bo'yicha iqtisodiy faoliyatning yakuniy natijalarini tavsiflovchi ko'rsatkichdir. Bu ko'rsatkich mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulot va ko'rsatilgan xizmatlarning hajmini to'g'ri va aniq ko'rsatib beradi.

YAlpi milliy mahsulot mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlarning bozor qiymatidir.

YAMM da faqat yakuniy ne'matlar hisobga olinadi, oraliq mahsulotlar va xizmatlar esa e'tiborga olinmaydi.

YAMM ikki usul bilan:

1. xarajatlar usulida;
2. daromadlar usulida hisoblanadi.

YAMMni xarajatlar va daromadlar usuli bo'yicha hisoblanganda bir xil natija chiqadi, chunki iste'molchi mahsulotni sotib olish uchun qancha mablag' sarflasa, ishlab chiqaruvchiga daromad sifatida shuncha pul tushadi.

1-usul bo'yicha YAMMni hisoblash:

$$Y = C + I + G + X_n$$

Bunda: Y-tovarlarni sotib olish uchun ketgan xarajatlar;

S- shaxsiy iste'mol xarajatlari;

I-biznesning investitsiya xarajatlari;

G-tovar va xizmatlarni davlat tomonidan sotib olinishi;

X_n -sof eksport. (eksport-import)

2-usul bo'yicha hisoblash.

$$Y = CCA + W + I_t + R + I_k + P$$

Bunda: SSA-iste'mol qilingan kapital hajmi;

W-yollanma ishchilarning ish haqi;

I_t -biznesga bevosita soliqlar;

R-ijara to'lovi;

I_k -% stavkasi-xususiy biznes bo'yicha, bundan davlat mustasno;

R-rejalashtirilayotgan-korporatsiyalar daromadi; Bu yerda korporatsiyalar daromadi 2 ga bo'linib qo'shiladi, ya'ni R_1 -korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasi va R_2 -korporatsiyalar foydasiga soliq, bunda $R_q R_1 Q R_2$

SHaxsiy iste'mol xarajatlariga uy xo'jaliklarining uzoq muddat davomida foydalanadigan iste'mol buyumlari xarajatlari kiradi;

Tovar va xizmatlarning davlat tomonidan sotib olinishiga davlat xarajatlari inobatga olinadi byudjet tashkilotlariga oylik maoshlarni berish, armiyani boqish, mudofaani mustahkamlash va boshqalar kiradi.

Transfertlar bundan mustasno.

Investitsiyalar - stanoklar, asbob-uskunalar sotib olish, bino-inshootlar qurish bilan bog'liq xarajatlar;

Umumiy investitsiyalar ichki sof xususiy investitsiya va amortizatsiya yig'indisidan iborat, ya'ni:

$$I_{un} q I_{ichki.sof.xus.} Q A_{mortizatsiya}$$

Sof milliy mahsulot YAMMdan amortizatsiya xarajatlarini ayirib tashlash bilan aniqlanadi:

SMMqYAMM – amortizatsiya;

MD q SMM – bevosita soliqlar.

SHDqMD-korporatsiyalar taqsimlanmagan foydasi - sug'urta ajratmalari korporatsiyalar daromadidan soliqlarQtransfertlarQdividendlar;

SHIDqSHD - soliq turlari (individual).

YAMM deflyatori = $\frac{НоминалYMM}{РеалYMM} \bullet 100\%$

Nominal YAMM - joriy yil baholarida o'lchanadi.

Real YAMM - bazis yil baholarida o'lchanadi.

Sof eksport esa eksport va importning ayirmasi bo'lib, u goh musbat, goh manfiy saldo bilan bo'lishi mumkin.

Renta to'lovlari uy xo'jaliklari tomonidan olinadigan daromaddan iborat bo'lib, ular iqtisodiyotni shaxsiy resurslar bilan ta'minlaydi.

Biznesga bevosita soliqlarga aktsiz solig'i, qimmatli buyumlar solig'i va shunga o'xshash soliq turlari kiradi.

Korporatsiyalar daromadiga soliq va korporatsiyalar foydasiga, yana korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasiga (investitsiyaga mo'ljallangan qismi) kiradi.

YAlpi milliy mahsulotning ikki usul bo'yicha hisoblanishi yopiq emas, balki ochiq iqtisodiyot uchun ham xarakterlidir. YOpiq iqtisodiyot deganda, eksport va import xarajatlari, ya'ni sof eksport inobatga olinmaydi (UqSQIQG). Ochiq iqtisodiyotda esa, albatta, eksport va import, chet mamlakatlar bilan aloqa inobatga olinadi (UqSQIQGQX_n).

3-MAVZU. MILLIY BOYLIK – DAVLATNING QUDRATINI BELGILOVCHI KO'RSATKICH

3.1.Mamlakat milliy boyligi tushunchasi

Milliy boylik – jamiyat ixtiyoridagi mehnat bilan yaratilgan va jamg'arilgan moddiy ne'matlar mujassami. Bu ko'rsatkich mamlakat iqtisodiy qudratining eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, ishlab chiqarish davomida jamg'arilgan barcha iste'mol qiymati yig'indisining pul bilan ifodalanishidir.

Milliy boylik xalq moddiy va ma'naviy darajasining negizi, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning moddiy asosi va natijasidir.

Respublikamizda milliy boylik og'ir sanoat, shuningdek, yengil va oziq-ovqat sanoati, paxta, ipakchilik, qorako'lchilik, mevachilik, uzum yetishtirish, sabzavotchilik bilan bog'liqdir. Jahon bozorida mehnat taqsimotida paxta tolasi, ipak, kanop poyasi, qorako'l, paxta terish mashinalari ishlab chiqarish bo'yicha salmoqli o'rinni egallab kelmoqdamiz.

Ijtimoiy tuzum xususiyatiga binoan milliy boylik butun jamiyat mulki yoki uning ayrim sinflari, guruhlari, ayrim shaxslar mulki bo'lishi mumkin. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarda milliy boylikning asosiy qismi xususiy sektorda millionerlar qo'lida yig'ilgan. Masalan, AQSHda bir guruh eng yirik moliya-sanoat guruhlari mamlakatning iqtisodiy va siyosiy hayotida yetakchi rol o'ynaydi, chunki ularning qo'lida milliy boylikning asosiy qismi yig'ilgan. Bulardan eng baquvvatlari Morgan va Rokfellar guruhlari. Ulardan so'ng Kaliforniya, CHikago, Kliviend, Dyupon, Mellerlar korporatsiyalari turadi. Oxirgi yillarda iqtisodiyotning o'sish sur'ati bo'yicha rivojlangan mamlakatlar orasida eng yuqori ko'rsatkichga ega YAponiyada davlat sektori an'anaviy tarmoqlar (transport, aloqa, tamaki sanoati) bilan cheklangan. Davlatga qarashli korxonalarda ish bilan band aholining 12%i ishlaydi, ya'ni milliy boylikning asosiy qismi xususiy sektorga to'g'ri keladi. Sotsialistik davlatlarda milliy boylik xalq manfaatlariga xizmat qilib, jamiyat a'zolarining tobora oshib borayotgan moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini to'laroq qondirishga mo'ljallangan edi.

Biroq yagona davlat rejasi asosida rivojlanish respublikalar va regionlarda milliy boylik xalq uchun emas, balki umumittifoq mehnat taqsimotini hisobga olib o'tkazildi, oqibatda ayrim respublikalar xom ashyo zonalariga aylanib qoldi. O'zbekistonda milliy boylik asosi-neft, ko'mir, mis va boshqa tabiiy boyliklar topildi. Mavjud mehnat va moddiy texnika resurslaridan yuqori darajada foydalanib, paxtachilikni yanada rivojlantirish, sanoat ishlab chiqarishini, ayniqsa og'ir sanoat tarmoqlarini tez sur'atlar bilan taraqqiy ettirish, yangi korxonalar qurish, mavjudlarini rekonstruktsiya qilishga alohida ahamiyat berildi.

Respublikamizda xalq xo'jaligi tarmoqlarida yaratilgan yalpi ijtimoiy mahsulot va milliy daromad oshdi. Masalan, 1990 yili bu daromad 1970 yildagiga nisbatan 3 barobar oshdi va 21,2 milliard so'mni tashkil qildi. SHu jumladan, sanoatda 7,1, qishloq xo'jaligida 7,5, qurilish bo'yicha 3,0, transport va aloqada 1,1, savdo, tayyorlov, moddiy-texnika ta'minoti va boshqalar bo'yicha 2,5 milliard so'm bo'ldi.

SHunga qaramasdan, sobiq SSSRda O'zbekistonning milliy boyligi atigi 3,5%ni tashkil qilgan. YUqorida keltirilgan raqamlardan 70 yildan oshiq hukm so'rgan totalitar tuzimning og'ir oqibatlarini ko'rish mumkin. Sobiq Ittifoqning 7% aholisi yashagan respublikada jami mahsulot ishlab chiqarish atigi 4, sanoat ishlab chiqarishi 1,1%ni tashkil qilgan. Hozirgi kunda respublikada milliy daromad og'ir sanoat, shuningdek, yengil va oziq-ovqat sanoati, paxta, ipakchilik, qorako'chilik, mevachilik, uzum yetishtirish, sabzavotchilik bilan bog'liq. Ular Hamdo'stlik davlatlari orasida ahamiyatlidir. Mamlakatimiz jahon bozorida mehnat taqsimotida paxta tolasi, ipak, kanop poyasi, qorako'l, paxta terish mashinalari, paxta tozalash jihozlari, xom-ip tayyorlaydigan mashinalar ishlab chiqarish bo'yicha 1-o'rinda, elektrokranlar, ip, gazlama, sholi, sabzavot yetishtirish bo'yicha 3-o'rinda, tabiiy gaz qazib chiqarish bo'yicha 4-o'rinda turadi.

Milliy boylikning ahamiyati va salmog'ini respublikada bir kunda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi bilan ham ta'riflash mumkin. Masalan, O'zbekistonda bir kunda hozir 150 mln.kvt. elektroenergiya, 113 mln.m³ tabiiy gaz, 17 ming tonna ko'mir, 2.5 ming tonna prokat, 3 ming tonna po'lat, 65 traktor, 17 ming tonna tsement, 1679 ming m² ip gazlama, 121.4 ming juft poyabzal, 52 muzlatkich, 200 dona avtomobil ishlab chiqariladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishda milliy boylik O'zbekiston tanlab olgan yo'l – respublika va uning xalqi manfaatlariga nihoyatda mos keladigan, ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan manbadir.

3.2. Milliy boylik tarkibi

Milliy boylikka xalq xo'jaligining asosiy va aylanma ishlab chiqarish fondlari (bino, inshoot, mashina, asbob-uskunalar, transport vositalari, ishchi va mahsuldor hayvonlar, materiallar, yoqilg'i va hokazo), muomila fondi (tayyor mahsulot zahiralar), ehtiyoj fondlari va sug'urta zahiralar, xalqqa xizmat qiluvchi tarmoqlarning asosiy fondlari (maktab va shifoxonalar, uy-joy, madaniyat saroylari), aholining shaxsiy mol-mulkari, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonlariga jalb qilingan tabiiy boyliklar (er osti qazilmalari, tabiiy ekin maydonlari, qo'riq va bo'z yerlar, o'rmon va suvlar), shuningdek, ishchi va xizmatchilarning ishlab chiqarish tajribasi, ilmiy-texnika va tadbirkorlik bo'yicha bilimlari ham kiradi. Milliy boylik tarkibida aholidagi xizmat muddati bir yildan oshgan, uzoq vaqt foydalaniladigan predmetlar (uy-ro'zg'or bisoti) alohida guruhni tashkil qiladi. Bular individual transport vositalari va ularga kerakli ashyolar, mebel, idishlar, maishiy priborlar, foto va kinotexnika, soatlar, zargarlik buyumlari, madaniy mollar, kiyim-kechak va poyabzal, ishlab chiqarish kiyimlari va shu kabilardir.

Milliy boylik tarkibining asosiy qismini ishlab chiqarishning asosiy fondlari tashkil qiladi. Ishlab chiqarish asosiy fondlariga binolar, inshootlar, uzatish qurilmalari, mashina va uskunar, transport vositalari, asboblari, ishlab chiqarish va xo'jalik inventari, mahsuldor chorva va ish hayvonlari, ko'p yillik ekinlar kiradi. Ular bo'limiga har birining qiymati 100 so'mdan kam turadigan mehnat vositalari va qiymatidan qat'i nazar xizmat muddati bir yildan kam bo'lgan mehnat vositalari kiritilmaydi. Milliy boylikni rejalashtirish va hisobga olishda ishlab chiqarish asosiy

fondlariga foydalanishga topshirish paytida balansga qabul qilib olishdagi dastlabki qiymati; fondlarni takror ishlab chiqarish paytida ularning bahosini belgilab beruvchi tiklash qiymati bilan hisoblab qo'yilgan, yeyilish summasi o'rtasidagi farqdan iborat bo'lgan qoldiq qiymati farqlanadi. O'zbekistonda asosiy fondlar 1986-1990 yillarda 26,5 mlrd. so'm, 1991-1995 yillarda 32,5 mlrd. so'm va 1995-2000 yillarda 43,2 mlrd. so'mga oshdi.

3.3. Iqtisodiy rivojlanish darajasi va milliy boylik

Iqtisodiy rivojlanish darajasini baholaganda ko'pgina davlatlar AQSH darajasini standart sifatida qabul qilib, ishlab chiqarish omillarini va rivojlanishning turlicha sharoitlari iqtisodiy rivojlanish darajasini qandaydir bitta nuqtasidan turib baholashga imkon bermaydi.

SHuning uchun bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

1. Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YAIM, (YAMM, MD);
2. Milliy iqtisodiyotning tarmoq strukturasi;
3. Aholi jon boshiga asosiy mahsulot turlarini ishlab chiqarish;
4. Aholining turmush darajasi va sifati;
5. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.

Bulardan eng muhimi, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi YAIM (YAMM) ko'rsatkichidir. Bu ko'rsatkichga muvofiq mamlakat xalqaro standart bo'yicha rivojlanayotgan yoki rivojlangan davlatlar kategoriyasiga kiritiladi. Rivojlangan davlatlar kategoriyasiga yiliga aholi jon boshiga 506 ming \$ va undan ortiq YAMM yaratayotgan davlatlar kiradi. Mamlakatning rivojlanish darajasi, shuningdek, eng muhim tarmoqlarining mamlakat iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissasiga qarab ham belgilanadi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng O'zbekistonda aholi jon boshiga yoqilg'i-energetika resurslarini ishlab chiqarish birmuncha ko'paydi.

Har qanday davlat iqtisodiyotining rivojlanishini avvalambor uning tabiiy resurslari soni va hajmi belgilab beradi, chunki tabiiy resurslar barcha ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishning asosi, mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini, samaradorligini belgilovchi muhim omildir. O'zbekiston tabiiy resurslarning ulkan poitentsialiga ega. Oltin ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda 8-chi, oltinni aholi jon boshiga ishlab chiqarishda esa 5-o'rinni egallaymiz. Hozirgi kunga qadar respublikamizda 30ta oltin koni aniqlangan (eng kattasi - Muruntov).

Respublikamizda 34 turdagi mineral xom ashyoning 850 dan ortiq koni ochilgan. Mamlakatimizda uglevodorod xom ashyosining umumiy zahiralar: gaz - 1828 mlrd. m³; gaz kondensati- 136 mln.t.; neft - 103 mln.t.

Respublika hududida 20 dan ortiq toshko'mir konlarining yotqiziqlari aniqlangan. Ularning prognozlik zahirasi 3499 mln.t. Angren koni zahirasi o'zi esa 1885 mln.t. 33ta nodir va 32 ta rangli metallarning konlari bazasida 16 ta tog'-kon sanoati korxonalari ishlamoqda. 5 ta volfram koni bor (Qo'ytosh, Langar, Ingichka).

Tasdiqlangan mineral suvlar zahiralarining 1 sutkaligi 8208 ming m³. Hozirda aniqlangan mineral suvlarning 32 manbai bazasida 12 ta kurort, mineral suvlarni quyuvchi 10 dan ortiq korxona ishlamoqda.

Respublikada 4,2 mln. ga. sug'oriladigan yer bor. Mamlakatda foydalanilayotgan suv hajmi 62-65 km³ bo'lsa, uning 36 km³ i Amudaryo va Sirdaryodan, qolgan qismi esa ichki manbalardan olinmoqda. yer va suv resurslarining mavjudligi, qulay iqlim sharoiti 1,7 mln.t. paxta tolasi yetishtirish imkonini bermoqda. Bu soha respublikaning muhim bazasidir.

3.4. Respublikaning qazilma boyliklari

O'zbekiston hududida katta ahamiyatga ega bo'lgan oltin, mis, rux, volfram, molibden, flyuorit, shuningdek, alyuminiy va magniy rudalari, nodir metallar, oltingugurt, osh tuzi, kaliyli va boshqa tabiiy tuz qatlamlari, kaolin, o'tga chidamli xom ashyolar, bentonit, marmar va boshqa bezak toshlari, uncha qimmatli bo'lmagan ba'zi pardoiz ishlov toshlari topilgan. YOqilg'i resurslari bo'yicha esa ko'mir, neft, tabiiy gaz konlari ochilgan.

O'zbekistonda mineral xom ashyo bazasi mavjudligi so'nggi 20-25 yil mobaynida respublika xalq xo'jaligining muhim tarmoqlarini, ayniqsa, gaz, neft, oltin ishlab chiqarish, energetika, kimyo, rangli metallurgiya, ruda bo'lmagan xom ashyolar va qurilish materiallari sanoatlarini tez sur'atlar bilan rivojlantirish imkoniyatini berdi. Respublikada topilgan konlar asosida Olmaliq, tog'-kon metallurgiya kombinati, Angren kimyo-metallurgiya va Qo'ytosh ruda boshqarmalari, Muruntov tog'-metallurgiya kompleksi, gaz, neft bentonit, biryuza, grafit chiqaruvchi va qayta ishlovchi yirik korxonalar faoliyat ko'psatmoqda. SHu kungacha respublikada hammasi bo'lib 90 xil sanoat miqyosidagi va 450 ta istiqboldagi tog'-kon sanoati korxonalari, gaz va neft korxonalari, shaxtalar, karerlar, yirik suv inshootlari ishlab turibdi. Qattiq foydali qazilmalar ishlab chiqarishning yillik hajmi 100 million tonnani tashkil etadi. 2003 yilda 49 milliard kubometr tabiiy gaz, 7,6 million tonna neft qazib chiqarildi. Sutkasiga 2500 ming kubometr yer osti suvlari olinmoqda. Konlarning foydalanishga topshirilishi ba'zi tumanlar iqtisodiyotini o'zgartirib yubordi. Ayrim tog'-sanoat komplekslari bunyod etildi (Olmaliq-Angren, Muruntov-Zarafshon).

Angren, Olmaliq, Zarafshon shaharlari esa bo'z yerlarning sanoat jihatidan o'zgartirilishiga asosiy omil bo'ldi. Hozirgi davrga kelib aniqlangan milliy boylik manbalari ishlab chiqarish korxonalarini uzoq muddat davomida oltin, mis, tabiiy gaz, qo'rg'oshin, rux, ko'mir va boshqa mahsulotlar bilan ta'minlabgina qolmay, hatto ishlab chiqarishni ancha kengaytirish imkonini ham beradi.

Ayni vaqtda volfram ishlab chiqaruvchi korxonalar xom ashyo manbalari bilan yetarli darajada ta'minlanmagan. Qo'ytosh va Ingichka ruda boshqarmalari, Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinati shular jumlasidandir. Respublikada chiqarilishi mumkin bo'lgan nometall mineral xom ashyolarning tashib keltirilishi jiddiy iqtisodiy chiqimlarga hamda transport balansining asossiz ravishda kuchayishiga olib keldi. O'zbekistonda aniqlangan ba'zi bir nometall mineral xom ashyo konlari (SHo'rton gaz kompleksi, Ustyurt soda zavodi, Qizilqum fosforit kombinati)

mavjudligiga qaramay, har yili 500 ming tonna fosforit, 280 ming tonna kaliyli o'g'it, 408 ming tonna osh tuzi, 87 ming tonna kvarts qumlari, 127 ming tonna betonit gillari hamda ohak, barit, asbest, kaolin konsentrat, dala shpati, talk, grafit, mineral pigmentlar, natriy sulfat, oltingugurt va hokazolar Ukraina, Qozog'iston, Rossiyadan tashib keltiriladi. Kelajakda respublikaning nometall mineral xom ashyolari asosiy turlariga, ulardan qilinadigan buyumlarga talabi bir necha bor oshdi. Agar ularni respublikada ishlab chiqarish kengaytirilmasa tashqaridan tashib kelish lozim bo'ladi va katta sarf-xarajat qilinadi. SHuning uchun respublikada geologik qidiruv ishlarining istiqbolini aniq belgilab, ularni tez sur'atlarda amalga oshirish lozim. Bu faqat respublikamiz talabinigina qondirmay, balki foydali qazilmalarning ko'p turlarini yaqin va uzoq chet davlatlarga yuborish imkoniyatlarini ham beradi.

Hozir O'zbekistonda razvedka qilingan istiqbolli foydali qazilmalarning manbai bo'yicha sanoatning ayrim tarmoqlarini jadal rivojlantirib, 2000 yilga mo'ljallangan darajada mavjud perspektiv konlar va maydonlar tekshirilib, ulardan 2005-2015 yillar davomida foydalanish imkoniyatini ta'minlash mumkin. Bunda birinchidan, oltin, mis, qo'rg'oshin, rux, kumush, vismut va boshqa nodir elementlar chiqaruvchi rangli metallurgiya ning kelgusi rivojlanish masalasini hal qilish imkoniyati tug'ildi.

Ikkinchidan, respublikada razvedka qilingan va istiqbolli konlar bazasida tog'ruda, tog'-kimyo sanoatining yangi tarmoqlari yaratilishi mumkin. Hozir O'rta Osiyoga tashib keltirilayotgan qora metall buyumlarining miqdori yiliga 6 million tonnaga yaqin, kelgusida esa 20 million tonnaga yetadi. Bunga xotima berish uchun qora metallurgiya bazasi yaratilishi kerak. SHu maqsadda Tebinbuloq (Sulton Uvays tog'i-O'zbekiston), Irisu (Janubiy Qozog'iston), CHOqadambuloq (Tojikiston) va boshqa yirik konlardan foydalanish kerak. Uchinchidan, bu yerda zahiralari nisbatan ko'p bo'lgan sulfid gazini boyitish orqali gaz ishlab chiqarish kengaytiriladi va oltingugurt ajratib olinadi. Mavjud neftni haydash Farg'ona va Qoravulbozor zavodlarini mahalliy xom ashyo bilan uzluksiz ta'minlash neft sanoatining yanada rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratadi.

To'rtinchidan, sulfat kislota ishlab chiqarishni kengaytirish, Navoiy elektrokimyo kombinatida natriy sulfat olish, shuningdek gaz-kondensat xom ashyosi bazasida ko'p miqdorda xloroorganik sintez mahsulotlar olishdan iborat bo'lgan kimyo sanoati (SHo'rtonkompleksi kabi) ancha rivoj topadi.

Beshinchidan, ko'p miqdorda yangi qurilish materiallari, masalan, keramzit ishlab chiqarish uchun kerak bo'lgan betonitlar, Toshkent metropoliteni, yangi mehmonxonalar va eksport uchun zarur bezak toshlari ishlab chiqarilishini tashkil qilish kerak. Bu tadbirlarning amalga oshirilishi transport balansini yaxshilash, qator katta hajmli yuklar O'rta Osiyoga tashib keltirilishi kamaytirish imkoniyatini beradi va ularni yangi yo'llar orqali yevropaga tashish mumkin.

4-MAVZU. MAKROIQTISODIY VAZIYAT VA UNING ASOSIY YO'NALISHLARI

4.1. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish – eng muhim vazifa

Iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi barqaror iqtisodiy o'sishga erishishdir. Bu maqsadga erishmay turib, aholi turmush darajasini oshirish, ijtimoiy muammolarni yechish, mamlakatning jahon hamjamiyatidagi iqtisodiy va siyosiy mavqei mustahkamlash mumkin emas. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan barcha mamlakatlar qatorida O'zbekiston ham barqaror iqtisodiy o'sishga erishishni iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi qilib belgilab oldi.

Iqtisodiyotimizda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, inflyatsiya darajasini sezilarli ravishda pasaytirish hamda qat'i moliya va kredit siyosatini o'tkazish biz uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, makroiqtisodiy barqarorlikning o'sishi mehnatga yaroqli aholining ish bilan yuqori darajada bandligi, to'lov balansining qoniqarli ahvolda ekanligi va milliy valyutaning tashqi bozorlardagi barqarorligi singari ko'rsatkichlarda aks etadi. Bu ko'rsatkichlarni baqarolashtirishga vazmin monetar-fiskal siyosat, narx va ish haqi hamda tashqi iqtisodiy siyosat yuritish bilan erishish mumkin.

Mustaqilligimizning o'tgan davri mobaynida O'zbekiston hukumati makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, aholi turmush darajasini oshirish, bozor islohotlarini chuqurlashtirish, tadbirkorlikni har tamonlama qo'llab-quvvatlash, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga qaratilgan oqilona siyosat olib bordi. O'z navbatida, mamlakatimizda agrar, mulkiy munosabatlar, moliya-kredit, tashqi iqtisodiy aloqalar, narx-navo va ijtimoiy sohalarida islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ana shunday puxta o'ylangan iqtisodiy islohotlar va makroiqtisodiy barqarorlashtirish siyosati o'z samarasini bermoqda. 1995-2001 yillar davomida mamlakatimizda real YAIM ning o'sish sur'atlari -0,9%ni tashkil etdi. Bu o'sish iqtisodiyotning barcha sohalarida rivojlanish tufayli yuz berdi. Qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish hajmi, 1996 yilni hisobga olmaganda, uzluksiz o'sib bordi. eng yuqori o'sish sanoat sohasida (108,1%) kuzatildi (2-jadval). Aholi real dapromadlari 16,9%ga ortdi. Kichik va o'rta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi hissasi yakka tartbdagi tadbirkolarni qo'shganda ham 2001 yilda 33,8 %ni tashkil etdi. Oylik inflyatsiya darajasini 26,6%gacha kamaytirishga erishildi.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirishda pul-kredit siyosati asosiy o'rinni egallaydi. Mamlakatimizda pul-kredit siyosatida ham ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Naqd pul emissiyasi darajasi 2001yil yakunlari ko'ra, 9% o'rniga 6,5%ni tashkil etdi. Pulning aylanish sur'atlari tezlashdi. Natijada, pul massasining o'sishi YAIMga nisbatan 2000 yilda 17,1% ni tashkil etgan bo'lsa, 2001 yilda bu ko'rsatkich 16,4%gacha qisqardi. O'tish iqtisodiyoti davrida qat'i pul-kredit siyosati yuritish tavsiya etiladi. Biroq jahon tajribasidan ma'lumki, qat'i pul-kredit siyosati inflyatsiya darajasini kamaytirishga ijobiy ta'sir etish bilan birga, boshqa sohalarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan soliq-byudjet siyosati iqtisodiyotni barqarorlashtirishga, soliq tizimini takomillashtirishga yo'naltirildi. Respublikada bozor munosabatlari rivojlanishi davomida davlat byudjetini shakllantirishga bo'lgan yondashuvlar ham o'zgardi. Mamlakatimizda soliq-byudjet siyosatini pul-kredit siyosati bilan muvofiqlashtirib olib borish hamda soliq to'lovchilar soni ko'payganligi va byudjet mablag'lari ustidan nazorat kuchayganligi natijasida davlat byudjeti kamomadini 1995-1999 yillarda YAIM ga nisbatan 2,5 – 1,7%, 2000-2001 yillarda 1,0% atrofida nazorat qilishga erishildi.

Ishlab chiqarish tarmoqlari, korxonalar zimmasiga tushayotgan soliq og'irligi yildan-yilga kamayib borayotganligi ishlab chiqarish rivojlanishida muhim omil bo'lmoqda. Biroq mamlakatimizda soliq tizimi asosan fiskal funktsiyasida namayon bo'lmoqda va uning rag'batlantiruvchilik funktsiyasi yetarlicha ishga tushirilmagan. Agarda soliq siyosatidan oqilona foydalanilsa, inflyatsiya va iqtisodning pasayib ketishiga zarur ta'sir ko'rsatish mumkin. Aholidan olinadigan soliqlar qisqartirilsa, u holda iste'molchilar xarajatlari ko'payadi, korxonalar daromadidan olinadigan soliqlarni ko'paytirish esa investitsiyalar o'sishiga olib keladi.

Mamlakatimiz iqtisodiy va siyosiy mustaqilligining o'tgan davrlarida tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida ham ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni isloh qilishda, birinchi galdagi vazifa, sohani erkinlashtirish bo'ldi. Respublikamizda olib borilayotgan qat'i pul-kredit va valyuta siyosati, jumladan, milliy valyutamizning joriy operatsiyalar bo'yicha erkin ayirboshlanishini ta'minlash maqsadida hukumat tamonidan bosqichma-bosqich olib borilayotgan valyuta siyosati natijasida 2001 yilda ham mamlakat to'lov balansining barqaroligi saqlab qolindi va tashqi savdo operatsiyalarida ijobiy saldog'a erishildi.

3-jadvaldan ko'rinib to'rganidek, 1997-2001 yillarda oldingi yillardagiga nisbatan eksport tushumlari kamayganligi kuzatildi. Buning asosiy sababi, SHarqiy Osiyo va Rossiyada sodir bo'lgan iqtisodiy inqirozning ta'siri va dunyo bozorida asosiy eksport mahsulotlarimiz bo'lgan paxta xom ashyosi, oltin va hoqazolarga narxlarning pasayishidir. Import tovarlari narxi pasayishi va mamlakatda import o'rnini qoplaydigan tovarlar ishlab chiqarishning ko'payganligi 1997-2001 yillarda importning kamayishiga sabab bo'ldi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirish maqsadida eksportga yo'naltirilgan va import o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarga qo'shimcha imtiyozlar berish orqali chet el sarmoyalari bilan hamkorlikda ishlaydigan korxonalarni ko'paytirish mamlakatimiz imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Mamlakatimizda mehnat resurslari, xom ashyo bazasi yetarliligi iqtisodiyotda baqarorlikka erishishda muhim manba hisoblanadi.

Makroiqtisodiy barqarorlikka erishishda iqtisodiy siyosat vositalaridan alohida-alohida emas, balki umumlashtirilgan holda foydalanish lozim. Kelgusida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va erkinlashtirish maqsadida iqtisodiyotda makroiqtisodiy baqarorlikni ta'minlash, inflyatsiya darajasini pasaytirish, qat'i pul-kredit va soliq-byudjet siyosatini o'tkazish zarur. Xususiylashtirish ob'ektlariga xorijiy sarmoyalarni keng miqyosda jalb qilish asosida qo'shimcha ishchi o'rinlarini barpo etish, mamlakatimizda yildan-yilga o'sib borayotgan mehnat resurslarini ish bilan ta'minlashga imkon yaratadi. Tashqi iqtisodiy aloqalarni erkinlashtirish maqsadida,

bojxona to'lovlarini yanada yengillashtirish, eksportbop tovarlar ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish, valyuta kursini birxillashtirish samarali natijalar beradi. Iqtisodiy siyosat vositalaridan oqilona foydalanish natijasida makroiqtisodiy barqarorlikka erishish va xalq farovonligini oshirishda asosiy omil bo'ladi.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar – mamlakat yaxlit iqtisodiyoti darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon va hodisalarni o'lchash va baholash imkoniyatini beruvchi ko'rsatkichlar. Masalan, yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, iqtisodiy o'sish, ishsizlik, inflyatsiya darajasi va boshqalar.


YAlpi ichki mahsulot – mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan jami pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor qiymati.

Xususan, yil yakuniga ko'ra O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sishi 8,1 foizni tashkil etdi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 9,0 foizga ko'paydi, qishloq xo'jaligidagi o'sish 5,7 foizni tashkil etdi, chakana savdo aylanmasi 16,6 foiz, aholiga pullik xizmat ko'rsatish 12,9 foizga oshdi (4.1-jadval).

4.1-jadval. O'zbekistonda 2010-2013 yilda erishilgan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar (o'tgan yilga nisbatan qo'shimcha o'sish, foizda)

Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar	2010 yil	2011 yil	2012 yil	2013 yil
YAlpi ichki mahsulotning o'sishi	9,5	9,0	8,1	8,3
Sanoat mahsulotning o'sishi	12,1	12,7	9,0	3,4
Xizmat ko'rsatish hajmi	20,6	21,3	12,9	15,3
Savdo sohasi	21,0	7,2	16,6	16,4
Davlat byudjeti profitsiti (YAIMga nisbatan)	+1,1	+1,5	+0,2	+0,5
Inflyatsiya darajasi	6,8	7,8	7,4	7,6
Iqtisodiyot bo'yicha o'rtacha ish hakining oshishi	44,2	40,0	40,0	41,0
Aholi jon boshiga real daromadlarning o'sishi	27,0	23,0	26,5	27,4

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot qo'shimcha o'sish sur'ati 2012 yilda 8,1 foizni tashkil etgan. Agar o'tgan yili jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlari ta'sirida MDH mamlakatlari bo'yicha iqtisodiy o'sish emas, balki aksincha, o'rtacha 6,7 foiz hajmidagi iqtisodiy pasayish kuzatilganini e'tiborda tutilsa, iqtisodiyotimizning bunday sharoitdagi o'sishining naqadar ahamiyatli ekanini tushunish mumkin.



Ta'kidlash joizki, o'tgan yili mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati, kutilganidek, amalda 8,3 foizni tashkil etdi, 2000-2011 yillar mobaynida yalpi ichki mahsulot hajmi 2,1 barobar oshdi (4.1-rasm). Mazkur ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston dunyoning iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan mamlakatlari qatoridan joy oldi.

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

4.1-rasm. O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning yillar davomida o'sish dinamikasi, foizda.

Rasmdan ko'rinadiki, agar mamlakatimizda YAIMning o'sish sur'atlari 2002-2003 yillarda 3,8-4,2 foiz, 2006-2008 yillarda 7-7,3 foiz, 2007-2008 yillarda esa 9-9,5 foiz darajasida kuzatilgan bo'lsa, keyingi yillarda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi mazkur ko'rsatkichga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Biroq, yuqorida ta'kidlab o'tilgan omillar orqali mamlakatimizda 2011-2013 yillarda ham YAIMning yuqori va barqaror o'sish sur'atlari saqlanib qolmoqda.

Mamlakatimiz YAIM o'sish sur'atlarining barqarorligini ta'minlashda iqtisodiyotdagi yetakchi tarmoqlarning yuqori o'sish sur'atlari mustahkam zamin tayyorlamoqda. Jumladan, 2013 yilda sanoat ishlab chiqarishi 6,3 foiz, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish 6,6 foiz, chakana savdo aylanmasi 16,4 foiz va aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish 16,1 foizga barqaror yuqori sur'atlar bilan o'sdi.

Keyingi yillarda iqtisodiyotimizda yuz berayotgan jiddiy tarkibiy va sifat o'zgarishlariga alohida e'tibor qaratildi. Prezidentimiz ushbu jarayonlarni birgina misolda, ya'ni 2000yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini shakllantirishda sanoat ishlab chiqarishining ulushi bor-yo'g'i 14,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2013yilda bu ko'rsatkich 24,1 foizga yetganida yaqqol ko'rish mumkinligini ta'kidlab o'tdi.

Sanoat mahsuloti umumiy o'sishining qariyb 70 foizini yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan sohalar tashkil etdi.

Bugungi kunda iqtisodiyotimizning lokomotiviga aylangan mashinasozlik va avtomobilsozlik (12,2 foiz), kimyo va neft-kimyo sanoati (9,4 foiz), oziq-ovqat sanoati (13,1 foiz), qurilish materiallari sanoati (11,9 foiz), farmatsevtika va mebelsozlik (18 foiz) 2013 yilda jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Umumiy holda sanoat tarmoqlari ishlab chiqarish sur'atlarining o'sishini 1990 yil darajasiga taqqoslaydigan bo'lsak, 2013 yilda bu ko'rsatkichlar bir necha marta o'sganini ko'rishimiz mumkin.

**Sanoat tarmoqlari ishlab chiqarish sur'atlarining o'sishi,
foiz (1990=100 foiz)**

Ko'rsatkichlar	1990 yil	2000 yil	2013 yil
Sanoat – jami	100	123,6	3,2 marta
YOqilg'i sanoati	100	127,3	2,2 marta
Qora metallurgiya	100	58,8	1,6 marta
Rangli metallurgiya	100	107,4	116,1
Kimyo va neft-kimyo sanoati	100	97,5	3,1 marta
Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati	100	142,2	13 marta
Qurilish materiallari sanoati	100	58,4	1,5 marta
Engil sanoat	100	159,2	4 marta
Oziq-ovqat sanoati	100	150	6,4 marta
Boshqa sohalar	100	162,6	6,2 marta

Jadvaldan ko'rinadiki, mustaqillik yillarida mamlakatimizdagi sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish sur'atlari 3,2 marta o'sgan. Ushbu o'sishni ta'minlashda, ayniqsa, mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoatining 13 marta, oziq-ovqat sanoatining 6,4 marta, yengil sanoatning 4 marta o'sishi sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Qurilish materiallari sanoatining o'sishi dastlabki 10 yil ichida, ya'ni 2000 yilda 58,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, keyingi yillarda mazkur sohani rivojlantirishga qaratilgan e'tibor hamda yaratilgan shart-sharoitlar natijasida 2011 yildagi o'sish 1,5 martani tashkil etdi.

4.2.Mulkiy munosabatlar

O'zbekistonda tub iqtisodiy islohotlar strategiyasini belgilashda o'tish davrining boshlarida davlatimiz rahbari ilgari so'rgan besh tamoyil- iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi, davlatning bosh islohotchi bo'lishi, qonun ustuvorligi, faol ijtimoiy siyosat va bozor iqtisodiyotiga bosqichma- bosqich o'tish asos qilib olingan edi. O'tgan davr, garchi, tarixan qisqa bo'lsa-da, islohotlarni amalga oshirish bo'yicha belgilangan strategik vazifalarning hayotiyligini yana bir bor isbotladi.

Islohotlar strategiyasi bozor iqtisodiyotiga o'tishning quyidagi asosiy yo'nalishlarini aks ettirmoqda.

1. Islohotlar mulkiy masalalar to'g'ri hal etilib, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish uzluksiz amalga oshirilgan, ko'p ukladli iqtisodiyot barpo etilgan taqdirdagina o'zining salmoqli natijalarini beradi. Mulk munosabatlarini takominlashtirish bo'yicha hali o'tish davrining dastlabki bosqichidayoq qabul qilingan tegishli qonunlar, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, shubhasiz, hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi va etmoqda. Bu borada «O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida», «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi qonunlarni va «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulkni himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirishni ta'minlash tadbirlari to'g'risida»gi Prezident Farmonini eslab o'tishning o'zi kifoya. 2005 yil boshiga kelib xususiy mulk shakliga oid korxonolarning umumiy soni 86,3

mingtaga yetdi. Bu barcha korxonalarining 49,8 foizi, demakdir. Ularning eng ko'pi savdo va umumiy ovqatlanish tarmog'iga to'g'ri keladi. Jamoa mulkiga oid korxonalar soni esa 78,3 mingtani yoki 39,1% ni tashkil etdi. Bu jamoalarning asosiy qismi - 38,0 mingga yaqini mikrofirma, kichik va o'rta korxonalar 2002 yili tashkil bo'ldi. Qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 240 mingtaga yetdi.

SHunday qilib, mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida nodavlat sektori jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda. 2002 yili ushbu sektorda 73,3% yalpi ichki mahsulot, 78,6% sof moddiy mahsuloti, 99,0% yalpi qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarildi, 73,4% qurilish-qudrat ishlari, 99,0% chakana tovar oboroti aynan shu sohada amalga oshirildi. Xalq xo'jaligi nodavlat sektorida band bo'lganlarning umumiy soni 72,1% ni tashkil etmoqda. Davlat sektori iqtisodiyotda o'zining monopol ahamiyatini yo'qotmoqda, ko'p qirrali, aralash xo'jalikka keng yo'l ochilib, raqobat uchun borgan sari kengoroq imkoniyatlar yaratilmoqda. Tadbirkorlikni rivojlantirish hisobidan 2004 yilda 370 ming yangi ish o'rinlari ochildi.

Ilgari, ya'ni sho'rolar hukumati tomonidan ham iqtisodiy islohotlar o'tkazilgan edi. Ammo ular mulkiy munosabatlarda chuqur o'zgarishlar yasay olmaganligi sababli poyoniga yetmagan, muvaffaqiyat qozonmagandi. Mulkiy munosabatlar yaratgan boyliklarga egalik qilish, ulardan foydalanish va o'zlashtirish, insondagi beqiyos qobiliyatlarni, imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish bilan bog'liqdir.

Kichik va xususiy tadbirkorlikni rag'batlantirish, qimmatli qog'ozlar bozorini shakllantirish islohotlar taqdirini belgilovchi shartlardan biridir. Bu, birinchidan, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bilan bevosita bog'liq masala bo'lib, jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy negizini mustahkamlashga xizmat qiladi, o'rta mulkdorlar sinfini shakllantiradi va ayni paytda ichki bozorni iste'mol mollari va xizmatlar bilan ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

O'zbekistonda qisqa vaqt davomida kichik va o'rta biznesni revojlantirishning huquqiy shart-sharoitlari va tashkiliy tuzilmalari yaratildi. Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, O'rta va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha hukumat komissiyasi, Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-qo'vatlash fondi «Madad» sug'urta agentligi, konsalting, lizing firma va kompaniyalari, biznes - inkubatorlar ish olib bormoqda. Mamlakatimizda kichik va xususiy korxonalarining umumiy soni 100 mingdan oshdi. Qishloq xo'jaligida 2004 yilda 38 mingdan oshiqroq dehqon xo'jaliklari tashkil topdi.

Ammo kichik va o'rta xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning hozirgi ahvolini qoniqarli, deb hisoblash qiyin. Hali yana ko'plab kichik va xususiy korxonalarni tashkil qilish, bu ishga aholi shaxsiy jamg'armalarini jalb etish, shu yo'l bilan yangi ish joylarini barpo etish imkoniyatlarini ishga solish lozim. Ayrim kichik va xususiy korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklari moddiy-texnika va xom ashyo, uzoq muddatli kreditlar bilan bog'liq qiyinchiliklar, shuningdek, joylardagi byurokratik to'siq va g'ovlar tufayli o'z faoliyatlarini rivojlantira olmayotirlar. Yana muhimiki, biz o'tmish sarqiti boqimandalik ruhiyatidan qutila olmayapmiz. Xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanishni ixtiyor etganlarning aksariyati uni davlat yoki boshqa birovning hisobidan amalga oshirishni xohlaydi. To'g'ri, kichik va o'rta biznesni davlat darajasida qo'llab - quvvatlashga barcha rivojlangan mamlakatlarda, jumladan, bizda

ham alohida ahamiyat berilayapti. Ammo davlat tamonidan ajratilgan mablag'larning ham hisob-kitobi bor. Qolaversa, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning davlat ko'magidan tashqari yana boshqa yo'llari ham mavjudki, bugungi kunda ulardan unumli foydalanmoq zarur.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar dinamikasiga to'xtalganda, mulkni garov sifatida qoldirish hisobiga har qanday tijorat bankidan kredit olish mumkin. Bunday imkoniyat bo'lmagan holda tadbirkorlikni moliyalashtirishning Venchur usulidan foydalansa ham bo'ladi. Bu vaqtda tadbirkorga mablag' ajratgan bank qarizidan qutulgunga qadar firmaning yoki ushbu xususiy ishning egasi bo'lib turaveradi. Ayirim mamlakatlarda kredit ittifoqlari tashkil etilgan bo'lib, ularda kichik korxonalar hisobidan umumiy jamg'arma to'planadi va undan bir-biriga qarz berishda foydalaniladi. Biz esa shu maqsadga ajratilgan 350 million AQSH dollarga teng chet el kreditining atigi 1-5 millionini o'zlashtira oldik, xolos.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, boshqa mulk shakllari xususiy mulk zamirida paydo bo'ladi va shu mulkning transformatsiyasini bildiradi. Xususiy mulk milliyalashtirilganda jamoa mulki yuzaga keladi. Mulkiy xilma-xillik mulk shakllarining tengligini bildiradi. Baribir bu, xususiy mulk ustuvorligini talab qiladi.

Ustuvorlik xususiy korxona va xo'jalikning mahsulot va xizmatlarni yaratishda, ularning oldi-sotdi qilinishida yetakchi bo'linishini anglatadi. Bular birgalikda milliy iqtisodiyotning xususiy sektorini vujudga keltirib, xususiy korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklari va xususiy kapitalning hissasi katta bo'lgan aksionerlik jamiyatdan tashkil topadi. Iqtisodiyotning mulkchilik jihatidan tuzilishi shuni ko'rsatadiki, hozir O'zbekiston iqtisodiyotidagi xususiy mulk hissasi rasman 35 foiz, davlat mulki 24,4 foiz, jamoa mulki esa 39,5 foizni tashkil etadi. Bu raqamlar hozirda xususiy mulkning mavqei unchalik yuqori emasligini bildiradi. Buning boshqa sababi ham bor: xususiy faoliyat natijalari har doim ham hisobga olinavermaydi. Bu faoliyat xonadon doirasida kechadi, u tovar va xizmatlar yaratadi, lekin ularning bozor narxi aniq emas. Dehqon xo'jaligi, tomorqa va xonaki ishlab chiqarishdagi mahsulot va xizmatlarning haqiqiy hajmi to'g'ri aniqlanib, ular yalpi ichki mahsulot tarkibiga kiritilsa, maqsadga muvofiq bular edi. Chunki milliy iqtisodiyotda turli mulk hissasi aniq bo'lmas ekan, mulkiy tuzilmani yaxshilab bo'lmaydi va O'zbekistonda mulkiy islohotlarni qaysi yo'nalishda chuqurlashtirish va erkinlashtirish zaruriyatini ham bilib bo'lmaydi.

Ammo kichik va o'rta xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning hozirgi ahvolini qoniqarli, deb hisoblash qiyin. Hali yana ko'plab kichik va xususiy korxonalarni tashkil qilish, bu ishga aholi shaxsiy jamg'armalarini jalb etish, shu yo'l bilan yangi ish joylarini barpo etish imkoniyatlarini ishga solish lozim. Ayrim kichik va xususiy korxonalar, dehqon va fermer xo'jaliklari moddiy-texnika va xom ashyo, uzoq muddatli kreditlar bilan bog'liq qiyinchiliklar, shuningdek, joylardagi byurokratik to'siq va g'ovlar tufayli o'z faoliyatlarini rivojlantira olmayotirlar. Yana muhimiki, biz o'tmish sarqiti boqimandalik ruhiyatidan qutila olmayapmiz. Xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanishni ixtiyor etganlarning aksariyati uni davlat yoki boshqa birovning hisobidan amalga oshirishni xohlaydi. To'g'ri, kichik va o'rta biznesni davlat darajasida qo'llab - quvvatlashga barcha rivojlangan mamlakatlarda, jumladan, bizda ham alohida ahamiyat berilayapti. Ammo davlat tamonidan

ajratilgan mablag'larning ham hisob-kitobi bor. Qolaversa, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning davlat ko'magidan tashqari yana boshqa yo'llari ham mavjudki, bugungi kunda ulardan unumli foydalanmoq zarur.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, boshqa mulk shakllari xususiy mulk zamidida paydo bo'ladi va shu mulkning transformatsiyasini bildiradi. Xususiy mulk milliylashtirilganda jamoa mulki yuzaga keladi. Mulkiy xilma-xillik mulk shakllarining tengligini bildiradi. Baribir bu, xususiy mulk ustuvorligini talab qiladi.

4.3. Tarkibiy siljishlar

Iqtisodiy mustaqillikka erishish, milliy iqtisodiyotni barpo etish, iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim shartlaridan biri - iqtisodiyotda tarkibiy qayta qurishni amalga oshirishdir. 90-yillar boshida xalq xo'jaligining amaldagi tarkibi sobiq ittifoqdagi mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvi tamoyillari asosida shakllangan bo'lib, O'zbekistonga arzon

Xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlar, strategik mineral resurslar yetqazib berish va sanoat markazlarida ishlab chiqarilgan tayyor mollarni sotishning keng bozori mavqei ajratilgan edi. Xalq xo'jaligining bunday mustamlaka tarkibi mustaqillikning dastlabki yillarida, eski xo'jalik aloqalari uzilib, yangilari hali shakllanib ulgurmagan sharoitda mamlakatimiz iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. Mustaqil milliy iqtisodiyot xalq xo'jaligi tarkibiga mutloqo yangi talablarni qo'ydi.

Tarkibiy siyosat, eng avvalo, qishloq xo'jaligi xom ashyosi va mineral resurslarni chuqur qayta ishlashga, texnologik tsikilning tugallanganlik darajasini oshirishga, mamlakat yoqilg'i-energetika va oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlashga qaratildi.

Ichki va tashqi kredit vositalarining asosiy qismi ishlab chiqarishni kengaytirish uchun hozirlashga yo'naltirildi. Bu avtomobil va neftni qayta ishlash zavodlari, yangi avtomobil yo'llari va temir yo'llar, yengil, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatining o'nlab yangi va zamonaviylashtirilgan korxonalaridir. Birgina Ko'kdumaloq konida kompressor stantsiyasi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Farg'onada to'qimachilik fabrikasi qurilib ishga tushirildi. Ma'lumki, O'zbekistonning sanoat qudrati asosan bir necha yirik shaharlarda to'plangan edi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan yirik qurilishlarning geografiyasi ancha kengaydi. Bu siyosat uzoq vaqtdan beri hukm surib kelayotgan sanoat taraqqiyotidagi mintaqaviy nomutanosiblik va ziddiyatni sezilarli yumshatdi.

Tabiiyki, iqtisodiyotning tarkibini takomillashtirishda kampaniyachilikka yo'l qo'yib bo'lmaydi, u birdaniga takomiliga yetib ham qolmaydi. Bu o'zgarishlar muntazam davom etadigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayon bo'lib, ular davr talabi va iqtisodiy siyosatdan kelib chiqib, takmoqlararo hamda tarmoqlar ichida to'xtovsiz davom etaveradi. Bozor iqtisodiyoti va fan-texnika taraqqiyoti tan oladigan tarmoqlar rivojlanib, mahsulot ishlab chiqarishda ularning hissasi oshib boraveradi. Aksincha, bozor va taraqqiyotga mos kelmaydigan sohalarning mahsulot va xizmatlarni yaratishdagi ulushi pasayib yoki butunlay yo'qolib, o'z o'rnini boshqa, ilg'or sohalarga bo'shatib beraveradi.

Hayot butun xalq xo'jaligi tarmoqlari orasida ayrim tarmoq va ishlab chiqarish turlarini rivojlantirishga ustuvorlik berish va ularni davlat tomonidan har tomolama qo'llab- quvvatlash to'g'ri yo'l ekanligini isbotlamoqda. Ustuvor sohalarining to'g'ri belgilanishi nafaqat ilgari taqchil hisoblangan mahsulot turlarini keng ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishga, balki ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibini takominlashtirishga ham imkoniyat beradi, shu bilan bir qatorda butun xalq xo'jaligini oldinga siljitadi, iqtisodiy taraqqiyotda o'ziga xos olg'a yetaklovchilik vazifasini o'taydi. Keyingi yillarda mamlakatimizda qayta qurishlar jarayonida tarmoqlarni sanoat negizida rivojlantirishni jadallashtirish, eksport potentsiyalini kuchaytirish va chetdan keltiriladigan mahsulot turlarini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, bozorni xalq iste'moli va oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'yintirish, kommunikatsiya va ishlab chiqarish infratuzilmasi tuzimini rivojlantirish, investitsion faoliyatni jadallashtirish, mamlakatning eksport imkoniyatlarini kengaytirish, tashqi iqtisodiy faoliyatni kuchaytirish va boshqalar ustun yo'nalishlar sifatida belgilangan edi. Masalan, xalq xo'jaligiga ajratilgan barcha investitsiyalar tarkibida ishlab chiqarish tarmoqlari hissasi 63% ni, yoqilg'i- energetika sanoati tarmoqlari sanoat investitsiyalari umumiy hajmda 43% ni tashkil etdi. Transport va aloqa sohalarini revojlantirishga mavjud sarmoyalarning 31%i sarflandi. Bu esa o'z navbvtida, yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishni real ko'rsatkichlarda oshirish imkonini berdi. 2004 yilda iqtisodiyotga jalb etilgan barcha investitsiyalar hajmi 3,8 foizga o'sib, 1 trillion 400 million so'mga ortdi. SHu jumladan, 650 AQSH dollaridan ortdi. Islohotlar islohot uchun utqazilmaydi. Ulardan maqsad – ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini uzluksiz o'stirish asosida xalqning yashash, turmush darajasini yuksaltirishdir. Xuddi ana shu boradagi natijalar islohotlarga haqiqiyy mazmun baxsh etadi.

5-MAVZU: XALQARO ISHCHI KUCHI MIGRATSIYASI

Reja:

1. **Ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi va unga ta'sir etuvchi omillar**
 2. **Xalqaro mehnat migratsiyasi samaradorligi bo'yicha iqtisodiy nazariyalar.**
 3. **Xalqaro mehnat bozori**
 4. **Tashqi mehnat migratsiyasining tashkiliy huquqiy asoslari**
1. **Ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi va unga ta'sir etuvchi omillar**

Ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi, ya'ni mehnatga layoqatli aholini ish qidirib bir mamlakatdan boshqa mamlakatlarga ko'chib yurishi tashqi iqtisodiy aloqalarni muhim shakllaridan biri hisoblanadi. Insoniyat tarixi odamlarning katta-katta guruhlarini u yoki bu mamlakatga ko'chishlari bilan bog'liq voqea-hodisalarga boy: G'arbiy yevropa mamlakatlari tomonidan SHimoliy Amerikaning uzlashtirilishi, Britaniya orollaridan chiqqanlarning Avstraliya kit'asini egallashlari, Xitoydan Janubii Osiyo mamlakatlariga ommaviy ko'chishlar, SHimoliy va Janubii Amerikaga Afrikadan qora tanli qullarni tashib keltirilishi bir qator hozirgi rivojlangan davlatlarning vujudga kelishi va yuksalishiga sabab bo'lgan (AQSH, Kanada, Avstraliya, yangi sanoatlashgan mamlakatlar va boshqalar). Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining barcha bosqichlarida ishchi kuchi migratsiyasi jarayoni yuz berib keldi, ayniqsa u ikkinchi jahon urushidan so'ng yanada kuchaydi.

Hozirgi paytda statistik ma'lumotlarga qaraganda dunyoda har un oiladan biri ko'chib yuradi, ularning turtdan uch qismni ishchi kuchi migratsiyasiga to'g'ri keladi. Dunyo bo'yicha bunday ishchi kuchlarining umumiy soni 25 mln. kishiga yaqin.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishining hozirgi darajasi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarida ishchi kuchining urni va ahamiyatini tubdan o'zgartirib yubordi, davlatlararo aloqalar madaniyatini sifat jihatdan yangi pogonaga ko'tardi.

Xalqaro mehnat bozori bu ishchi kuchi iste'molchilari va ularni yetqazib beruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi mexanizm hisoblanadi.

O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimiga qo'shilishi uni jahon mehnat bozorida ham faol qatnashishini taqozo etadi. Iqtisodiyotni isloh qilishning dastlabki yillaridagi o'zgarishlar, demografik vaziyatning murakkabligi O'zbekistonni ishchi kuchini eksport qiluvchi davlatga aylantirishi mumkin. SHu bilan birga boshqa xorijiy mamlakatlardan yuqori malakali ishchi kuchini jalb qilish imkoniyatlari ham mavjud.

Bugungi kunda O'zbekiston jahonning 79 davlati bilan xalqaro mehnat bozori munosabatlariga kirishgan. Keyingi 5 yil ichida qariyb 5000 yoshlarimiz Janubiy Kareya, AQSH, Malaziya davlatlarida kasb va malaka olib qaytdilar. Xususiyl shartnomalar ichida 200 yaqin fuqarolarimiz xorijda ishlamoqdalar. Kelgusida YAponiya, Saudiya Arabiston, qator yevropa hamjamiyati Mamlakatlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun poydevor yaratilgan.

Sobiql Ittifoqning boshqa respublikalari kabi O'zbekistonda ham aholining tashqi migratsiyasi ikki oqimda ruy bermokda:

- mehnat migratsiyasi, ya'ni qaytib kelish va fuqarolikni saqlash sharti bilan;
- etnik migratsiya, ya'ni qaytib kelmaslik va fuqarolikni saqlanmasligi sharti bilan.

Hozirda O'zbekistonda xalqaro mehnat bozorida faol qatnashishni ta'minlovchi tashkiliy-huquqiy asoslar shakllanmokda va bu soxadagi davlat siyosati amalga oshirilmokda. Mamlakatimiz migratsiya siyosatining asosiy maqsadi migratsiya oqimlarini O'zbekistonning mkstakil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qilish nuqtai nazaridan bo'lib, u asosan xorijiy mamlakatlardagi rivojlangan tarmoqlar va korxonalarda kasb-malakaga ega bo'lish bilan bog'liq.

Ma'lumki, xalqaro mehnat bozorida vaziyat boshqa barcha bozorlar kabi talab va taklif asosida aniqla-nadi xamda bir qator omillar bilan belgilanadi. Bu omillar o'zaro bog'langan bo'lib, shartli ravishda iqtisodiy, demografik va siyosiy omillarga bo'linadi. Bulardan iqtisodiy omillar eng muhimi sanaladi, chunki qolgan barcha omillar pirovardida iqtisodiy muammolarga aylanadi yoki iqtisodiy oqibatlarga olib keladi. Masalan, mamlakatdagi ishchi o'rinlariga nisbatan aholining tez sur'atlar bilan o'sishi va boshqalar.

Iqtisodiy omillar har bir mamlakat iqtisodiy tizimining mustahkamligi, uning o'sish darajasi va rivojlanish ko'lami belgilaydi. Dunyoning turli mintaqalarida iqtisodiy imkoniyatlar, mehnat sharoitlari va ish xaqi o'rtasida yuzaga kelgan sezilarli farq, ishchi kuchlarini mamlakatlararo ko'chib yurishiga sabab bo'luvchi muhim omil hisoblanadi. Masalan, AQSH va Meksikadagi daromadlariing taxminan 10 martagacha farq qilishi, meksikalik ishchilarni AQSHga ish qidirib ko'chib o'tishlarining asosiy sababi hisoblanadi.

80-yillarning boshida yevropa Hamjamiyati mamlakatlarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi milliy mahsulot jami hamjamiyatga a'zo bo'lmagan mamlakatlarnikidan 4,7 marta ortiq bo'lgan. SHunday qilib yer yuzida rivojlangan boy mamlakatlarni va rivojlanmagan kambagal mamlakatlarni mavjudligi xalqaro mehnat bozori amal qilishini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

Jahon mehnat bozorining ahvoli u yoki bu davlatlarning iqtisodiy rivojlanish sur'atlariniig o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. Jumladan, bunday bog'liqlik davriy pasayishlar va ko'tarilishlar paytida, jahon bozorida ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifda bevosita aks etadi xamda mamlakat kanchalik yirik bo'lsa, uning ta'siri ham shunchalik kuchli bo'ladi. Masalan, 1991-1992 yillarda dupyoshshg rivojlangan mamlakatlarida davriy pasayish ruy berdi. Buning natijasida, 1992 yilning o'rtalariga kelib rasmiy ro'yxatdan o'tgan ishsizlar soni 30 mln. dan oshib ketdi, ishsizlik darajasi 1974 yildagi 5,2 foizdan 6,0 foizga ko'tarildi. SHu bilan birga bunday xolat o'z navbatida rivojlangan mamlakatlarda xorijiy ishchi kuchiga bo'lgan talabning pasayishiga olib keldi.

Aholining o'sish sur'ati, aholi sonining ko'payishi yoki qisqarishi bilan bog'liq bo'lgan omillar demografik omillar bo'lib sanaladi. Jumladan, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida aholi sonini yuqori suratlari o'sishi, bu mamlakatlarning shunday ham og'ir iqtisodiy ahvolini yanada murakkablashtirib, tashqi migratsiyaga shart-sharoit yaratadi xamda ularni jahon bozoriga a'osan ishchi kuchi yetqazib beruvchi davlatlarga aylantiradi. Va aksincha, ishchi kuchining asosiy iste'molchisi iqtisodiy o'sish sur'ati aholining o'sish sur'atidan yuqori bo'lgan rivojlangan

mamlakatlar hisoblanadi. Masalan, 90-yillarning boshlarida Iqtisodiy Hamkorlik va Tarakkiyot Tashqiloti (IXTT) mamlakatlarida iqtisodiy faol aholi yiliga o'rtacha 0,8 foiz ko'paydi, ichki milliy mahsulot hajmi esa 3 foizga oshdi.

Aholishunos mutaxassislarning taxminlariga ko'ra asrimizning so'nggi yillarida vujudga kelgan, yer yuzi aholisining o'sish tendentsiyasi XXI asrning boshlarida ham saqlanib qoladi. Jahon aholisi 2025 yilgacha 3.26 mlrd kishiga ko'payishi kutilmokda. Bu asosan «uchinchi dune» mamlakatlari hisobiga bo'ladi. YA'ni «uchinchi dune» mamlakatlarning yevropa mamlakatlariga va AQSHga «demografik tazyiq» 2015 yillarning o'rtalarigacha saqlanib qolishi mumkin.

5.1-jadval

Jahon mamlakatlaridagi mehnat taklifi

Mamlakatlar	Mehnat resurslari, 2012 y.			
	15-64 yoshdagi ishchilar, ming kishi		Urtacha yillik o'sish, foiz hisobida	
	<i>erkak</i>	<i>ayol</i>	1965-1993	1995-2025
Janubi-SHarkiy Osiyo:				
Vetnam	19299	16996	2,53	2,05
Indoneziya	52766	24161	2,48	1,50
Xitoy	406660	316623	2,60	0,41
Malayziya	5365	3004	349	2,01
Myanma	12529	6983	2.33	1,90
Tailand	16542	13084	2,66	0,63
Filippin	17426	7644	2,85	1,91
Evropa va Markaziy Osiyo:				
Ozarbayjon	1670	1278	2.23	
Armaniston	387	754	2,71	
Belarus	2671	2551	1,42	
Bolgariya	2225	2007	0,00	-0,07
Vengriya	2878	2398	0,34	-0,15
Gruziya	1381	1179	1,13	
Qozog'iston	4192	3608	2,30	
Latviya	962	827	2,41	
Qirg'iziston	660	631	0,62	0,02
Litva	953	888	0,87	0,20
Moldova	1081	1025	1,13	
Polsha	10583	36613	0,88	0,34
Rossiya	39212	9081	1,04	
Ruminiya	6112	5373	0,43	0,42
Tojikiston	1082	792	2,70	
Turkmaniston	816	663	2,95	
Turkiya	17067	8856	2,36	1,65
O'zbekistn	4240	3644	2,83	
Ukraina	13060	12496	0,66	

Estoniya	394	372	0,76	
Lotin Amerikasi:				
Argentina	8472	3442	1,25	1,28
Braziliya	41470	16551	2,90	1,31
Kolumbiya	8788	2553	2,72	1,52
Meksika	23132	8937	3,58	1,83
Venesuela	5351	2154	3,73	1,75
YAqin SHarq va SHimoliy Afrika:				
Jazoir	5926	676	3,06	3,32
Misr	14430	1687	2,70	2,35
Eron	15765	3737	3,86	3,74
Marokash	7100	1893	3,39	2,52
Suriya	2911	634	3,69	4,46
IXTT ga a'zo mamlakatlar:				
Buyuk Britaniya	17290	10941	0,45	-0,04
Germaniya	24381	15493	0,52	-0,31
Ispaniya	10741	3527	0,84	0,08
Italiya	15653	7469	0,45	-0,41
Kanada	8353	5607	2,24	0,65
AQSH	73443	52242	1,70	0,44
Frantsiya	15641	10721	0,95	-0,07
YAponiya	36799	23025	0,83	-0,35
Janubiy Osiyo:				
Bangladesh	31458	2723	2,57	2,75
Xindiston	260802	83502	2,09	1,61
Pokiston	34008	5344	0,29	3,21
Afrika:				
Zoir	5530	5128	2,45	3,54
Nigeriya	26686	13993	2,73	3,19
Sudan	6630	2045	2,87	3,42
Efiopiya	13425	7777	2,17	2,86
Janubiy Afrika				
Respublikasi	9275	5250	2,56	2,40

Ayrim mamlakatlardagi siyosiy vaziyatning barqaror emasligi, ularning iqtisodiy ahvoliga salbiy ta'sir etib, mamlakat ishchi kuchini chetga oqimini keskin kuchaytiradi. Masalan, siyosiy omil sobiq sotsialistik mamlakatlarda ruy bergan keng

ko'lamli aholi migratsiyasini aniqlovchi sabablardan biri bo'ldi. Agarda bu mamlakatlarda aholi migratsiyasi 90-yillarning boshlarigacha ma'muriy chora-tadbirlar natijasida to'xtatib turilgan bo'lsa, islohotlarning boshlanishi va barcha ma'muriy to'siqlar olib tashlanishi bilan muxojirlar oqimi keskin ortdi, oqibatda bu jarayon jahon mehnat bozoridagi vaziyatga, ayniqsa uning yevropa qismiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Dastlab YUgoslaviya, so'ngra Vengriya, Polsha yirik miqdorda ishchi kuchini eksport qiluvchi davlatlarga aylandilar. Keyingi paytda bu mamlakatlarga sobiq Ittifoq respublikalari ham qo'shildilar.

Mutaxassislarning taxminlariga ko'ra, yaqin yillar ichida sobiq Ittifoqdan 250 mingga yaqin kishi, G'arb mutaxassislarining hisoblari bo'yicha esa 500 mingga yaqin kishi yevropa mamlakatlariga ishlash va yashash uchun ko'chib ketishi mumkin. SHunday qilib, iqtisodiy, demografik va siyosiy omillarning umum ta'siri jahon mehnat bozoridagi ahvolni, uning miqyosini, tarkibini va rivojlanish sur'atlarini belgilab beradi.

2. Iqtisodiy nazariyalar va mehnat migratsiyasining samaradorligi.

Hozirgi zamon xalqaro iqtisodiy munosabatlarining muhim shakli hisoblangan ishchi kuchi migratsiyasi uzoq yillar davomida iqtisodiy tadqiqotlar ob'ekti bo'lib kelmokda. Ishchi kuchini chetdan olib keluvchilar uchun xam, uni chetga chiqaruvchilar uchun ham tashqi mehnat migratsiyasining ijobiy va salbiy oqibatlarini tahlili asosida, ishchi kuchlari harakatining iqtisodiy samaradorligini aniqlashga oid qator iqtisodiy nazariyalar ishlab chiqilgan. Bular ichidan ko'proq ma'lum bo'lgani ishchi kuchi xalqaro migratsiyasining «Balans» va «Asimmetriya» nazariyalari bo'lib, ularning har biri ishchi kuchini bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga ko'chib yurishini turlicha tushuntiradi. «Balans» yoki neoklassik nazariya migratsiyani tor ma'noda, ya'ni asosan mehnatga xaq to'lash, ishchi kuchi bilan ta'minlanganlik, ishlab chiqarish hajmining o'sishi nuqtai nazaridan ko'rib chiqadi yoki ishchi kuchi migratsiyasini tovarlar va kapital oqimi singari yana bir ishlab chiqarish omilining harakati sifatida tushuntiradi. Ushbu nazariyaga binoan. migratsiya mehnat unumdorligi va ish xaqi darajasi o'rtasidagi tafovutlar ko'payib borishi bilan o'sib boradi. Ish xaqi darajasi ishchi kuchini jo'natuvchi mamlakatlarda ko'tarilib borsa va aksincha ularni qabul qiluvchi mamlakatlarda pasayib borsa yoki ishchi kuchi bahosi turli mamlakatlarda tenglashib borsa, mavjud mehnat resurslarini ko'chib yurishiga zarurat qolmaydi.

Ammo bu nazariya hozirgi paytda turli davlatlarning amaldagi notekis rivojlanishini nazarda tutib, tashqi mehnat migratsiyasini ishchi kuchini eksport qiluvchi uchun xam, uni import qiluvchilar uchun xam, qolaversa butun jahon xo'jaligi uchun ham ijobiy oqibatlarga ega deb e'tirof etadi.

Tashqi mehnat migratsiyasidan ishchi kuchini eksport qiluvchi yoki jo'natuvchi mamlakatlarning oladigan foydasi shundan iboratki, uning yordamida mamlakat aholisini yetarli darajada ish bilan band bo'lmaganligi tufayli vujudga keladigan iqtisodiy va ijtimoiy harajatlardan kutiladi xamda xorijda ishlayotganlarning yuborayotgan pul jo'natmalariga, qaytib kelayotgan ishchilarning kasb va til ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Dunyoning ko'pchilik mamlakatlari, xususan, Misr, Pokiston, Turkiya, YUgoslaviya, Salvador, Nikaragua, va boshqa mamlakatlar uchun ishchi kuchlarini chetga chiqarishdan olinadigan daromad, eksport tushumlarining muhim manbai hisoblanadi. Masalan, 1978-1988 yillar mobaynida turkiyalik xorijda ishlovchilarning yillik jo'natmalarining hajmi 893-2490 mln AQSH dollarini tashkil qilgan yoki Turkiya tashqi savdo balansi taqchilligining 45-100 foizini koplagan. Agarda 1989 yilda Turkiya, Portugaliya va Marokashda xorijda ishlovchilarning pul jo'natmalari miqdori shu mamlakatlar eksporti hajmining 25-40 foizini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Misrda 90 foizni, Pokistonda 80 foizdan ko'proqni tashkil etdi. Nikaragua va Salva-dorda esa pul jo'natmalari miqdori ularning eksport tushumlaridan ham oshib ketgan.

Ishchi kuchini qabul qiluvchi mamlakatlarning tashqi mehnat migratsiyasidan oladigan foydasi shundan iboratki, xorijdan arzon ishchi kuchi jalb qilish mamlakat ichkarisida ish xaqini o'sib borishining oldini oladi va natijada inflyatsiya xavfi bartaraf etiladi. Umumjahon xo'jaligi uchun mehnat resurslarini erkin ko'chib yurishi iqtisodiy samaradorlikni yanada oshirish imkonini beradi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra jahon yalpi milliy mahsuloti hajmini shu jarayon hisobiga 15-16 trillion AQSH dollarigacha ko'paytirish mumkin.

SHu bilan birga ishchi kuchi tashqi migratsiyasining «Balans» nazariyasi real hayotning aksariyat jihatlarini, chunki, immigratsiya qabul qiluvchi mamlakatlarda aholining yosh tarkibiga, umumiy farovonligini o'sishiga, uy-joy sharoitiga, jamoat tartibining barqarorligiga, jamiyat madaniy-diniy bir xilligini buzilishiga va boshqalarga bo'lgan ta'sirini hisobga olmaydi.

Aksincha, «Asimmetriya» nazariyasi ishchi kuchi migratsiyasi natijasida yuzaga keladigan turli xil oqibatlarni baholashga kengroq yondoshadi va bunda uning ustunliklari sezilarli darajada kamaytiriladi, ba'zida ustunlik xolati butunlay yuz bermaydi.

Ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakatlar bu jarayonda aholisining ayni mehnatga yarakli (24-40 yosh) qismini yo'qotadi. Ularning pul jo'natmalari aksariyat xollarda investitsiyalar shaklida emas, balki kundalik iste'mol uchun ishlatiladi. Natijada chet ellarda ishlayotganlarning daromadlaridan milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun foydalanish imkoni bo'lmaydi. Undan tashqari ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakatlar uchun bu jarayon intellektual yo'qotishlar bilan ham borlik. Jumladan, xorijiy ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra yuqori malakali mutaxassislarning sobiq Ittifoqdan emigratsiyasi natijasidagi yo'qotishlar yiliga 60-70 mln. AQSH dollari atrofida baholanmokda. Bu nazariya tarafdorlarining ta'kidlashlaricha, ishchi kuchi migratsiyasi tufayli rivojlangan mamlakatlar bilan «uchinchi dunyo» mamlakatlari o'rtasida iqtisodiy rivojlanishdagi farq kamaymaydi.

SHunday qilib, jahon migratsiya jarayonlariga turli xil yondoshishlar va baholash mezonlari mavjud bo'lib, ular alohida mamlakatlar davlat siyosatini ishlab chiqishda hisobga olinadi.

SHu bilan birga iqtisodiy nazariyalar ishchi kuchini mamlakatlararo ko'chib yurishining ob'ektiv zarurligini va kuchayishi qonuniyatlarini inkor etmaydi.

3. Xalqaro mehnat bozori

Ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi so'nggi un yilliklarda kuchaya borib, dunyo buylab keng yoyilmokda xamda jahon xo'jaligi tarakkiyotiga, mehnat resurslari bilan ayirboshlashga faol tortilgan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, siyosiy va madaniy-diniy vaziyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatib kelmokda. Rasmiy ma'lumotlarga Karaganda 1990 yilda G'arbiy yevropa mamlakatlarida 15,2 mln.ga yaqin chet ellik istiqomat qilgan, shu jumladan yevropa hamjamiyati mamlakatlarida 13,4 mln. kishi yoki tub aholining 5 foizi. yevropaning ayrim mamlakatlarida ularning salmog'i yanada yuqori. Xususan, SHvetsiyada 16,5 foiz, Belgiyada-9,1 foiz, Germaniyada-8,4 foiz. Mutaxassislar ulushi esa 10 foizga yetadi.

O'z navbatida, yevropa mamlakatlaridan ham har yili millionlab odamlar yaxshin xet qidirib turli davlatlarga ko'chib borishadi. Masalan, xorijiy ishchilar soni AQSH da 5,65 mln., Lotin Amerikasida 3,5-4 mln., YAqin SHarq va SHimoliy Amerika mamlakatlarida 2,8 mln., Rarbiy Afrikada 1,3 mln. kishini tashkil etadi.

Hozirgi paytda migratsiya oqimining geografik yo'nalishlari bo'yicha ishchi kuchi jahon bozorining 4 ta yirik markazi shakllangan. Birinchi markaz 60-70-yillarda YAqin SHarq mamlakatlarida neft qazib chiqarish sanoatining taraqqiy etishi, unga bog'liq ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastrukturani rivojlanishi bilan tarkib topgan.

Bu mamlakatlarda ishchi kuchiga bo'lgan talabning keskin oshishi asosan chet el fuqarolarini jalb qilish hisobiga qondirilishi mumkin edi, xolos. SHu davrdan boshlab bu mintaqada jadal migratsiya jarayonlari boshlandi. Ishchi kuchlarining sonida xorijiy ishchi kuchining ulushi (Pokiston, Xindiston, Koreya, Filippin va boshqa mamlakatlardan) Birlashgan Arab Amirliklarida 90 foizga yaqin, Katarda -80 foizdan yuqori, Kuvaytda -70 foizga yaqin, Saudiya Arabistoni va Bax-reynda 40 foizga yaqinni tashkil etdi.

Ikkinchi markaz – rivojlangan Rarbiy yevropa mamlakatlari bo'lib, migratsiya omili bu mamlakatlarning urushdan keyingi davrda o'z iqtisodiyotlarini tiklashda asosiy rol o'ynadi. Hozirgi paytda ham xorijiy ishchi kuchi past malakali va nufuzli bo'lmagan tarmoqlarda keng qo'llanaadi. Bu tarmoqlarda (avtomobillarni yig'ish, tog'-kon va metallurgiya sanoati va boshqalar) xorijliklar 70 foizni tashkil etadi.

Evropaning 15 mamlakati doirasida yagona mehnat bozorining barpo etilishi, bu mintaqaning ahamiyatini kuchaytirdi va uni xorijiy ishchi kuchi uchun jozibali qilib kuydi.

Jahon mehnat bozorining uchinchi yirik markazi AQSH va Kanada. Bu yerga nafaqat Lotin Amerikasidan past malakaga ega bo'lgan ishchilar, balki yuqori malakali mutaxassislar ham intiladilar. SHu sababli, AQSH o'zining zamonaviy fan-texnikaga asoslangan tarmoqlarini, yuqori malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojini kadrlar tayyorlashga katta harajatlar qilmasdan ta'minladi.

Xalqaro mehnat bozorining turtinchi markazi Argentina bo'lib, hozirda bu yerda yuzaga kelgan qulay iqtisodiy vaziyat qo'shni mamlakatlardan arzon ishchi kuchini o'ziga jalb qilmoqda.

Keyingi yillarda jahon mehnat bozori geografik shakllanishi bilan bir qatorda, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotidagi strukturaviy siljishlar, sobiq sotsialistik mamlakatlardagi tub islohotlar, boshqacha aytganda, jahon buylab o'rnatilayotgan

yangi iqtisodiy-siyosiy tartiblar bilan bog'liq bo'lgan chuqur sifat o'zgarishlariga ham ega bo'lmoqda.

Bunday o'zgarishlar asosan quyidagilardan iborat bo'lib, **birinchidan**, SHarqiy yevropa mamlakatlarini jahon xo'jaligi aloqalariga faol jalb qilish jarayoni boshlandi, shu jumladan ishchi kuchini ayirboshlash sohasida xam; **ikkinchidan**, bir qator Janubiy Osiyo va arab mamlakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning yaxshilanishi, milliy iqtisodiyotni yuqori sur'atlar bilan o'sishi natijasida shu mamlakatlar aholisi hisobiga bo'ladigan migratsiya oqimi qisqarmoqda; **uchinchidan**, yalpi migratsiya oqimida yuqori malakali ishchi kuchining va tadbirkorlarning ulushi oshib bormokda.

Jahon mehnat bozoridagi vaziyatnn istikbolga tahlili shundan dalolat bermoqdaki, demografik, iqtisodiy sabablarga ko'ra ishchi kuchini import qiluvchi asosiy mamlakatlarning talabi yuqori darajada saqlanib qoladi.

Masalan, yevropa hamjamiyatiga a'zo mamlakatlarda 25 yoshgacha bo'lgan aholi soni 2000 yilda 1990 yildagi 27,8 mln. kishidan 22,1 mln. kishigacha qisqaradi.

AQSH va Kanadada ham yuqoridagidek «axolining keksayishi» jarayoni kechmokda. SHundan murakkab demografik vaziyatga karamasdan, rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni yuqori sur'atlarda o'sishi va ishsizlik darajasining pasayishi kutilmokda. Bunday holat xorijdan yosh mutaxassislarni jalb qilish, ushbu davlatlar ilmiy, iqtisodiy va demografik siyosatining muhim qismi bo'lib qolishidan darak beradi.

4. Tashqi mehnat migratsiyasining tashkiliy-huquqiy asoslari

Mehnat bozori ham har qanday boshqa bozorlar kabi ayirboshlashni ma'lum tartib-qoidalarini o'rnatishga, unga amal qilishga va nazoratga ehtiyoj sezadi yoki boshqarilib turishni taqozo etadi. Bu odatda davlat zimmasiga yuklatiladi. Davlatning migratsiya jarayonlarida ishtiroki tarixdan ma'lum: chunonchi XIII-XIX asrlardayok ishchi kuchini erkin ko'chib yurishini chegaralaydigan to'siqlar mavjud bo'lgan. Hozirda ishchi kuchining erkin harakati qator huquqiy, ma'muriy, madaniy, til, ijtimoiy va boshqa yo'lvositalari bilan boshqarilib turiladi.

SHulardan faqat huquqiy va ma'muriy to'siqlarni davlatning uzi o'rnatishi yoki ularni bartaraf etishi mumkin. Agarda XX asrning o'rtalarigacha ishchi kuchi harakatini mamlakatlararo tartibga solish asosan manfaatdor davlatlarning ikki tomonlama shartnomalari asosida amalga oshirilgan bo'lsa, keyinchalik, mehnat sohasida mamlakatlararo aloqalarning murakkablashuvi, jahon mehnat bozorida faoliyat ko'rsatishning tashkiliy-huquqiy asoslarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. Jumladan, 1953 yilda Iqtisodiy Hamkorlik va Tarakkiyot tashkiloti mamlakatlari, 1957 yilda esa yevropa hamjamiyatiga kiruvchi davlatlar ham ishchi kuchining erkin ko'chib yurishini kuvvatlab chikdilar.

Tashqi mehnat migratsiyasini tashkil etishda, tajribalar va axborotlar bilan ayirboshlashda, bu jarayonni tartibli va rejali amalga oshirishni ta'minlashda migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilotning urni alohida ahamiyatga ega. Bu tashkilot a'zo mamlakatlardagi (35 ta a'zo) o'z bo'limlari orqali bo'lajak muxojirlar uchun til o'rganish kurslarini tashkil etadi. Ushbu yo'nalishda Xalqaro Mehnat Tashqiloti (XMT) ham o'z ishini faollashtirib Xalqaro Mehnat me'yorlari bo'yicha 1919-1993 yillar davomida 174 ta Konventsiya va 181 ta tavsiyalar qabul kildi. Ularda ishchi

kuchini mamlakatlararo ko'chib yurishini huquqiy jihatdan tartibga solish ham o'z ifodasini topgan. Jumladan 1949 yilda qabul qilingan muxojir-mehnatkashlar to'g'risidagi Konventsiyada XMTga a'zo bo'lgan davlatlarga muxojirlarni ishga qabul qilishda, ish xaqi to'lashda va ularni kamsitilishlariga yo'l kuymaslik majburiyatlarini yuklovchi qator qoidalar o'rin olgan.

- XMT ning 1958 yilda qabul qilingan ijtimoiy mehnat va bandlik soxasida huquqlarini cheklashga qarshi Konventsiyasi;

- XMT ning 1962 yilda qabul qilingan ijtimoiy siyosatning asosiy maqsadlari va me'yorlari to'g'risidagi bitim. Bu bitimda XMTga a'zo bo'lgan davlatlarda muxojir-mehnatkashlar manfaatlari talab qilinadigan qoidalar qayd etilgan, ya'ni muxojirlar ham tub aholi qatori mavjud ijtimoiy muhofaza imtiyozlaridan foydalanishlari, ularning oilalari esa ish haqidan pul jo'natmalarini olish huquqiga ega bo'lishlari belgilab qo'yilgan.

- XMTning 1975 yilda qabul qilingan muxojir-mehnatkashlar to'g'risidagi Konventsiyasi. Bu hujjat migratsiya soxasida suiste'molliklarni, muxojirlarni yashirin yo'llar bilan olib kelish va qonunsiz ishga yollashni bartaraf qilishga karatilgan chora-tadbirlarni belgilab beradi xamda muxojirlarni mehnat, bandlik, ijtimoiy ta'minot, kasaba uyushmalariga birlashish va madaniy huquqlari soxasida himoya qilishning ba'zi choralari ko'zda tutadi.

Xalqaro Mehnat Tashqilotiga a'zo bo'lgan va uning asosiy hujjatlariga imzo chekkan mamlakatlar, qayd etilgan hujjatlarda qabul qilingan tartib-qoidalariga amal qilishlari va o'zlarining mehnat qonunchiliklarini ularga muvofiq o'zgartirishlari lozim.

Hozirgi paytda Xalqaro Mehnat Tashqilotiga 170 davlat, jumladan O'zbekiston Respublikasi ham a'zo bo'lib, tashqi mehnat migratsiyasi soxasida davlat siyosatini ishlab chiqishda ushbu tashkilot qabul qilgan hujjatlarga amal qilmoqda. Xususan, respublikamizda «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonunda O'zbekiston fuqarolarini chet ellarda o'z kasbi bo'yicha shug'ullanish huquqi, mamlakat tashqarisida ularni huquq va manfaatlarini himoya qilish, ishga joylashtirishni tartibga solish va bu jarayonni muvofiqlashtirish borasida davlatning javobgarligi mustahkamlab qo'yilgan.

Hozirda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1995 yil 19 oktyabrdagi «O'zbekiston fuqarolarning xorijiy mamlakatlardagi va xorijiy mamlakatlarfuqarolarining respublikadagi kasbiy faoliyat to'g'risida»gi qarori bilan tasdiqlangan Nizomga ko'ra O'zbekiston fuqarolarining chet ellardagi kasbiy faoliyati va xorijiy ishchi kuchlarini mamlakatimizga jalb qilish tartiblari belgilangan. Hamda shu Nizomlar asosida O'zbekiston tashqi mehnat migratsiyasi amalga oshirmokdalar. SHuningdek, O'zbekistonda tashqi mehnat migratsiyasi soxasidagi siyosatii tashkiliy jihatdan ta'minlash maqsadida Mehnat vazirligi qoshida Vazirlar Maxkamasining 1993yil 14 iyul qarori bilan Mehnatkash-Muxojirlar Vakolatxonasi ta'sis etilgan bo'lib, uning asosiy vazifasi respublikamiz fuqarolarining xorijda kasb o'rganishlari va malaka oshirishlari buycha ish olib borishdir. Bu tashkilot vazirlikning qaroriga binoan ishchi kuchini eksport qilish uchun xorijiy sheriklar bilan bitimlar va kontraktlar tuzadi, chetellarda ishlash uchun mutaxassislarni tanlaydi, ularni jo'nab

ketishlarini tashkil qiladi, kontrakt shartlarini bajarilishini nazorat qilib boradi va hokazolar.

O'zbekistonda amal qiluvchi tartibiga ko'ra ish beruvchilarga xorijiy ishchi kuchlaridan foydalanish to'g'risidagi ruxsatnomalar 1 yil muddatga berildi.

Ruxsatnoma (litsenziyani) olish tartibi, uni uzaytirish xududiy mehnat organlari tomonlarini amalga oshirildi. Umuman respublikada ishchi kuchi tashqi migratsisi oqimlarini nazorat qilish va tartibga solishda asosan uchta ijrochi davlat idorasining (Mehnat vazirligi, Ichki ishlar vazirligi) muvofiqlantiruvchi faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular o'z yo'naltirishlari bo'yicha soxadagi davlat siyosatini amalga oshiradilar.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida qabul qilingan huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy xususiyatga ega bo'lgan hujjatlar tashqi mehnat migratsiyasi sohasida davlat siyosatining asosiy vazifalarini xalq etishga yo'naltirilgan, ya'ni milliy mehnat bozorida ishchi kuchi kasb-malaka tarkibini muvozanatga keltirishga, xorijda ishlayotgan fuqarolarni ijtimoiy muhofazasini ta'minlashga, yashirin tashqi mehnat migratsiyasining oldini olishga va boshqalarga karatilgan.

Asosiy tushunchalar:

Ishchi kuchi -16 yosh va undan katta yoshdagi ishlayotgan yoki ishsiz shaxslarning umumiy soni. Maxsus davlat muassasalarida aqli zaiflar va axloq tuzatish muassasalarida bo'lganlar bundan mustasno.

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi -mehnatga layoqatli aholini bir mamlakatdan boshqa mamlakatga ko'chishi.

Xalqaro mehnat bozori -milliy va xududiy ishchi kuchi bozorlarni o'zida birlashtirib, milliy chegaralarni kesib utuvchi mehnat resurslarining turli yo'nalishlardagi oqimlarini qamrab oladi.

Turmush tarzi yashash darajasi - mamlakatning iqtisodiy rivojlanishdagi erishgan darajasiga mos keluvchi mamlakat aholisi turmush sharoitlarining umumiyliigi bo'lib, xalqaro ishchi kuchi migratsiyasida asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi.

Ishchi kuchi importi -xorijdan mamlakatga ishchi kuchi kelishidir.

Ishchi kuchi eksporti -mamlakatdagi ishchi kuchini xorijga chiqishidir.

Ishchi kuchi eksporti va importining afzalliklari -eksport va ari -eksport va amlakatlarning oladigan foydalaridir.

Jahon mehnat bozorining markazi -ishchi kuchini jalb etuvchi xudud yoki joydir.

Noklassik nazariya -ishchi kuchi migratsiyasini tor ma'noda tushuntirishga asoslangan nazariyadir.

Assimetriya nazariyasi -ishchikuchi migratsiyasi natijasida yuzaga keladigan oqibatlarni kengroq baholashga asoslangan nazariyadir.

Xalqaro mehnat tashkiloti -xalqaro doirada ishchi kuchi migratsiyasini tartibga soluvchi tashkilotdir.

Nazorat savollari:

1. Ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi deganda nimalarni tushunasiz?
2. Xalqaro mehnat bozori nima?
3. Nima sababdan O'zbekistonni ishchi kuchini eksport qiluvchi mamlakatlar qatoriga qo'yish mumkin?
4. Jahon mehnat bozorining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni sanab uting.
5. 80-90 yillarda butun dunyo va ayrim mintaqalarda ishchi kuchining o'sishi qanday bo'lgan?
6. Ishchi kuchi xalqaro migratsiyasining «balans» va «asimmetriya» nazariyasini tushuntirib bering.
7. Ishchi kuchi eksportidan davlatlar qanday manfaat ko'radilar?
8. Ishchi kuchini import qiluvchi mamlakatlar undan qanday samara oladilar?
9. Jahonning ayrim mamlakatlaridagi xorijiy ishchi kuchining salmog'i to'g'risida qisqacha axborot bering.
10. Ishchi kuchi jahon bozorining turt yirik markazini tariflab bering.
11. Ishchi kuchining jahon buylab erkin harakati?? qanday to'siqlar xalakit beradi va ulardan kaysi biri davlat nazoratida o'rnatiladi va bartaraf etiladi?
12. Xalqaro Mehnat Tashqiloti va uning ishchi kuchi migratsiyasini tartibga solishdagi roli.
13. O'zbekistonda ishchi kuchini chetga chiqarish va chetdan olib kelish tartibi qanday huquqiy va me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi?
14. Tashqi mehnat migratsiyasi sohasida davlat siyosatining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

6- MAVZU: XALQARO KAPITAL MIGRATSIYASI

Reja:

1. Kapital harakatining mohiyati va asosiy shakllari.
2. Zamonaviy bosqichda kapital harakatining xususiyatlari.
3. Xalqaro kreditning asosiy turlari.
4. Xalqaro ssuda kapitali bozori.
5. CHet el investitsiyalari tushunchalari.

1. Kapital harakatining mohiyati va asosiy shakllari.

Kapital harakati yoki uni yuqoriroq foyda olish maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib yurishni xalqaro iqtisodiy munosabatlarning tez rivojlanayotgan shakli hisoblanadi.

1983-1989 yillarda Xalqaro valyuta fondiga a'zo mamlakatlarda tovarlar eksporta 1,7 marta, kapital eksport- 3,7 marta oshdi. Kapital eksportini tezlashuvigga b birinchi navbatda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarishni yanada markazlashuvi va moliya kapitalini jamg'arilishi asosiy turtki bo'ldi. Yirik korporatsiyalarning paydo bo'lishi va ularni kredit-bank tîmi bilan birlashuvi kapitalni mamlakatlararo ko'chib yurishiga sharoit yaratdi va shu orqali tovarlar sotish bozorlari yanada kengaytirildi

Tadbirkorlar va xukumat chet ellik sheriklariga kredit yoki qarzlar berishi, xorijda o'z ishini tashkil etishi va xorijiy banklarda o'z banklarining korrespondent hisoblarini ochishi, boshqa mamlakatda kimmatli kog'ozlar va kuchmas mulkni sotib olish orqali kapital olib chiqishni amalga oshiradilar. Kapitalni olib chiqish bilan bir vaqtda, har qanday mamlakat shuningdek kapital ham olib keladi, ya'ni kapitalniig xalqaro harakati jarayoni boradi. O'z mohiyatiga ko'ra bu asosan moliyaviy majburiyatlarni, moliyaviy oqimlarni bir mamlakatdan boshqa mamlakatga ko'chib o'tishini bildiradi. ya'ni qarz beruvchilar yoki mulkdorlar qarz oluvchilarga yoki kompaniyalarning xorijdagi korxonalariga hozirda foydalanish uchun pul yoki investitsion tovarni berganda xamda uning evaziga kelajakda foizlar yoki dividend keltiruvchi majburiyatlarni yoki aksiyalarni olgan takdirda kapital harakat yuz beradi. SHunga muvofiq kapitalni olib kelish va olib chiqishning bir necha shakllari ajratiladi

Kapital harakatining asosiy shakllari.

Ssuda kapitali va tadbirkorlik kapitali harakati

KAPITAL HARAKATINING SHAKLLARI

Iqtisodiy mazmuniga ko'ra	Kim tomonidan amalga oshirilishiga ko'ra	Ko'rinish bo'yicha	Muddatiga ko'ra
---------------------------	--	--------------------	-----------------

Ssuda kapitali Tadbirkorlik kapitali	Xususiy davlat Xalqaro tashkilotlar kapitali	Pul ko'rinishida Tovar ko'rinishida	Qisqa muddatli Uzoq muddatli
--	---	--	---------------------------------

Ssuda kapitalini olib chiqish bu bir mamlakatdagi qarz beruvchining boshqa mamlakatdagi qarz oluvchiga ma'lum muddatda qaytarib berish va foizlarni to'lash sharti bilan kredit berishidir.

Agar kapital foizlar shaklida foyda olish maqsadida berilmasdan, balki xorijdagi korxonalarni, shu jumladan ko'shma korxonalarni yaratishga sarflansa, u holda bu tadbirkorlik kapitalini olib chiqish yoki xorijga investitsiya chiqarish deb ataladi.

CHet el investitsiyalari investorga xorijiy korxonalar ustidan nazoratni ta'minlash huquqini bersa, ular to'g'ri investitsiyalar hisoblanadi, korxonalar esa asosiy kompaniyaning chet ellardagi ishlab chiqarishi bo'lib qoladi. Xorijiy investor tomonidan nazorat qilish huquqini aniqlovchi ko'rsatkich sifatida ular ega bo'lgan aksionerlik kapitalning hissasi ishlatiladi. AQSHda bu 10 foiz, Frantsiya va Buyuk Britaniyada 20 foizga yaqin, Germaniyada 25 foizdan 50 foizgacha, O'zbekistonda u 49 foiz darajasida aniqlangan.

Agar xorijiy investorlarning kompaniya aktivlaridagi hissasi ushbu mamlakatda o'rnatilgan darajadan past bo'lsa, u holda chet el investori korxonani bevosita boshqarishda qatnasha olmaydi va faqat aksiyalardan dividendlar olib turadi. Investitsiyalarning bunday shakli portfel investitsiyalari deb yuritiladi.

KAPITAL HARAKATI

Ssuda kapitali	Qarzlار va kreditlar Bank depozitlari va boshqa moliyaviy institutlar hisobidagi mablag'lar
TADBIRKORLIK KAPITALI	Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) investitsiyalar Portfel investitsiyalar

Kapital xorijga xususiy biznes, davlat kompaniyalari va xukumat, xalqaro tashkilotlar tomonidan qarzga berilishi yoki investitsiya qilinishi mumkin. SHu sababli ham kapital harakati xususiy va davlat kapitali, shuningdek xalqaro tashkilotlar kapitali shaklida amalga oshiriladi.

Kapitalni mashina va asbob-uskunalar, patentlar va «nou-xau»lar, xorijiy firma ustav kapitaliga qo'yilmalar tovar kreditlari ko'rinishida olib kelinishi va olib chiqilishi mumkinligi uchun uning harakati pul va tovar shakllariga ajratiladi. Muddati bo'yicha kapital harakati qisqa va uzoq muddatli bo'lishi mumkin.

Qisqa muddatli kapitalga bank depozitlari va turli moliyaviy institutlar hisoblaridagi mablag'lar, qisqa muddatli qarzlار kiradi.

Uzoq muddatli kapitalni olib kelish va olib chiqish deganda to'g'ri investitsiyalar, portfel investitsiyalar, uzoq muddatli qarzlار tushuniladi.

Kapital harakatining barcha shakllari bir-biri bilan o'zaro borlik va ularni ajratish shartlidir. Masalan, kapital qo'yilmalar ko'rinishidagi xorijiy portfel investitsiyalar xalqaro kreditga ham kiritilishi mumkin.

2. Zamonaviy bosqichda kapital harakatining xususiyatlari.

Zamonaviy bosqichda kapital harakati qator o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, ulardan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchidan, rivojlangan mamlakatlarda kapital jamrari-shning katta miqdordagi va nisbatan ortiqchaligi tufayli kapital harakatining keskin o'sishi. So'nggi 20 yil davomida kapital eksportining jahon tovar aylanishidagi his-sasi ikki marta ko'paydi va hozirgi vaqtda 15 foizdan ortig'ini tashkil etadi. 1970 yillardan boshlab xalqaro ayirboshlash tarixida birinchi bor rivojlangan mamlakatlarning xorijiy korxonalaridagi ishlab chiqarish hajmi ularning tovar eksportidan ortiq bo'ldi, ya'ni bu mamlakatlar uzlarining xorijda amal kilayotgan ikkinchi iqtisodiyotlarini yarata boshladilar. Masalan, AQSH «ikkinchi iqtisodiyoti»ning ko'lami G'arbiy Germaniya, Angliya, Frantsiyanikidan ikki marta ko'proqdir.

Ilgor G'arbiy yevropa mamlakatlari xorijiy korporatsiyalarining ishlab chiqarish hajmi ular yalpi mahsulotining 30 foizga yaqinini tashkil etadi.

Kapital harakatining yana bir muhim xususiyati shundan iboratki, zamonaviy sharoitlarda uning yo'nalish-lari sezilarli o'zgardi. Agar dastlab, u eng rivojlangan mamlakatlardan kam rivojlangan mamlakatlarga ustun ravishda ssuda shaklida berilgan bo'lsa, hozirga kelib xorijiy kapital asosan rivojlangan mamlakatlar o'rtasida investitsiyalar ko'rinishida beriladi va olinadi. 90-yillarning boshlarida bu mamlakatlar hissasiga xorijiy kapital eksportinpng 97 foizi va im-portning 75 foizdan ortigi to'g'ri keldi. Bu o'zaro investitsiyalash jarayonining kuchayishi bilan bog'liqdir. YA'ni turli mamlakatlar iqtisodiyotning bir tarmog'iga mansub korxonalarni rivojlantirish uchun birgalikdagi mablag'larni jalb etadilar.

Masalan, Germaniyadagi kimyo kontserni AQSHga, Amerika korporatsiyasi esa Germaniya kimyo sanoatiga qo'yadi.

Kapitallarni baynalminallashtirish jarayoni ayniqsa ilmiy tadqiqotlar va ulardan foydalanish soxasida yaqqol namoyon bo'lmoqda, 80- yillarning oxirlarida sanoatda olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida xorijiy investitsiyalarning his-sasi umumiy harajatlarda Kanadada 26,3 foizni, Buyuk Britaniyada 16,9 foizni, Frantsiyada 10,3 foizni tashil etdi. Sanoatning axborotlar texnologiyasi, biotexnologiya va yangi materiallar kabi ilg'or tarmoqlarida AQSH, YAponiya va yevropa korporatsiyalari xorijiy firmalar bilan o'z milliy firmalariga nisbatan ko'proq bitim tuzdilar.

Kapital harakati jarayonnni tahlil qilib quyidagini ta'kidlash mumkin.

Kapital olib chiqishda ba'zi jahon markazlarining roli sezilarli o'zgardi. Bunda avvalo kapital eksportida AQSH hissasining pasayganini ta'kidlash lozim. 1988 yildan boshlab bu mamlakat jahondagi yirik qarz beruvchidan qarzdorga aylandi. SHu vaqtda YAponiya jahonning yetakchi investori urnini egalladi: uning xorijiy investitsiyalari 1986-1990 yillarda 1981-1985 yillarga nisbatan deyarli besh marta ko'paydi.

Evropa mamlakatlarining yagona hamjamiyatga birlashuvi kapitalning markazlashuviga olib keldi va ularni boshqa davlatlarga olib chiqishga imkoiyatlar

yaratdi. CHunonchi 1988 yilda yevropa hamjamiyati va uning ba'zi a'zolari rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'rsatilayotgan yordamning 47 foizini bergan bo'lsa, AQSH va Yaponiyaning ko'rsatilayotgan yordamdagi hissalar 20 foizdan oshmadi.

Kapital harakati geografiyasidagi o'zgarishlarga, shuningdek yangi sanoatlashgan mamlakatlar ham o'z hissalarini kushdilar. Ularni bir maromda rivojlanishi xorijiy kapitalni o'ziga jalb etibgina qolmay, balki o'z kapitalini eksport qilishga ham imkon berdi. 1990 yillardan boshlab sobiq sotsialistik mamlakatlar ham jahon kapital ayirboshlash jarayoniga faol qo'shildilar. Bu mamlakatlarda tub strukturaviy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ichki jamg'armalarning yetishmasligi tashqi qarzlar va chet el investitsiyalariga bo'lgan ehtiyojni keltirib chiqardi.

Xalqaro ayirboshlashning tarkibiy qismi hisoblangan kapitalni olib kelish, olib chiqish mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning boshqa shakllari, jahon xo'jaligi tarakkiyotining barcha jarayonlari bilan o'zaro chambarchas borlangan.

Etakchi davlatlardagi yoki mamlakatlar guruhidagi iqtisodiy pasayishlar va o'sishlar, siyosiy inqirozlar va harbiy ixtiloflar kapital migratsiyasining ko'lami va rivojlanishida bevosita aks etadi.

Bu jarayonlar bilan bir vaqtda, kapital harakatining o'zi ham jahon iqtisodiyotining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va xalqaro munosabatlarning xususiyatlarini belgilab beradi.

3. Xalqaro kreditning asosiy turlari.

Kapital harakatining muhim shakli ssuda kapitalini xalqaro kredit ko'rinishida olib kelinishi va olib chiqilishni hisoblanadi. Korxonalar, aholi va davlatda bush pul jamg'armalarining paydo bo'lishi, ularni banklar, sug'urta va investitsiya kompaniyalarida tuplanishi, shuningdek transmilliy kompaniyalar, banklar, xalqaro moliya-kredit muassasalarining paydo bo'lishi ssuda kapitali jahon bozorini shakllanishiga olib keladi. Bu bozorda turli mamlakatlardagi qarz beruvchilar va qarz oluvchilar kredit berish shartlari va kredit miqdorini belgilovchi shartnomalar tuzadilar.

Turli belgilariga ko'ra xalqaro kreditning bir necha ko'rinishlari mavjud. Kapitalning xalqaro harakati kabi kredit ham qarz beruvchi va muddati bo'yicha alohida turlarga bo'linadi.

Kreditlar kim tomonidan berilishiga qarab xususiy, xukumat va xalqaro tashkilotlar kreditlariga ajratiladi.

Xususiy kreditlar xususiy firmalar va banklar tomonidan beriladi xamda firma va bank kreditlariga bo'linadi.

Firma yoki tijorat krediti bir firma tomonidan boshqasiga to'lov muddatni chuzish sharti bilan tovarlarni sotish ko'rinishida beriladi. Ushbu holda kredit olish-sotish bitimiga xizmat qiladi va tovarni ishlab chiqarish soxasidan iste'mol soxasiga hara-katlantiradi. Kreditning bu turi veksel shaklida yoki ochik hisob bo'yicha beriladi. Veksel shaklidagi kreditda import qiluvchi tovar hujjatlarni olib eksport qiluvchi tomonidan o'tkaziladigan veksel (trattani) to'lashga rozilik bildiradi (aktsept) yoki oddiy vekselni rasmiylashtiradi.

Ochik hisob bo'yicha kreditda eksport qiluvchi import qiluvchining qarz majburiyatlarini olmaydi, balki qarzdor tomonidan vaqt-vaqti bilan ko'planadigan (har 1-2 oyda) qarzdorlik hisobini ochadi.

Firma yoki tijorat krediti xalqaro savdoda keng qo'llaniladi, chunki u mahsulotni sotish va foyda olish jarayonini jadallashtiradi. Biroq firmalar moliyaviy imkoniyatlarini chegaralanganligini hisobga olgan holda, u investitsiya tovarlarini yetqazib berishda ishlatilmaydi. Bunday xollarda eksport qiluvchilar tijorat kreditini bank muassasalari yordamida qayta moliyalashtiradi.

Bank krediti keng tarqalgan kredit turlaridan hisoblanib, tijorat kreditdan farqli ravishda kredit bitimlarining yo'nalishi, muddatni bilan chegaralanmagan. Uning qo'llanish soxasi kengroq bo'lib, u faqat tovarlar aylanishiga emas, balki kapital jamg'arilishiga ham xizmat ko'rsatadi. SHuning uchun bank krediti ikki tomonlama xususiyatga ega. Birinchi holda u pullar ssudasi sifatida, ya'ni qarz majburiyatlarini qoplash uchun zarur bo'lgan to'lov mablag'lari sifatida qatnashishi mumkin. Qarz oluvchi tovar, veksel, qimmatbaho kog'ozlorni garovga kuyib, uzi uchun ta'minlangan kredit oladi. Bu kredit qo'shimcha kapital hisoblanmaydi. Ikkinchi holda, qarz oluvchi ta'minlanmagan kredit oladi va uni amaldagi kapitalni ko'paytirishda kulaydi. Bunda bank krediti kapital ssudasi shaklida qatnashadi. Bank kreditining o'ziga xos shakllari bo'lib forfeyting, faktoring va xaridor krediti hisoblanadi.

Forfeyting – bu import qiluvchi tomonidan to'lashga rozilik bildirilgan veksellarni eksport qiluvchidan sotib olish shaklidagi tashqi iqtisodiy operatsiyalarni kreditlashdir.

Bunda to'lov majburiyatlari bo'yicha barcha xavf-xatarlar ham veksellarni sotib oluvchisiga (forfeyterga) o'tadi. SHuning uchun xaridor import kilayotgan mamlakat bankining kafolat berishini talab qiladi. Kreditning bu shakli o'rta muddatlidir, ya'ni yetti yilgacha» uning asosida kredit beruvchi eksportyor, importyorga bo'lgan talablarini boshqalarga o'tqazib, o'zining moliyaviy balansini yaxlitlashga imkon yaratadi.

Veksel - bu kat'iy belgilangan shakldagi yozma qarz majburiyati bo'lib, uning egasiga muddat tugashi bilan (rasman 1 yil. xaqikatda 1-3 oy) qarzdordan ko'rsatilgan pul miqdorini to'lashni talab etish huquqini beradi.

Oddiy va o'tkaziladigan veksellar ajratiladi. Oddiy veksel qarzdor tomonidan ieriladi va imzolanadi. O'tkaziladigan veksel (tratta) kredit beruvchi tomonidan (trassant) beriladi va imzolanadi va o'zida ko'rsatilgan muddatda belgilangan miqdorni uchinchi shaxsga (reamitentga) to'lash haqidagi qarzdorga (trassat) buyruqni aks ettiradi.

O'tkaziladigan veksel bo'yicha rozilik berish (aktsept) – bu to'lovchi tomonidan veksslda ko'rsatilgan muddat kelishi bilan uni to'lash majburiyatini olishdir. Bu vekselning old tomonida to'lovchi kuygan oddiy imzo bo'lishi mumkin. Veksel ham cheklar, banknotlar kabi kredit pullari deb ataladn. Biroq agar bank vekseli tovar bitimi bilan mustahkamlanmagan bo'lsa, unda veksel qimmatbaho kog'oz, ya'ni aktsiya va obligatsiya kabi qo'llanishi mumkin.

Obligatsiya – bu qarz berish haqidagi guvohnoma bo'lib, uning egasi har yillik belgilangan daromadni olish huquqiga ega, ya'ni u kat'iy foiz keltiradi. Aktsiyadan

farqli ravishda u boshqarishda ovoz berish huquqini bermaydi, faqat belgilangan daromad keltiradi va ma'lum muddat utgandan so'ng sotib olinishi lozim bo'ladi.

Faktoring – bu vositachi kompaniya tomonidan qarzdorning to'lov majburiyatlarini to'lovga qabul qilib uni tezda yoki o'rnatilgan muddatlarda mol egasiga to'lash. Kreditlashning bu shaklini ustunligi shundaki, faktoring kompaniyasiga (vositachiga) hisob-kitob xamda bozorga chiqishning moliya natijalarini tahlil qilish funktsiyalarining ma'lum qismi ham o'tadi. Kreditning bu shaklidan iste'mol mollarini ishlab chiqarishga ixtisoslangan, eksport oboroti katta bo'lmagan firmalar ko'proq foydalanadi.

Faktoring kompaniyalari tijorat banklari faoliyati bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ulardan kredit yordami va xaridorlarning kredit qobiliyati haqidagi ma'lumotlarni oladi. SHuningdek faktoring kompaniyalari o'zaro xalqaro guruhlarini, assotsiatsiyalarni tashkil etadilar. Bu kompaniyalar eksport qiluvchilarni kredit xavf-xatarlaridan va kreditni sug'urta qilish harajatlaridan ozod qiladi.

Xaridor krediti eksport qiluvchi banki tomonidan bevosita import qiluvchiga yoki unga xizmat ko'rsatuvchi bankka beriladi. U kontrakt bahosining 80-85 foizigacha qamrab oladi, qolganini import qiluvchi qo'shimcha manbalar hisobiga moliyalashtiradi. Kelishilgan miqdor chegarasida u kredit beruvchi mamlakat, ba'zan esa boshqa mamlakatlarning ham har qanday firmasiga mol yetqazib berish xaqini to'lashi mumkin. Bu firmalarni tanlashda kredit berayotgan bank ahamiyatli rol uynaydi. eksport qiluvchilar uchun bunday kreditlar doirasida mol yetkazpb berish naqd to'lovlarni bildiradi.

Kapital o'sishini ta'minlovchi bank krediti yoki bank investitsiyalari – bu bank resurslarini foizlar yoki dividendlar ko'rinishida foyda olish maqsadida uzoq muddatga qurilish va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlariga, asosan sanoatga qo'yishdir.

Xukumat kreditlari yoki xukumatlararo va davlat zayomlari xukumat kredit muassasalari tomonidan beriladi. Masalan, AQSH, YAponiyaning eksport-import banklari tomonidan, Frantsiyaning tashqi savdo banki va eksportni uzoq muddatga kreditlash, qayta moliyalashtirish, xususiy banklarning sug'urta kreditlarini kafolatlash bilan shug'ullanayotgan boshqa banklari tomonidan beriladi. Bu kreditlarning xususiyati ularning intiyozlilik va maqsadlilikidir.

Xalqaro tashkilotlarning kreditlari asosan Xalqaro valyuta fondi, Umumjahon banki, yevropa hamjamiyatining kremjamiyatining kresalari, shuningdek qator xududiy kredit banklari tomonidan beriladi.

Kreditlashning ob'ektiga qarab moliyaviy va bog'liq kreditlar ajratiladi.

Moliyaviy kredit deganda moliyalashtirish ob'ektini kelishmagan holda, ya'ni kreditlash maqsadlarini aniqlamasdan turib, pul-valyuta ko'rinishida mablag'lar berish tushuniladi. Bu qarzlarni to'lash xam, investitsiyalar berish ham bo'lishi mumkin. Moliyaviy kreditning eng tarqalgan shakli obligatsiya hisoblanadi. Ular xorijiy qarz oluvchilar tomonidan banklar yordamida ssuda kapitalining xalqaro va milliy bozorlarida joylashtiriladi.

Moliyaviy kreditlar kredit berayotgan mamlakatlar valyutasida, shuningdek uchinchi valyutalarda yoki, agar qarz bir necha mamlakatlarda joylashgan bo'lsa, bir

nechta valyutalarda berilishi mumkin. Obligatsiyalar hissasiga ssuda kapitallari xalqaro bozorlaridagi barcha uzlashtirilgan mablag'larning 61 foizi to'g'ri kelsa, qolgan 39 foizi bank kreditlariga to'g'ri keladi. Kreditlar ma'lum maqsadlar uchun beriladi. Bu aniq tashqi savdo operatsiyalari (tijorat krediti), yoki ma'lum investitsiya, yoki boshqa loyihalar bo'lishi mumkin.

Xalqaro kreditniig barcha ko'rinishlari va shakllari bir-biri bilan o'zaro bog'langan, ba'zi xollarda bir-biriga mos keladi. Masalan, firma, tijorat va bog'liq kreditlar, yoki qisqa muddatli va tijorat kreditlari, uzoq. muddatli va moliyaviy kreditlar va h k.

Xalqaro kredit milliy iqtisodiyot va jahon xo'jaligi rivojlanishida muhim rol uynaydi.

Birinchidan, u bo'sh pul mablag'larini ayrim mamlakatlar o'rtasida qayta taqsimlaydi, ularni jahon xo'jaligi samaradorligining o'sishini ta'minlovchi sohalariga yo'naltiradi.

Ikkinchidan, kapitalni aylanish vaqtini qisqartiradi, hisoblarni jadallashtiradi va shu bilan muoma-la harajatlarini kamaytiradi.

Uchinchidan, milliy iqtisodiyotga ta'sir etuvchi muhim vosita hisoblanib, xalqaro kredit davlatga iqtisodiy o'sish samaradorligini tartibga solish imkonini beradi.

4. Xalqaro ssuda kapitali bozori.

Qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasida vositachi bo'lib ssuda kapitali bozori qatnashadi. Xalqaro ssuda kapitali bozori - bu bo'sh turgan pul kapitallarini tuplanishi va mamlakatlar o'rtasida qayta taqsimlash bo'yicha munosabatlar majmuasidir. Uning asosi yevro-bozor hisoblanadi. Unda operatsiyalar ustun ravishda dollarda, shuningdek yevroda, ienada va boshqa konvertirlanadigan valyutalarda, ular kelib chiqqan mamlakatlar tashqarisida amalga oshiriladi. Bu bozorning asosiy ishtirokchilari yirik firmalar va banklar, moliya, sug'urta, investitsiya, xolding kompaniyalari, nafaqa fondlari, xukumat tashkilotlari va xalqaro valyuta-kredit muassasalari hisoblanadi.

Pul bozori va kapital bozori.

Xalqaro ssuda kapitali bozori o'z ichiga pul va kapitallar bozorlarini oladi.

Pul bozori - bu xalqaro savdoga xizmat ko'rsatish bilan bogliq qisqa muddatli operatsiyalar (bir necha soatdan bir yilgacha) bozoridir. Uning muhim qismi banklararo bozor yoki qisqa muddatli ta'minlanmagan banklararo ssudalar (depozitlar) bozoridir. Bu yerda ssuda kapitali harid va to'lov mablag'i sifatida amal qiladi va yuqori likvidlilik va harakatchanligi bilan ajralib turadi.

Kapitallar bozori – uzoq muddatli operatsiyalar bozori hisoblanadi. Unda ssuda kapitali o'z-o'zidan o'sib boruvchi qiymat sifatida qatnashadi, ya'ni shakliga ko'ra u o'z navbatida kredit va qimmatbaho kog'ozlar bozorlariga bo'linadi.

Qimmatbaho kog'ozlar bozori kapitallar bozorining asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Unda obligatsiyalar, aktsiyalarni chiqarish va ularni ikkilamchi joylashtirish amalga oshiriladi. Dastlab u fond birjalari sifatida paydo bo'ldi, biroq hozirgi vaqtda uning birja bo'lmagan bo'g'ini kengaytmokda.

Pul va kapital bozorlari bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'langan va bu ayniqsa qisqa muddatli resurslarni o'rta va uzoq muddatli kreditlarga aylanish jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi.

Jahon ssuda kapitali bozori geografik jihatdan jahon savdosi va kapital migratsiyasiga xizmat ko'rsatuvchi ko'p sonli kredit-moliya muassasalari tuplangan yirik xalqaro moliyaviy markazlar majmuasi sifatida aks ettirilishi mumkin.

Obligatsiya, aktsiyalar chiqarish va qimmatbaho kog'ozlar savdosi keng tarqalgan Nyu-York xalqaro valyuta, depozit va kredit operatsiyalarida yetakchi mavkega ega bo'lgan London, TSyurixlarni shular jumlasiga kiritish mumkin. Sunggi yillarda jaxop savdo va moliya markazlari qatori Singapur, Gonkong, Baxreyn va boshqalar hisobiga kengayib bormokda.

Ssuda bozorida kapitallar harakatini asosiy tartibga soluvchisi bo'lib kredit qiymati hisoblanadi. U uchta tarkibiy qismdan iborat:

- foiz stavkasi;
- komission va boshqa to'lovlar;
- sug'urta mukofotlari.

Bevosita qarz beruvchiga to'lanadigan asosiy qismi foiz stavkasi hisoblanadi. Uning darajasi jahon milliy pul bozorlarining ahvoliga, shuningdek qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasidagi kelishuvlarga bog'liq.

Foiz stavkalari qayd etilgan va suzib yuruvchi stavkalarga bo'linadi.

Qayd etilgan foiz stavkalari kreditning barcha muddatiga belgilanadi.

Suzib yuruvchi foiz stavkasi qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasida kelishilgan muddat o'rtasida (asosan 3 va 6 oydan keyin) kapital bozoridagi ahvolga qarab qayta ko'rib turiladi.

Suzib yuruvchi foiz stavkasi ikki qismdan tarkib topadi:

1. *Asos qilib olingan stavka*. Bunday stavka sifatida AQSH banklarining birinchi darajali qarz oluvchilari uchun stavkalari, shuningdek London banklari tomonidan shu toifadagi mijozlarga qisqa muddatli ssudalarni berishda ishlatiladigan o'rta foiz stavkalari (libor) qo'llaniladi. Rasmiy jihatdan liborning o'rnatilgan darajasi mavjud emas. Xar bir yirik London banki bu stavkapi valyuta bozoridagi talab va taklifga qarab aniqlaydi. Libor valyuta turlari va muddatiga qarab (1, 3, 6 va 12 oy) tabaqalashtirilgan.

2. *Ustamalar yoki marja*. Uning miqdori qarz oluvchi va qarz beruvchi o'rtasidagi kelishuv bo'yicha aniqlanadi.

Kredit qiymatining ikkinchi qismi - komission to'lovlaridir. U qarz beruvchi bankka belgilangan muddat mobaynida zarur kredit resurslarini qarz oluvchi ixtiyoriga berish va rezervda saqlash majburiyati uchun tulanadi. Shuningdek komission to'lovlar agar kredit alohida banklar tomonidan emas, balki banklar uyushmasi tomonidan berilsa, kredit operatsiyalarini o'tkazishni boshqarish uchun ham tulanadi. Sunggi holda yetakchi bank yoki uyushma ishini tashkil etuvchi menejer kreditlashda qatnashish hissasini xamda qarzni uzishdan, foizlarni to'lashdan tushadigan mablag'larni uyushma a'zolari o'rtasida taqsimlaydi. Buning uchun qarz oluvchidan boshqarish uchun bir martalik tartibda komission to'lovlar olinadi.

Kredit qiymatining so'nggi qismi sug'urta mukofoti bo'lib, maxsus sug'urta muassasalariga tulanadi. Chunki ular yuz berishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni sug'urta qiluvchi bilan kelishilgan miqdor doirasida qoplash majburiyatini o'z zimmlariga oladilar. Hozirgi vaqtda eksport kreditlarining sug'urta qilish mpkdori ehtimoli bo'lgan yo'qotishlarning 80-90 foizini tashkil etadi, ba'zida esa xatto 100 foiz.

Kredit qiymati ssuda kapitali bozoridagi talab va taklif asosida aniqlanadi. Kreditlarning barcha turlari, ya'ni xususiy, xukumat va xalqaro tashkilotlarning kreditlari ustun ravishda bozor qiymati bo'yicha beriladi, biroq ba'zi xollarda qarz oluvchi tomonidan ma'lum shartlar saqlanganda xukumat kreditlari va xalqaro tashkilotlarning kreditlari bozor qiymatidan past bo'lgan imtiyozli narxda berilishi mumkin. Belgilangan muddat tugaganidan so'ng qarz oluvchi asosiy qarzi va foizlar bo'yicha qarzlarni to'lashi lozim.

Birinchi asosiy qarz - bu foydalapilgan va ma'lum vaqtgacha xali qoplanmagan kredit miqdoridir. *Ikkinchisi*, bu uzilmagan asosiy qarz bo'yicha hisoblangan va ma'lum muddatgacha xali tulanmagan foizlar miqdoridir.

Asosiy uzilmagan qarzga to'lovlar va u bo'yicha hisoblangan foizlarga to'lovlar o'zida tashqi qarzga xizmat ko'rsatish bo'yicha harajatlarni aks ettiradi.

Kredit muddati: foydalanish muddati, imtiyozli davr va uzish muddati.

Har bir qarz oluvchi qarzndan o'z vaqtida kutilish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun olingan qarzdan eng ko'p darajada samarali foydalanishga harakat qilishi lozim. Bunda kredit muddati muhim ahamiyatga ega. Kreditning to'la va o'rta muddatlari farqlanadi. Kreditning to'la muddati foydalanish muddatini, imtiyozli davrni va uzish muddatini o'z ichiga oladi.

Bank kreditidan foydalanish muddati bu qarz oluvchi o'z majburiyatlarini to'lash uchun bank ssudasidan foydalanish muddatidir. Firma krediti bo'yicha esa - tovarni yetqazib berish va xaridor tomonidan eksport qiluvchiga o'z roziligini bildirish yo'li bilai qarzdorligini tan olish muddatidir.

Imtiyozli davr - bu kreditdan foydalanish muddatidan kreditni uzish boshlanishigacha bo'lgan davrdir. Bu davrning miqdori investitsiya tovarlarini yetqazib berishni kreditlashda katta ahamiyatga ega. Chunki u kreditni qoplashni boshlanishi olingan uskunalarni ishga tushirishga yaqinlashtiradi va shu asosda kapital qo'yilmalarni qoplash muddatini qisqartirishga imkon beradi.

Uzish muddati - bu kreditlar bo'yicha asosiy qarzni, hisoblangan foizlar va komissiey to'lovlarnn tula to'lash yuz beradigan vaqtdir.

Foydalanish, uzish muddatlari va imtiyozli davrni kreditlashning turli variantlarida turlicha bo'lganligi sababli, ko'plab hisob-kitoblarni amalga oshirishda kreditning o'rtacha muddati qo'llaniladi. Agar kreditdan foydalanish va uni uzish teng me'yorda amalga oshirilsa, u holda uning o'rtacha muddati quyidagiga teng foydalanish muddatining yarmi imtiyozli davr uzish muddatining yarmi.

5. CHet el investitsiyalari tushunchalari.

Tadbirkorlik kapitali harakati kapitalni olib kelish va olib chiqishning yapgi, biroq jadal rivojlanayotgan shakli hisoblanadi. Xalqaro kredit kabi, u ham xo'jalik

aloqalari baynalmilallashuviga yordam beradi, chet el investitsiyalari ko'rinishida ishlab chiqarish sohasini yangilapishi va kengayishida bevosita qatnashadi.

CHet el investitsiyalari deganda milliy iqtisodiyotga xorijiy mamlakatlarning valyutadagi pul mablag'lari, qimmatbaho kog'ozlar, shuningdek kreditlar ko'rinishidagi kapital qo'yilmalarning barcha shakllari tushuniladi.

Bu ko'shma korxonalarda o'z xssasi bilan katiashish, xorijiy investorlarga tulik tegishli bo'lgan korxonalarni yaratish, chet ellik shaxslar tomonidan korxonalar, kuchmas mulk qimmatbaho kog'ozlar, shuningdek zayomlar va kreditlarni sotib olish bo'lishi mumkin.

SHunday qilib keng ma'noda investitsiyalarning uch xili farqlanadi:

- haqiqiy, ya'ni moddiy ishlab chiqarish tarmoqlariga uzoq muddatli mablag'lar qo'yish;

- moliyaviy yoki xalqaro kredit-moliya faoliyati, bunga qimmatbaho kog'ozlar bilan operatsiyalar ham kiradi;

- intellektual - bu mutaxassislarni tayyorlash, tajriba, litsenziya va «nou-xau» berish, birgalikdagi ilmiy ishlanmalar va boshqalar.

CHet el investitsiyalari tushunchasi xalqaro kredit tushunchasi bilan ba'zan bir-biriga mos keladi. Bu avvalo moliyaviy investitsiyalarga tegishlidir. Uning tarkibiy qismi bo'lib portfel investitsiyalar hisoblanadi. Ko'pincha chet el investitsiyalarining tor ma'nodagi tushunchasi qo'llaniladi. Bunda chet el investitsiyalari deganda investorga korxona faoliyati ustidan nazorat qilish huquqini beruvchi to'g'ridan-to'g'ri qo'yilmalar tushuniladi. To'g'ridan-to'g'ri investitsiya qilishning bu xususiyati kapital ketayotgan va uni qabul qilib olayotgan mamlakatlarning ikkiyoqlama munosabatlarini asoslaydi.

Kapital chiqarayotgan mamlakatlar uchun kapitalni «oqib ketishi», bir tomondan, imkoniyatli ishchi joy-larini va kapitalni yo'qolishini, boshqa tomondan, o'zining jahon bozorida qatnashuvini kengaytirish va yuqori foyda olishini bildiradi. Qabul qilib olayotgan mamlakatlar uchun chet el investitsiyalari, bir tomondan, iqtisodiyotning alohida bo'g'inlari ustidan nazorat yo'qolishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan esa yangi texnologiyalar, boshqarish usullariga bo'lgan keng qiziqishni aks ettiradi.

Bu sharoitlar to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jarayonining ko'tarilishi va pasayishini, uning yo'nalishi va xususiyatlari o'zgarishini tushuntiradi.

To'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalarini jahon bo'yicha olib chiqish va olib kelish hajmlari bir-biriga teng bo'lishi kerak ammo biron amaliyotda ular baravar bo'lmaydilar, chunki ularni aniqlash, baholash va hisob-kitob qilishda qator farqlar mavjud.

Hozirgi bosqichda bu jarayonning xususiyati birinchidan, sanoati rivojlangan mamlakatlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni o'zaro ayirboshlashdir. Avvallari ular ustun ravishda rivojlanayotgan davlatlarga yo'naltirilgan edi. Ikkinchidan, ularni qazib oluvchi tarmoqlarda emas, balki qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarida, xususan iqtisodiyotning yuqori texnologiyali bo'g'inlarida tuplash.

Asosiy tushunchalar:

Kapitalning xalqaro xarakati — kapitalning yuqoriroq foyda olish maqsadida bir mamlakatdan boshqasiga ko'chishidir.

Ssuda kapitali — qaytarib berish va foizlarni to'lash sharti bo'yicha beriladigan kapital.

Tadbirkorlik kapitali — xorijda korxonalarni yaratish maqsadida beriladigan kapital.

Bevosita (tug'ri) investitsiyalar — investorga xorijiy korxonalar ustidan nazoratni ta'minlash xuquqini beruvchi investitsiyalar.

Portfelli investitsiyalar — investor xorijiy korxonani bevosita boshqarishda qatnasha olmaydigan va faqat aksiyalardan dividendlar olib turishga yo'naltirilgan investitsiyalar.

Firma yoki tijorat krediti — bir firma tomonidan boshqasiga to'lov muddatini cho'zish sharti bilan tovarlarni sotish ko'rinishida beriladigan kredit.

Bank krediti — kredit bitimlarining yo'nalishi, muddati bilan chegaralanmagan kredit turi.

Forfeyting — import qiluvchi tomonidan to'lashga rozilik bildirilgan veksellarni eksport qiluvchidan sotib olish shaklidagi kreditlash.

Faktoring — vositachi kompaniya tomonidan qarzdorning to'lov majburiyatlarini to'lovga qabul qilib, uni tezda yoki o'rnatilgan muddatlarda mol egasiga to'lash.

Moliyaviy kredit — kreditlash maqsadlari aniqlanmasdan, pul — valyuta ko'rinishida mablag'larni berish.

Bog'liq kreditlar — ma'lum maqsadlar uchun beriladigan kredit.

Xalqaro ssuda kapitali bozori — bo'sh turgan pul kapitallarini to'planishi va mamlakatlar o'rtasida qayta taqsimlanishi bo'yicha munosabatlar majmuasi.

Pul bozori — xalqaro savdoga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq qisqa muddatli operatsiyalar bozori.

Kapitallar bozori — uzoq muddatli operatsiyadar bozori.

Nazorat savollari

1. Kapital xarakatini mohiyati nimadan iborat?
2. Ssuda kapitali va tadbirkorlik kapitali o'rtasidagi farqni ayting.
3. To'g'ri va portfel investitsiyalar deganda nimani tushuniladi?
4. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda kapital xarakati ahamiyatining o'sishini nima bildiradi?
5. Zamonaviy sharoitlarda kapital xarakati yo'nalishlarining o'zgarishi qanday?
6. Firma krediti nima va u qaysi hollarda ishlatiladi?
7. Bank kreditining xususiyatlari va o'ziga xos shakllari nimadan iborat?
8. Moliyaviy kredit bog'liq kreditdan qaysi xususiyatlari bilan ajralib turadi?
9. Xalqaro kredit milliy iqtisodiyot va jahon xo'jaligi rivojlanishida qanday rol uynaydi? Xalqaro ssuda kapitali bozor deganda nima tushuniladi? U o'z ichiga qaysi bozorlarni oladi? Kredit qiymatining qanday tarkibiy qismlari mavjud?
12. Kreditning to'la va o'rta muddatlari o'z ichiga nimalarni oladi?
13. CHet el investitsiyalarining milliy iqtisodiyotdagi roli qanday ?
14. O'zbekistonda chet el investitsiyalarini jalb etish uchun qanday sharoitlar yaratilgan?

7-MAVZU: JAHON IQTISODIYOTIDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING TUTGAN O'RNI

Reja:

1. Erkin iqtisodiy hududlarning (EIH) mohiyati va tashkil qilinishining sabablari.
2. Erkin iqtisodiy hududning asosiy ko'rinishlari.
3. Turli davlatlarda erkin iqtisodiy hududlar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari.

1. «Erkin iqtisodiy hududlar» (EIH) mohiyati va tashkil qilinishining sabablari.

XX asrning ikkinchi yarmida jahon iqtisodiyotidagi eng muhim hodisalarning biri erkin iqtisodiy hududlar faoliyati hisoblanadi.

Ilmiy maqolalarda va xalqaro tashkilotlarning hisobotlarida turli xildagi hududlarni tavsiflash uchun «erkin iqtisodiy hududlar» atamasi ishlatiladi. Biroq bu atama hodisaning mohiyatini to'liq aks ettirmaydi. Chunki, bu hududlarning ko'pchiligida qo'llaniladigan iqtisodiy qoidalar, dastaklar, maxsus ma'muriy qonunlar ma'lum huquqiy va xo'jalik rejimidan ozod qilmaydi, balki uni yengillashtiradi va tadbirkorlikni rag'batlantiruvchi imtiyozlar beradi, xolos. Bu bilan amalda davlat o'zining iqtisodiy jarayonlarga aralashuvini kamaytiradi.

Yaponiyaning Kioto shahrida 1973 yil 18 mayda qabul qilingan «Bojxona jarayonlarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish bo'yicha Xalqaro konventsiya»ga muvofiq *erkin hudud deganda mamlakatning shunday hududi tushuniladiki, bu yerga olib kirilgan tovarlar milliy bojxona yurisdiksiyasidan tashqarida hisoblanadi, binobarin bojxona nazorati va soliqqa tortishdan ozod etiladi.*

Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar uchun erkin hududlar amalda hududdagi ishchilarning turmush tarzi, ishlab chiqarish salohiyatining kontsentratsiyalashuvi kabilarga ko'ra eksterritoriallik jihatdan maxsus hisoblanadi. Shuning uchun ham bunday hududlarga «maxsus iqtisodiy hududlar» atamasi mos keladi.

Erkin iqtisodiy hududlarni yaratilishiga ularning tashkilotchilari tomonidan ochik iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshirishning muhim bo'g'ini sifatida qaraladi. Ularning faoliyati tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish va tezlashtirish bilan bog'lanadi. Erkin iqtisodiy hududlardagi iqtisodiyot tashqi olam uchun yuqori darajada ochiqlikka, bu yerdagi bojxona, soliq va investitsiya rejimlari ichki va tashqi investitsiyalar uchun qo'laylikka ega. Erkin iqtisodiy hududlar jahon miqyosida harakatlanuvchi kapitallar uchun o'ziga xos «qopkon» hisoblanadi.

Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish mamlakat ichidagi iqtisodiy jarayonlarni tezlashtirishga qaratilgan hodisa, ya'ni xorijiy kapitalni jalb qilishdan tashqari quyidagi uch asosiy vazifa bilan bog'lanadi:

- Sanoat eksportini rag'batlantirish hamda mana shu asosda valyuta mablag'lariga ega bo'lish.
- Bandlik darajasini o'stirish.
- Hududni xo'jalik yuritishning yangi usullarini sinash maydonchasiga aylantirish.

Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etishning yana bir muhim tomoni shundaki, ko'pincha mamlakat o'z iqtisodiyotini xorijiy kapital oqib kelishi uchun to'liq ochishni xoxlamaydi, shuning uchun maxsus hududlar tarzidagi qisman, lokal ochiqlikdan foydalanadi.

Erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish va uning faoliyati borasidagi jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rag'batlantiruvchi jahon bozoriga chuqur integratsiyalashuv uchun yaratilgan hududlar (erkin savdo, eksport sanoati, bojxona hududlari va boshqalar) bilan bir qatorda ma'lum ishlab chiqarish tarmog'i va faoliyat to'rini rag'batlantiruvchi maxsus rejimli hududlar ham mavjud. Masalan, qoloq rayonlarni rivojlantirish, sanoatlashtirishni qo'llab-quvvatlovchi hududlar. SHuning uchun erkin iqtisodiy hududlarni yaratishning sabab va maqsadlari har bir konkret holda bir-biridan yetarlicha ajralib turishi mumkin. Darhaqiqat, AQSH va Buyuk Britaniya kabi rivojlangan mamlakatlarda erkin iqtisodiy hududlar depressiv rayonlarda kichik va o'rta biznesni jonlantirishga yo'naltirilgan hududiy siyosatni amalga oshirish uchun tashkil etilgan. Mana shu maqsadlarda tadbirkorlarga (kichik va o'rta tadbirkorlarga) mamlakatning boshqa hududlariga nisbatan katta faoliyat erkinligi va moliyaviy imtiyozlar taklif ztiladi. Bu dasturlar xorijiy kapitallarni jalb etish uchun maxsus yo'naltirilmagan.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda ham erkin iqtisodiy qududlar xuddi shunga o'xshash maqsadlarda tashkil etilgan bo'lib, bu qoloq hududlarni rivojlanuvchi hududlarga aylanishini ta'minlagan. Ammo sanoati rivojlangan mamlakatlardan farqli ravishda bu mamlakatlarda erkin iqtisodiy hududlarni yaratishda asosiy e'tibor xorijiy kapitallarni jalb qilishga qaratilgan.

2. EIHning asosiy ko'rinishlari

Erkin iqtisodiy hududlarning tashkiliy-funksional tuzilmasi yetarli darajada turli-tumandir. Ba'zan u yoki bu erkin iqtisodiy hududlarni bir so'z bilan guruhlarga ajratib bo'lmaydi, chunki ular ko'plab hududlarning xususiyatlarini o'zida jamlashi mumkin. erkin iqtisodiy hududlar mutaxassislar tomonidan hududda xo'jalik yurituvchi ko'plab firmalarning faoliyat sohasiga - xo'jalik yuritishning ixtisoslashuviga ko'ra taxminiy guruhlashtirilgan.

Guruhlashda asosiy o'rin sanoatni qayta ishlash hududlariga ajratilgan.

Erkin iqtisodiy hududlarni yaratishda ikkita konseptual yondashish mavjud: hududiy va nuqtaviy. Birinchi holatda erkin iqtisodiy hududga barcha rezident-korxonalar xo'jalik faoliyatining imtiyozli rejimidan foydalanadigan maxsus territoriya sifatida qaraladi. Ikkinchi yondashuvga ko'ra esa, erkin iqtisodiy hudud - bu firmalar mamlakatning qaysi qismida joylashishidan qat'iy nazar tadbirkorlik faoliyatining ma'lum turiga qo'llaniladigan imtiyozli rejimdir.

Birinchi yondashuvni amalga oshirishga Xitoydagi erkin iqtisodiy hududlar, Braziliyadagi «Manaus» hududi, rivojlanayotgan mamlakatlardagi ko'plab eksport sanoati hududlari misol bo'la oladi. Ayrim korxonalar (offshor firmalar, «dyuti fri» magazinlari) tomonidan taklif etilgan «nuqtaviy» hududlar ikkinchi yon-dashuvning natijasidir.

Erkin iqtisodiy hududlarning turlari

1. Savdo hududlari Erkin bojxona hududlari Bond omborlari Erkin Portlar	2. Sanoat-ishlab chiqarish hududlari importning oʻrni bosuvchi mahsulot ishlab chiqarish hududlari eksport sanoati hududlari	3. Texnikaviy ilmiy ishlab chiqarish hududlari	4. Servis xizmat koʻrsatish hududlari
		Texnopolislar Texnoparklar YAngi va yuqori texnologiyalarni rivojlantirish Hududlari	Offshor hududlar Moliya markazlari Bank xizmati hududlari Turizm xizmati hududlari Ekoparklar
5. Kompleks hududlar		6. Xalqaro hududlar	

Erkin iqtisodiy hududlarning eng sodda ko'rinishlaridan biri erkin (bojsiz) bojxona hududlaridir (EBX) – Bu hududlar erkin savdo hududlari kabi birinchi avlod hududlariga kiradi. Ular XVII va XVIII asrlardan beri mavjud. Bunday hududlar eksportga mo'ljallangan tovarlarni saqlash, qadoqlash va kichik hajmda qayta ishlash uchun xizmat qiladigan tranzit yoki konsignatsion omborlardan iboratdir. Bu hududlarni ko'pincha bond omborlari yoki erkin bojxona territoriyalari ham deb atashadi. erkin bojxona hududlarida tovarlarni olib kirish va chiqish bojxona bojaridan ozod qilinadi. Ular juda ko'p mamlakatlarda mavjud.

Erkin savdo hududlari (ESX.) ham jahonda keng tarqalgan. erkin savdo hududlari AQSHda eng ko'p rivojlandi. Savdoni qo'llab-quvvatlash, savdo operatsiyalarini tezlashtirish, savdo harajatlarini kamaytirish maqsadida 1934 yilda AQSHda erkin savdo hududlarini tashkil etish to'g'risida maxsus qonun qabul qilingan.

Bunday hududlar AQSH territoriyasining ma'lum bir chegaralangan qismi bo'lib, ular chegarasida boshqa hududlarga nisbatan imtiyozli xo'jalik rejimi o'rnatilgan. Qonunda har bir rasmiy portda hech bo'lmasa bitta erkin tashqi savdo hududi tashkil etilishi mumkin deb ko'rsatilgan. AQSH qonunchiligiga ko'ra mamlakat hududida faoliyat olib boruvchi erkin savdo hxududlari umumiy va maxsuslashtirilgan hududlarga (subxududlar) ajratiladi. Umumiy hududlar uncha katta bo'lmagan maydonni (bir necha kv. km) egallaydi va milliy bojxona hududidan tashharida joylashgan bo'ladi. U yerda keltirilgan tovarlarni omborlarda saqlash va qayta ishlash (qadoqlash, navlarga ajratish, markirovka kabilar) operatsiyalari amalga oshiriladi.

Subxududlar faoliyati umumiy hududlar doirasidan tashqariga chiquvchi ayrim yirik kompaniyalar uchun yaratiladi. Bu hududlarda eksportga mo'ljallangan va importni o'rni bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqariladi. Subxududlar erkin savdo hududlari va importning o'rni bosuvchi ishlab chiqarish hududlari rejimi kombinatsiyasidan iborat.

Oddiy erkin savdo hududlari qatoriga yirik xalqaro aeroportlarda joylashgan maxsus «dyuti fri» magazinlarini qo'shish mumkin. Amaldagi rejim nuqtai nazaridan bu hududlar davlat chegarasidan tashqarida hisoblanadi. erkin savdo hududlariga, shuningdek, imtiyozli savdo rejimli erkin gavanlar (portlar) ham kiradi.

Sanoat-ishlab chiqarish hududlari ikkinchi avlod hududlariga kiradi. Ular savdo hududlarining rivojlanib borishi natijasida paydo bo'ldi, ya'ni bu hududlarga tovar bilan bir qatorda kapital ham olib kirilib, faqatgina savdo faoliyati bilan emas, balki ishlab chiqarish faoliyati bilan ham shug'ullanish yo'lga qo'yildi.

Sanoat-ishlab chiqarish hududlari eksportga mo'ljallangan yoki import o'rni bosuvchi mahsulot ishlab chiqariladigan maxsus bojxona rejimli hududlarda tashkil etiladi. Bu hududlarda sezilarli soliq va moliyaviy imtiyozlardan foydalaniladi. eksport sanoati hududlari, Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda keng tarqaldi. Bunday hududlarning zamonaviy modeli 1959 yilda Irlandiyadagi SHennon aeroportida yaratilgan hududiy tuzilmadan boshlanadi. Bu hududlardan yangi industrial mamlakatlarda ko'proq samaraga erishildi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida 60-yillarning o'rtalarida vujudga kelgan vaziyat, ya'ni eksport sanoatini va bandlikni xorijiy kapitallar olib kelish hisobiga rag'batlantirishga bo'lgan ehtiyojlarni eksport sanoati hududlarining yaratilishiga asosiy sabab sifatida kel-tirishimiz mumkin.

Ilmiy-texnikaviy qo'llab-quvvatlash hududlari uchinchi avlod g'ududlariga kiradi (70-80 yillar). Bu hududlar favqulodda yoki davlat ko'magida yirik ilmiy markazlar doirasida maxsus tashkil etiladi. Ularda milliy va xorijiy tadqiqotlar olib borish, loyihalash, ilmiy-ishlab chiqarish firmalari jamlanadi va yagona soliq va moliyaviy imtiyozlar tizimidan foydalanadi. Ilmiy-texnikaviy qo'llab-quvvatlash hududlari AQSH, YAponiya, Xitoy mamlakatlarida keng tarqalgan. Ular AQSHda - texnopark, YAponiyada - texnopolis, Xitoyda - yangi va ilg'or texnologiyalarni rivojlantirish hududlari deb ataladi. Jahonda eng mashxur va AQSHdagi eng yirik bo'lgan texnopark «Silikon Velli» hisoblash texnikasi va kompyuter uskunalari ishlab chiqarishning 20 foiziga ega. Unda 20000 atrofida ishchilar ish bilan ta'minlangan. AQSHda 80 dan ortiq bunday hududlar mavjud.

YAponiyada maxsus xukumat dasturlari donrasida va yetakchi ilmiy tashkilotlar bazasida yig'irmadan ortiq texnopolislar yaratilgan. Xitoyda ham bunday hududlar fan va texnikani rivojlantirish bo'yicha davlat rejalarini amalga oshirish mobaynida yaratilgan.

90-yillarning o'rtalariga kelib Xitoyda 50 dan ziyod yangi va ilg'or texnologiyalarni rivojlantirish hududlari faoliyat olib borardi. Osiyo «YAngi industrial mamlakatlari»da ilmiy texnikani qo'llab-quvvatlash hududlari mavjud eksport sanoati hududlarida innovatsiya markazlari sifatida shakllangan.

Bu innovatsiya markazlari eksport sanoati hududlarini ilm talab mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun moslashtirishga xizmat qilgan.

Servis xizmati ko'rsatish hududlari – bu turli moliyaviy, sug'urta va boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi firmalarning tadbirkorlik faoliyati olib borishi uchun imtiyozli rejimli territoriyadir.

Servis xizmati ko'rsatish hududlariga offshor hududlar va soliq gavanlari kiradi. Offshor hududlar va soliq gavanlari tadbirkorlarni bu hududlardagi qo'lay valyuta-moliyaviy, fiskal rejim, bank va tijorat siri saqlanishining yuqori darajadali hamda davlat tomonidan boshqaruvning sustligi bilan o'ziga tortadi.

Offshor hududda ro'yxatdan o'tgan hamda soliq va boshqa imtiyozlarga ega bo'lmoqchi bo'lgan kompaniyalarga qo'yiladigan asosiy talab shuki, ular offshor hudud joylashgan mamlakat-ning rezidenti bo'lmasligi hamda bu hududdan daromad olishga harakat qilmasligi kerak. Soliq gavanlari offshor hududlardan shu bilan farq qiladiki, u yerda barcha (ham maxalliy, ham xorijiy) firmalar har qanday yoki ayrim faoliyat turlari uchun soliq imtiyozlariga ega bo'ladi. Hozirgi paytda jahonda 300 dan ortiq offshor markazlar mavjud va ularning ichida 70 ta atrofida soliq gavanlari bor.

Anchadan beri offshor hududlar faoliyat olib borayotgan mamlakatlarga Lixtenshteyn, Panama, Normand orollari, Britaniyadagi Men oroli, Antil orollari, Gonkong, Madeyra, Liberiya, Irlandiya, SHveytsariya kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Keyingi o'n yillikda offshor hududlar Malta, Mavrikiya, G'arbiy Samoa, Isroil, Malayziya (Labuan oroli) va boshqa mamlakatlarda vujudga keldi.

Sanoat, savdo, bank, sug'urta va boshqa kompaniyalar offshor hududlarda umuman soliqqa tortilmaydi (Irlandiya, Liberiya) yoki uncha katta bo'lmagan paushal soliqqa tortiladi (Lixtenshteyn, Antil orollari, Panama, Men oroli va boshqalar). Masalan, SHveytsariyada nisbatan past soliq olinadi, xatto ma'lum sharoitlarda umuman olinmasligi mumkin. Offshor hududlardagi imtiyozlar yana bu yerda valyuta cheklashlarining yo'qligi, foydani erkin olib chiqib ketish, ustav kapitalining past darajasi, bojxona bojlari va xorijiy investorlar uchun yig'implarning mavjud emasligi, eksterritoriallik kabilari bilan belgilanadi. Offshor hududlarni tashkil etuvchi mamlakatlar qo'shimcha xorijiy kapital mablag'larini jalb qilish, ro'yxatdan o'tgan kompaniyaning hududda faoliyat olib borishi, maxalliy kadrlar uchun ish joylarining yaratilishi orqali oxir-oqibat milliy iqtisodiyotning rivojlanishidan manfaatdor bo'ladi.

Offshor biznes odatda bank, sug'urta ishi, dengiz kemasozligi, ko'chmas mulk bo'yicha operatsiyalar, trast faoliyati, barcha turdagi eksport-import operatsiyalari va konsalting faoliyati doirasida jamlanadi. Ba'zi baholashlarga qaraganda, offshor biznes sohasida to'plangan kapital mablag'lari miqdori 500 mlrd. dollarga yetadi. Bu biznesda 2 mln.ga yaqin omonatchilar (huquqiy va jismoniy shaxslar) ishtirok etmoqda, shuningdek, har yili bir necha ming yangi kompaniyalar ro'yxatdan o'tib, offshor faoliyat hajmini oshirishmoqda. Offshor hududlar faoliyati haqida mutaxassislar fikri bir xil emas. Ularning bir qismi bu hududlarni turli bank tovlamachiligi va nopok pullarni «tozalash» joyi deb hisoblashadi.

Kompleks hududlar ma'muriy barpo etilgan alohida hududda umumiy xo'jalik rejimiga nisbatan maxsus imtiyozlar berish orqali tashkil topadi. Kompleks hududlarga Xitoydagi beshta maxsus hududni va «ochiq rayonlar»ni, shuningdek, Braziliyadagi «Manaus» hududi, Argentinadagi «Olovli yer» territoriyasi, sanoati

rivojlangan mamlakatlarning qoloq rayonlarida yaratilgan erkin tadbirkorlik hududlarini kiritish mumkin.

90-yillarda xalqaro erkin iqtisodiy hududlarni shakllantirish jarayoni rivojlandi. Bundan hududlar ikki yoki o'ndan ortiq mamlakat chegarasida tashkil etildi.

Ishbilarmonlik shartnomalarini mamlakatlararo emas, balki hududiy darajada o'rganish natijasida o'zaro tashqi iqtisodiy aloqalarni tashkil etishning yana bir ko'rinishi sifatida yevrohududlar yuzaga keldi. yevrohudud - bu turli mamlakatlar chegara hududlarining ko'ngilli birlashmasi bo'lib, u birinchi navbatda, xo'jalik sohasida o'zaro aloqalarni jadallashtirish maqsadida tuziladi. yevrohudud doirasida faoliyat olib boruvchi har bir mamlakat xukumatining oliy organi bu hududlarga mamlakat chegarasida xo'jalik va boshqa aloqalarni jadallashtirishni qo'llab-quvvatlovchi vakolat beradi. yevrohududlarni tashkil etilishida Polsha, Slovakiya, CHexiya, Vengriya, shuningdek, Ukraina, Belorusiya aktiv ishtirok etishmolda.

Turli xildagi erkin iqtisodiy hududlarga xos umumiy xususiyat o'z ichiga bojxona, moliyaviy, soliq imtiyozlarini oluvchi qulay investitsiya muhiti hamda u yoki bu mamlakatdagi tadbirkorlar uchun mavjud xo'jalik rejimiga nisbatan ustunliklardir.

Imtiyozlarni to'rtta asosiy guruhga bo'lish mumkin:

Tashqi savdo imtiyozlari. Ular maxsus bojxona-tarif rejimi (eksport-import soliqlarini kamaytirish yoki olib tashlash)ni kiritish va tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish tartibini soddalashtirishni nazarda tutadi.

Soliq imtiyozlari. Tadbirkorlarning aniq bir faoliyatini soliq orqali rag'batlantirish bilan bog'liq bo'lgan me'yorlarni o'z ichiga oladi. Bu imtiyozlar soliq bazasi (daromad, mulk bahosi kabilar), uning ayrim tarkibiy qismlari (amor-tizatsiya ajratmalari, maoshga harajatlar, ITTKI, transport harajatlari), soliq stavkalari darajasi, soliqqa tortishdan vaqtincha yoki batamom ozod qilish masalalariga tegishli bo'lishi mumkin.

Moliyaviy imtiyozlar. Moliyaviy imtiyozlar turli ko'rinishdagi subsidiyalarni o'z ichiga oladi. Ular nisbatan past bahodagi kommunal xizmatlar, yer uchastkalari va ishlab chiqarish inshootlariga ijara to'lovini kamaytirish, imtiyozli kreditlar ko'rinishda beriladi.

Ma'muriy imtiyozlar. Ular hudud ma'muriyati tomonidan korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish va xorijiy fuqarolarning kelib-ketish tartibi jarayonlarini osonlashtirish maqsadida va turli xizmatlar ko'rsatish orqali taklif etiladi.

Sanab o'tilgan imtiyozlar turli kombinatsiyalarda qo'llanilishi mumkin. erkin iqtisodiy hududlarda beriladigan imtiyozlar har doim ham xorijiy kapital jalb qilishga rag'bat bo'lavermaydi. Bu jihatdan qaraganda, siyosiy barqarorlik, investitsiya kafolatlari, infratuzilma sifati, ishchi kuchining malakasi, ma'muriy protseduraning osonlashtirilganligi va boshqa omillar ko'proq ahamiyat kasb etishi mumkin. SHunday bo'lsada, barcha sharoitlar bir xil bo'lganda, hududda taklif etiladigan imtiyozlar birinchi o'ringa chiqadi.

Asosiy tushunchalar

Erkin iqtisodiy hududlar - mamlakatning shunday hududiki, bu yerga olib kirilgan tovarlar milliy bojxona yurisdiksiyasidan tashqarida hisoblanadi, binobarin

bojxona nazorati va soliqqa tortishdan ozod etiladi, ya'ni bu yerda mamlakatning boshqa hududlarida qo'llanilmaydigan o'ziga xos imtiyozlar va rag'batlantirishlar tizimidan foydalaniladi.

Offshor hududlar — milliy iqtisodiy makonning bir qismi bo'lib, bu yerda chet ellik huquqiy va jismoniy shaxslar tijoriy operatsiyalarni chet el valyutasida amalga oshirishadi.

Nazorat savollari

1. Erkin iqtisodiy hududlarning iqtisodiyotidagi ahamiyati qanday?
2. eIX, ko'rinishlariga tavsif bering.

8-MAVZU: XALQARO VALYUTA VA KREDIT MUNOSABATLARI

Reja:

1. **Jahon valyuta tizimining zaruriyati, mohiyati va rivojlanishining asosiy bosqichlari**
2. **Xalqaro valyuta-kredit vositalari**
3. **Valyutaning almashtirish kurslari**
4. **Valyuta bozorlari va valyuta operatsiyalari**
5. **Mamlakat to'lov balansi**

1. Jahon valyuta tizimining zaruriyati, mohiyati va rivojlanishining asosiy bosqichlari

Har qanday xalqaro bitim o'zaro hisob-kitoblar bilan kuzatilishi sababli birinchi navbatda uni kaysi pul birligida amalga oshirish masalasi turadi. SHuning uchun bitim ishtirokchisi jahon bozorida biror-bir tovar yoki xizmatni sotar yoki sotib olar ekan, o'zining milliy valyutasi boshqa mamlakatlarning pul birliklari bilan qanday nisbatda ekanligini, ulardai kaysi biri barqarorrok va jahon bozorida kay darajada talabga ega ekanligini bilishi kerak. Bu unga xorijda tashqi iqtisodiy operatsiyalar olib borishga zarur bo'lgan valyuta zaxirasini o'zida yaratish imkonini beradi.

Mamlakatlar o'rtasida tovar va xizmatlar oqimi ko'paygan sari. pul-moliya vositalari ayirboshlash ham tobora ko'payib boradi, o'zaro hisob-kitoblar murakkablashadi, natijada bunday hisob-kitoblarni tartibga solib turish, tezlashtirish va kapital harakati uchun keng yo'l ochishga xizmat qiluvchi jahon valyuta tizimini shakllanishiga ob'ektiv shart-sharoit yaratiladi.

Jahon valyuta tizimi tarixan mamlakat ichida va tashqarisida normal to'lovlarni ta'minlovchi milliy valyuta tizimlarini rivojlanishi asosida yuzaga kelgan. XIX asr boshlarida turli mamlakatlar o'rtasida xalqaro ayirboshlashning kengayishi, ularning milliy valyuta tizimlari o'rtasida o'zaro aloqalarni ta'minlash zarurligiga olib keldi.

Dastlab bunday o'zaro aloqa «oltin standart» bazasida amalga oshirildi, ya'ni oltin pulning asosiy shakli bo'lgan pul tizimida olib borildi. Oltin standart kiritilgan mamlakatlarda davlat qonuniy tartibda milliy valyutada oltinning miqdoriy hajmini o'rnatadi, ichki bozorda muomalaga cheklanmagan miqdorda oltin tangalarni chiqaradi, boshqa pullar unga nisbatan buysunuvchi rol uynaydi va istalgan paytda

oltinga erkin ayirboshlanishi mumkin bo'ladi. Undan tashqari davlat barcha tovarlar bahosini oltin birliklarida hisoblaydi, oltinni erkin olib kelishga va olib chiqishga ruxsat beradi. Demak, milliy valyuta bahosi oltinga bog'langan ekan. birinchidan, har bir mamlakat xukumati oltin bilan ta'minlanishi mumkin bo'lgan miqdorda kog'oz pullarni chiqarishga harakat qiladi, bu esa ortiqcha pul emissiyasini va u bilan bog'liq inflyatsiyani to'xtatib turadi; ikkinchidan, turli milliy valyutalar o'rtasidagi o'zaro nisbatlar qayd etilgan, nisbatan doimiy bo'lib, xalqaro hisoblarda barqarorlikni ta'minlaydi. Masalan, agar 1929 yilda bir funt sterling 7,32 g sof oltinni, AQSH dollari 1,5 g sof oltinni tashkil etgan bo'lsa, ular o'rtasidagi o'zaro nisbat yoki oltin pariteti (tengligi) 1 f. s. qq4,86 AQSH dollari bo'lgan. .

XIX asr o'rtalaridan XX asr boshlarigacha oltin standart asosan bir guruh yuqori rivojlangan mamlakatlarni qamrab olgan mukammal pul tizimi hisoblangan. 1913 yilda uch yetakchi davlat- AQSH, Buyuk Britaniya, Frantsiya hissasiga jahon oltin - monetar muomalasining 62 foizi yoki 3,5 ming tonna oltin to'g'ri kelgan.

SHu bilan birga, usha davrlardayoq xalqaro hisob-kitoblarda oltinga Karaganda qulayrok bo'lgan qog'oz pullardan foydalanilgan. Iqtisodchilarning baholashicha 1894 yilda xalqaro to'lov oborotida oltin ulushi bor-yugi 3,5 foizni tashkil etgan, ya'ni banklararo hisob-kitoblar asosan valyutalarda amalga oshirilgan. Bu davrda Buyuk Britaniya yetakchi iqtisodiy va moliyaviy davlat bo'lgan va funt sterling sltiya kabi xalqaro to'lovlarda erkin muomaladagi asosiy valyuta hisoblangan. SHuningdek, AQSH dollari, Frantsiya franki va boshqa rivojlangan mamlakatlarning pul birliklaridan ham keng foydalanilgan. Milliy valyutalarni bir mamlakatdan boshqasiga «o'tib yurishi» ularga bo'lgan talab va taklifga, ular o'rtasidagi nisbatga ta'sir qilib turgan va natijada ularning bozor kursi yaratilgan.

Milliy valyutalarning bozor kurslari oltin paritetdan oltinni to'lov uchun tashish bilan bog'liq bo'lgan transport harajatlari miqdorida farq qilgan. Bunday farq unchalik sezilarli darajada bo'lmay nibsatan barqaror bo'lgan, shuning uchun ham valyuta kurslari amalda qayd etilgan hisoblangan.

Keyinchalik barcha mamlakatlar tomonidan kog'oz pullarni oltinga almashtirish to'xtatildi, uning muomala soxasi keskin torayib, ulgurji va xalqaro oborotlar bilan cheklandi, oltin bilan bo'ladigan operatsiyalarni faqat markaziy va yirik xususiy banklar amalga oshiradigan bo'ldilar. Xalqaro operatsiyalarda yetakchi o'rinni kredit va kog'oz pullar egallay boshladi, ularning bahosi endi oltinga bog'lanmagan edi. Davlatlar pul chiqarishni ko'paytira boshladilar, inflyatsiya kuchayib bordi, bu esa pul-moliya hisob-kitoblarida zarur bo'lgan ma'lumotlar chalkashligiga olib keldi. Ikki jahon urushlari o'rtasidagi davrda iqtisodiy xamda siyosiy vaziyatning beqarorligi chuqur inqirozga va pirovardida jahon valyuta tizimining tarqalib ketishiga olib keldi.

Urush va urushdan keyingi davr jahondagi yetakchi mamlakatlar o'zaro munosabatlarini tubdan o'zgartirib yubordi va bu o'zgarishlar xalqaro iqtisodiy munosabatlar, shu jumladan valyuta munosabatlari xarakteriga ta'sir etdi.

Bu munosabatlarda AQSH ning mavkei keskin oshdi va shunga muvofiq uning milliy valyutasi -dollarining roli ham o'sib bordi. Urushdan keyingi davr vokeligini va xususiyatini hisobga oluvchi yangi jahon valyuta tizimini shakllantirish zarurati tugildi. YAngi valyuta tizimining asoslari 1944 yilda, Bretton-Vudsda (AQSH)

bo'lib utgan valyuta-moliya masalalari bo'yicha xalqaro konferentsiyada qo'yilgan. Bretton-Vuds jahon valyuta tizimining xususiyati shundan iboratki, unda oltinning milliy valyutalar qiymatini ulchash vositasi, xalqaro rezervlarning asosiy shakli va to'lov balansi taqchilligini qoplash vositasi sifatidagi roli qayta tiklangan. Ammo bu vaqtda AQSH dollari xalqaro valyuta munosabatlarida asosiy rol uynagani sababli, oltinga nisbatan erkin ayirboshlandi, ya'ni bu valyuta amalda xalqaro to'lovlarda oltinning teng huquqli ekvivalenta bo'lib chika boshladi. Davlatlar o'z valyutalarining oltin miqdorini o'rnatdilar va shu bilan ularning bozor kursi ham oltinga, ham dollarga nisbatan qayd etildi.

Bretton-Vuds valyuta tizimining boshqa muhim xususiyati- xalqaro valyuta tizimining birinchi bor tashkiliy jihatdan tuzilganligi edi. Maxsus tashkil etilgan Xalqaro valyuta fondi va Umumjahon banki bu tashkilotlarga a'zo-mamlakatlar o'rtasidagi valyuta-moliya munosabatlarini tartibga solib turishlari lozim edi, ya'ni jahon valyuta bozorida intizom qoidalarini, xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartiblarini o'rnatish, valyuta kurslari harakatini boshqarish, mamlakatlarga moliyaviy yordam ko'rsatish va hokazolar. 60-yillarning boshlarida xalqaro iqtisodiy munosabatlarda G'arbiy yevropa mamlakatlari va YAponiyaning iqtisodiy imkoniyatlari tiklandi va roli faollashdi, xalqaro to'lov oborotini dollar bilan tulib borishi va AQSH to'lov balansida taqchillikni (defitsit) kuchayib borishi sharoitida yetakchi milliy valyutalar kursini belgilovchi, dollarda mujassamlashgan oltinning rasmiy bahosi tobora noxaqqoniy bo'la bordi. Dastlab Xalqaro valyuta fondida qatnashuvchi-mamlakatlar tomonidan oltinning bozor bahosini barqarorlashtirishga karatilgan maxsus bitim qabul qilindi. 1969 yilda xalqaro pul birligi-SDR qabul qilindi, 1971 yilda dollarni oltinga almashtirish to'xtatildi, buning natijasida milliy valyutalarning oltin bilan har qanday aloqasi yo'qoldi va ularning bahosi yuqori darajada valyuta bozoridagi talab va taklifga bog'liq bo'lib koldi: XVF ga a'zo-mamlakatlar asta-sekin «suzib yuruvchi» kurslarga uta boshladilar. XVF ga a'zo-mamlakatlar 1976 yilda YAmayka poytaxti Kingstonda yangi xalqaro valyuta tizimiga asos solgan bitimni imzoladilar.

Xalqaro valyuta tizimi o'z rivojlanishining hozirgi bosqichida qator xususiyatlari bilan ifodalanadi.

Birinchidan: «suzish» erkinligi mamlakatlarda davlat tomonidan cheklansa xam, «suzib yuruvchi valyuta» kurslari qoidasi rasman tan olingan va kiritilgan. («Erkin suzib yuruvchi» valyuta kursi ma'lum valyutaga bo'lgan bozor talabi va ta'siri ostida o'zgarib turishi mumkin.)

Ikkinchidan: AQSH dollari o'zining asosiy valyuta sifatidagi ahamiyatini yo'qotmokda xamda nemis markasi, YAponiya ienasi, eKYU (hozirda yeVRO) va boshqalar tobora xalqaro rezervlar va to'lov vositalari sifatida qo'llanilmokda.

Uchinchidan: jahon valyuta tizimiga sobiq sotsialistik mamlakatlar jalb qilingan bo'lib, ularning ko'pchiligi 90-yillarning boshlarigacha XVF faoliyatida qatnashmagan va amalda jahon valyuta tizimiga tortilmagan edilar.

1993 yilda 178 davlat XVF a'zolari sanalib, sotsialistik mamlakatlardan faqatgina Koreya Xalq Demokratik Respublikasi va Kuba uning tarkibiga kirmagan edi.

Turtinchidan: davlatlarning XVF tevaragida yagona valyuta tizimiga birlashishi alohida xududiy xalqaro valyuta tizimlari faoliyat ko'rsatishini inkor kilmaydi, chunki ular jahon tizimi tarkibida rivojlanib bormokda. Xususan, 1979 yilda yevropa hamjamiyati mamlakatlari yevropa valyuta tizimini barpo etdilar. Unda yagona valyuta (EKYU) 1999 yil 1 yanvardan yevRO xamda valyuta kurslarini o'rnatish va valyuta operatsiyalarini amalga oshirishning yagona mexanizmi mavjud.

Hozirgi paytda jahon valyuta tizimi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning muhim qismi bo'lib, tashqi savdo operatsiyalari xorijiy investitsiyalar va boshqalar bo'yicha xalqaro pulli hisob-kitoblar tashkil etishning doimo takomillashib borayotgan shakli hisoblanadi.

Unda quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni ajratish mumkin:

1. Xalqaro hisob-kitoblarda foydalanadigan to'lov va kredit vositalari:
 - oltin;
 - yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar milliy valyutalari: AQSH dollari, Angliya funt sterlingi, Germaniya markasi, SHveytsariya franki, Yaponiya ienasi, ya'ni rezervdagi milliy valyutalar;
 - xalqaro yoki mamlakatlararo hisob-kitob pul birliklari (SDR, eKYU). 1999 yil 1 yanvardan yevRO
2. Valyuta kurslarini o'rnatish va saqlab turish mexanizmi.
3. Valyuta bozorlarining ishlash tartibi.
4. Jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartib-qoidalari.
5. Valyuta munosabatlarini tartibga solish va nazorat qilish tizimi, shu jumladan valyuta cheklashlari, konvertirlash shartlari.
6. Valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi va jahon valyuta tizimi barqarorligini ta'minlovchi xalqaro muassasalar tizimi (XVF, Umumjahon banki).

Birinchi element - xalqaro hisob-kitoblarda foydalanadigan to'lov va kredit vositalari jahon valyuta tizimining asosi hisoblanadi. Kolgan barchasi amalda mamlakatlar o'rtasida ularni aylanishiga xizmat qilishga karatilgan.

Milliy pul birliklarini xalqaro hisob-kitoblarda qatnashishi mamlakatning rivojlanish darajasini, uni jahon ayirboshlashidagi urnini va ishonchli tadbirkor, ishbilarmon sherik sifatida ifodalaydi.

O'zbekiston 1992 yilda XVF va Umumjahon bankining teng huquqli a'zosi bo'ldi, jadal sur'atlar bilan xalqaro valyuta munosbatlarini kengaytirmokda va shuning uchun milliy valyutani mustahkamlash, uning harid kuvvatini oshirish respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichidagi dolzarb vazifa hisoblanadi. Mamlakatimiz Prezidenti I.A. Karimov Oliy Majlisning 1999 yil 14 aprel 14 sessiyasida qilgan ma'ruzasida valyuta tizimi va bozorini erkinlashtirish, birjadan tashgkari bozorni kengaytirish va rivojlantirishni 2000 yildan boshlab, milliy valyutamizni erkin muomaladagi valyutaga tulik almashtirishmagan masalasini ta'kidlab utgan edi.

2. Xalqaro valyuta-kredit vositalari

Oldingi mavzuda ta'kidlab o'tildiki, zamonaviy xalqaro hisob-kitoblarda va kreditlashda uch xil to'lov vositasidan foydalaniladi: oltin, yetakchi mamlakatlarning milliy valyutalari va xalqaro pul birliklari. Hozirgi vaqtda oltin o'zining asosiy to'lov, hisob-kitob vositasi xususiyatini yo'qotgan bo'lsa-da, u har qanday mamlakat valyuta rezervlarining asosiy qismini tashkil etadi va undan ayrim xollarda, muhim tashqi savdo operatsiyalariga xizmat ko'rsatish va kreditlarni kafolatlashda foydalaniladi. Jahon savdosida rivojlangan mamlakatlar milliy valyutalaridan xalqaro hisob-kitoblarda yanada kengroq foydalanilmokda. Bunday valyutalarni boshqa davlatlarning Markaziy banklari xalqaro hisob-kitoblar uchun uzlarining rezerv vositalari sifatida saqlaydilar. SHuning uchun ham ularni rezerv milliy valyutalar deyiladi. Keyingi yillarda rezerv valyuta sifatida xalqaro pul birliklaridan ham (SDR, eKYU, yeVRO) foydalanilmokda. Rezerv valyuta javob berishi kerak bo'lgan asosiy talab uni konvertirlashuvidir. Valyuta konvertirlashuvi deganda uni boshqa xorijiy valyutalarga almashish qobiliyati tushuniladi. Konvertirlashuv tushunchasi jahon valyuta tizimi rivojlanishi bilan o'zgarib bordi. 30- yillargacha qayd etilgan kurs bo'yicha oltinga erkin ayirboshlangan valyuta konvertirlanadigan valyuta deb hisoblangan.

Hozirgi vaqtda valyutalar erkin konvertirlanadigan, qisman konvertirlanadigan va konvertirlanmaydigan valyutalarga ajratiladi.

Erkin konvertirlanadigan valyuta - bu amaldagi kurs bo'yicha har qanday boshqa xorijiy valyutaga erkin va cheklanmagan miqdorda ayirboshlanadigan valyutadir. Xorijiy valyutani erkin sotib olish va sotish joriy operatsiyalar (tashqi savdo ayirboshlashi, xalqaro turizm) xamda kredit va investitsiya operatsiyalari bilan bog'liq bo'lgan to'lovlar bo'yicha amalga oshiriladi. erkin konvertirlanadigan valyutalarga AQSH dollari, Kanada dollari, yevropa hamjamiyati mamlakatlari, shuningdek SHveytsariya, SHvetsiya, YAponiya milliy valyutalarini kiritish mumkin. Ulardan valyuta narxlarini aniqlashda foydalaniladi. Masalan, uta muhim mahsulot hisoblangan neft va boshqa energiya tashuvchilar, bir qator metall narxleri AQSH dollarida qayd etiladi.

Qisman konvertirlanadigan valyuta - bu milliy valyuta bo'lib, faqat ba'zi bir xorijiy valyutalarga ayirboshlanadi, shunda ham xalqaro to'lov oborotining barcha turlari bo'yicha emas. Masalan, faqat joriy operatsiyalar bo'yicha to'lovga ruxsat beriladi yoki tashqi iqtisodiy faoliyatda qatnashuvchilar uchun xorijiy valyutani sotib olishda va sotish huquqiga cheklashlar qo'yiladi. Bizning milliy pul birligimiz so'mni qisman konvertirlanadigan valyutalar qatoriga kiritish mumkin.

Konvertirlanmaydigan valyuta bu faqatgina ichki to'lov oborotiga xizmat qiladi va xorijiy valyutalarga ayirboshlanmaydi. Bu milliy va xorijiy valyutalarni olib kelish va olib chiqishga, sotish va sotib olishga taqiqlashni kullaydigan mamlakatlar valyutasidir. Ular qatoriga ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarning milliy valyutalari kiradi. Ichki vatashqi konvertirlanish farqlanadi. Ichki konvertirlanish rezidentlarning (ya'ni mamlakatda doimiy yashash joyi bo'lgan shaxslarning) mamlakat ichkarisida xorijiy valyutani sotib olish va ushlab turish, u bilan ayrim operatsiyalar olib borishi qonunlashtirilgan huquqidir. Ichki konvertirlanish davlat tomonidan cheklangan bo'lishi mumkin. Misol uchun, xususiy shaxslar mamlakat

ichida xorijiy valyutani sotib olishlari va egalik qilishlari mumkin, korxonalar esa uzlarining barcha eksport tushumlarini davlatga topshirishga majburlar.

Tashqi konvertirlanishda to'lovlarni chet elda amalga oshirishga va aktivlarni ushlab turishga ruxsat beriladi. Valyutalarning konvertirlanishi ko'pchilik mamlakatlar iqtisodiy siyosatining muhim maqsadi hisoblanadi va jahon tajribasining ko'rsatishicha, ko'pchilik mamlakatlarda raqobatga bardoshli sanoat bazasi va kerakli xalqaro rezervlar barpo etilgandan so'ng kiritilgan. Bunda, birinchi bosqichda qisman konvertirlanish kiritilgan (joriy, savdo operatsiyalari bo'yicha) va faqat so'nggi bosqichdagina kapital harajatlari bo'yicha ham konvertirlanish kiritilgan. Masalan, Frantsiya, Italiya xamda YAponiya o'z milliy valyutalari tulik konvertirlanishini faqat 80-yillarning oxirida joriy etdilar. Hozirgi vaqtda xalqaro hisob-kitoblarda milliy valyutalar bilan bir qatorda xalqaro yoki mamlakatlararo pul birliklari (SDR, eKYU, yeVRO) tobora keng qo'llanilmokda. Milliy valyutalardan farqli ravishda ular banknot ko'rinishidagi moddiy shaklga ega emas va ushbu hisob-kredit vositalarini muomalaga chiqargan tashkilotda qatnashuvchi-mamlakatlar Markaziy banklari maxsus hisob rakamlariga yozib qo'yish orqali naqdsiz to'lovlar uchun foydalaniladi. Lekin 1999 yil ya yanvaridan boshlab yevropa ittifoqiga a'zo davlatlar xududida yagona valyuta yeVRO muomalaga kiritildi, u naqd pul ko'rinishiga ega.

Qarzga beriluvchi maxsus vositalar (SDR) XVF tomonidan barpo etilgan va 1970 yildan boshlab uning a'zolari o'rtasida o'zaro operatsiyalarda, vakil qilingan ushlab turuvchilar uchun va XVF bilan, bo'ladigan operatsiyalarda foydalanish uchun tarkatiladi. SDR 1993 yildan boshlab aktiv rezerv rolini bajarmokda, uning ulushi XVF ga a'zo-mamlakatlar rezerv summasining 2,1 foizini tashkil etadi (oltindan tashqari). Bu xalqaro valyuta o'z mohiyatiga ko'ra oltin yoki AQSH dollariga mukobil (alternativ) aktiv hisoblanadi. SDR birligi qiymati har kuni «valyuta savati» bazasida AQSH dollarida hisoblab chiqiladi. Valyuta savatini 5 yetakchi davlatlarning milliy valyutalari -AQSH dollari, nemis markasi, YAponiya ienasi, ingliz funt sterlingi, frantsuz franki tashkil etadi. Bu 5 valyuta ichida AQSH dollari eng yuqori ulushga ega 40 foiz, shuning uchun ham SDR amalda dollar kursi bilan bog'liq. Bunday xolat bu xalqaro pul birligining zaif tomonlaridan hisoblanadi. Uning kursi dollar kursining tebranishi bilan o'zgarib turadi. 1994 yilning 15 avgustida SDR qiymati 1,45614 AQSH dollarini 2000 yil 9 may xolatiga ko'ra 1.30926 AQSH dollarini tashkil etdi. .

EKYU-xududiy xalqaro valyuta birligi hisoblanib, yevropa valyuta tizimida qatnashuvchi mamlakatlarda hisob-kitob va kredit funktsiyalarini bajaruvchi valyuta sifatida 1979 yildan 1999 gacha foydalanib kelindi. Bu valyuta AQSH dollarining ta'siriga qarshi xamda yevropa mamlakatlarining valyuta soxasida o'zaro birlashuvlari maqsadida qabul qilingan. Nakdsiz xalqaro pul birligi hisoblangan eKYU 1999 yil yanvaridan boshlab naqd pul ko'rinishiga ega bo'lgan jahon puliga aylandi. Qog'oz pullar 500, 200, 100, 50, 20, 10 va 5 yeVRO, tangalar esa, 2 va 1 yeVRO, shuningdek, 50, 20, 10, 5, 2 va 1 tsentlik bo'ladi. 2002 yildan yevro-yagona yevropa hamjamiyatiga kiruvchi 15 davlat milliy pul birliklarining urnini bosishi mo'ljallanmokda. eKYUning qiymati esa yevropa valyuta tizimida qatnashuvchi mamlakatlar milliy valyutalari, Angliya funt sterlingi va Gretsiya draxmasi asosida

hisoblanib kelingan edi. Bir eKYUning qiymati taxminan 1,3 AQSH dollarini tashkil etdi va SDRga qaraganda boshqa milliy valyutalarga kamroq bog'liq bo'lganligi sababli yevropa mamlakatlaridan tashqarida ham yuqori talabga ega bo'lib kengaydi. hozirgi paytda eKYU urniga muomalaga kiritilgan yeVRO kelajakda jahon pullarining biri vazifasini o'tashi ko'zda tutilmoqda. Boshkacha aytganda, bu valyuta dunyo puli vazifasini bajarmokda.

YUqorida sanab o'tilgan barcha xalqaro to'lov-kredit vositalari, o'zaro hisob-kitoblarda, kreditlashda va valyuta rezervlarini shakllantirishda tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchilar tomonidan keng foydalaniladi (eslatib o'tish lozim, SDR va yeVRO dan asosan xalqaro miqyosda foydalaniladi). Jahon valyutalarining ichida AQSH dollari ayniqsa aktiv valyuta hisoblanadi. Hozirgi vaqtda dunyonint eng yirik moliya-viy markazi bo'lgan Londonda, AQSH dollari qatnash-magan bitimlar umumiy oborotning faqat 3 foizini tashkil etadi. Umuman olganda, xalqaro valyuta obo-rotining 90 foizi jahonning 6 ta yetakchi valyutasi hissasiga to'g'ri keladi. Ular qatoriga AQSH dollari, nemis markasi, yapon ienasi, ingliz funt sterlingi,, frantsuz va SHveytsariya franklari kiradi.

3. Valyutaning almashtirish kurslari.

Turli mamlakatlarning valyutalari xamda xalqaro pul birliklari tuzilgan xalqaro bitimlarga xizmat ko'rsatish jarayonida o'zaro almashinadilar va har qanday ayirboshlashda bo'lgani kabi, bu yerda ham ularning bahosini, aniqrori valyutalar kursini aniqlash muhim hisoblanadi.

Valyuta kursi - bu bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakatlar pul birliklarida ifodalangan bahosidir. Valyuta kursini o'rnatish kotirovkalash deb ataladi. Agar xorijiy valyuta birligining bahosi milliy valyutada ko'rsatilsa, ya'ni milliy "valyutada xorijiy valyutaning bir birligiga to'g'ri keladigan miqdorda ko'rsatilsa, to'g'ri kotirovkalash deb ataladi. Masalan, 2000 yilning 9 mayiga so'mning kursi 1 AQSH dollariga nisbatan 233.20 so'mni, Rossiya rubliga nisbatan 22 so'mni tashkil etdi. Uzbek so'mining shu valyutalarga nisbatan kursi 17 noyabrida 1 AQSH dollarida 23 so'mni, 1000 rossiya rublid 7.22 so'mni tashkil etgan edi.

Undan tashqari savollari teskari kotirovkalash degan tushuncha ham bor. Teskari kotirovkalashda bir birlik milliy valyutaning xorijiy valyutalardagi miqdori o'rnatiladi, ya'ni bir birlik milliy valyutaning xorijiy valyutadagi bahosi ko'rsatiladi, masalan:

$1 \text{ so'm} = 0.0008 \text{ AQSH dollari yoki}$

$1 \text{ AQSH dollari} = 1250 \text{ so'm}$

yoki boshqa misol keltiramiz:

$1 \text{ so'm} = 0.026 \text{ Rossiya rubli yoki}$

$1 \text{ Rossiya rubli} = 38 \text{ so'm}$

(2005 yil 28-may holatiga ko'ra)

Ko'pchilik mamlakatlarda valyutalarni to'g'ri kotirovkalash qabul qilingan, faqat Angliya funt sterlingi, Avstraliya dollari va eKYUning kursi teskari kotirovkalash yordamida o'rnatilib kelingan.

Agarda ikki valyuta o'rtasidagi nisbat qandaydir uchinchi valyutaga nisbatan olingan kurslarida aniqlansa, bunday nisbatni «kross-kurs» deb ataladi.

Masalan: 1 so'm = 0.0008 AQSH dollari yoki 1 sum = 0.026 Rossiya rubliga,
bu yerda 0.0008 AQSH dollari = 0.026 Rossiya rubliga
1 AQSH dollari = 32,5 rubl.

YUqorida keltirilgan nisbat Rossiya rublining dollarga nisbatan aniqlangan kross-kursidir. Ushbu shartli misolda o'zbek so'mi uchinchi valyuta rolini uynaydi, jahon amaliyotida esa asosan uchinchi valyuta sifatida AQSH dollari qo'llaniladi, ya'ni barcha valyutalar jahon ayirboshlashida aynan shu valyutaga nisbatan kotirovka qilinadi.

Valyuta kursi yoki milliy valyuta bahosi har qanday boshqa tovar bahosi kabi erkin, boshqariladigan, o'rnatiladigan bo'lishi mumkin. SHuning uchun uni erkin suzib yuruvchi, cheklangan darajada suzib yuruvchi va qayd etilgan valyuta kurslariga ajratiladi.

Erkin «suzib» yuruvchi valyuta kursi ma'lum valyutaga bo'lgan bozor talabi va taklifi ta'sirida o'zgarib turishi mumkin. Masalan, AQSH dollari, Yaponiya ienasi, Angliya funt sterlingi kurslari. SHu bois bu valyutalar jahon valyuta ayirboshlashida keng ishtirok etadi.

CHeklangan darajada «suzib» yuruvchi valyuta kurslarining o'zgarishi ayrim valyutalar yoki bir guruh valyutalar (valyuta savati) kursi o'zgarishiga bog'liq. Misol uchun, «Uchinchi dunyo» ning ko'pchilik mamlakatlari o'z valyutalarini AQSH dollariga, frantsuz frankiga va boshqa xorijiy valyutalarga boglaydilar. CHeklangan darajada «suzib» yuruvchi valyuta kurslari kiritilgan mamlakatlar o'z valyutalarining tebranish chegarasini hamkorlik kilayotgan sheriklari bilan kelishib oladilar.

Qayd etilgan valyuta kursi - bu xorijiy valyutada ifodalangan milliy pul birligining davlat tomonidan rasmiy o'rnatilgan bahosi bo'lib, unga valyuta bozorida talab va taklifning o'zgarishi ta'sir kilmaydi. hozirgi vaqtda qayd etilgan valyuta kursi kam rivojlangan mamlakatlarda yoki iqtisodiyoti tashqi bozorga yetarli darajada kirib bormagan mamlakatlarda ularning moliya tizimini va milliy ishlab chiqarishni kuchli xorijiy raqobatchilardan himoya qilish va kuvvatlash maqsadida qo'llaniladi. Masalan, O'zbekistonda ham to hozir valyutalarni sumga nisbatan rasmiy kursini o'rnatdi. Va Markaziy bank ish kunlarda valyutalarni sotish va sotib olish majburiyatini olmaydi.

Valyuta qiymatini aniqlashning asosi bo'lib valyuta pariteti hisoblanadi. Uning ma'nosi shuki, ikki valyuta o'rtasidagi nisbat qonunan mustahkamlanib qo'yiladi. Oltin standart yuritilgan davrda valyuta pariteti tushunchasi oltin pariteti ma'nosida tushunilgan, chunki ikki valyuta o'rtasidagi nisbat ulardagi oltin miqdori bilan aniqlangan. Oltin-dollar standarti yuritilgan davrlarda barcha valyutalarning kurslari oltinga xamda dollarga nisbatan qayd etilgan. 70-yillarning boshlarida suzib yuruvchi valyuta kursiga utilishi munosabati bilan XVF doirasida shunday valyuta pariteti qabul qilindiki, unda SDR xalqaro pul birligi oltin va dollar rolini uynaydi. Modomiki, valyuta kursi mamlakatlararo tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchi harakatini tartibga soluvchi vosita ekan, uning o'zgarib turishi eksport va import hajmiga, butun makroiqtisodiy vaziyatga ta'sir qiladi. SHunday xolatni ko'rib chikaylik. Masalan, o'zbek so'mining kursi 1 Rossiya rubliga nisbatan 8.22 sumdan

10 sumgacha pasaygan, ya'ni sum Rossiya rublga nisbatan arzonlashgan va aksincha Rossiya rubli kimmatlashgan. Bu holda mamlakatimizda ishlab chiqarilgan 822 sumlik qiymatga ega tovar Rossiya bozorida ham arzonlashib boradi va u endi 100 ming Rossiya rubliga sotiladi. Natijada uning raqobatga chidamliligi oshib, bu tovarga talab ham orta boradi, uni eksport qilish ragbatlantiriladi, ammo milliy valyutani Rossiyaga chiqarish O'zbekiston uchun foydali bo'lmay qoladi.

Rossiyada ishlab chiqarilgan 2000 rubl qiymatga ega bo'lgan tovarga kelsak, bu tovar so'mning kursi pasayishi va rublning kimmatlashuvi natijasida o'zbek bozorida shunga muvofiq ko'tariladi. endi Rossiyada ishlab chiqarilgan tovar narxi kimmatlashdi, shu sababli uni tashib keltirish (import) qisqarib boradi. Aksincha, o'zbek so'mining kursi oshib borgani sari, respublika uchun tovarlarni tashib keltirish (import) va kapitalni chetga chiqarish foydali bo'ladi.

SHunday qilib, milliy valyuta kursining pasayishi bilan baholar darajasi ham pasayadi va dunyo bozorida O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan tovarlarning raqobatga bardoshliligi orta boradi, eksport va xorijiy kapitalni okib kelishi ragbatlantiriladi va aksincha milliy valyuta kursining ko'tarilishi bilan mamlakat uchun chetdan mol olib kelish (import) va kapitalni chetga chiqarish foydali bo'ladi.

Mamlakatlarning o'z tashqi iqtisodiy siyosatlarini amalga oshirishda valyuta kurslari tebranishidan unumli foydalanish xamda xalqaro hisob-kitoblar barqarorligini ta'minlashga intilishlari suzib yuruvchi valyuta kurslarini tartibga solish zarurligini taqozo etadi. Davlat valyuta bozorlariga «boskinchilik» qilish va Markaziy bank uchyot stavkasini o'zgartirish yordamida valyuta kurslari harakatini nazorat qilinishi mumkin bo'lgan oqimga yo'naltiradi.

Tashqil qilingan «boskinchilik» yoki bozorga katta miqdorda valyuta tashlash milliy valyutaga bo'lgan talab va taklifga, pirovardida valyuta kursiga ta'sir qiladi. Uchyot stavkalarining oshirilishi pullarni yanada «kimmatlirok», uning pasaytirilishi esa ularni yanada «arzonroq» qiladi, o'z navbatida davlat tomonidan kurilgan bunday chora investitsiya, to'lov majburiyatlari harakatiga ta'sir qiladi va shunga muvofiq valyuta kurslarining o'zgarishiga olib keladi. XVF faol a'zolarining kelishuvlariga ko'ra 1976 yildan boshlab, bu mamlakatlarning Markaziy banklari xorijiy valyutalarni sotadilar va sotib oladilar, 1985 yildan boshlab esa, jahon valyutalari kurslarini tartibga solish maqsadida kelishilgan «birlashgan boskinchilik» va uchyot stavkalarini o'zgarishi choralari kullamokdalar. Valyutalarni almashtiruv kurslari tebranishini samarali boshqarishga misol qilib yevropa valyuta uyushmasi faoliyatni keltirish mumkin. Uning qatnashchilari o'z valyutalari kurslarini faqat o'rnatilgan miqdor doirasida, belgilangan chegaralarda o'zgartirishga yo'l qo'yadilar.

Davlat olib borayotgan iqtisodiy siyosatning kuchli ta'sir qiluvchi kuroli bo'lib, milliy valyutani «devalvatsiya» yoki «revalvatsiya» qilish hisoblanadi. Devalvatsiya deganda, milliy valyuta bahosini jahon pul standartiga nisbatan kamaytirishga karatilgan tadbir tushuniladi va aksincha, uning qiymatini oshirishga karatilgan tadbir revalvatsiya deb ataladi. 70-yillargacha, oltin standart davrlarda vaqtlarda, milliy valyutalar oltinga nisbatan arzonlashtirilgan (ya'ni ularning oltin miqdori rasman pasaytirilgan), undan keyingi davrlarda esa, erkin konvertirlanadigan valyutalarga nisbatan pasaytirilgan, XVF ga a'zo-mamlakatlar esa, o'z valyutalarini SDRga nisbatan ham pasaytirganlar.

Suzib yuruvchi kurslar asosida barpo etilgan zamonaviy valyuta tizimida valyutalarning bozor devalvatsiyasi tadbik qilinmokda. Bu bozorda bir pul birligi bahosini asosiy iqtisodiy sheriklar bo'lgan bir guruh mamlakatlarning valyutalariga yoki birgalikda tebranib turuvchi valyutalar uchun rasmiy o'rnatilgan markaziy kursga nisbatan tushirib yuborishni bildiradi, markaziy kurslar qandaydir bir valyutaga (asosan AQSH dollariga) yoki «valyutalar savatiga» yoki xalqaro pul birligiga nisbatan o'rnatiladi. Masalan, yevropa valyuta uyushmasida milliy valyutalarning markaziy kursi eKYUga nisbatan o'rnatiladi. Ushbu uyushma a'zolari uchun ular pul birliklarining markaziy kurs atrofida tebranib turish chegarasi aniqlanadi (masalan 2,5 foiz atrofida). Uzgarishlar o'rnatilgan chegaradan oshib ketsa, devalvatsiya hisoblanadi. Agar valyutalarning oddiy kadsizlanishi valyuta bozoridagi talab va taklif ta'sirida ruy bersa, devalvatsiya shu bilan farq qiladiki bu jarayonda milliy valyuta qiymati bir vaqtda sezilarli darajada pasaytiriladi, uning miqdori XVF bilan kelishilgan holda xukumatlar tomonidan o'rnatiladi. Masalan, 1971 yilda AQSH dollari devalvatsiya qilindi. Jahon valyuta tizimini tartibga solishning bu vositasi kamdan-kam xollarda- pul muomalasi butunlay izdan chiqqanda, milliy valyutaga bo'lgan talab davomli tushib borganda (xukumat uning bozor kursini «valyuta boskinchiligi» nuli bilan ham to'xtatib turolmaydi), inflyatsiya jarayoni tobora kuchaiib borayotganda va mamlakat to'lov balansining uzoqqa cho'zilgan taqchilligida qo'llaniladi.

Milliy valyutani devalvatsiya qilishdan davlatlar jahon bozorida eksport qilinayotgan tovarlarning bahosini pasaytirish va ichki bozorda import tovarlarining bahosini oshirish xamda shu yo'l bilan eksport-import oqimini tartibga solishda foydalanadilar.

Barcha mamlakatlar ma'lum muddatda o'z valyutalari kurslari to'g'risidagi axoborotni e'lon qilib boradilar. Misol uchun, respublikamizda 1994 yildan buen markaziy gazetalarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining xorijiy valyutalarni sumga nisbatan rasmiy kursi e'lon qilib kelinmokda. Bunday xabarlarda gap rasmiy nominal valyuta kurslari to'g'risida boradi. Lekin kuchayib borayotgan inflyatsiya sharoitida jahon bozorida milliy mahsulotga bo'lgan talabni, uni raqobatga bardoshliligini aniqlashda milliy va xorijiy tovarlar baholari o'rtasidagi nisbatni ham bilish kerak bo'ladi. YA'ni milliy valyutaning real almashtirish kursini hisoblab chiqish kerak.

Real valyuta kursini hisoblashni O'zbekiston va Rossiyada ishlab chiqariladigan gazlama misolida ko'rsatish mumkin. Masalan, 1 m gazlamaning bahosi respublikamizda 100 sum, Rossiyada 25 rubl. Valyutalarning amaldagi kursi 1 Rossiya rubli=8,22 sum yoki 1 sum= 0.1216 Rossiya rubli bo'lganda, 1 m o'zbek gazlamasining narxi Rossiya rublida $0.1216 \text{ rubl} \times 100 \text{ sum} = 1216 \text{ sum}$ turadi. Bunday holda O'zbekiston va Rossiyada ishlab chiqarilgan 1 m gazlama baholari nisbati $(0.1216 \times 100 \text{ sum} / 25 \text{ rubl}) - (12,16 / 25) = 0.49$ ga (taxminan) teng bo'ladi.

Demak, ushbu nisbat o'zbek gazlamasining bahosi Rossiya gazlamasi bahosining deyarli yarmiga teng yoki undan kariyb 2 marta arzonligini ko'rsatadi.

SHunday qilib, real kurs tovarlarning milliy valyutadagi bahosiga va nominal almashtirish kursiga bog'liq bo'lib quyidagi tenglik bilan izoxlanadi.

$$\text{Реал валюта курси} = \text{номиналвалюта курси} \times \frac{\text{Ўз мамлакатидан и / ч товарлар баҳоси}}{\text{Хорижда и / ч товар баҳоси}}$$

Bu tenglikni umumiy ko'rinishda shunday yozish mumkin:

Real valyuta kursi = nominal valyuta kursi baholar darajasi nisbatlari.

Past valyuta kursida milliy tovarlar iisbatan arzonroq, xorijiy tovarlar esa nisbatan kimmatrok turadi. SHuning uchun eksport o'sib boradi, import esa qisqarib boradi va aksincha, yuqori real valyuta kursida milliy tovarlar nisbatan kimmatrok, xorijiy tovarlar esa nisbatan arzonroq turadi. Natijada import o'sib, eksport qisqarib boradi.

4. Valyuta bozorlari va valyuta operatsiyalari

Valyutaning almashinish kursi ularni olish-sotish jarayonida belgilanadi. Tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari bo'lgan korxonalar, banklar, moliya-kredit muassasalari va jismoniy shaxslar tashqi savdo hisob-kitoblarini kapital va ishchi kuchi migratsiyasini amalga oshirish, valyuta rezervlarini tuldish, valyuta xavfxataridan sug'urta qilish, shuningdek valyuta kurslari o'zgarishi hisobiga foyda olish uchun xorijiy valyutani sotib oladilar va sotadilar.

Xorijiy valyuta oldi-sotdisi bo'yicha bo'ladigan bu operatsiyalar valyuta operatsiyalari deb ataladi. Valyuta sotuvchilari va xaridorlari o'rtasida doimiy bo'ladigan telefon, teletayp va boshqa aloqa turlari ko'rinishidagi bu operatsiyalar yig'indisi valyuta bozori deb yuritiladi. SHunday qilib, valyuta bozorlari xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida muhim vazifalarni bajaradi.

Birinchidan, ular mahsulotlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchini xalqaro aylanishiga xizmat ko'rsatadi.

Ikkinchidan, ular talab va taklif asosida valyuta kursini aniqlaydi.

Uchinchidan, ular valyuta xavf-xataridan himoyalashni ta'minlaydi, chaykovchilik kapitalidan foydalanish imkoniyatini yaratadi, turli mamlakatlar o'rtasida moliyaviy resurslarni qayta taqsimlaydi.

Zamonaviy jahon valyuta bozorining xususiyati shundaki, unda savdo va moliyaviy operatsiyalarga xizmat ko'rsatish bilan emas, balki almashadigan kurslar farqi hisobiga foyda olish bilan bog'liq operatsiyalar ustunlikka ega. Hozirgi vaqtda bu operatsiyalar hissasiga jahon valyuta aylanishining 90 foizdan ortigi to'g'ri keladi. 40-50- yillarda bu ko'rsatkich 10 foizni tashkil etgan edi. Demak, jahon valyuta bozori hisob-kitob markazidan moliyaviy resurslarni xalqaro qayta taqsimlash mexanizmiga aylanib bormokda.

Zamonaviy valyuta bozori 50-80- yillarda yaratilgan edi. Bu davrda, bir tomondan, bozorda qatnashuvchilar soni tez ko'paydi, operatsiyalar hajmi usdi, ikkinchi tomondan, barcha valyuta operatsiyalarini yaxlitligini shakllantirishga imkon beruvchi aloqa vositalari va yangi texnika paydo bo'ldi. Valyuta operatsiyalarini juda qisqa muddatda amalga oshirish natijasida ularning moddiy ko'rinishi yo'qoldi: milliy pul birliklari bir mamlakatdan boshqasiga asosan bank-larning korrespondent hisoblaridagi yozuvlar ko'rinishida kuchsa, naqd pullar faqat pul almashtiradigan shoxobchalar, sayyoxlik firmalari, banklar tomonidan aholiga xizmat ko'rsatishda qo'llaniladigan bo'ldi.

Jahon valyuta bozorini milliy valyutalari deyarli cheklanmagan holda almashinadigan davlatlar tashkil etadi. Bular AQSH, Germaniya, Yaponiya, Buyuk Britaniya SHveytsariya, Kanada, Gonkong, Birlashgan Arab Amir-liklaridir. Ko'plab mamlakatlarda valyuta konventir-lanmaydigan yoki qisman konventirlanadigan bulrani uchun jahon valyuta bozorida faqat vakolat berilgan banklar va davlat muassasalari qatnashadi. Respublikamizda bunday vakolat Milliy bankka berilgan. Jahon valyuta bozorlari valyuta bozorlariga va yevrovalyuta bozorlariga yoki yevrobozorga ajratiladi. Agar valyuta o'z mamlakatida sotilsa va sotib olinsa, valyuta bozori hisoblanadi, agar bu undan tashqarida yuz bersa yevrobozor hisoblanadi. yevrobozorda savdo qilinadigan valyutalar yevro-valyutalar deb ataladi. (evrodollar, yevromarka, yevro-frank va boshqalar). Masalan, agar O'zbekiston Milliy banki AQSH bankidan dollarda kredit olsa, bu operatsiya valyuta bozorida yuz beradi. Birok, xuddi shu kreditni dollarda London bankidan olsa, u holda bu yevrovalyuta bozoridagi savdo bo'ladi. Bu dollar yevrodollar deb ataladi. Dollarning to'lov-kredit vositasi sifatida tarqalganligini hisobga olgan holda yevrodollar bozori kengayib bormokda.

Valyuta bozorlarida amalga oshiriladigan operatsiyalar quyidagilar:

- naqd yoki «spot» operatsiyalar, ular bitimni tuzish vaqtida yoki keyin «spot» kurs deb ataluvchi joriy valyuta kursi bo'yicha naqd xorijiy valyutani qo'llashni ko'zda tutadi:

- muddatli operatsiyalar, ular bo'yicha hisob-kitoblar bitimni rasmiylashtirilgach 2 kundan so'ng qilinadi; bu operatsiyalar valyuta kursi o'zgarishidan himoyalash yoki qo'shimcha foyda olish maqsadida amalga oshiriladi. Ular banklararo (forvard) va birja (fyuchers) valyuta operatsiyalari bo'lishi mumkin.

Banklararo yoki forvard operatsiyalarini amalga oshirishda valyuta kursi va summasi bitimni tuzish vaqtida qayd etiladi, biroq muddat kelguncha (asosan 1-b oy) hisoblar bo'yicha summalar o'tqazilmaydi. Bu operatsiyalarda qo'llaniladigan forvard kurslar mavjud kurslarga («spot» kurslarga) chegirmalar yoki mukofotlar ko'rinishida o'rnatiladi. Masalan, agar AQSH dollari «spot» kursida 1 funt sterlingga 1,9925 dollar bo'lsa va 3 oyga 0,0325-0,0310 dollar mukofoti bilan kotirovka qilinsa, u holda xaridorning bir oylik kursi 1,9600 dollarga teng bo'ladi (1,9925-0,0325).

Qat'iy belgilangan muddatda «forvard» kursi bo'yicha to'lovlarni ko'zda tutuvchi oddiy muddatli valyuta bitimi «autrayt» deb ataladi. Muddatli banklararo operatsiyalar miqdori bo'yicha har qanday bo'lishi mumkin va naqd pul bilan ta'minlashni talab etmaydi.

Muddatli birja yoki fyuchers operatsiyalari shu bilan farq qiladiki, ular bitimning barcha shartlari, ya'ni summasi, muddati, hisoblash usuli va shu kabilar aniq ko'rsatilgan standart kontraktlar savdosi ko'rinishida o'tkaziladi. Bu ko'rinishdagi bitimlarni tuzishda katta bo'lmagan kafolatli depozit kiritiladi. Fyuchers operatsiyalari valyuta bozorlarida 70- yillardan boshlab o'tkaziladi va asosan AQSH da keng tarqalgan.

Barcha valyuta operatsiyalarining asosiy hissasi naqd bitimlarga to'g'ri keladi.

SHu bilan birga suzuvchi kurslar qoidasiga asoslangan zamonaviy valyuta bozori uchun muddatli operatsiyalar hajmi va turlarining o'sishi ham xosdir.

Xususan, ularning «options» bilan birgalikda «lidz end legz», «svop» kabi ko'rinishlari ham rivojlanib, amalda keng qo'llanilmokda.

«Options» bilan operatsiyalar tomonlardan biriga kontraktning mukobil valyuta shartlarini tanlash huquqi berilishini ko'zda tutadi. Tomonlar ushbu huquqdan kachon va qanday sharoitlarda foydalanish mumkinligi to'g'risida kelishib oladilar. Bu huquqning amalga oshirilishi qo'shimcha foyda olish imkonini beradi.

«Lidz end legz» operatsiyalari korxonalar, firmalar, korporatsiyalar tomonidan keng qo'llanilib, to'lov. muddatlari yoki bitimning boshqa shartlarini o'zgartirishga imkon beradi.

«Svop» operatsiyalari muddatli bitimni naqd bitim bilan qo'shib olib boradi: naqd valyutani («spot») sotish uni muddatga (forvard) sotib olish bilan bir vaqtda amalga oshiriladi yoki aksincha.

Muddatli valyuta operatsiyalarining ahamiyati shundaki, ular qo'shimcha foyda olishning yoki valyuta xavfxataridan sug'urta qilishning (xedjirovanie) samarali usuli hisoblanadi. Valyuta xavf-xatari deganda valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda xorijiy valyuta kursini milliy pul birligiga nisbatan o'zgarishi bilan bog'liq mumkin bo'lgan pul yo'qotishlar tushuniladi. Masalan deylik, o'zbek korxonasi Pokiston firmasi bilan 2 mln. dollarlik mahsulot yetqazib berish to'g'risida kontrakt tuzdi. Kontraktni tuzish davrida dollar kursi 233.20 so'mni tashkil etgan edi va o'zbekistonlik eksport qiluvchi korxona kontraktida berilgan 2 mln. Dollar hisobidan 466.4 mln. sumga ega bulardi (2 mln. dollar X 233.20 sum). Birok bitim tugallanishi chogida dollar kursi pasaydi va 200 so'mni tashkil etdi, unda eksport qiluvchi 400 mln.. sumga ega bo'ladi (2 mln. dollar X 200 sum), ya'ni 66.4 mln. so'mni valyuta kursi o'zgarishi hisobiga yo'qotadi, import qiluvchi Pokiston firmasi esa yutadi.

SHunday qilib, kontraktidagi valyuta kursini milliy valyutaga nisbatan pasayishida, kontraktni imzolash va u bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish o'rtasidagi davrdagi yo'qotishlar eksport qiluvchilar zimmasida bo'ladi. Import qiluvchi esa kontraktni tugallangishi chogida valyuta kursi ko'tarilgan holdagina zarar ko'radi.

5. Mamlakat to'lov balansi

Mamlakatning ma'lum vaqtdagi barcha xalqaro iqtisodiy faoliyati, shu jumladan tashqi savdo, kapital va ishchi kuchi migratsiyasi ham to'lov balansida o'z aksini topadi.

Tashqi iqtisodiy bitim valyuta ayirboshlash yoki valyuta operatsiyalari orqali amalga oshiriladigan oldi-sotdi bitimi hisoblanar ekan, unday holda, mamlakatning jahon bozoridagi faoliyati natijalari pirovardida xorijiy valyuta tushumlari va harajatlarida ifodalanadi. SHuning uchun ham to'lov balansi - bu bir tomonida chetdan keladigan barcha tushumlar, ikkinchi tomonida esa mamlakat chetga chiqaradigan barcha to'lovlari ko'rsatilgan hujjatdir. Tushum (kredit) faqat eksport yordamida ta'minlanishi mumkin, aksincha, xorijiy mahsulotlarni sotib olish (yoki import) to'lovlar va xorijiy valyuta harajatlari bilan bog'liq chikimlar (debet) bo'ladi. Bunda tovar deganda ayirboshlanadigan har qanday narsa tushuniladi, ya'ni u moddiy ne'mat, xizmat, ishchi kuchi, kapital va valyu ta bo'lishi mumkin.

To'lov balansining tarkibiy tuzilishi bo'yicha barcha tashqi iqtisodiy bitimlar ikkita katta guruhga bo'linadi; joriy operatsiyalar va kapital harakati bilan bog'liq operatsiyalar.

O'z navbatida joriy operatsiyalarning asosiy moddasi tovarlar eksporti va importi hisoblanadi, ularo'rtasidagi farq tashqi savdo balansining qoldig'i deb yuritiladi. Biz ning misolda bu balans salbiydir, ya'ni mamlakat tovarlarni chetga olib chiqishdan ko'ra ko'proq olib keladi (-80).

5-jadval

Mamlakat to'lov balansining taxminiy ko'rinishi
(rakamlar shartli)

N	Moddalar nomi	Kredit(+) yoki eksport hisobiga tushumlar	Debet (-) yoki import natijasidagi harajatlar	Sof kredit yoki sof debet
I. Joriy operatsiyalar scheti				
1	Tovarlar	+125	-205	-80
2	Tashqi savdo balansining qoldig'i			-90
3	Xizmatlar	+35	-37	-2
4	Investitsiyalardan daromadlar (foizlar va devidendlar)	+17	-10	+7
5	Pul o'tkazishlar	+1	-8	~7
6	Joriy operatsiyalar buiicha balansning qoldig'i			-82
II. Kapital harakati schyoti				
7	Investitsiyalar va boshqa o'rta va uzoq, muddatli kapital	+90	-37	+53
8	Kapital harakati balansining qoldig'i			+53
9	Joriy operatsiyalar va kapital harakati buiicha balansining qoldig'i			-29
III	Rasmiy rezsvlar (oltin, SDR, XVF dagi rezervlar)	+29		+29

Joriy operatsiyalarning keyingi moddasi bu xizmatlar eksporti va importidir. Ularga transport, sug'urta, sayyoxlik xizmatlari va boshqalar kiradi. Tovarlar bilan operatsiyalardagi kabi xizmatlar bilan operatsiyalarda ham mamlakat xorijiy xizmatlarni ko'proq oladi, ya'ni mamlakatda yashovchilar xorijga chetdan

sayyoxlarga nisbatan ko'proq boradilar, shuningdek, mamlakatdagi tadbirkorlarga xorijiy transport va sug'urta xizmatlari ko'rsatish hajmi va aksincha, xorijiy tadbirkorlarga mamlakatda transport va sug'urta kompaniyalari ko'rsatadigan xizmatlar hajmiga qaraganda yuqorirok. Bu operatsiya ham balansning salbiy qoldig'iga ega. (-2)

Investitsiyalardan daromadlar foizlar va dividendlar bo'yicha to'lovlarni o'z ichiga oladi. Agar xorijga qo'yilgan millii kapitalga chet elliklarning amalga oshiradigan bunday to'lovlaridan tushumlar, mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilgan xorijiy kapitaldan bunday to'lovlar miqdoridan ko'p bo'lsa, unda sof daromad ijobiy bo'ladi (+7).

Pul o'tkazishlar shu mamlakatlarning xorijda yashayotgan fuqarolariga tulanadigan nafaqalarni, muxojirlarning xorijdagi o'z karindoshlariga pul o'tkazishlari, turli ko'rinishdagi xukumat yordamlarini (insonparvarlik) o'z ichiga oladi. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, xorijga jo'natilayotgan pul o'tkazishlar miqdori olinayotganga nisbatan yuqori, ya'ni bu operatsiyalar mamlakatdagi xorijiy valyuta zaxiralarini kamaytiradi (-7).

Joriy hisoblar bo'yicha barcha operatsiyalar yig'indisi joriy operatsiyalar to'lov balansini tashkil etadi. Bizning misolda u salbiy (-82), bu esa shuni anglatadiki, mamlakatda import operatsiyalari natijasida xorijiy valyutaga bo'lgan talab uning eksport operatsiyalari ta'minlaydigan taklifidan ortiq bo'ldi. gki boshqacha aytganda, ushbu holda mamlakat joriy operatsiyalar bo'yicha taqchillikka ega. Uni qoplash uchun mamlakat yo qarz oladi (uzoq va qisqa muddatli kreditlar), yo o'z kuchmas mulkini (er, bino) va moliyaviy aktivlarini (aktsiya va obligatsiyalar) sotadi. Birok mamlakat joriy to'lov balansining ijobiy qoldig'iga ega bo'lishi mumkin. Agar uning eksport operatsiyalari import operatsiyalaridan ortiq bo'lsa, shunday xol yuz beradi. Bunda mamlakatda chet elda kuchmas mulkni sotib olish yoki boshqa mamlakatlarga qarzga berishga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan xorijiy valyuta ortiqchaligi yuzaga keladi. Investitsiyalash va kreditlash bilan borlik operatsiyalar to'lov balansining keyingi bo'limida, ya'ni kapitallar harakati hisobida aks ettiriladi. Bu yerda moddiy va moliyaviy aktivlarni (korxonalar, yer, uylar, qimmatbaho kog'ozlar, aktsiyalar, xazina majburiyatlari va boshqalar) olish-sotish bilan borlik kapitallar oqimini aks ettiradi. Agar bu aktivlar sotilsa yoki eksport qilinsa, unda bu xorijiy valyutani mamlakatga kelishini, tushumini ko'paytirish (Q90). Birok kapitalni olib kelish bilan bir vaqtda uni olib chiqish bilan bog'liq operatsiyalar ham amalga oshiriladi. Bunda mamlakat tadbirkorlari xorijdan aktsiyalar sotib oladi, xorijliklarga kreditlar beradi va shu asosda, ular xorijiy valyuta zaxiralarini sarflaydi. Bu operatsiyalar debit ko'rinishida aks ettiriladi (-37). Kapital harakati balansining qoldig'i - bu uni olib kelish va olib chiqish o'rtasidagi farqdir (+53).

Avval aytib utilganidek, joriy operatsiyalar bo'yicha balans va kapital harakati balansi o'zaro chambarchas bog'langan. Bizning misolda birinchisining taqchilligi (-82) kapitalning sof okib kelishi hisobiga (+53) moliyalashtiriladi. Va aksincha, agar joriy operatsiyalar bo'yicha balans aktivga ega bo'lsa, u holda bir vaqtda kapitallar harakati balansi bo'yicha kapitallarning sof kelib chiqishi amalga oshirilgan bulardi.

SHunday qilib, balansning bu ikki bo'limi bir-birini tenglashtirib boradi va aslida ham bir-biriga teng bo'lishi kerak, biroq amalda doimo taqchillik yoki

ortiqchalik yuzaga keladi. SHuning uchun turli mamlakatlarning Markaziy banklari rasmiy rezervlar deb ataluvchi xorijiy valyuta zaxiralariga ega. Bu rezervlar joriy operatsiyalar bo'yicha balans va kapital harakati balansi nomutanosibligini bartaraf etishda qo'llaniladi. Bizning misolda bu nomutanosiblik yoki koldik (- 29) ni tashkil etadi va u rasmiy rezervlardan tushumlar hisobiga tartibga solingan. Rezervlardan tushumlar kredit (+) ustunida aks ettirilgan. Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, «to'lov balansi taqchilligi» yoki to'lov balansi aktiv ifodalari joriy operatsiyalar va kapital harakati bo'yicha balansning ijobiy yoki salbiy qoldig'i miqdorini bildiradi. Rasmiy rezervlarning qisqarishi (+) bu taqchillik miqdorini ifodalaydi, rasmiy rezervlarning o'sishi (-) esa to'lov balansining aktiv qoldig'i miqdorini ko'rsatadi. Pirovardida uning barcha uch bo'limi summasi «0»ni tashkil etishi lozim. Bu esa xorijiy valyuta taklifi va unga mamlakatda bo'lgan talab baravarligini bildiradi.

Davlatlar rasmiy rezervlar va qarzlar hisobiga qoplash qobiliyatiga ega bo'lmagan to'lov balansining katta doimiy taqchilligi bo'lgan xollarda o'z valyutalari devalvatsiyasini amalga oshirishlari mumkin. Bu importning fizik hajmi qisqarishiga, eksportning fizik hajmi ko'payishiga va oqibatda mamlakatga xorijiy valyuta tushumini o'sishi xamda taqchillikni yo'qotishga olib keladi.

Ochik iqtisodiyotli ko'plab mamlakatlar o'z to'lov balanslarini XVF tavsiya etgan tarx bo'yicha ishlab chiqadilar. Bu tarx rivojlangan bozor munosabatlari sharoitida amalga oshiriladigan barcha iqtisodiy operatsiyalarni aks ettiradi. To'lov balansining ma'lumotlari muntazam chop etiladi va davlatning kredit qobiliyati haqidagi guvohnoma sifatida xalqaro tashkilotlar, boshqa mamlakatlarning xukumatlari va tadbirkorlari tomonidan kreditlash va moliyalashtirish, moliyaviy, texnik va moddiy yordam ko'rsatish masalalarini xalqaro etishda qo'llaniladi.

O'zbekistonda to'lov balansi faqat respublika mustakillikka erishgandan va bozor munosabatlariga utilishidan keyin tuzila boshlandi. Jahon bozorida teng huquqli sherikchilik respublikani xalqaro iqtisodiy munosabatlar sub'ekti sifatida ifodalovchi aniq ma'lumotlarni talab etadi, shuning uchun respublika to'lov balansi XVF tavsiyalariga juda yaqinlashtirilgan tarx asosida tuzilgan.

Asosiy tushunchalar:

Jahon valyuta tizimi – turli mamlakatlar o'rtasidagi valyuta-kredit munosabatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi tizim.

Oltin standart -pulning asosiy shakli oltin hisoblangan o'zaro aloqalar amaliyoti.

Erkin konvertirlanadigan valyuta – har qanday xorijiy valyuta erkin va cheklanmagan miqdorda ayirboshlanadigan valyuta.

Kisman konvertirlanadigan valyuta – xorijiy valyutalarning ma'lum bir qismigagina ayirboshlanadigan, xorijiy valyutani sotib olishda va sotishda cheklashlar mavjud bo'lgan valyuta.

Konvertirlanmaydigan valyuta – xorijiy valyutalarga ayirboshlanmaydigan va ichki to'lov oborotiga xizmat qiladigan valyuta.

SDR (SDR) – Xalqaro valyuta fondining maxsus pul birligi.

EKYU - xududiy xalqaro valyuta birligi. yevropa ittifoqi valyuta tizimida hisob-kitob va kredit funktsiyalarini bajaradi.

Valyuta kursi – bir mamlakat pul birligin boshqa mamlakat pul birligidagi bahosi.

Kotirovkalash – valyuta kursini o'rnatish.

To'g'ri kotirovkalash – xorijiy valyuta birligiga to'g'ri keladigan milliy valyuta miqdorini o'rnatish.

Teskari kotirovkalash – milliy valyuta birligiga to'g'ri keladigan xorijiy valyuta miqdorini o'rnatish.

Devalvatsiya – milliy valyuta kursini kamaytirilishiga karatilgan tadbir.

Revalvatsiya – milliy valyuta kursini oshirishga karatilgan tadbir.

Nominal valyuta kursi – bir-birlik milliy valyutaga to'g'ri keladigan xorijiy valyuaning qiymati.

Real valyuta kursi – bir-birlik milliy tovar va xizmatlarga to'g'ri keladigan xorijiy tovar va xizmatlar qiymati.

Valyuta operatsiyalari – xorijiy valyutani oldi-sotdisi bo'yicha bo'ladigan operatsiyalar.

To'lov balansi – mamlakatga chet eldan keladigan barcha tushumlar va mamlakat chetga chiqaradigan barcha to'lovlar ko'rsatiladigan hujjat.

Nazorat savollari:

1. Oltin standartga asoslangan milliy valyuta tizimi xususiyatlari nimadan iborat?

2. Agarda AQSH xazinasini oltinning 1 untsiyasini 35 dollarga, Buyuk Britaniya xazinasini esa 12,5 funt sterlinga sotsa va sotib olsa, bu valyutalarning oltin pariteti nimaga teng bo'ladi?

3. Jahon valyuta tizimi shakllanishining asosiy shart-sharoitlarini ayting.

4. Bretton-Vuds valyuta tizimining xususiyatlari nimadan iborat?

5. hozirgi zamon jahon valyuta tizimining xususiyatlari qanday?

6. Jahon valyuta tizimining kaysi belgilarini ajratish mumkin?

7. Xalqaro ayirboshlashda foydalaniladigan asosiy to'lov kredit vositalarining tavsifini bering.

8-MAVZU: Jahon xo'jaligida rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti.

Reja:

- 1. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishining umumiy qonuniyatlari.**
- 2. Rivojlangan mamlakatlarning xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi ishtirokining umumiy xususiyatlari.**
- 3. Ayrim rivojlangan mamlakatlarning tashqi iqtisodiy faoliyati va ularning eksport va import tovar tuzilmasi.**

1. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishining umumiy qonuniyatlari.

XXI asr boshlarida rivojlangan mamlakatlar 40 tadan ozroqni tashkil etadi. Ular G'arbiy yevropada, SHimoliy Amerikada, Osiyoda, Avstraliya va Okeaniyada joylashgan. 29 tasi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)ga a'zodir. 7 davlat AQSH, YAponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Kanada va Italiya "katta yettilik" deb yuritiladi. Aynan shu mamlakatlar umumjahon xo'jaligining asosiy rivojlanish yo'nalishlarini va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini belgilaydilar. Ayrim bir mamlakat va guruhlarining rivojlanish darajasi ko'rsatkichlarini YAIM kishi boshiga taqsimotidagi darajasi belgilaydi.

Hisoblar BMT tomonidan ishlab chiqilgan tartiblar asosida hisoblanadi. Asos qilib milliy valyutaning xarid quvvati pariteti (MVP) olingan. SHu asosda hisoblanganda mamlakatlarda 1997 yili kishi boshiga o'rtacha 21,5 ming dollarni tashkil etdi. yevropadagi sobiq sotsialistik mamlakatlarda 5,5 ming dollar, mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida 3,1 ming dollarni tashkil etdi (MEiMO 1998, №10, 120-121 betlar). Mamlakatlarda o'rtacha jahon ko'rsatkichlarida 6,8 marta, sobiq sotsialistik yevropa mamlakatlaridan 3,9 marta, mustaqil davlatlar hamdo'stligi 6,7 marta ko'pdir. Rivojlangan mamlakatlarda dunyo aholisining 840,5 mln. yashaydi (umumjahon aholisining 14,2 foizini tashkil etadi). 1997 yili dunyoning 18070 mlrd. dollarlik YAIM (52,8 foiz umumjahon YAIM tashkil etadi), ishlab chiqarildi (MEiMO 1998, №10, 114-118 betlar).

Umumjahon xo'jaligini rivojlangan mamlakatlar o'z nazoratiga olishi kengayib bormoqda. Bu jarayon tashqi savdo, chet ellarga qilinayotgan investitsiyalar tizimi, transmilliy korporatsiyalar (TMK) tarmog'i, ilmiy-texnika sohasining monopollashuvi va boshqa omillar orqali amalga oshirilmoqda.

Bozor iqtisodiyoti mamlakatlari bo'lgan rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotning davlat boshqaruvi ham kengayib bormoqda. Bu jarayon 1929-1933 yillarda bo'lgan XX asrning yirik jahon iqtisodiy inqirozi yillarida tezlashdi, ayniqsa, 2-jahon urushidan keyin kengayib bordi.

Iqtisodiyotning davlat boshqaruvi darajasiga qarab, rivojlangan mamlakatlarda aralash iqtisodiyotning bir necha modellari mavjuddir:

- Erkin iqtisodiyot (amerikanacha) modeli. Xususiyl mulkchilikning ustunligi xarakterlidir. Ishlab chiqarishda bozor raqobati, tovarlarni investitsiyalash,

ishchi kuchidan foydalanish, ijtimoiy differentsiatsiyaning yuqori darajadagi mexanizmi amal qiladi;

Davlat iqtisodiyotini makroko'lam va mikroko'lamda qonunchilik, soliq va pul-kredit siyosatiorqali bozor raqobati kuchaytiriladi va monopoliya hukmronligicheklanadi, bozorning salbiy holatlari ma'lum ma'noda cheklanadi, aholining alohida ijtimoiy guruhlari manfaatlari himoya qilinadi va h.k. Bu model AQSH, Kanada va bunga yaqinlashib qolgan Buyuk Britaniya, Irlandiya, Belgiya, Italiya, Frantsiya iqtisodiy tizimiga xosdir;

- Ijtimoiy bozor (Germaniya) modeli – ijtimoiy bozor xo'jaligi asosida rivojlanib boradi. Bunda raqobatga asoslangan bozor mexanizmi o'zi bilan qo'shimcha alohida ijtimoiy infratuzilmani tashkil etadi. U erkin bozor sharoitida iqtisodiy qiynalganlarni (kam ta'minlangan oilalarni, ishsizlarni, yoshlarni, kichik va o'rta firmalarni) doimo himoya qilishga yo'naltirilgan. Davlat o'ziga keng ma'nodagi majburiyatlarni olgan bo'lib, kim mustaqil darajada kerakli daromad qila olmasa, ularni ijtimoiy himoya qiladi va ularda katta iqtisodiy aktivlikni hosil qilishga ruhlantiradi.
 - SHved modeli – SHvetsiya va boshqa Skandinaviya mamlakatlarida, shuningdek Avstraliyada tarqalgan. Ushbu model korporativistik model deb ham ataladi. Xarakterli tomonlari ijtimoiy kafolatning yuqori darajada ekanligi, asosiy daromadning keng qayta taqsimlanishi va ijtimoiy konsensuzni izlashdan iboratdir. Bunga qo'shimcha kuchli kasaba uyushmasi va ko'p qirrali "erkin uyushmalarning" xizmat qilishidir. Ular jamoa va xususiy manfaatlarning umumlashuvini koordinatsiyalash, shuningdek ijtimoiy hamkorlik g'oyasini rivojlantirish, tadbirkorlar va kasaba uyushmalarining kelishuvini yuqoriligi natijasida siyosiy jarayonlarda amalga oshiriladi. Iqtisodiy masalalar ixtiyoriy va doimiy tarzda turli guruhlar kelishmovchiliklarini koordinatsiyalash asosida davlatning aktiv ishtirokida qarorlar qabul qilish bilan hal etiladi.
- Davlatning o'rni ayniqsa iqtisodiy rivojlanishni indikativ rejalashtirishda, tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshiruvchi, investitsiya, tashqi iqtisodiy va ijtimoiy siyosatda kattadir, lekin tadbirkorlik sohasidagi faoliyati katta emas. Lekin ishchilarni yuqori malakali bo'lishidagi xizmatlari katta bo'lib davlat bu masalaga alohida e'tibor beradi va ishchilarni doimiy o'z malakasini oshirib borishini qo'llab quvvatlaydi.
- YAponiya modelining xarakterli tomoni ham eng ilg'or g'oyalarni amalga oshirish orqali ishlab chiqarishni, mehnatni milliy an'analar asosida qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgandir. SHuning uchun ham YAponiya iqtisodiy rivojlanish modelini ierarxiya korporativizimi deb ataladi va shved modelini to'ldiradi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlari keyingi 100 yillarda o'zining imkoniyatlarini boshqa tizimlarga nisbatan mutlaq ustun ekanligini namoyon etdi. Uning moslashuvchanligi va ishlab chiqarish kuchlarining salohiyatini o'zgartishga qodirligi, shuningdek ITT yutuqlaridan keng foydalana olishligi, iste'molchilarning talablari o'zgarishini tezda anglab olishi, hamda uning talablarini qondira olishga qobiliyatli ekanligi bilan xarakterlanmoqda.

Bozor iqtisodiyoti amalda bo'lgan rivojlangan mamlakatlar tovar ishlab chiqarishni o'zgartirish zarurati bo'lganda uning unumdorligini oshirishga, talabga qarab munosib o'zgartishga tayyor turadilar.

Bu mamlakatlar moddiy ishlab chiqarishini qonuniyatlari tsiklik xarakterga, ya'ni ishlab chiqarishni davrli o'zgarishlariga, ish bilan ta'minlanganlik bahodagi o'zgarishlarga egadir. XX asrni so'nggi choragining o'zida rivojlangan mamlakatlarda uch marta davrli iqtisodiy rivojlanishning pasayishlari: 1974-1977, 1980-1982 va 1990-1993 yillarda yuz berdi. SHuningdek asr oxirida 1997 yilda janubiy — sharqiy Osiyoda boshlangan moliyaviy inqirozlar yangi asrga o'tdi va AQSH, YAponiya kabi yetakchi mamlakatlar iqtisodiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatdi va ko'rsatmoqda. Lekin rivojlangan mamlakatlar bunday inqirozlardan o'zlari uchun munosib xulosalar chiqaradilar va yangi iqtisodiy barkamollikka erishishni o'z yangi yo'llarini yaratib boradilar.

Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishining boshqa muhim bir qonuniyati iqtisodiy rivojlanishning notekisligidir. Bu bevosita tsiklik rivojlanish bilan bog'liq bo'lib, rivojlangan mamlakatlar turli guruxlarini davriy rivojlanishida namoyon bo'ladi. Masalan, XIX asrda deyarli umumjahon xo'jaligini birinchi davlati Angliya bo'lsa, XIX asrning oxiriga kelib o'z o'rnini AQSHga berdi, keyinroq esa Germaniyaga berdi. Bu mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishidagi o'ziga xos bo'lgan musobaqa birinchi jahon urushi bilan bog'liqdir. Birinchi jahon urushidan Germaniya mag'lub bo'lib chiqdi, natijada, o'z o'rnini yo'qotdi. AQSH, Angliya, Frantsiya esa jahon iqtisodiyotida o'z o'rnini mustahkamladi. Albatta, AQSH dunyoni birinchi darajali davlati sifatida o'z o'rnini mustahkamladi. Ikkinchi jahon urushidan keyin ham ushbu xol qaytarildi. AQSH o'z o'rnini yanada mustahkamladi.


XX asrning ikkinchi yarmida ITIni kuchayishi rivojlangan mamlakatlardagi mehnat unumdorligini yaqinlashuviga olib keldi. G'arbiy yevropani iqtisodiy rivojlanishi kuchaydi. Germaniya va YAponiya iqtisodiy rivojlanishi tezlashdi. SHunday qilib dunyoning iqtisodiy rivojlangan uch markazi: AQSH, G'arbiy yevropa va YAponiya paydo bo'ldi.

Bu jarayon hozirda mustahkamlanib SHimoliy Amerika bloki, G'arbiy yevropa bloki va YAnopiya bloki darajasiga yetdi. Bu davrda AQSHni rivojlangan mamlakatlar tizimidagi o'rnini bir qancha sohalarda nisbatan pasaydi.

Rivojlangan mamlakatlardagi YAIM o'sish sur'atlaridagi beqarorlik hali jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta'sirlari davom etayotganligini ko'rsatadi (10.1-rasm).

Rasmdan ko'rinadiki, inqiroz tufayli barcha rivojlangan mamlakatlarda 2009 yildagi keskin pasayishdan keyin 2010 yilda iqtisodiy o'sish sur'atlari ta'minlangan edi. Hattoki, ushbu o'sish sur'atlari AQSH, YAponiya va Germaniyada inqirozdan oldingi 2007 yil natijalaridan ham yuqoriroq bo'lganini kuzatishimiz mumkin. Biroq, 2011 yilda tahlil qilinayotgan barcha mamlakatlarda oldingi yilga nisbatan o'sish sur'atlari yanasekinlashib, hatto YAponiyada 0,4 foiz darajasida iqtisodiy pasayish ro'y berdi. Turli xalqaro moliyaviy tashkilotlarning berayotgan prognozlariga ko'ra, 2012 yilda ham manzara u qadar ijobiy tus olmaydi. AQSH va YAponiyada iqtisodiy o'sish sur'atlari tegishli ravishda 1,8 va 2 foiz bo'lishi kutilayotgan bo'lsa, Buyuk

Britaniya va Germaniyada bu ko'rsatkich atigi 0,7 foiz darajasida bo'lishi taxmin qilinmoqda.



10.1-rasm. Rivojlangan mamlakatlarda ishsizlik darajasi.

Avval moliyaviy sohada boshlanib, keyinchalik iqtisodiy sohaga o'tgan inqiroz, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, pirovardida ijtimoiy sohaga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, xususan, ishsizlik darajasining keskin oshib ketishiga olib keldi (1.1.2-rasm).

Rasmdan ko'rinadiki, inqirozdan oldin aksariyat rivojlangan mamlakatlarda 4-5 foiz atrofida bo'lgan ishsizlik darajasi 2009-2010 yillarda keskin ravishda oshib, 10 foizga yetdi. Bu boradagi muhim chora-tadbirlar natijasida 2011 yilda ishsizlikni ma'lum darajada pasaytirishga erishilganiga qaramay, AQSH, Buyuk Britaniya va Germaniyada bu ko'rsatkich hamon yuqori darajada qolmoqda.

Hozirgi vaqtda, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ta'sirida, aksariyat mamlakatlarning tashqi qarzi haddan tashqari oshib ketayotganligini kuzatish mumkin (10.1-jadval).

10.1-jadval

Rivojlangan mamlakatlarda tashqi qarz darajasi (2011 yil 30 iyundagi holati)

Mamlakat	Tashqi qarz, million AQSH doll.	Aholi jon boshiga tashqi qarz miqdori, AQSH doll.	YAIMga nisbatan tashqi qarz, foiz
Evropa Ittifoqi	16080000	32092	108
AQSH*	15033607	50000	100
Buyuk Britaniya	9836000	147060	416
Germaniya	5624000	63493	159
Frantsiya	5633000	74410	188
Yaponiya	2719000	19300	57
Ispaniya	2570000	52588	165
Italiya	2684000	39234	101
Irlandiya	2357000	482340	1307,6

*Izoh: AQSH bo'yicha ma'lumot 2011 yil 18 noyabrdagi holati bo'yicha berilgan.

Jadvaldan ko'rinadiki, tashqi qarz darajasining Irlandiyada 1307,6 foiz, Buyuk Britaniyada 416 foiz, Frantsiyada 188 foiz va boshqa ko'plab mamlakatlarda yillik YAIM hajmidan sezilarli darajada yuqori bo'lishi mazkur mamlakatlarning moliya sohasida jiddiy muammolar mavjudligini anglatadi.

YUrtboshimiz ma'ruzasida jahon zaxira valyutalarining beqarorligi, moliya-bank tizimi kredit qobiliyatining keskin pasayishi va investitsiyaviy faollikning

susayishi bilan bog'liq murakkab muammolar ko'plab davlatlar iqtisodiyotining tiklanish va o'sish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani ta'kidlab o'tildi. So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida yuzaga kelayotgan muammolar asosan qo'shimcha pul bosib chiqarish va moliya bozorini shunday pullar bilan to'ldirish hisobidan hal etilishi ko'zga tashlanayotgani, bu esa, o'z navbatida, kelgusida jilovlab bo'lmaydigan inflyatsiyaga, ya'ni qimmatchilikka, zaxira va milliy valyutalarning qadrsizlanishiga va shu bilan bog'liq og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkinligi qayd etildi.

2. Rivojlangan mamlakatlarning XIMdagi ishtirokining umumiy xususiyatlari

Keyingi 10 yillikda rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishi barqarorlashdi.

90-yillarning boshlaridagi iqtisodiy inqirozlardan so'ng, 1994 yildan iqtisodiy yuksalishning yangi basqichi boshlandi. Bu jarayon AQSHda 1992 yildan boshlandi, 2001 yilning mart oydan esa fond birjalarida yirik kompaniyalarning aktsiyalarining narxi vaqtli tushib bordi. Buning asosiy sabablari AQSH iqtisodiyoti rivojlanishini turg'unlik holati bo'ldi. Bu holat 2001 yil 11 sentyabr voqealaridan keyin yana takrorlandi.

YAponiya iqtisodiyoti 1997 yildan moliyaviy inqiroz iskanjasiga tushib qoldi. 1998 yildan yangi pasayish davri boshlandi. 2000 yilda rivojlanish va vaqtli pasayishlar yuz bermoqda. 2001 yilning 2-yarmida yangi iqtisodiy o'sishning pasayishi yuz berdi.

8-jadval

Rivojlangan mamlakatlarning jahon savdosidagi xissasi (2013 y.)

Mamlakatlar	Dunyo eksportida ulushi	Dunyo importida ulushi	Dunyo tashqi savdosida ulushi
Evropa Ittifoqi	9,5%	10,5%	10,8%
AQSH va Kanada	11,3%	16,9%	12,1%
YAponiya	4,8%	4,1%	4,5%
Xitoy	8,7%	6,5%	9,6%
Dunyodagi boshqa mamlakatlar	65,7%	62%	63%
Dunyo bo'yicha	100%	100%	100%

YAponiya yaukumati banklar tizimini barqarorlashtirish dasturiii ishlab chiqdi. Dasturga asosan bu sohaga 500 mlrd. dollar qo'yildi, shundap soliq tizimida imtiyozlar chizimi ishlab chiqildi. 1999-2000 moliya yilida yangi ish o'rinlari

yaratish uchun 170 mlrd. dollar ajratildi. Buning natijasida iqtisodiyotni rivojlantirish uchun imkoniyat kengaydi. Davrli rivojlanish, 2001 yil martidan yangi sanoatni pasayishi yuz berdi. Rivojlangan mamlakatlarda ish bilan qo'shimcha bandlikning asosiy manbasi xizmat ko'rsatish hisoblanadi. Lekin 1995 yili moddiy ishlab chiqarishda ishlovchilarning soni 0,2-1,1% AQSHda, Kanadada, Frantsiyada va Germaniyada oshgan.¹

YAqindi kelajakda SRMda ish bilan bandlik siyosati birinchi darajali masalaga aylanadi va bu muammoni hal qilish uchun ikki masala:

19 ta SRMda eng kam ish xaqini qayta ko'rib chiqish bo'yicha umummilliy tartibga solish qonuni ishlab chiqilgan va amal qilmoqda, ishchi kuchini tayerlash va qayta tayerlash dasturi takomillashtirilmoqda.

Hozirda ko'plab SRM eng kam maosh stavkasini bekor qilish g'oyasi ilgari surilmoqda. Buning sababi ko'plab ishchilarni, ayniqsa yoshlarni mutaxassisligining pastligi bo'lmoqda. SHu bilan birga kam ish xaqi oluvchi ishchilarni ijtimoiy ximoya qilish ulardan olingan soliqlarni kamaytirish taklif etilmoqda. Umuman ishsizlikni tugatish masalasini umummilliy va ayrim kompaniyalar darajasida ishchilarni mustahkamligini oshirish yanada takomillashtirib borish katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

XX - asrning ikkinchi yarmida bo'lib o'tgan inqirozlar natijasida rivojlangan mamlakatlarlar iqtisodiyotida chuqur tarkibiy o'zgarishlar bo'lishiga olib keldi. Oqibatda sanoat ishlab chiqarishining bu mamlakatlar iqtisodiyotidagi hissasi kamayib bordi.

3. Ayrim rivojlangan mamlakatlarning tashqi iqtisodiy faoliyati va ularning eksport va import tuzilmasi.

Rivojlangan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ko'proq tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish orqali ochiq iqtisodiyotga o'tish bilan bog'liqdir. Barcha rivojlangan davlatlar boshqa davlatlar bilan keng iqtisodii aloqalar olib boradi, birinchi navbatda bir-birlari bilan.

Jahon eksportida iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) mamlakatlar 72-73 foizni, 1998 yili 72,4 % tashkil etadi. 90-yillarda yillik tovar va xizmatlar eksporti notekis rivojlanib bordi. 1998 yilning o'zida IHTTga a'zo davlatlar tovar va xizmatlar ekporti 4016 mlrd. dollarni tashkil etdi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarning eksportining tuzilishida fan yutuqlari asosida yaratilgan eig zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan mahsulotlar katta ahamiyatga egadir. SHuningdek, sanoat mahsulotlari ichida katta ahamiyatga ega bo'lganlari elektronika va axborot texnologiyalar, axborotni avtomatik qayta ishlovchi, elektroaloqa asbob-uskunolari, yarim o'tkazgichli asboblar, elektron mikrosxemalar va boshqalar alohida axamiyatga egadir.

90-yillarniig o'rtasida SRM tomonidan jahop bozoriga 70 % shunday maxsulog stkazib berildya. Bu mahsulotlarning asosiy eksportyori AQSH va YAponiya bo'lib ularning hissasi 40 foizni, G'arbiy yevropaning hissasi esa 28%ni tashkil etadi. Xizmat ko'rsatish bilan bog'liq soxaning o'sishi juda tez suratlar bilan bormoqda.

¹ МэиМО, 1998, №8, 21-бет

Ayniqsa, keyingi 15 yilda tovarlar eksportiga nisbatan bu soha juda tez rivojlanib borib, 1995 yilda jami eksportning 23%ini tashkil etdi.²

Bu jarayonga 90-yillardan rivojlanishiga internet va boshqa axborotlar uzatish tarmoqlar tizimi katta turtki berdi. Bu sohaning ahamiyati beqies o'sdi va yanada o'sib bormoqda. Tez suratlar bilan ayniqsa, ishbilarmonlik bilan bog'liq xizmatlar tez o'sib bormoqda. Bu xizmatlar 1980 yildan 1994 yilga qadar 28%dan 49%ga o'sdi. Turizm umumiy xizmatlar eksportini 1/3 ni tashkil etmoqda.³ YAngi texnologiyalar sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, madaniyat, san'at sohasida xizmatlar eksportini kengayishiga katta imkoniyatlar yaratmoqda. SHu bilan birga bu mamlakatlar katta miqdorda mahsulotlarni ham import qiladi. 1995 yili turli xil oziq-ovqatlarli 69,2 %ini, oziq-ovqat xom-ashyosi 61,6% ni, yoqilg'ini 61,4% ni, ruda va metallar 63,7% ni, ximikatlar 63,5% ni, mashina va transtortlar 65% ni, va 67,5 foizi boshqa mahsulotlarni SRM import qiladi. 80-yillarga nisbatan hozirda bu mamlakatlar import tuzilmasini tarkibi ham o'zgaradi. Importning katta qismini hozirda oziq-ovqatlar, transport vositalari va boshqa uzoq foydalanish mumkin bo'lgan mahsulotlar tashkil qilayotganini kuzatish mumkin. SHu bilan birga bu mamlakatlarning importi yoqilg'ilar, ruda metallarni xissasi kamayotganiyai ko'rish mumkin. SRM iqtisodiyotini erkin iqtisodiyot bo'lishi bilan birga ular o'z eksporterlarini aktiv qo'llab-quvvatlaydilar. Bunday qo'llab-quvvatlashlarning asosiy uslublari eksport kreditlarini davlat kafolatlari, ekportni subsidiyalash, birinchi navbatda qishloq xo'jaligi mahsulotlari va yangi yuqori texnologiyali tarmoqlarni, shuningdek antidemping usulini ham rivojlangan mamlakatlarga nisbatan qo'llaydilar, SRMlar aynan chog'da asosiy kapitallar eksportyorlari va importyorlari ham hisoblanadi. Bu davlatlar eksportini va importini ishbilarmonlik va ssuda kapitali tashkil etadi. 1997 yili 90% to'g'ri investitsiyalarga 80% ni SRM o'z iqtisodiyotiga qo'yidilar.

Bu sohada birinchi davlat AQSH hisoblanib, 1997 yili ular 114,5 mlrd. dollar eksport qilgan bo'lsa, dunyo bo'yicha 424 mlrd. dollarni tashkil etdi. Kapital importi esa 91 mlrd. dodlarni tashkil etdi. ⁴ Uning 60% kapital qo'yilmalari asosan Angliya, Kanada, YAponiya, Frantsiya, Germaniya, SHveytsariya va Niderlandiga to'g'ri keladi. Bu mamlakatlar o'z navbatida AQSH ni 85% chet el investorlari bilan ta'minlaydi.

Keyingi o'rinda yirik xalqaro investorlar YAponiya, yeH va Kanada hisoblanadi. Ikkichi o'rinni AQSHdan keyip YAponiya egallab turibdi. U o'z investitsiyalarining 1/Z qismini AQSHga qo'ygan. G'arbiy yevropa davlatlariga qo'yilgan YApon kapitali 80% moliyaviy xizmat va savdo faqat 15% qayta ishlovchi sanoat tarmoqlariga qo'yilgandir. G'arbiy yevropa kapitali esa asosan AQSHga qaratilgan bo'lib, uning salmog'i jami kapital qo'yilmalarining 2/Z qismini tashkil etadi. O'z navbatida G'arbiy yevrona taxminan AQSH to'g'ri investitsiyalarini yarmini oladi.

Evropa va AQSH to'g'ri investitsiyalarining asosiy qismi yuqori texnologiyali tarmoqlarga yo'naltiriladi.

Misol uchup AQSH IBM korporatsiyasining YAponiyada bo'limi bo'lib unda 18 ming ishchi ishlaydi, uning yillik ishlab chiqargan mahsulotining summasi 6 mlrd.

² Манба: (World Economic and Social Survey. V.1996, p, 278.)

³ МЭиМЭ, №2, 30-бет

dollarni tashkil etdi. U Yaponiyaning yirik kompyuter texnikasi eksport qiluvchi korxonasi hisoblanadi.

Yaponiya AQSH sanoatiga - 18%, savdosiga esa 41% investitsiyalarning qo'ygan qolgan qismi moliyaviy sohaga va ko'chmas mulk uchun qo'yilgan. G'arbiy yevropaga qo'yilgan investitsiyalarni 16%ini sanoat tarmoqlariga qolgan qismi tavakkalchiligi kam bo'lgan qisqa va o'rta muddatli va ko'proq foyda qiluvchi savdo-sotiqqa qo'yganlar. Rivojlangan mamlakatlarni investitsiya aktivligini o'sishini manbasi kompaniyalarni bozorga kirishi, ayniqsa amaldagi axborot texnologiyalari sohasidagi faoliyatining kengayishi va uning xizmatidan foydalanish bo'lmoqda. SHunday qilib, Amerika, yevropa va birmuncha pastroq darajada yaponiya kompaniyalari o'z investitsiyalarini asosan rivojlanishi nisbatan o'zlariga teng bo'lgan SRMga qo'yadilar. Bu holat kelajakda saqlanib qolishi kutilmoqda.

IHTTga a'zo mamlakatlar 90% xalqaro ssuda kapitali bozorini tashkil etmoqdalar. Amalda 80-yillarda SMRlar asosan moliyaviy resurslarni importerlar bo'lgan bo'lsalar, 90-yillardan hozirga qadar o'zgarib netto eksporterlarga aylandilar. Moliyaviy resurslar harakatining bosh yo'nalishi va global investitsion iqlim asosan SRMning fond va valyuta bozorlaridagi holatlarga bog'liqdir.

SRMning asosiy ishchi kuchi import qiluvchilar bo'lish bilan birga ma'lum ma'noda yuqori malakali mutaxssislarni eksportyorlari hamdir. Lekin ularning eksporti 2%ini tashkil etadi. Faqat Portugaliyagina 10 % ishchi kuchi eksportyori hisoblanadi.

AQSH ishchi kuchining asosiy bozorlaridan biri hisoblanadi. U 1960 yili G'arbiy yevropada 140 ming ishchi kuchi import qilgan bo'lsa, hozirda o'rtacha yiliga 63 ming ishchi kuchini import qilmoqda. Bunday o'zgarishning asosiy sababi SRMning iqtisodiy rivojlanishidagi farqni kamaytirishga va nisbatan rivojlanish darajasini yaqinlashishidir.

AQSH hozirda ham o'z ishchilarining safini yuqori malakali ishchi emigrantlar hisobiga to'ldirib bormoqda. AQSH uchun hozirda sharqiy yevropa ham yangi ishchi kuchi importi uchun manbaa hisoblanadi. SHunga qaramasdan AQSHning 80% imigrant ishchilarini Lotin Amerikasi va Osiyoliklar tashkil etadi. Lekin ularning malakasi AQSH ishchilari malakasiga nisbatan 4 marta pastdir. G'arbiy yevropadagi holatga to'xtalsak 90 yillarni o'rtasida tashqaridan 10 mln. aholi yoki 11% ni kelgan ishchilar tashkil etadi. Ularning oylik maoshlari o'rtacha yevropalik ishchilarga nisbatan 1,5 - 2 marta pastdir.

Ma'lumki, har qanday tashqi iqtisodiy aloqalarning hisob-kitoblari valyuta (uning almashinuvi) bilan amalga oshadi. Barcha SRM erkin valyuta siyosatini olib boradilar. Ayrim hollardagina valyuta cheklovlarni qo'llashlari mumkin.

Tinch ijtimoiy — iqtisodiy rivojlanish sharoitida ham davlat boshqaruv darajasi o'zgarib turadi, bunga davrli mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar sabab bo'ldi. Davlat inqirozdan chiqish va barqaror rivojlanish yo'lida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonni boshqaradi.

Qimmatli qog'ozlar bozori.

Amerika xo'jalik yuritadigan hududlarining qulayligi uyada ko'p sonli fond birjalari paydo bo'lishiga olib keldi. Brokerlik biznesidagi qattiq raqobatchilik

jarayonida Nyu York Amerikaning birja markaziga aylandi. Nyu York shuningdek butun dunyoning yirik fond birjasi (ASE) hamdir. SHu tariqa dunyoda moliya operatsiyalari markaziga aylandi. Bulardan tashqari hozirgi vaqtda AQSHda sakkizta mintaqaviy fond birjalari CHikago, Filadelfiya, Tinch okeani, Boston, TSintsinati, Sinakanda va Solt Leyk–Sitidagi, barcha birjalar ishlab turibdi.

AQSHda qimmatli qog'ozlar bozorining tez rivojlanishi yirik Amerika sanoatining barpo etilishiga katga yordam berdi. Bu tabiiy hol bo'lib ingliz – Saksoniya mamlakatlardagi fond birjalari avval boshdanoq yevropa qitasidagi mamlakatlarning birjalarga qaraganda iqtisodiyotda ko'proq ahamiyatga ega bo'lgan.

Amerika qimmatli qog'ozlar bozori asosan yettita nazorat qiluvchi organ tomonidan boshqariladi. Ularning to'rttasi federal darajada, uchta har biri alohida olingan shtat darajasida pul bazasining miqdorini o'zgartirishini va pul muomalasi jarayonini tartibga solib turadi.

1993 yildan AQSH da 1992 yil fevralida qabul qilingan iqtisodiyotni sog'lomlashtirish dasturini amalga oshirishi tufayli, iqtisodiy yuksalish davri boshlandi. Biroq u yangi ish o'rinlarining keskin ko'payishiga olib kelmadi. CHuiki, Amerika kompaniyalarining yuksak texnologiyasi xodimlar soni minimal darajada bo'lgan holda, ishlab chiqarishni ancha oshirish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari boshqa davlatlarning raqobatchilligini kuchayishi, Lotin Amerikasi, Osiyo mamlakatlarida iqtisodiy siyosatning erkinlashuvi. Hamda SHarqiy yevropa va Sobiq Ittifoq bozorlarining ochilishi eksportni kuchaytirish imkonini kengaytirdi.

SHu yilda AQSHda xizmatlarni eksport qilishdan olingan daromad YAIMning - 7,3 foizini tashkil etdi. Xolbuki, ular Germaniyada 19,4%, YAponiyada esa 8,6% bo'lgan edi. SHu davrda AQSHning 104 ming kompaniyasi o'z mahsulotini eksport qildi. SHularning uchdan ikki qismi mamlakatlararo kompaniyalardir. Lekin, AQSH savdo vazirligining bergan bahosiga ko'ra o'z mahsulotini eksport qilishi mumkin bo'lgan Amerika kompaniyalarini soni ancha ko'p. CHunki tovar eksportining deyarli yarmi 50 ta kompaniya hissasiga to'g'ri keladi. Jami eksportning 64% esa AQSHning 10 shtatida amalga oshiriladi.

Milliy eksport strategiyasida Amerika eksportini ancha ko'paytirish imkoniyatlari mavjud. Bu strategiya federal agentliklar bilan eksport sohasida hamkorlikni faollashtirish uchun hisoblash texnikasi va boshqa yuqori texnologik tovarlarni eksport qilish ustidan nazoratni yengillashtirish, eksportni moliyalash uchun qo'shimcha mablag' ajratishga asoslangan.

YAponiya jahon xo'jaligida asosiy o'rinni egallabgina qolmay, jahon savdosida ham asosiy o'rinni egallaydi. YAponiyani 1995 yili tashqi savdo oboroti 669,6 mlrd. dollarni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich bo'yicha u dunyoda 3-o'rinni (AQSH va Germaniyadan keyingi) egallaydi. 90-yillarga qadar YAponiyani birinchi darajali eksportdan importga hamkori AQSH bo'lib kelgan edi. Hozirgi vaqtda holat o'zgarib uning yirik tashqi savdo hamkori Janubiy-SHarqiy Osiyo bo'lib qoldi. 1997 yili YApon eksporti va importinpg 28%i shu mamlakatlarga to'g'ri kelsa, AQSHga 26%i to'g'ri keldi.

Evropa Ittifoqi – 14%, Xitoyga-7% dan ozroq umumiy tashqi savdo oborotini tashkil etdi. Kelajakda Janubiy-SHarqiy Osiyo mamlakatlari YAponiyaning asosiy hamkori bo'lib qolishi kutilmoqda va uning iqtisodiyoti unga bog'liq rivojlanishi

ehtimol qilinmoqda. Bu aynan tadqiqot bo'lib, uning hamkorligi YAIM va ASEAN davlatlari va XXR bilan kengayib uning tayanch hamkoriga aylanib bormoqda. Uning import tovar tuzilmasi asosan xom-ashyo va yarim fabrikatlardan iborat bo'lib, ularning narxi mana ikkinchi o'n yillik ketmoqdaki, jahon bozorida tushib bormoqda. Uning eksport mahsulotlari tayyor mahsulotlarni tashkil etadi. Natijada xom-ashyoni arzon sotib olib tayyor mahsulotni qimmat bahoda sotmoqda, bunday qulay tashqi savdo konyukturasi YAponiyani iqtisodiy rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Tashqi savdoda esa barqaror aktiv saldo bo'lmoqda.

YAponiya mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarida og'ir mashinasozlik va elektronika sanoati bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi. SHu tarmoqda mehnat unumdorligi AQSHga nisbatan 10% ortiqdir. SHuning uchun ham YAponiyaning shunday mahsulotlari dunyo bozorida xaridorgir hisoblanibgina qolmay, AQSH, yeX va Osiyo mamlakatlari ichki bozoriga ham keng kirib bormoqda. AQSH va YAponiya o'zaro tashqi savdosida 70% mahsulotlarni og'ir mashinasozlik va elektrotexnika mahsulotlari tashkil etadi. U 80-yillarda tovarlar eksportyori bo'lgan bo'lsa, 90-yillarda esa kapital eksporteriga aylandi. Hozirda sanoat mahsulotlariga Osiyoni YAIM mahsulotlari kuchli raqobatchilarga aylanmoqda, bu esa YAponiya iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni yangi bosqichini boshlanishiga olib keldi. Bu o'zgarishlar ichki talablar asosida shakllanmoqda. Asosan xizmat ko'rsatish va informatikani roli oshib bormoqda. SHunga mos YAponiyani o'z ilmiy-texnika potentsiali ham rivojlanmokda. SHunday bir sharoitda davlatning roli yanada oshib bormoqda, ayniqsa, iqtisodiyotni rivojlanishini nazoratsiz bozordan, tashqi xorijiy investitsiya va monopolistik monstrlardan himoya qilishda.

1997 yildagi moliyaviy inqiroz ko'plab yirik banklarni va investitsion kompaniyalarni bankrotlikka olib kelib qo'ydi. Bu esa zudlik bilan chora-tadbirlar qo'llashga majbur etdi. Bu tadbirlar boshida umumiy iste'mol mollarini eng yangi fan-texnika yutuqlari asosida yaratilgan texnologiyalar asosida ishlab chiqarish o'tish bo'ldi.

Nazorat uchun savollar

1. Erkin iqtisodiyot (amerikancha) modeli qanday xususiyatga ega?
2. Ijtimoiy bozor (Germaniya) modeli qanday xususiyatga ega?
3. SHved modeli qanday xususiyatga ega?
4. YAponiya modeli qanday xususiyatga ega?
5. Rivojlangan mamlakatlarni iqtisodiy rivojlanishining umumiy qonuniyatlari.
6. Hozirgi bosqichda rivojlangan mamlakatlarni XIMdagi ishtiroki.
7. Rivojlangan mamlakatlarning eksport-import tovar tuzilmasi.

10-MAVZU RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR TIZIMIDA.

Reja:

- 4. Rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy tomonlari.**
- 5. Rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro tovar almashinuvida tutgan o'rni va roli.**
- 6. Xorijiy sarmoyalar – rivojlanayotgan mamlakat iqtisodiyotida.**

1. Rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy tomonlari.

XX asrning ikkinchi yarimlaridan boshlab xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlanishining ko'proq ahamiyati tomonlaridan biri, ularning sobiq koloniyalar va karash territoriyalaridagi roli va ahamiyatini kuchaytirishdan iborat bo'lib hisoblanadi. Bu mamlakatlarni hozirda rivojlanayotgan mamlakatlar yoki ularni tez tez ozod etilgan malakatlar, «uchinchi dunyo mamlakatlari», «janub» mamlakatlari, «Periferiya» mamlakatlari sifatida tilga olishadi.

Bu mamlakatlarda 3,2 mlrd.ga teng aholi yashaydi va ular turli tumandir. Ularda juda murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar kechmoqda.

SHunga muvofiq, ozodlikka erishgan mmalakatlar rivojlanishining bosh tendentsiyalari XX asrning 60 yillaridan boshlanib, tobora o'sib boruvchi xarakter kasb etdi. Ularning eng ilg'orlari 1950 yilga kelib, rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy munosabatlarida «o'rtachalaridan» (54 mamlakat) 2,4 marta, nisbatanyuksaqlikka erishdi. Asrning o'rtalaridan boshlab, yuqorida zikr etilgan malakatlar o'rtasidagi rivojlanish darajisidagi farq sezilarli darajada ortib bordi. SHuningdek, 1992 yilga kelib rivojlanayottgan malakatlarning birinchi guruhiga kiruvchi (19 ta mamlakat) malakatlardagi aholi jon boshiga «to'g'ri keluvchi o'rtacha foyda» o'rtachalarining mos darajaligiga nisbatan 2,9 barobar, quyi guruhlarinikiga nisbatan esa 12,2 barobar yuqori bo'ldi. Rivojlanayotgan mamlaktlarning aynan shu guruhlarining tarkibida ham o'zgarishlari vujudga keldi. SHuningdek, ular har birining doirasidagi mamlaktlarning rivojlanish darajalari o'rtasidagi bog'liqda ham o'zgarishlar yuzaga keldi.

Bu jarayonlarning natijasida tabakalashuv ikkita asosiy qutbdan tashkil topdi. qutbning ozodlikka erishgan mmalakatlarning ko'proq rivojlanganlari joylashgan bo'lib, ularning asosiylari fors kurfasida joylashgan bir qator mamlaktlar – Qatar, Quvayt, OAE, Bagama, Bermuda shuningdek Janubiy-SHarqiy Osiyo va Lotin Amerikasidagi yangi industrial mamlakatlari bo'lib hisoblanadi. qutbning ikkinchi tomonidan esa mutlako turg'unlik holatidagi kambag'al mamlakatlar joylashgandir. Bu kategoriyaga 48 ta mamlakat ta'lluklidir. Ular orasida bir qator Afrika mamlakatlari, shu jumladan Mozambik (YAIM yiliga kishi boshiga 80 dollar), efiopiya (100 dollar), Sera Leone (140 dollar), Berundi (180 dollar), Uganda (190 dollar), CHad va Ruandi (200 dollar) kabi malakatlar mavjud. Bu guruhga ta'llukli mamlakatlardan tashqari, guruh ro'yxatining quyi qismida bir qancha Osiyo mamlaktlari qayd etiladi. Bular: Nepal (160 dollar), Butan va Vetnam (170 dollar), Mayanma va boshqalardir.

Ushbu qutblar orasida rivojlanayotgan dunyoning qolgan qismlari joylashadi.

Bu ham o'z navbatida, bir xil tipda bo'lmagan guruhdir. Uning tarkibiga kiruvchi mamlakatlar ko'plab ijtimoiy iqtisoiy parametrlar bo'yicha farqlanadi. Rossiya omillarining guvohlik berishicha, eng so'nggi qutblar orasida ham, o'z navbatida tabakalashuv tendentsiyalari namoyon etuvchi rivojlanayotgan mamlakatlarning konglomerati joylashadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar tabaqalashuvining bunday guruhlari ba'zi bir mamlakatlar, ba'zi birlarining iqtisodiy o'sish dinamikalarini aniqlab bersa, boshqa birlarining esa zamonaviy xalqaro iqtisodiy doirasida ahamiyatsiz ekanligini ko'rsatadi.

Iqtisodiy o'sish jihatidan ancha muvaffaqiyatiga erishgan rivojlanayotgan mamlakatlar orasida oldinroq ozod bo'lishga ulgo'rgan mamlakatlar tanlab olgan yo'nalish kuzga yaqqol tashlanadi. O'sishning yangi qutblari paydo bo'ladi «YAngi industrial» shakllanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarga xos bo'lgan barcha turli tumanliklarda xarakterli tomonlar va o'ziga xos xususiyatlarida, ularning umumiylik sifatida karashga imkon beruvchi bir qator umummiyliklar va xarakteristikalarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin.

Bular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotning ko'p ukladlilik xarakterini kasb etish;

Ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishi past darajada ekanligi, sanoat, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy infrastrukturaning qoloq ekanligi (birinchi guruh «yuqori qutb» mamlakatlarini hisobga olmaganda).

Ular iqtisodiyoti jahon xo'jaligi sistemasiga bog'liq ekanligi, kapitalizmning perefirik xarakter kasb etishi.

Bu xildagi jihatlarni atroflicha qarab chiqamiz.

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti ko'p ukladli ijtimoiy iqtisodiy tarkibga asoslanadi. Bir qator mamlakatlarda kapitalistik uklad bilan bir qatorda hamon urug'-aymog'chilik va patriarxal munosabatlar ham mavjuddir. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida davlat va davlat ukladli muhim rol o'ynaydi davlat sektorini rivojlantirish bosqichi, kapitalistik ishbilarmonlilikni kengaytirish siyosati bilan olib boriladi. Buning natijasida esa davlat kapitalizmi paydo bo'ladi va rivojlanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'p ukladligi haqida gapirilganda shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, ular asosan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining mavqeyi yuqori bo'lgan qishloq xo'jaligi mamlakatlari hisoblanadi.

Kichik tovar xo'jaligi bevosita patriarxal va natural munosabatlarning keng tarqalganligi bois, qishloq xo'jaligida yuqori ahamiyatga egadir.

Ozodlikka erishgan mamlakatlarda amal qiluvchi xususiy kapitalistik uklad o'z ichiga kapitalistik mulkchilikning turli formalarini qamrab oladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar bir-biridan xususiy kapitalistik munosabatlarning rivojlanish darajasi bo'yicha farq qiladi. Iqtisodiy jihatdan ancha ilgari ketgan rivojlanayotgan mamlakatlarning kapitalistik bozor munosabatlari sistemali tuzilish alomatlarini kasb etadi. SHuningdek bir qator mamlakatlarda davlat – monopolistik kapitalizmi alomatlarining shakllanishi ro'y beradi. Nisbatan past

darajada rivojlanayotgan mamlaktlar guruhlarida milliy-xususiy kapitalistik ukld endigina shakllanish pallasida turibdi.

Milliy xususiyat. Rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy tomonlari kapitalistik ukld alomatlarining rivojlanish va shakllanishi, jamg'arish muammolari (ya'ni pul resurslarining etishmovchiligi bilan) va jamg'arilgan mablag'lar, asosan savdoga, (ichki va tashqi), kuchmas mulklarni sotib olishga, mashinalarni ta'mirlashga straxovaniyaga, benzin quyish va boshqalar, shuningdek sarmoyalarni katta qismi aylanadigan joylarga yo'naltiriladi. Ishlab chiqarish sohasida kapital faqatgina qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida sarf qilinadi. Ammo aksariyat hollarda ozodlikka erishgan mamlakatlar iqtisodiyotida xorijiy sarmoyalar asosiy mavkeini egallagan bo'lib, ular odatda maxalliy tadbirkorlarga nisbatan yen berishni istamaydilar.

Ozodlikka erishgan mamlakatlarning ko'pchiligida paydo bo'ladigan va rivojlanib boradigan kapitalizm periferik xarakter kasb etadi. Bu shuni anglatadiki, u sanoati rivojlangan mamlakatlar kapitalizmidan nafaqat rivojlanish darajasi bo'yicha, balki eng muhimi, ishlab chiqarish usullarning modeli va moddiy ne'matlar taksimoti bo'yicha ham tubdan farq qiladi. Kapitalizm markazlari, jamg'arishning organik va o'zaro aloqador doimiy o'sish jarayonida, milliy zaminda paydo bo'ladi va rivojlanadi. Bu yerda jadal elementlari rivojlanishidagi bog'liqlik mavjud emasdur. Moslashuvchanlik (imitatsiya) aholining boy, katamlari o'zlari uchun zaruriy bo'lgan barcha narsalarni kulga kirita oladigan maxsus bozorlarning tashkil topishidan boshlandi. Bunday vaziyat aholining asosiy qismini kambag'allikka mahkum etib, ularni bozorlarda erkin muomalada bo'lish imkoniyatidan maxrum etadi.

Transmilliy korporatsiyalar tomonidan joriy qilingan yangi texnikalar odatda kechangi kun mos keladi, ammo ularning bozor narxlari juda yuqoridir.

Periferik kapitalizmining rivojlanishi asinxronik, noteng holatda amalga oshadi. Iqtisodiy o'sish va siyosiy demokratiya parallel ravishda rivojlanmay, balki ko'pincha teskari holatda bo'lib, bir-biridan sezilarli qadar uzolashib boradi. Ba'zi bor rivojlanayotgan mamlakatlar periferik kapitalizm modelini joriy qilar ekan, uni chetlab o'tish maqsadida ko'pchilik hollarda o'ziga xosliklarni hisobga olib, ichki kuchlar va mablag'larni topish orqali taraqqiyotning yuqori cho'qqilari tomon, harakat qilmoqdalar.

Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarning o'xshash tomonlari, ularning qashshoqligi, aholisining qoloqligi, ishsizlik darajasining yuqoriligi, sanoati rivojlangan mamlakatlarda katta miqdorda qarzdorligi bo'lib hisoblanadi. Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar o'zining to'laqonli ijtimoiy rivojlanishi, aholisining yashash darajasi bo'yicha. SHimolning sanoatlashgan ilg'or mamlakatlaridan 20-50 marotaba orqada qolmoqda.

Xalqaro mehnat taqsimotida aktiv ishtirok etish, jahon xo'jaligi aloqalarining ancha rivojlangan sistemasi, oddiy va moliyaviy resurslarning mamlakatlar aro oqib yuradigan qismi, iqtisodiy taraqqiyotning cheksiz shart-sharoitlariga aylanib koldi. Mustaqil davlat sifatida Jahon hamjamiyatida ishtirok etish orqali, rivojlanayotgan mamlakatlarning barchasi 70 yillarning boshlaridan e'tiboran xalqaro mehnat taqsimotida qatnashish uchun aktiv ravishda intilmoqdalar.

Ularning xalqaro mehnat taqsimotida aktiv ishtirok etish zaruriyati shunday asoslanib beriladiki, ular tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun zaruriy bo'lgan barcha narsalarni yetishtirish imkoniyatiga ega emasdirlar. Hozirgi paytda ular sanoati rivojlangan mamlakatlar uchun xom-ashyo yetishtirib beruvchilar hamda nisbatan arzon ishchi kuchlarining manbai bo'lib hisoblanadilar.

2. Rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro tovar almashinuvida tutgan o'rni va roli.

Xalqaro mehnat taqsimotida ko'plab xo'jalik faoliyati doiralari jamlangandir. eng muhimi, xalqaro savdo bazalarini tashkil etuvchi xom-ashyolar va tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish barcha iqtisodiy resurslarning tasarruf etilishi mumkin bo'lgan qismlarini rivojlanayotgan mamlakatlar va boshqa dunyolar o'rtasidagi almashinuvini ta'minlaydi. Xalqaro savdo asosan, eng kambag'al rivojlanayotgan mamlakatlar uchun tashqi daromadlarning ancha ishonchli manbai bo'lib qoladi. Ammo, material va energiya sigimining kamayishi munosabati rivojlangan mamlakatning o'sishida tabiiy xom-ashyolarning xalqaro savdodagi tutgan o'rni pasayib borish aniq tendentsiyalarga egadir. SHunga muvofiq, u 1991 yilda Jahon eksporti umumiy ulushining 25% ini tashkil etadi. Bir vaqtning o'zida, bir qator an'anaviy tovarlarni ko'zda tutganda aynan o'sha rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida ulashlarning qayta taqsimlanishi sodir bo'layotir. SHunga ko'ra, 70 yillarda 90 yillarga qadar, Afrikadagi rivojlanayotgan mamlakatlarning umumiy eksport hajmidagi ulushi qisqarib borganligi qayd etiladi. U Osiyo mamlakatlaridan jo'natilayotgan mollarning doimiy usayotganligiga qaramasdan, 2 barobardan ko'proq pasayib ketadi. eksportni asosi ham ashyolardan iborat bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda, ularning jahon bozorida egallab turgan pozitsiyalarining yomonlashuvini to'xtatish imkoniyatiga ega bo'lgan qo'shimcha eksport resurslarini izlab topishga kuchli ehtiyoj sezilmoqda. Buning uchun, eksportning xilma-xilligini ta'minlash: ya'ni chiqariladigan xom-ashyolarni qayta ishlash, boshqa turdagi sanoat mahsulotlari va boshqalarning jahon bozoridagi erkin harakatini ta'minlash, eng muhim ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

An'anaviy tovarlar eksporti hajmini kengaytirish borasidagi ko'pchilik muammolarga qaramasdan, rivojlanayotgan mamlakatlarning umumiy jahon eksportidagi ulushi sekin astalik bilan oshib bormoqda. SHuningdek, u 1987 yildagi 22% o'rniga 1992 yilga kelib 24,7% ga qadar ortdi. 1993 yilga kelib, ular eksportning fizik hajmi, sanoati rivojlanayotgan mamlakatlarda 1,2 % ga qisqarganiga qaramasdan, yana 10% ga ortdi. Rivojlanayotgan mamlakatlar jami eksportni tarkiblashtirish jarayoni sodir bo'lmoqda. SHuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlar eksportidagi sanoat mollarning ulushi (rangli materiallarni hisobga olganda) 1991 yilda 57,7% ga yetdi. (mineralli isitgichlar hisobga olinmagan 77,3%). Rivojlanayotgan mamlakatlarning jahon sanoati eksportidagi ulushi ham o'sib bormoqda. U 1991 yilda, 1980 yildagi - 11: va 1970 yildagi – 7,6% ga nisbatan taqqoslaganda 19,5%ga yetdi. 90 yillar rivojlanayotgan mamlakatlarning Jahon eksportidagi ulushi doimiy o'sish tendentsiyasiga ega, bo'lganligi haqida guvohlik beradi. 90 yillarning o'rtalarida ularning ulushi sanoat mollari eksport hajmining o'sishi munosabati bilan 25% ga ko'pydi.

Sanoat eksport hajmining o'sishida, mashina va asbob - uskunalar eng muhim rol o'ynaydi. Ularni eksport qilish 1970-1991 yillar oraligida 90 marotaba yaqin o'sib boradi va ularning o'sishida sanoatning umumiy ulushi 35,7% ni va tovar eksportining umumiy hajmi 22% ni tashkil etadi. Umumiy ma'lumotlarga qaraganda, jahon sanoati eksportida rivojlanayotgan mamlakatlar ulushining ortib borishi, mohiyat va masshtab jihatdan alohida mamlaktlar erishgan turli xildagi yutuqlardan tashkili topadi. SHuningdek, ba'zi bir mamlakatlar 1980-1992 yillar mobaynida xom-ashyolarni chetga chiqarish hisobiga o'zlarining xalqaro mehnat taqsimotida qatnashish imkoniyatlarini kuchaytirishga erishdilar (taxminan ularning soni 12 mamlakatni: eron, Kongo, Boliviya, Paragvay va boshqalarni o'zichiga oladi). boshqa mamlakatlar esa, o'zlarining jahon eksportidagi shaxsiy ulushlarini, sanoatda qayta ishlanadigan mahsulotlarning tashqi bozordagi aktiv harakati hisobiga oshirib bordilar. O'z navbatida, mazkur guruhlar o'rtasidagi alohida mamlakatlar erishgan muvaffaqiyatlar ham alohida ajratib ko'rsatiladi. Oldingi o'rinda «yangi industrial mamlakatlar» bormoqda. boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar esa, eksportning asosini tashkil etuvchi sanoatni kuchaytirish va kengaytirish borasida eng kam ulushni kulga kiritdilar. Ba'zi birlari esa, masalan, Afrikaning eng yirik mamlakati hisoblanmish Nigeriya, o'zlarining sanoat eksportidagi uluslarini qisqartirib tashladilar.

Xalqaro savdo misolida, rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish natijalarini baholash orqali jahon xo'jaligi tizimining butunlay notenglik asosida ko'rilganligini ko'rish mumkin. Ba'zi bir mamlakatlar FTT yutuqlaridan foydalanayotgan bir paytda, rivojlanayotgan dunyoning qolgan qismi oldindek an'anaviy industriallashuviga, ba'zi bir qismi esa industriallashuvigacha bo'lgan texnologiyalarga asoslanib taraqqiy etmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning Jahon iqtisodiyotidagi ahvoli bilan bog'liq bo'lgan umumiy holatlarni xarakterlash orqali shu narsani ta'kidlab o'tish joizki, kolok rivojlangan mamlakatlar borgan sari xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimidan «ajratib» quyiladi. Bu bilan bog'liq bo'lgan fikrlar 1996 yilda savdo va rivojlanishga bagishlab o'tkazilgan (YUNKTAD). BMT konferentsiyasida takdim etilgan (doklad) ma'ruzalarining avtorlari tomonidan keltirib utilgan.

Doklad avtorlarining fikricha Urugvay, Raundi, doirasida amal kiluchvi global savdo bitimi makonini olgan GATT – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilishda subsiditlarini qisqartirish keraqligini ta'kidlab quvib. Bunday vaziyat, kuchsiz rivojlangan mamlakatlarga nisbatan kuchli zarba bo'lib turadi. Bugodoy. Kand, go'sht va boshqa turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining bozor narxlari oshib bormoqda. 2000 yilga borib, eng kambag'al mamlakatlarning jami yillik savdo kamomadi 300-600 mlrd. dollarga usadi.

Dunyo savdosida xom-ashyolar va oziq-ovqat mahsulotlari ulushining qisqarishi munosabati bilan ularni ishlab chiqarishga bo'lgan ixtisoslashuv o'zining yetaqchilik rolini yo'qotdi. Iqtisodiy o'sishni qo'llab-kuvatlash maqsadidagi xom-ashyoviy ixtisoslashuv vaqtigina o'zining yordamchiligi rolini bajarishga kodirdir. Iqtisodiy o'sishga nisbatan zaruriy bo'lgan denimikani berishda, xalqaro iktiodiy almashuvinig oddiy sanoat tovarlari va xizmatlari bozor kabi shunday doirasini o'zlashtirish lozimki, bunda mehnat sigimi ancha yuqori bo'ladi. Xalqaro savdoning

rivojlanish tendentsiyalari guvohlik beradiki; so'nggi un yilliklarda turli xildagi xizmatlarning hajmi va ahamiyati bekiyos darajada o'sib darajada o'sib bormoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlar o'zlarining bu yo'ldagi imkoniyatlaridan aktiv ravishda foydalanishlari mumkin va foydalanmoqdalar ham. Masalan, sayyohlik va mehnat bilan bog'liq xizmatlar turli xildagi «iflos» va past maosh to'lanadigan ishlar uchun ishchi kuchlarini eksport qilish shular jumlasidandir.

Sayyohlik ko'p paytdan buyon, ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xorijiy valyutalar tushumining asosiy manbalaridan biriga aylanib koldi. SHuningdek, yegipet uchun turizm SKVni manbalarining ahamiyati bo'yicha, xorijiy mamlakatlarda vaqtinchalik band bo'lgan yegipitlik ishchilar hisobidan o'tkaziladigan valyutalar va xorijiy yordamlardan keyingi uchinchi o'rinni egalaydi. So'nggi yillarda turizm Turkiyada yuqori suratlar bilan rivojlanib bormoqda. Bu ko'rsatkich turizmning umum Jahon mikiyosidagi 4% li o'sish ko'rsatkichi bilan taqqoslanganda, yiliga 8%ni tashkil etadi. Turkiya ko'proq milliy iqtisodiyot ushbu tarmog'ining dinamik rivojlanishi bilan farq qiluvchi besh mamlakat qatoriga kiritiladi. SHu narsa ko'tiladiki, 2005 yilga borib bu mamlakat sayyoxlikdan tushadigan daromadning ulchami bo'yicha dunyoda oltinchi o'rinni egalaydi.

Turkiya rekratsion xizmatlarning past baholari bilan bog'liq bo'lgan imkoniyatlariga mofik asosiy rakiblar hisoblanish Gretsiya va Ispaniyada bo'lgan raqobatda galaba kozonish extimoliga egadir. Sungi yillarda ishchi kuchlarini eksport qilishdan keladigan valyuta tushumlari aynan rivojlanayotgan mamlakatlarda ancha yuqori suratlari bilan o'sdi va yiliga 10% ni tashkil etdi. Bu manbalarda sezilarli summalarni qo'lga kiritayotib, ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar ishchi xizmatlar bo'yicha o'zlariga mos bo'lgan eksport ixtisoslashuvlarini yaratmoqdalar. U qisman, valyuta bo'lib hisoblanadi. 80 yillarning boshlardan e'tiboran toki hozirgi vaqtga qadar ishchi kuchlarini eksport qilish, Pokiston iqtisodiyotiga antisamarali ta'sir ko'rsatmoqda. Pokiston uchun xorijiy mamlakatlardagi ishchilar hisobidan o'tkazilayotgan valyuta tushumlari, tovarlar va xizmatlarni eksport qiladigan tushumlardan besh marotaba ortiqdir. Bu ko'rsatkich yegipet uchun 40%ni, Marokko uchun – 50%ni, Turkiya uchun – 60%ni, Xindiston uchun – 80%ni tashkil etadi.

Xorijiy sarmoyalar – rivojlanayotgan mamlakat iqtisodiyotida

«Qashshoqlik botqog'i»dan qutilishga intilish, iqtisodiyotning ilg'or tarmoqlari rivojlanishga imkoniyat yaratish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini rivojlantirish, rivojlanayotgan mamlakatlardan xorijiy sarmoyalarni izchil jalb qilishni talab etadi. Bunday maqsadlarda, investitsiya muhim kafolat shart-sharoiti mavjud bo'lgan maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etiladi.

Ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarni kuchaytirib berish jarayoni oson kechmadi. SHuningdek 1992 yilda rivojlanayotgan mamlakatlarga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning miqdori 51,5 mlrd. dollarni tashkil etgan darajasiga nisbatan ikki barobardan ham ko'proqdir. Jahon bankining ma'lumotiga qaraganda, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga xususiy kapitallarni jalb qilish 1994 yilga kelib yanada kuchaydi va 1990-93yillari oraligidagi davrlar bilan taqqoslaganda uning o'sish darajasi tez qisqarganligiga qaramasdan, uning miqdori 173 mlrd. dollarga teng bo'lgan rekord natijaga erishdi. SHunga qaramasdan, yangi fond bozorlaridagi aktsiyalarga band etilgan partfel qo'yilmalar 1993 yildagi 46,9

mlrd. dollarga teng bo'lgan rekord darajadan 39,5 mlrd. dollarga qadar pasayib bordi. O'z navbatida banklarda deponintlangan va obligatsiyalarga quyilgan xususiy sarmoyalarning qiymati 45,7 mlrd. dollardan 55,5 mlrd. dollarga qadar o'sib bordi, tug'risidan to'g'ri xorijiy investitsiyalar esa 66,6 mlrd. dollardan 77,9 mlrd. dollarga qadar oshdi. Qayd etib o'tish joizki, 1993 yilda rivojlanayotgan mamlakatlarning o'zlari ham 14 mlrd. dollar miqdoridagi sarmoyani xorijiy mamlakatlarga eksport qildilar.

«Ernest va YAng» amerika konsolting firmalarning bergan baholariga ko'ra yaqin yillarda rivojlanayotgan mamlakatlardan eng kuzga ko'ringanlari: Xitoy, Hindiston, Indoneziya, shuningdek Meksika va Braziliya kabi mamlakatlar bo'lishi mumkin.

Rivojlanayotgan mamlakatlar xususiy sarmoyalarni jalb qilar ekan eng muhimi, ular dinamikali o'sish imkoniyatiga ega bo'lgan va iqtisodiyotning istiqboli porloq bo'lgan mamlakatlar tomon ilgarilab bormoqda. Bugungi kunda xususiy investitsiyalarning 80% rivojlanayotgan mamlakatlarning 20404ga to'g'ri kelmoqda. Bunda asosiy o'rinni SHarqiy Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlari egallamoqda. Kuchsiz rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining turgunligi va eng muhim siyosiy vaziyatning borqarorligi, ko'pincha sanoati rivojlanayotgan mamlakatlardan kelayotgan ishbilarmon doiralarni cho'chitib qo'ymoqda. Ushbu mamlakatlar tomonidan uyushtirilayotgan davlat yordamlari, so'ngi yilliklar davomida yetarli darajada barqaror amalga oshirilgan bo'lib, 90 yillarining o'rtalaridan etiboran ularning miqdori sezilarli darajada qisqartirilgan. Xalqaro valyuta fondi analitik ma'lumotlarga qaraganda 1994 yilda butun dunyo bo'yicha inflyatsiyaning oldini olish maqsadida davlat yo'llari orqali 59 mlrd. dollarga teng bo'lgan rasmiy yordamlar uyushtirilgan bo'lib, bu ko'rsatgich 1993 yildagiga nisbatan 3 mlrd dollarga kamdir. Rivojlangan mamlakatlarning rivojlanayotgan mamlakatlar bilan o'zaro davlat miqyosida hamkorligi o'zining me'yoriga yetgan 1990 yildagi darajasi bilan taqqoslab ko'rilganda, bu raqam 12 mlrd. dollarga kamayib borgan. Bu paytda iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan uyushtirilayotgan yordam hammasi bo'lib, ular jami yalpi milliy mahsulotning 0,3% ini tashkil etgan muhim tomoni shundaki, Afrika mamlakatlariga nisbatan uyushtirilayotgan barcha tashqi yordamning qarzlarning foyizlari shaklida G'arbga tomon qaytib ketmoqda, 90 yilning o'rtalarida Afrikaning Saharadan janubga bo'lgan mintaqasidagi mamlakatlarning qarzlari 211mlrd. dollarni tashkil etgan bo'lsa, 1984 yildan buyon Afrika davlatlari kreditlariga qarzlarning 150mlrd dollariga yaqinini to'lashga muvofak bo'ldilar. Afrikaning barcha mintaqalaridagi umumiy qarzlari 303 mlrd. dollarni tashkil etib, u Afrika mamlakatlari yillik eksport daromadlarining 204% gacha tengdir.

1994 yilning oxiriga kelib eng katta tashqi qarz Meksika va Xitoyda bo'lib, uning miqdori Meksikada 5 mlrd. dollarni, Xitoyda 111 mlrd. dollarni tashkil etadi. Osiyo mamlakatlari bo'lib hisoblanuvchi – Tayland, Janubiy Koreya, Xindiston, Filippin kabi davlatlarning tashqi qarzlari tez suratlar bilan o'sib borokda. Osiyo mintaqasi rivojlanayotgan mamlakatlarning dunyo miqyosida o'sib borayotgan qarzlarning yarmisiga yaqinini o'zi jamlagan bo'lib, uning miqdori 1994 yilning oxiriga kelib, 1,7 trln. dollarni tashkil etdi yoki 1993 yilgi darajaga nisbatan 10%

yuqoridir. Tashqi qarzдорlarning bunday o'sishi, yangi davr tarixada erishilgan rekord natija bo'ldi.

Lotin Amerika mamlakatlari tashqi qarzlarining o'sib borayotganligi ham bir necha bora ko'rsatildi 3% mavjud tashqi qarzxlarni aholi jon boshiga nisbatan hisoblanganda mazkur mamlakatlari boshqa mamlakatlarga qaraganda ancha oldinda turadi bu ko'rsatgach Osiyoda 250 dollarga teng bo'lsa, Lotin Amerikasida esa 1000 dollarni tashkil etadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar amaldagi qarzlarini xususiy kapital qo'yilmalari hisobotdagi mulkiy munosabatlar orqali to'planib boradi. Kreditor mamlakatlar orasida YAponiya birinchi o'rinni egallagan bo'lib, uning rivojlanayotgan mamlakatlardagi, birinchi navbatda Osiyo mamlakatlaridagi kreditlarining miqdori 236 mlrd. dollarga yetdi. Keyingi o'rinni – 147 mlrd. dollar miqdoridagi ko'rsatkich bilan AQSH egallagan bo'lib, ularning yarmisi Lotin Amerikasi mamlakatlariga to'g'ri keladi. Uchinchi o'rinda esa Germaniya turadi – 106 mlrd. dollar miqdoridagi sarmoyalarni chetga chiqargan mamlakat bo'lib hisoblanadi. O'z navbatida Frantsiya hamxorijiy mamlakatlarga uncha katta miqdorda bo'lmagan kreditlarni beruvchi davlat hisoblanadi – uning miqdori 103 mlrd. dollarni tashkil etadi. Uning qarzдорlari bo'lib, asosan Afrika va Osiyo mamlakatlari bo'lib hisoblanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan qarzlarining qaytarilishi eng og'ir muammo bo'lib qolayotgan bir paytda, qarzдорlikka qarshi kurashning birdan-bir yo'li, bu kreditormamlakatlar qarzlarining kechib yuboriladigan umumiy miqdorini 75-100%ga yetkazish ko'zda to'tilgan bo'lib, bundan kuzlangan bosh maqsad, 80 yillardan buyon qarzlarining miqdori yuqori sur'atlar bilan o'sib kelayotgan mamlakatlarga nisbatan yengillik berishdan iboratdir.

YUqorida ta'kidlab utilganidek, yangi xalqlar mehnat taqsimoti, ko'pchilik hollarda transmilliy korporatsiyalar tomonidan shakllantiriladi. Ular aynan rivojlanayotgan mamlakatlarni o'z manfaat zonalarida deb bilib, o'z ishlab chiqarishlarini ushbu zonalarga joylashtiradilarki, u yerda ishlab chiqarishni tashkild etish iqtisodiy va texnologik jihatdan yuqori foyda keltiradi.

Transmilliy korporatsiyalar va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarning kengayishi asosan 80 yillardan boshlandi. Bunga ko'p jihatdan, rivojlanayotgan mamlakatlarda qabul qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar haqidagi bir qator qonunlarning qayta ko'rib chiqilishi, katta imkoniyatlar yaratdi. Bu yillarda transmilliy korporatsiyalar va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida paydo bo'ladigan har xil kelishmovchilik holatlarning sud orqali muxokama etilishi kamayib berayotganligi va qanday holatlarga barham berayotganligi qayd etiladi

Transmilliy korporatsiyalar ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda yuksak o'zgarishlarni vujudga keltirayotganligi bilan bar qatorda, ushbu korporatsiyalar texnik taraqqiyotining ichki omillariga juda katta imkoniyatlar ochib bermoqda. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, transmilliy korporatsiyalar "uchinchi dunyo" mamlakatlarining rivojlanishida yuksak ahamiyat kasb etmoqda. Bular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Bir qator tarmoqlarda qo'llaniladigan texnika va texnologiyalar yetqazib berish (engil sanoat, tukimachilik sanoati, elektron sanoati). Transmilliy korporatsiyalar

investor sifatida ham, shuningdek investitsiya tovarlari yoki texnologiyalarini (litsenziyalarini) yetqazib beruvchilar sifatida ham muhim rol o'ynaydi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarni xom-ashyo eksport qiluvchilardan tayyor mahsulotlarning sotuvchilariga aylantirish. Bunday bevosita qo'yilma, rivojlanayotgan mamlakatlar ishlab chiqarishdagi tarkibiy o'zgarishlar uchun to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar yo'nalishidagi moliyaviy resurslarni oddiy joylashtirishga nisbatan ancha muhim hisoblanadi.

SHu jumladan, transmilliy korporatsiyalar an'anaviy jarayonlarining tezlashuvini ta'minlaydi. Texnologik innovatsiyalar asosan sanoati rivojlangan mamlakatlarda tuplangan bo'lib, so'nggi 10 yilliklarda ular bir qator mamlakatlarda, asosan "yangi industrial muhitda" ko'proq tarqalgandir. Texnologiyalarni qo'llanishi, atrof-muhit bilan bog'liq bo'lishi mumkin. TMK filiallarining faoliyati ular tanlagan mamlakatlarning tabiati uchun, shuningdek insonlarning manfaati va ularning hayotiga tahdid solmasligi lozim. SHu munosabat bilan xususiy shuningdek xorijiy korxonalar ustidan nazoratni o'rnatish maqsadida rivojlanayotgan mamlakatlardagi tartibot milliy organlarining faoliyatini kuchaytirish talab etiladi.

SHuningdek, TMKlar rivojlanayotgan mamlakatlardagi mavjud bandlik muammolarini ham bartaraf etadilar. SHunga qaramasdan, ta'kidlab o'tish joizki, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar bilan bevosita bog'liq bo'lgan ishchi o'rinlar unchalik ko'p bo'lmasdan rivojlanayotgan dunyodagi iqtisodiy aktiv aholining 1% idan kamroq qismini ta'minlay oladi.

Xalqaro tashkilotlar rivojlanayotgan mamlakatlarga texnik yordamlarini ko'rsatishda TMKlar imkoniyatidan foydalanishni taqlif etadilar. O'z navbatida rivojlanayotgan mamlakatlar xukumatlari ham TMKlarni o'z iqtisodiyotlariga ko'proq jalb etish borasida kurash olib bormoqdalar. Bunga quyidagi misolni keltirib o'tish imiz mumkin:

"Jeneral motors" amerika kompaniyasi 2005 yilga borib o'zining osiyo-tinch okeani mintaqasi bozoridagi ulushini ikki barobarga oshirish maqsadida, uning 10% ga qadar ko'paytirishga harakat kilmoqda. Bunday maqsadlarda kompaniya Filippinda yoki Tailandda qiymati 1 mldr. dollarga tent bo'lgan mashina va extiyot qismlar ishlab chiqaruvchi zavodni bunyod etishga harakat kilmoqda. Mutaxassislarning fikricha, Tayland avtomobil bozorlarining rivojlanishi uchun eng qulay joy bo'lib hisoblanadi. SHuning bilan bir qatorda, Filippin ham «Jeneral motors» kompaniyasiga soliq va boj yengilliklari bilan bog'liq bo'lgan bir qator shart-sharoitlarni taqlif etmoqdaki, bo'larning barchasi zavod qurilishi bilan bog'liqdir.

Jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlanishining ob'ektiv qonunlariga buyso'ngan holda, rivojlanayotgan mamlakatlar xususiy maqsadlar bilan ijtimoiy –iqtisodiy muammolarning hamda TMKlarning mamlakatlar iqtisodiyotidagi manfaatlariga mos keluvchi zaruriy parametrlarni izlab topmoqdalar.

Nazorat savollari

1. Rivojlanayotgan mamlakatlarning umumiy ijtimoiy iqtisodiy xususiyatlari nimada?
2. Rivojlanayotgan mamlakatlar jahonning qaysi regionlarida joylashgan?

3. Rivojlanayotgan mamlakatlarning xalqaro tovar almashinuvida tutgan o'rnini qanday?

4. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida investitsiyalarning ahamiyati nimada?

11-MAVZU. XALQARO IQTISODIY INTEGRATSIYA

Reja:

- 1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati va rivojlanishining asosiy xususiyatlari.**
- 2. G'arbiy yevropa iqtisodiy integratsiyasi**
- 3. Xududiy iqtisodiy integratsiyaning mohiyati va uning asosiy xususiyatlari**

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning mohiyati va rivojlanishining asosiy xususiyatlari.

Hozirgi davrda jahon xo'jaligi rivojlantirishning muhim omillaridan biri iqtisodiy integratsiya jarayonlari hisoblanadi. Iqtisodiy integratsiya – milliy xo'jaliklar o'rtasida chuqur, barqaror o'zaro aloqalar va mehnat taqsimoti, ularning turli bosqich va har xil shakldagi takroriy ishlab chiqarish tuzilmalarining o'zaro aloqalari asosida mamlakatning xo'jalik, siyosiy jihatdan birlashuvi jarayonidir. Bunda ma'lum bir davlatlar yoki davlatlar guruhlar boshqa mamlakatlarga keng ta'sir ko'rsata boshlaydi va ular integratsiya jarayonlarining markaziga aylanadi. Iqtisodiy integratsiya bu jarayonlarda ishtirok etayotgan mamlakatlar o'rtasida ishlab chiqarish va kapitalning baynalminallashuvini jadallashtirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

SHuni ta'kidlash lozimki, iqtisodiy integratsiyaga 2 ta omil sezilarli ta'sir ko'rsatadi:

1. Fan-texnika taraqqiyoti.

2. Transmilliy korporatsiyalar faoliyati.

Bozor munosabatlariga asoslangan xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida bu munosabatlarning yuqoriroq bosqichi bo'lgan xalqaro integratsiyaga o'tishning qator ob'ektiv shart-sharoitlari yuzaga keldi. Bu shart-sharoitlar faqat korxonalar, firmalar darajasida emas, balki shuningdek davlat, hudud va mamlakatlar guruhi darajasida ham shakllanadi. Bozor munosabatlari sharoitida korxona va firmalarning faoliyatini natijasi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning salbiy omillarini ya'ni milliy to'siqlar, bojxona va valyuta to'siqlarini jalb etish bilan bog'liqdir

Bu muammolarni hal etishda ob'ektiv ravishda ikki yo'l yuzaga keladi:

- Ko'plab qiyinchiliklarni chetlab o'tishga imkon beruvchi transmilliy firmalarni yaratish va rivojlantirish;
- Jahonning yirik hududlarida jahon xo'jaligining bozor munosabatlariga asoslangan makonini shakllantirishga yo'naltirilgan davlatlararo kelishilgan chora-tadbirlar.

Ushbu ikki yunalishni muvofiqlashtirish jahon xo'jaligi munosabatlarining yuqoriroq, samaraliroq va kelajagi mavjud bo'lgan darajasi, ya'ni xalqaro iqtisodiy integratsiyaga o'tishni ta'minlaydi

Iqtisodiy nuqtai nazardan, xalqaro iqtisodiy integratsiyaning ob'ektiv omili cheklangan resurslarni qo'llashning eng yaxshi sharoitlarini ta'minlashdan iborat. Bunda ustivor bo'lgan resurs omillari vaziyatga qarab o'zgarib turishi mumkin. Masalan, dastlab ikkinchi jahon urushidan keyin ishlab chiqarish resurslarini birlashtirish vazifasi qo'yilgan bo'lsa, hozirgi vaqtga kelib bunday vazifa sifatida axborot - muxandislik xizmatlari faoliyati qo'yilmoqda.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning ob'ekti bo'lib – xalqaro ishlab chiqarish va fan-texnika hamkorligi xamda ayirboshlashning predmeti hisoblangan tovarlar, xizmatlar, moddiy -pul resurslari va mehnat resurslari hisoblanadi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning sub'ekti xalqaro ishlab chiqarish va ilmiy-texnikaviy hamkorlikni, tovar va xizmatlarni ayirboshlashni amalga oshiruvchi tomonlar (firmalar, mamlakatlar, hududlar) hisoblanadi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya mexanizmi deganda xalqaro iqtisodiy integratsiyani amalga oshirishni ta'minlovchi iqtisodiy usullar, tashqiliy chora-tadbirlar va institutlarning tizimi tushuniladi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya o'z rivojlanishida miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari bilan asoslangan qator bosqichlarni bosib utadi.

Iqtisodiy integratsiyaning birinchi bosqichi savdo hududini tashkil etishdir. Bunda mamlakatlar erkin savdo hududi doirasida ishtirokchi o'zaro savdo to'siqlarini bekor qiladi, lekin ularning har ikkalasi uchinchi mamlakatlarga nisbatan savdo to'siqlarni buzmaydi. Bunday makonda qatnashuvchi mamlakatlar chegaralardagi bojxona nazorati saqlb qolinishi kerak. Uning maqsadi – qo'shni qatnashchi mamlakatning sustroq bojxona to'sig'i orqali uchinchi mamlakatlardan hududga kirib kelishi mumkin bo'lgan import mollar uchun soliq undirish yoki uni ta'qiqlashdan iborat. Bu qoida uchinchi mamlakatlarga mol eksport qilishga ham taalluqlidir.

Bunga 1960 yilda tashkil topgan yevropa erkin savdo uyushmasi misol bo'la oladi.

Iqtisodiy integratsiyaning ikkinchi bosqichi savdoda, mehnat va kapital harakatida yagona tariflarni o'rnatish orqali bojxona ittifoqini yaratishdir. Bu bosqichda qatnashchi mamlakatlar o'zaro savdoda barcha cheklashlarni bartaraf etibgina qolmay, tashqi savdo to'siqlarining yagona tizimini ta'sis etadilar. Bu bilan ichki chegaralarda bojxona xizmatini saqlash zaruriyatini soqit qiladilar.

Bojxona ittifoqi erkin savdo hududlariga nisbatan takomillashgan integratsiya tuzilmani o'zida aks ettiradi. Bojxona ittifoqi doirasidan qatnashchi mamlakatlarning

ishlab chiqarishi va iste'moli tuzilishida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi. Bojxona tariflariga nisbatan yagona tashqi savdo siyosatini o'tkazish, proteksionizm va shu kabilarni qo'llash orqali mamlakatlar tashqi tarif darajasini hisobga olgan holda tovar oqimlarni tartibga soladi. Bu esa o'z navbatida resurslarni qayta taqsimlashda, iste'mol va ishlab chiqarishda muhim turtki bo'ladi.

Bojxona ittifoqining tashqarisida qandaydir tovarlarga belgilanadigan tariflar ushbu integratsion tuzilma vujudga kelgunga qadar mavjud bo'lgan o'rtacha tarifdan yuqori yoki past bo'lishi mumkin. Agar tashqi tarif yuqori bo'lsa, u holda bojxona ittifoqiga a'zo -mamlakatlar ancha arzon bo'lgan tashqi resurslardan voz kechib, qimmatroq bo'lgan ittifoq ichidagi resurslardan foydalanishlarga to'g'ri keladi.

Agar tashqi tarif bojxona ittifoqiga a'zo mamlakatlardagi o'rtacha tariflardan past o'rnatilsa, u holda ushbu mamlakatlar tashqi savdosi uchinchi mamlakatlar bozoriga yo'naltiriladi. Bunday tadbirlar ichki va tashqi ishlab chiqaruvchilar raqobatini kuchaytirish uchun qo'llanilishi mumkin.

Sifat nuqtai nazardan iqtisodiy integratsiyaning yuqoriroq bosqichi yagona bozor hisoblanadi. Umumiy bozor doirasida qatnashchilar savdodan tashqari ishlab chiqarish omillarining barchasini bimalol ko'chirish erkinligiga ham ega bo'ldilar.

Bojxona ittifoqidan yagona bozorga o'tish iqtisodiy omillar kabi, siyosiy omillar bilan ham asoslanadi. Xalqaro ayriboshlashdan tarif to'siqlari yuqolishiga karamay, notarif to'siqlar mavjuddir va ular qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Ularga texnik me'yorlarning turli – tumanligi, tovarlarning milliy belgilarini qonuniy himoyalash va shu kabilarni misol keltirish mumkin. Bojxona ittifoqi doirasida amalga oshirish mumkin bo'lmagan yirik vazifalarni hal etish orqali yagona bozorni yaratish mumkin. SHuni ta'kidlash lozimki, bojxona ittifoqi a'zo davlatlar o'rtasida bojxona bojarini qisqartirish va uchinchi mamlakatlarga nisbatan yagona savdo siyosatini ishlab chiqish orqali yagona bozorga o'tish shart-sharoitlarini yaratadi.

Biroq yagona bozorni yaratish uchun yana quyidagi vazifalarni hal etish lozim:

- iqtisodiyotning alohida tarmoklari va bo'g'inlarini rivojlantirishning umumiy siyosatini ishlab chiqish;
- tovarlarning to'siqlarsiz kuchishini to'ldiruvchi xizmatlar, axborot, kapital, ishchi kuchini erkin harakatlanishi uchun sharoitlarni yaratish;
- integratsiya jarayonlarining afzalliklarini xaqiqatda xis etishga imkon beruvchi ijtimoiy va hududiy taraqqiyotga ko'maklashuvchi umumiy fondlarni (jam'armalarni) shakllantirish;

Yagona bozorni yaratish yagona iqtisodiy, huquqiy va axborot makonini tashkil etish bilan tugallanadi. Bu iqtisodiy integratsiyaning sifat jihatdan yangi bosqichi to'la iqtisodiy ittifoqqa o'tish uchun turtki bo'ladi.

To'la iqtisodiy ittifoqda qatnashuvchi mamlakatlar o'z iqtisodiy siyosatlarini, shu jumladan pul, soliq va ijtimoiy siyosatni, shuningdek savdoga xamda ishchi kuchi va sarmoya oqimiga taalluqli siyosatlarini birxillashtiradilar.

2. G'arbiy yevropa Iqtisodiy integratsiyasi rivojlanishining xususiyatlari.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya uzining eng to'liq taraqqiyotiga G'arbiy

yevropada erishdi. G'arbiy yevropa integratsiyasining boshlangich nuqtasi bo'lib 1951 yil hisoblanadi. Ushbu yilda G'arbiy yevropaning olti mamlakati – Frantsiya, Germaniya, Italiya, Belgiya, Niderlandiya, Lyuksenburg, yevropa ko'mir va po'lat birlashmasi xaqidagi shartnomani imzoladilar. 1957 yilda esa xuddi shu mamlakatlar yevropa iqtisodiy hamjamiyati va atom energiyasi buyicha yevropa hamjamiyatini yaratish to'g'risidagi shartnomani imzoladilar. Bu iqtisodiy integratsiyani yanada rivojlantirdi. Bu hamjamiyatgi asosan rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlar kirdi va iqtisodiy integratsion guruhning keyingi 15 yil mobaynida iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini belgilab berdi.

G'arbiy yevropa iqtisodiy integratsiya rivojlanish jarayonini shartli ravishda quyidagi to'rt bosqichga ajratish mumkin:

Birinchi bosqich – (50-yillarning oxiri 70-yillarning o'rtalari) hamjamiyat xayotidagi «*oltin davr*» hisoblanadi. Bu bosqichdan muddatidan oldin bojxona ittifoqi yaratildi, yagona agrar bozor nisbatan muvaffaqiyatli shakllandi. Integratsiyaga Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya kabi mamlakatlar a'zo bo'ldi.

Ushbu hamjamiyatni yaratishning aniq maqsadlari quyidagilardan iborat edi:

- qatnashchi mamlakatlar o'rtasidagi savdoda barcha cheklashlarni bosqichma bosqich yo'qotish;
- uchinchi mamlakatlar bilan savdoda umumiy bojxona tariflarni o'rnatish;
- ishchi kuchi, kapital, xizmatlar erkin harakatlanishi uchun cheklashlarni yo'qotish;
- transport va kishlok xo'jaligi sohasida umumiy siyosatni ishlab chiqish va o'tkazish;
- valyuta ittifoqini yaratish;
- soliq tizimini birxillashtirish;
- qonuniyatchilikni yaqinlashtirish;
- iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirish tamoyillarini ishlab chiqish.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun boshkarish tuzilmalari majmuasi yaratildi. Ushbu majmuaga – yevropa iqtisodiy hamjamiyatni Vazirlar Kengashi, yevropa hamjamiyati Komissiyasi, yevropa Kengashi, yevropa sudi, yevropa parlamenti kiradi.

yevropa Iqtisodiy hamjamiyati o'zining birinchi maqsadi sifatida ishtirokchi mamlakatlarning tovarlar, kapital, xizmat va ishchi kuchi umumiy bozorini yaratish vazifasini hal etishni qo'ydi.

SHu sababdan ham Bojxona Ittifoqi tuzildi. Bojxona Ittifoqi doirasida ishtirokchi – mamlakatlar o'zaro savdosida savdo cheklashlari yo'qotildi, uchinchi mamlakatlarga nisbatan yagona bojxona tarifi o'rnatildi, kapital, kredit va pul o'tkazishlarning erkin harakatiga erishildi, ishchi kuchining erkin kuchishi va ishlash joyini tanlash erkinligi ta'minlandi.

Ikkinchi bosqich – (70-yillarning o'rtalari 80-yillarning o'rtalari) yevropa Ittifoqi tarixiga turg'unlik davri sifatida kirdi. Ushbu bosqichda yevropa Ittifoqi a'zo mamlakatlari yevropa valyuta hamkorligi dasturini qabul qildilar. Ushbu davrda yevropa Ittifoqiga kiruvchi mamlakatlarning rivojlanish darajalari o'rtasidagi fark

ko'paydi.

Uchinchi bosqich – (80-yillarning ikkinchi yarmi, 90-yillarning boshlari) yevropa Ittifoqi tarkibini kengaytirish bosqichi bo'ldi. 1981 yilda Gretsiya, 1986 yilda Ispaniya va Portugaliya yevropa Ittifoqi tarkibiga kirdi. Bu ikkinchi bosqichda mavjud bo'lgan mamlakatlar o'rtasidagi nomutanosiblikni yanada kuchaytirdi. CHunki ushbu mamlakatlar iqtisodiyoti yevropa Ittifoqining boshka a'zo mamlakatlari iqtisodiyotidan ancha past darajada edi. SHunga qaramay ushbu bosqichda G'arbiy yevropa iqtisodiy integratsiyasi taraqqiyotining yangi yunalishlari bilan xarakterlanadi. Ushbu bosqichda yagona yevropa Akti qabul qilindi.

YAgona yevropa Akti bilan yagona bozorni bunyod etishga taalluqli barcha muammolar buyicha (ikki soxa -soliq solish va odamlarning erkin kuchib yurishidan boshka soxalar) ko'pchilik ovoz bilan qaror qabul qilishga ruxsat etiladi. To'ldirish qoidasining kiritilishi yagona yevropa Aktining muhim jihatidir. Uning mohiyati shundaki, bu qoida quyi darajadagi omillar bilan muvaffaqiyatli bajarib qolinadigan bo'lsa, yuqori darajada qaror qabul qilishiga xojat qolmaydi, yoki, aksincha, bu tamoyilga muvofiq qarorlar jamoa tomonidan qabul qilinishi talab etiladigan soxalarda jamiyatning roli kuchaytirilishi lozim. Qatnashuvchi mamlakatlar ixtiyorida boshkaruvning milliy va mintaka darajalarida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan vazifalarigina qolishi kerak. YAgona yevropa Aktining qabul qilinishi bilan hamjamiyatga a'zo mamlakatlarning mikro va makroiqtisodiyot, siyosat va huquq, fan va ekologiya, hududiy rivojlanish, ijtimoiy munosabatlar soxasidagi integratsiyasi jarayonlari kuchaydi. 90-yillarning boshlarida yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar yagona bozor asoslarini yaratishni deyarli tugalladilar va valyuta – iqtisodiy xamda siyosiy ittifoqni shakllantirishga yaqinlashdilar.

To'rtinchi bosqich – (90-yillarning o'rtalari XXI-asr boshlanishi). Ushbu bosqichda yevropa ittifoqi tarkibi Avstriya, Finlyandiya, SHvetsiya mamlakatlarining qo'shilishi hisobiga kengaydi. Ushbu bosqichning boshlanishida yevropa Ittifoqining 12 mamlakati davlat va hukumat boshliqlari Gollandiyaning Maastrixt shahrida yevropa kengashining navbatdagi majlisida integratsiyani yanada chuqurlashtirish va unga barqaror tus berish yo'lida hal qiluvchi qadam qo'ydilar. Bunda hamkorlikning yangi shakllari bilan to'ldirilgan yevropa Ittifoqini tuzishga qaror qildilar. SHu sababdan hozirga vaqtda ushbu integratsion guruh mamlakatlari o'rtasidagi munosabatlar yevropa Ittifoqi to'g'risidagi shartnomaga asoslanmokda. YAngi shartnomaga muvofiq quyidagilar ta'sis etildi.

YAgona umumiy yevropa fuqaroligi qatnashchi mamlakatlarning barcha fuqarolari o'z-o'zidan yevropa Ittifoqi fuqaroligini oladi.

Iqtisodiy va valyuta ittifoqi qatnashchi mamlakatlar va umuman hamjamiyat iqtisodiy siyosatning asosiy yunalishlari Vazirlar Kengashi tomonidan qabul qilinadi, u shuningdek har bir mamlakat va umuman hamjamiyat iqtisodiy rivojlanish jarayoni qanday borayotganligini kuzatib turadi. Qatnashchi mamlakatlar davlat byudjetiga ortiqcha taqchillik bo'lishiga yo'l qo'ymaslik majburiyatini oladilar.

Siyosiy ittifoq. U quyidagi tarkibiy kislarni o'z ichiga oladi:

- tashqi ishlar va xavfsizlik soxalarida yagona siyosat;
- Evropa parlamenti mohiyatini kuchaytirish;

➤ hamjamiyat vakolatlarini kengaytirish.

Ichki ishlar va odil sudlov soxalarida xususan boshpana berish, immigratsiya va viza tartibi masalalarida yagona siyosat yuritish. Xulosa kilib aytganda, yevropa Iqtisodiy integratsiyasi jahon amaliyotidagi muvaffaqiyatli tajriba bo'lib o'zida avvalo o'zaro bir-biriga bog'liqlikni va hamkorlikni taqozo qiluvchi iqtisodiy asos, huquqiy qoidalar tantanasi, kelishuvlar va yonberishlarga asoslangan qarorlar qabul qilish xalqaro iqtisodiy munosabalarining yanada demokratlashuvini bildiradi.

3. Hududiy iqtisodiy integratsiyaning mohiyati va uning asosiy xususiyatlari.

Xududiy integratsiya ikki xil darajada ya'ni, alohida kompaniyalar darajasida va davlatlararo darajada bo'ladi. Birinchi holatda kompaniyalar o'z xo'jalik faoliyatida integratsiya jarayonlariga qo'shiladilar. Xududiy iqtisodiy integratsiya asosan iqtisodiy integratsiyaning birinchi bosqichini bosib o'tmokda. Xududiy integratsiya guruhlar faoliyatini ko'rib chiqish uchun quyidagi misollarni keltirish mumkin:

G'arbiy yevropa integratsiyasining muvaffaqiyatlarini o'rgangan holda Markaziy yevropa mamlakatlari Vengriya, Pol'sha, Slovakiya va chexiya 90-yillarning boshlarida tashqi savdoni erkinlashtirish jarayonlariga faol qo'shildilar va o'zaro bitim imzoladilar. SHunga muvofiq iqtisodiy integratsiyaning birinchi bosqichi-erkin savdo zonalarini yaratishga asos solindi. 1992 yilda ushbu to'rt mamlakat erkin savdo xaqidagi Markaziy yevropa bitimini imzoladilar. 1996 yilda ushbu bitimga Sloveniya ham qo'shildi. Ushbu bitim bojxona bojlari va boshka notarif o'zaro asta-syokin yo'qotish yo'li bilan bir necha yillar davomida sanoat tovarlari bilan erkin savdo qilish hududlarini yaratish ko'zda tutdi.

Ushbu bitim tamoyillariga muvofiq sheriklar bojxona bojlarini bir tomonlama tartibda ko'tarishi yoki yangi savdo to'siqlarini kiritish mumkin emas. SHu bilan bir vaqtda bitimda tomonlar bojxona bojlari stavkalarini oshirishi yoki maxsus himoya tadbirlarini qo'llash ko'zda tutilgan. Qator holatlarni ham ko'zda tutgan himoya tadbirlarini shartlari, amal qilish muddati, qo'llanilish soxalari, bojlarning eng ko'p miqdori va ularni erkinlashtirish sur'atlari kabi bitim bilan aniq tartibga solinadi. Ushbu bitim bajarishning ijobiy natijasi barqarorlik va oldindan ko'ra bilishlik xarakteri hisoblanadi. SHunga ko'ra Markaziy yevropa hududidagi mamlakatlarning savdo siyosati ushbu xarakterlarga ega bo'ldi. Ushbu bitimda ko'zda tutilgan bojxona bojlarini bir tomonlama oshirishni ta'qiqlash milliy ishlab chiqaruvchilar va xorijiy investorlarga Markaziy yevropa mamlakatlarining milliy bozorlarida faoliyat ko'rsatish sharoitlarini kafolatlaydi.

Ushbu bitim Markaziy yevropa mamlakatlari eksportini rivojlantirish uchun kulay savdo iqtisodiy sharoitlarinigina yaratdi, biroq tashqi iqtisodiy soxani erkinlashtirish eksportni rivojlantirish, sanoat tovarlari raqobat kobiliyatini oshirish, iqtisodiy tuzilishni uzgartirish muoammalarni hal etish uchun yetarli bo'lmaydi. Bitim yaratib bergan imkoniyatlardan to'la foydalanish oxirgi yillarda axamiyati ortib borayotgan ichki qiyinchiliklar bilan to'xtab kolmokda. ***Xalqaro iqtisodiy integratsiyaning yana bir misoli SHimoliy Amerika erkin savdo asotsiatsiyasi (NAFTA) hisoblanadi.*** AQSH, Kanada va Meksika o'rtasida imzolangan SHimoliy Amerika erkin savdo assotsiatsiyasi xaqidagi bitim 1994 yil 1 yanvardan kuchga

kirdi. Ushbu integratsion guruh kuchli iqtisodiy imkoniyatlarga ega edi. Bu mamlakatlardan tovar va xizmatlarni yillik ishlab chiqarish hajmi 7 trl. dollarni tashkil etadi. Ular hissasiga jahon savdo hajmining 20 foizga yaqini to'g'ri keladi.

Ushbu bitimning asosiy qoidalari quyidagilarni o'z ichiga oladi;

AQSH, Kanada va Meksika o'zaro savdo qiladigan tovarlarga bojxona bojarini bekor qilish.

SHimoliy Amerika bozorlarini Osiyo va yevropa kompaniyalarining bostirib kirishidan himoyalash. Ushbu kompaniyalar Amerika bojaridan kutulish uchun o'z tovarlarini Meksika orqali AQSHga reeksport qilar edilar

Amerika va Kanada kompaniyalarining Meksikada bank va sug'urta ishlari sohasidagi kapital qo'yilmalari xamda raqobatiga belgilangan cheklashlarni olib tashlash;

Atrof – muxitni himoyalash bilan bog'liq muammolarni hal etish uchun uch tomonlama guruhni yaratish.

AQSH 5 yil mobaynida Meksikadan import qilinayotgan mahsulot turlarining 2/3 kismiga nisbatan tariflarni bekor qiladi.

Ushbu bitimdan ko'prok foydani savdo blokiga kiruvchi mamlakatlardagi iste'molchilar olishi ko'zda tutilgan, chunki raqobatni kuchayishi va tariflarni pasayishi natijasida ko'plab tovarlar narxi pasaydi. Amerika sanoati ham arzon ishchi kuchining oqib kelishi hisobiga rivojlanishi mumkin. Bunda Amerika iqtisodiyotining elektronika, komp'yuter ta'minoti, qurilish materiallari, avtomobil extiyot qismlari va boshqa ishlab chiqarish kabi soxalarida daromadlarning kafolatli o'sishi kutiladi. SHu bilan bir qatorda Amerikadagi qand va qishki sabzavotlar ishlab chiqaruvchi fermerlar zarar ko'radi. Meksikaga kelsak NAFTAga qo'shilishi natijasida o'z yalpi ichki mahsulotni yiliga 1,6 -2,6 foizga qo'shishga qo'shimcha o'stirish hisobiga iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini jadallashtirishni rejalashtirgan. Meksikada kapital harakatini erkinlashtirish buyicha chora-tadbirlar qabul qilinda, uni oqib kelishi boshlandi, xorijiy investitsiyalar hajmi o'sdi.

Kanada iqtisodiyoti Amerika iqtisodiyoti bilan chambarchas bog'langan. AQSHning Kanada tashqi savdo oborotidagi hissasi 70%ga yaqin, Kanadani hissasi esa 20%ni tashkil etadi. Bu juda ham yuqori ko'rsatkich. Kanada xukumati Kanadani NAFTAdagi ishtiroki ilm ko'p talab qiladigan mahsulotlarni ishlab chiqarishga kirib borishiga, foydani ko'paytirishiga imkon beradi deb hisoblaydilar, chunki Kanadada mehnatga xaq to'lash AQSH va Meksikadagi nisbatan yuqori.

Hozirgi vaqtda NAFTA faoliyatining samaradorligini baholash qiyin, chunki uni faoliyat ko'rsataetganligiga ham ko'p vaqt bo'lmadi. Integratsiya jarayonlari Janubiy Amerikada ham faollashdi. Ushbu hududda dastlab 60 yillarning boshlarida erkin savdo hududini yaratish, keyinchalik Markaziy Amerika umumiy bozorini tashkil etish rejalashtirilgan edi. Biroq siesiy va iqtisodiy tangliklar bu rejalarni amalga oshirishga imkon bermadi.

Ushbu hududda integratsiyaning jadallashuvini olib kelgan sabablar quyidagilardir.

- Bir tomondan savdoda kuchayib borayotgan raqobat ikkinchi tomondan yangi

texnologiyalar va investitsiyalarni qo'llashdan daromadlarning o'sishi, yirik va ochik bozorlarni yaratishga turtki bo'ldi.

- 80-yillarning oxirlarida Janubiy Amerika mamlakatlari tomondan tashqi savdoni erkinlashtirish

- hududda integratsiya mexanizmlarini tubdan qayta ko'rib chiqish.

Ushbu sabablarni hisobga olgan holda, 1991 yilda Argentina, Braziliya, Paragvay va Urugvay o'rtasidagi tuzilgan «MERKOSUR» hisoblanadi. hozirgi vaqtda MERKOSUR Lotin Amerikasidagi eng yirik integratsion bozor hisoblanadi. Unda ushbu mintaka axolisining 45 foizi joylashgan, YAIMning 50 foizi, bevosita xorijiy investitsiyalarning 40 foizi, tovaroborot yalpi hajmining 60 foizidan ortigi, tashqi savdo hajmining 33 foizi to'g'ri keladi. MERKOSURni yaratish to'g'risidagi shartnomada ushbu to'rt mamlakat o'rtasidagi o'zaro savdoda barcha bojlarni va tarif cheklashlarni bekor qilish ko'zda tutilgan edi

O'tish davrida integratsiya jarayonlariga rahbarlik qilish uchun 1994 yil oxirlarida umumiy bozor kengashi tuzildi. (Tashki ishlar vazirligi tarkibida) ijroi tashqilot umumiy bozor guruhi hisoblandi.

Asosiy tushunchalar:

Iqtisodiy integratsiya – yagona xo'jalik mexanizmini yaratishga qaratilgan ikki va undan ortiq mamlakatlar milliy xo'jaliklarining yaqinlashuvi va o'zaro birlashuvidir.

Fan texnika revolyutsiyasi iqtisodiy integratsiyaga ta'sir etuvchi muhim omil.

Erkin savdo hududlari iqtisodiy integratsiyani yaratish va rivojlantirishning birinchi bosqichi. Ta'riflar va boshqa cheklashlar bekor qilinadi.

Bojxona ittifoqi – savdo va mehnat xamda kapital harakatida yagona tariflarni o'rnatish buyicha ittifoq. Iqtisodiy integratsiyaning bosqichi.

Iqtisodiy ittifoq – qatnashuvchi mamlakatlarning o'z iqtisodiy siyosatlarini kelishilgan holda tuzgan ittifoqi iqtisodiy integratsiyaning 3 bosqichi.

To'liq integratsiya – yagona iqtisodiy siyosat, umumiy valyuta va milliy xo'jaliklarni tartibga solish organlari bo'lgan integratsiyadir.

Evropa ittifoqi – G'arbiy yevropadagi 15 davlatning integratsiyasi guruhi.

Erkin savdo yevropa assotsiatsiyasi – G'arbiy yevropadagi qator mamlakatlarning savdo iqtisodiy guruhi Buyuk Britaniya, Islandiya, Lxtenshteyn, SHveytsariya.

NAFTA – SHimoliy Amerika mamlakatlari savdo iqtisodiy guruhi. AQSH, Kanada, Meksika.

MERKOSUR – Lotin Amerikasidagi davlatlarning savdo iqtisodiy guruhi. Argentina, Braziliya, Urugvay, Paragvay.

ASEAN – Janubiy SHarkiy Osiyo mamlakatlarining savdo iqtisodiy guruhi.

Iqtisodiy hamkorlik tashqiloti (EKO) -Osiyo davlatlarining integratsion guruhi. Pokiston, eron, Afgoniston, Turkiya, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Tojikiston, Turkmaniston.

Nazorat savollari:

1. Xalqaro iqtisodiy integratsiya (XII) tushunchasi va uning zaruriyatini nazariya qanday ifodalaydi?

2. Nima uchun XII regional darajada rivojlanmoqda?
3. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida XII ning o'rnini qanday?
4. Xalqaro munosabatlarning globallashtiruvining mohiyati va bu jarayonda XIIning o'rnini?
5. XII ning rivojlanish bosqichlarini aytib bering.
6. MDX davlatlarida integratsiya jarayonlarini asosiy yunalishlari va muammolari qanday?

12-Mavzu: Jahon iqtisodiyotini tartibga solishda xalqaro tashkilotlarning roli

1. Jahon iqtisodiyotini tartibga solish mohiyati va xususiyatlari.
2. Davlatning tashqi savdo siyosati, tashqi savdo strategiyasi.
3. Davlat tomonidan tashqi savdoni tartibga solish yo'llari va vositalari.
4. Umumjahon moliyaviy iqtisodiy-inqirozi sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyatini boshqarish o'ziga xos xususiyatlari

1. Jahon iqtisodiyotini tartibga solish mohiyati va xususiyatlari.

Boshqaruv umumiy va universal tushuncha bo'lib, sub'ektlarga va shu sub'ektlar orqali ularning faoliyatiga ta'sir qilishni anglatadi. Boshqaruvning mazmuni uning *sohasi* (TIF, sanoat, transport va boshqalar) hamda *darajasi* (davlat, mintaqaviy, sohalar, korxona va b.) bilan belgilanadi. Har qanday soha va har qanday darajadagi boshqaruv munosabatlarning har xilligini qamrab oladi va ob'ektiv va sub'ektiv omillar yig'indisi ta'siri ostida bo'ladi. Boshqaruvning harakati va uning uslublari, tamoyillari, rivojlanishi aniq iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanadi.

Bozor sharoitida davlatning butun iqtisod va tashqi iqtisodiy faoliyatga ta'siri xususiyati qisman o'zgaradi: u tartibga solish, ya'ni asosan iqtisodiy usullar bilan butun iqtisod va uning tashkiliy qismlarining foydali harakatini ta'minlovchi ma'lum sharoitlarini yaratuvchanlik shaklini oladi. "Tartibga solish" atamasi bilan bir qatorda Savdo va ta'riflar bo'yicha bosh assambleya (GATT) va qator mamlakatlar hujjatlarida "reglamentatsiya" atamasi ham ishlatiladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat davlat tomonidan tartibga solinishining ob'ektiv zaruriyati, iqtisodiy nazariyada tan olingan va sanoati rivojlangan mamlakatlar xo'jalik yuritish amaliyoti bilan tasdiqlangan. TIFning davlat tomonidan tartibga solinishi butun jahonda keng qo'llaniladi. Bozor xo'jaligi sharoitlarida u milliy iqtisod manfaatlaridan kelib chiqqan holda TIFni takomillashtirishni rag'batlantiruvchi, amalga oshiruvchi va nazorat qiluvchi qonuniy chora-tadbirlar tizimini tashkil etadi. Bu chora-tadbirlar davlat korxonalari hamda ijtimoiy tashkilotlar tomonidan ham amalga oshiriladi. Tartibga solishdan maqsad – mamlakat tashqi iqtisodiy kompleksini xalqaro mehnat taqsimotining o'zgaruvchan sharoitlariga moslashtirish va barqarorlashtirishdir.

Davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vazifasi-TIFning zamonaviy kontseptsiyalarini ishlab chiqishdir. Kontseptsiya-nazarda tutilgan sohaning

rivojlanish maqsadlari, natija va foyda olish yo'nalishlarini, (masalan, tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishning) vazifalarni belgilashni o'z ichiga oladigan umumiy g'oyadir.

Tashqi va ichki omillar har doim tashqi iqtisodiy siyosatga ikki xil yondashishni talab qiladi. Bular savdo erkinligi va proteksionizmdir. Savdo erkinligi deganda, tashqi savdo masalalari bo'yicha qaror qabul qilinishida xorijiy tovarlarning milliy bozorga cheklanmagan kirish imkoniyati tushuniladi. Proteksionizm esa davlatning tashqi iqtisodiy, tashqi savdo faoliyatiga aralashuvini, milliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash maqsadida xorijiy tovarlarga nisbatan har xil chegirmalar amalga oshirishni taklif etadi. Har xil davrlarda har xil mamlakatlarda bu ikki yondashuv bir vaqtda mavjud bo'lgan, ammo ularning o'zaro munosabatlari har xil, ya'ni tashqi va ichki omillardan kelib chiqib belgilanadigan bir-biridan ustunligidir.

Zamonaviy sharoitlarda tashqi iqtisodiy siyosat-davlat hokimiyatining xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, fan-texnika, ishlab chiqarish va boshqa aloqalarni rivojlantirishga va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning strategik vazifalarini yechish maqsadida mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida qatnashishini chuqurlashtirish va kengaytirishga qaratilgan davlat hokimiyati tadbirlari tizimidir.

Tashqi iqtisodiy faoliyatning davlat tomonidan tartibga solinishi milliy iqtisodning boshqa doiralarini tartibga solish bilan qiyoslaganda o'ziga xos xususiyatlarga egadir.

Bu o'ziga xoslik har bir davlat xalkaro savdoning me'yor va tamoyillari bilan hisoblashishi zarurligidan kelib chiqadi. Har qanday davlat o'zining rivojlanishi, iqtisodiyotining foydaliligini oshirishda, o'z milliy manfaatlarini amalga oshirish maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda boshqa mamlakatlar manfaatlariga putur yetkazmasligi va xalkaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan qoidalar darajasidan chiqmasligi zarur.

SHunday qilib, davlatning TIFni tartibga solish chegaralari bir tomondan, milliy eksportni kengaytirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga ehtiyoj bilan belgilansa, boshqa tomondan, xalqaro tashkilotlar qoidalari bilan belgilanadi.

TIFning tartibga solish predmeti quyidagilardir:

- milliy eksportchilarni rag'batlantirish;
- jahon bozorida milliy eksportchilarning mavqeini mustaxkamlash uchun har xil tashkiliy choralarni amalga oshirish;
- milliy firmalarga xorijiy kapital qo'yishning o'sishiga yordam berish.

Agar shularni hisobga oladigan bo'lsak yuqorida ko'rsatilgan vazifalar ancha qiyindir.

Bundan tashqari, barcha davlatlar o'z milliy firmalarining raqobatchilari faoliyatini cheklash uchun har xil usullardan foydalanadi, masalan, ularning ichki bozorga kirib kelishiga to'sqinlik qilish, ularning ish olib borishi uchun og'irroq sharoit, yuqori ekologik talablar va boshqalar yaratish.

Mintaqaviy kirib boruvchi guruhlarining paydo bo'lishi shunga olib keldiki, milliy darajadagi tartibga solish bilan birga, mintaqaviy guruhlar ichida, ya'ni tashqi iqtisodiy faoliyatni mintaqaviy darajada tartibga solish amalga oshirila boshlandi.

2.2. Tashqi iqtisodiy faoliyatni xalqaro tartibga solish

Har qanday mamlakatdagi tashqi iqtisodiy faoliyatning tartibga solinishi boshqa mamlakatlar tashqi iqtisodiy faoliyati natijalarida, albatta, aks etadi, chunki jahonning har xil mamlakatlari ishlab chiqarishi, tovar almashinuvi va iste'moli bir-biriga bog'liqdir. Tashqi iqtisodiy aloqalarning chuqurlashishi va kengayishi bilan TIFni ko'p tomonli tartibga solish kuchaymokda. Har bir mamlakatda tashqi iqtisodiy faoliyat milliy huquq me'yorlari, ikki taraflama bitimlar, mintaqaviy hamda xalqaro tashkilotlar doirasidagi ko'p tomonli kelishuvlar asosida tartibga solinadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni xalqaro tartibga solish BMT tizimidagi va unga kirmaydigan xalqaro tashkilotlar doirasidagi shartnomalarda ko'rsatilgan. Bu 1947 yilda jahon savdosining bojxona-tarif masalalarini tartibga solish uchun tuzilgan ta'rif va savdo bo'yicha asosiy kelishuv—. Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT) dir.

Barcha mamlakatlarining jahon savdosini erkinlashtirishga intilishi Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT) doirasidagi kelishuvlarni ishlab chiqish va qabul qilish tamoyillarida aks etadi. Ular quyidagilardan iborat:

- kamsitmaslik, o'zaro eng qulay usullarni taqdim etish;
- milliy bozorlarni muhofaza qilishning ko'prok tarif vositalaridan foydalanish;
- bojxona tariflarini uzluksiz tarzda tushirish;
- savdo-siyosiy yon berishda hamkorlik qilish;
- mojarolarni kengash va muzokaralar yordamida yechish.

Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT) 1948 yildan 1994 yilgacha yagona savdoni tartibga soluvchi xalqaro tashkilot edi. (YUNKTAD kabi boshqa xalqaro tashkilotlarning savdo-siyosiy masalalardagi qarorlari ko'proq tavsiyaviy xususiyatga ega). Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT) "raund"larda ishlab chiqilgan va qabul qilingan qator kodeks va kelishuvlardan iboratdir. Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT)ning mavjudligi davrida 8 ta raund o'tkazilgan. Ularning har birida sanoati rivojlangan mamlakatlarda bojxona tariflarini pasaytirish bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqilgan, natijada o'rtacha import tariflari stavkasi 1947 dagi 40-60% dan 1990 yillar boshida 3-5% gacha kamaydi.

TIFning bevosita qatnashchilari uchun tarifsiz (tarifdan tashqari) cheklashlarni, ya'ni chet el tovarlarining ichki bozorga kirishga har xil to'siqlarni tartibga solish bo'yicha Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT)ning oxirgi ikki - Tokio va Urugvay raundlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT)ning tasnifiga ko'ra, tarifdan tashqari cheklashlar besh guruhga bo'linadi.

1. Davlatning tashqi savdo tadbirlarida qatnashishi: eksport tovarlarini subsidiya qilish, tovarlar sotib olishning davlat tizimi.

Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT)ning subsidiya va kompensatsiya choralari bo'yicha kelishuviga o'ziga xos, ya'ni bo'lak korxona yoki korxonalar guruhiga beriladigan subsidiya tushunchasi kiritilgan edi.

Agar import tovari davlat subsidiyasi bilan ishlab chiqarilgani aniqlansa, importchi mamlakat qat'iy belgilagan rasm-rusumlarga ko'ra olib kelingan tovarga badal bojini qo'yishga haqi bo'ladi, bunda milliy va import tovarlari bozorda bir xil mavqeda bo'ladi. Badal bojining miqdori davlat subsidiyasi miqdoriga qarab

belgilanadi. yevropa Ittifoqi qonunchiligi davlat tomonidan subsidiya qilishning barcha ko'rinishini insofsiz raqobat turiga kiritadi va ushbu qonunlarga rioya qilishni nazorat etish maqsadida raqobat qoidalarini buzganligi uchun uchinchi mamlakatlar korxonalariga jarima solish huquqiga ega bo'lgan yel komissiyasiga topshiriladi.

2. Importning bojxona va ma'muriy rasmiyatchiliklari: antidemping bojlari, bojxona qiymatini baholash usullari, tovarni yetkazib berishda zarur bo'lgan hujjatlarga qo'yiladigan talab.

Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT)ning tarifi bo'yicha demping – bir mamlakat mahsulotining ikkinchi mamlakat bozorida, o'sha mahsulot milliy ishlab chiqaruvchilarga ziyon keltirishi, yangi milliy mahsulot ishlab chiqarishni sezilarli darajada sekinlatishi, "o'rtacha baho" dan past bahoda sotilishidir. "O'rtacha baho" dan kam deganda jahondagi bahodan kam yoki shu mahsulot eksportchi mamlakatda sotilayotgan bahosidan past baho tushuniladi.

3. Iste'molchilar xavfsizligi, sanitariya me'yorlari bilan bog'liq o'lchov va talablar, o'rash-qadoqlashga bo'lgan talablar.

Hozirgi paytda ekologik xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq chegaralashlar kuchaymokda. Bular:

- tarkibida xavfli moddalar, belgilangan chegaradan ortiq bo'lgan mahsulotlarni import qilishni taqiqlash;
- o'rab-joylangan va ishlatib bo'lingan materiallarni qayta qabul qilish bo'yicha majburiyatlar;
- ekologik soliqlar va boshqalar.

Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT) ning kelishuvlaridan biri sanitar va fitosanitar choralar bo'yicha qabul qilingan. Unga ko'ra, mamlakatlar o'z fuqarolarining hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish maqsadida choralar ko'rish huquqiga egadirlar. Namunalarning standartlarini umumlashtirish bilan Xalqaro standartlar tashkiloti, Xalqaro elektro-texnika komissiyasi, O'lchov va og'irliklar xalqaro tashkiloti, qonunchilik metrologiyasi xalqaro tashkiloti va boshqalar shug'ullanadilar.

4. eksport va importni miqdoriy va valyutaviy jihatdan cheklashlar.

Miqdoriy cheklashlar - to'g'ridan-to'g'ri import va eksportni cheklashga qaratilgan chegaralardir. Zamonaviy savdo-siyosiy amaliyotida miqdoriy cheklashlarning ikki asosiy turi qo'llanadi. Bular: kontinentlashtirish va litsenziyali tartib. Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT) miqdoriy cheklashlardan kamsitadigan tarzda foydalanishni, ya'ni faqat qaysidir bir mamlakatlardan olib chiqiladigan tovarlarga nisbatan qo'llashni taqiqlaydi. Agar miqdoriy cheklashlar barcha mamlakatlarga teng darajada qo'llanilmasa, u holda kamsitiladigan deb hisoblanadi. Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT) miqdoriy cheklashlar ma'lum bir mamlakatlarga nisbatan faqat to'lov muvozanatini tenglashga erishish maqsadida va davlat xavfsizligi nuqtai nazaridan qo'llashgagina ruxsat beradi.

Jahon bozorida raqobat ko'rashining kuchayishiga sabab bo'ladigan eksportchi o'ziga nisbatan "ixtiyoriy" miqdoriy cheklashlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

5. GATT tasnifi bo'yicha tarifdan tashqari cheklashlarning beshinchi guruhi - to'lovlar strukturasi bilan bog'liq cheklashlardir: import depozitlari–importchi bank

tomonidan keyingi to'lovlar uchun kafolat sifatida qo'yiladigan mablag'lar bo'lib, bu pul vositalarini to'xtatishga olib keladi; soliqlar va soliq imtiyozlari o'z ta'siriga ko'ra bojxona bojlariga o'xshashdir, lekin bojlar xalqaro darajada tartibga solinadi va davlatlar bu bilan hisoblashishiga majburlar. Soliqlar faqat milliy darajada tartibga solinadi, qo'shimcha qiymat solig'i, aktsizlar va boshqalar - bu davlatning ichki ishidir. Ba'zan bojxona hududini kesib o'tayotgan tovarlar bahosidagi soliq 50% ni tashkil etadi. Soliq solish qoidaga ko'ra tovar ishlab chiqarilgan mamlakatda yoki jo'natilayotgan mamlakatda amalga oshiriladi. Ikki yoqlama soliq solinishining oldini olish maqsadida davlatlar o'zaro ikki tomonlama bitim tuzadilar.

GATT bitimlari orasida tovarlar bahosi, ularni ishlab chiqarish va eksport qilishga davlat tomonidan bir qancha cheklashlar qo'yiladigan ba'zi tovarlar bilan jahon savdosi bo'yicha bitimlar muhimdir. Masalan, sut mahsulotlari va mol go'shti bilan savdo qilish. Urugvay raundidagi muzokaralar natijasida spirtli ichimliklarning ba'zi turlari, qurilish va qishloq xo'jalik mahsulotlari, ofis jihozlari, o'yinchoqlar va farmatsevtik tovarlarga bo'lgan bojlar yo'q qilindi.

Urugvay raundida savdo munosabatlarini tartibga solishning yangi shartnoma-huquqiy tizimini yaratish to'g'risidagi va GATTning barcha asosiy bitim va tamoyillarini o'zida saqlagan yangi tashkilot - Umumjahon savdo tashkiloti (UST) tashkil etilishi to'g'risida bitim qabul qilindi, shuning uchun ham adabiyotlarda ko'p hollarda Savdo va tariflar bo'yicha bosh assambleya (GATT) UST deb yoziladi.

SHunday qilib, savdoning xalqaro qoidalariga rioya qilishni nazorat etish va tashqi savdo aloqalarini tartibga solishning kuchaytirilishi an'analarga rioya qilinmokka.

2. Tashqi iqtisodiy siyosatni mohiyati va tamoyillari

Tashqi iqtisodiy siyosat tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solish rejimini aniqlash va mamlakatning halqaro mehnat taqsimotida ishtirokini optimallashtirish bo'yicha davlat va uning organlarining maqsadga yo'naltirilgan faoliyatini ko'zda tutadi. TIS ning asosiy tashkil etuvchilari qo'yidagilar: tashqi savdo siyosati (eksport va import siyosatini o'z ichiga oladi), chet el investitsiyalarini jalb qilish va xorijda ilmiy kapital qo'yilmalarni tartibga solish sohasidagi siyosat, valyuta siyosati. Bundan tashqari TIS alohida davlat va mintaqalar bilan tashqi iqtisodiy operatsiyalarning geografik muvofiqligi bo'yicha muhim masalalarni hal qilishni ko'zda tutadi. Tashqi iqtisodiy faoliyat aynan TIS yordamida aniqlanadi va tartibga solinadi. mamlakatlarida samarali TISni shakllantirish uchun uning asosiy tamoyillarini aniq va ravshan aniqlash zarur. Bunda TIS da Markaziy o'rinni tashqi iqtisodiy faoliyatni qatnashchilarining xulqini iqtisodiy - huquqiy tartibga solish egallaydi. U umummilliy manfaatlariga javob berishi lozim. Ichki bozorda xorijiy raqobatni tartibga solishda mamlakat bojxona qonunchiligi bazasidagi bojxona tarifi asos bo'lib xizmat qiladi. Bu mamlakatga halqaro savdo-siqtisodiy tizimga umum qabo'l qilingan qoidalar bo'yicha integartsiyalashuviga imkon yaratib, Umumjahon savdo tashkilotiga yo'l ochadi. Bunda murakkab inqiroz sharoitida milliy iqtisodiyotning jahon

iqtisodiyotiga kirishi bosqichma-bosqishlab chiqarish bo'lishi zarur. SHuning uchun mamlakatlarining avvalambor qo'yidagi amoyillarga asoslanib kuriladi:

- davlatning tarmoq va mintaqalar rivojlanish siyosatini ishlab chiquvchi shakllantiruvchi roli, unga asosan mamlakatning TIS, shu bilan birga bojxona instrumentlari va chet el investitsiyalari rejimini shakllantiriladi;
- turli mamlakatlar firmalarning TIS ni doimiy, o'zoq muddatli aloqalarga hamda tashqi bozorlarni saqlab turish va kengaytirishga yo'naltirish;
- TIS ning hukumat tarmoqlari, vakolatxonalari, hamda o'rtasida aniq taqsimlanishi;
- TIS - mamlakat tashqi siyosatining tarkibiy qismi. Bu bog'liklik iqtisodiy diplomatiya sohasida ko'proq namoyon bo'lib, u asosan savdo jarayoniga xizmat qiladi. SHuning uchun mamlakat eksporterlar uchun jahon bozorida qulay sharoitlar yaratish mamlakatimiz tashqi iqtisodiy siyosatning markaziy masalalardan biri bo'lishi lozim. Zamonaviy tashqi iqtisodiy siyosatini ko'rib chiqib, birinchi navbatda uning qo'yidagi vazifalariga e'tibor qaratish lozim:
- xorijiy mamlakatlar va ularning savdo - iqtisodiy guruhleri, tashkilot va ittifoqi bilan bo'ladigan munosabatlarda qulay savdo - siyosiy rejimga erishish, mavjud diskriminatsion cheklashlarni bartaraf etish;
- milliy korxonalarga jahonning mashina va uskuna, texnologiya va axborot, kapitallar, mineral xom ashyo resurslari, transport kommunikatsiya bozorlariga murojaat etish imkoniyatini ta'minlash. Bunda mamlakat korxonalari mahsulotini transmilliy kompaniyalar tomonidan nazorat qilinadigan bozorlarda ilgari surilishi uchun siyosiy, moliyaviy, axboot ko'magini ko'rsatish muhim ahamiyatga ega;
- kreditor-mamlakatlar, halqaro tashkilotlar va MDX mamlakatlari qarzdorlari bilan munosabatlarda valyuta - moliyaviy muammolarni o'zoq muddatga tartibga solish;
- mamlakatimiz tashqi iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishning samarali tizimini shakllantirish. Jahon tajribasida TISni tartibga solishning ikki modeli mavjud. Birinchi model - eksportga, ikkinchi model mavjud. Birinchi model - eksportga, ikkinchi esa- import o'rnini boshiga yo'naltirilgan. Birinchi modelga avvalambor AQSH, ikkinchi jahon urushidan so'ng-g'arbiy yevropa mamlakatlari, Yaponiya, ulardan keyin - yangi industrial davlatlar amal qilishdi. MDX mamlakatlarining jahon iqtisodiyotiga integratsiyasida samarali strategiya bo'lib iqtisodiyotni eksportni faol o'sishiga yo'naltirilgan qayta qurish hisoblanadi. Jahon tajribasi ko'rsatganidek, TIS samaradorligini asosi va iqtisodiy xavfsizlik sharti bo'lib eksport salohiyatini rivojlantirish va milliy eksportlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hisoblanadi. MDX mamlakatlari uchun bu ayniqsa muhim, negaki eksportni rivojlantirish orqali savdo balansining ijobiy saldosi saklab solishga erishish va tashqi qarzorlikni qoplash mumkin.

3. Tashqi savdo faoliyatini davlat tomonidan boshqarish

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan boshqarilishining xalqaro tajribasi hozirgi vaqtda O'zbekistonda qo'llanilmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishdagi yangilik – davlatning rolga yondashishidadir. Bu yangi yondashuv davlatning ahamiyatini asoslaydigan tamoyillar, TIFni tartibga solishning

vazifalari, mazmuni va ularning o'zaro nisbati tubdan o'zgartirmoqda. TIFni davlat tomonidan boshqarishning asosiy vazifasi – uning qonunchilik asoslarini yaratish, TIFning barcha ko'rinish va shakllarini rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy sharoitlarni yaratish va uning foydaliligini oshirishdir. Hozirda davlatning TIF sub'ektlari tomonidan mavjud qonunchilikka rioya qilinishi va milliy xavfsizlikni ta'minlashni nazorat qilish vazifasi mustahkamlanmoqda.

TIFni davlat tomonidan boshqarishning tamoyillari "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi va "Tashqi savdo to'g'risidagi" qonunlarda ko'rsatilgan. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat:

- TIF qatnashchilarining tengligi va ularning kamsitilmasligi;

- TIF qatnashchilari huquq va manfaatlarining davlat tomonidan muhofaza qilinishi;

- davlat va uning organlari korxonalar tashqi savdo faoliyatiga asossiz aralashuviga chek qo'yish;

TIFni davlat tomonidan boshqarish uni moliyaviy, valyuta, kredit, bojxona-tarif va tarifdan tashqari tartibga solish, eksport nazoratini ta'minlashni, tovarlarni olib kirish va olib ketish munosabati bilan sertifikatsiyalash sohasidagi siyosatini belgilab olishdan iborat. Bunday boshqarishning barcha yo'nalishlari amalagi qonunchilikka asoslanadi.

Davlatning eng muhim vazifalaridan biri tashqi iqtisodiy faoliyat va u asosida tashqi iqtisodiy siyosatning boshqa mamlakatlar bilan hamkorlik qiladigan qoidasini ishlab chiqishdir.

Davlat tomonidan boshqarish (tartibga solish)ning maqsadi-barcha darajadagi foydali tashqi iqtisodiy faoliyatni ta'minlovchi huquqiy iqtisodiy va tashkiliy sharoitlarni yaratishdir. Bu bosqichda eksportni rivojlantirish davlat dasturida belgilangan strategik maqsadni amalga oshirish uchun sharoit yaratish zarur: eksport qilinadigan mahsulot sifatini yaratish, eksportning tovar va geografik strukturasi takomillashtirish kerak.

Xalqaro amaliyotga ko'ra, O'zbekiston o'z strategik maqsadlarga erishishiga yordam beradigan tashqi savdo sohasidagi masalalarni yechishi zarur. Bunda, birinchidan, Respublikaning Umumjahon Savdo Tashkilotiga kirishi to'g'risida boradi, ya'ni O'zbekistonning har kanday mamlakat bilan ikki tomonlama tashqi savdo siyosati borasida UST tizimlarida savdo bahslarini ko'rib chiqish imkoniyatlari, O'zbekiston tovarlariga miqdoriy cheklashlar kiritish jarayonini murakkablashtirish, qarshi talablarni kelishish va boshqa ko'plab imkoniyatlarni beruvchi ko'p tomonlama siyosatga aylandi.

Ikkinchidan, bu xorijiy mamlakatlar bilan o'zaro savdoni erkinlashtirish, manfaatdor mamlakatlar orasidagi savdo oqimining tuzilishi va o'zgarishi masalalarini savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha hukumatlararo komissiyalar darajasida yechishdir.

O'zbekiston va yel orasida imzolangan hamkorlik to'g'risidagi bitim o'zbek tovarlarining yelga a'zo mamlakatlar bozorlariga kirishiga yordam beradi, uning asosida O'zbekiston va bir qancha yevropa mamlakatlari o'rtasida milliy buyumlarni GFR xududiga kiritishning sharoitlari to'g'risidagi bitim imzolandi.

Uchinchi, tashqi siyosat sohasidagi vazifa mintaqaviy guruhlariga a'zo mamlakatlarning kollektiv proteksionizmga qarshi turish imkonini beruvchi savdo-siyosiy birlashmalar tuzishdir. Ikki tomonlama soliq solishni istisno qilish va kapital kiritishni himoya qilish, TIF qatnashchilarining konsultatsiyasi va xabardorligi bo'yicha o'zbek savdo vakolatxonalari hamda davlat organlari va ijtimoiy birlashmalar masalalari bo'yicha tuzilgan bitimlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Savdo-iqtisodiy munosabatlar sohasida islohotlar erkin savdo mintaqasini shakllantirish jarayoni va Bojxona ittifoqini yaratish jarayonida amalga oshiriladi. 1993 yil dekabrda a'zo davlatlar korxona va sohalarining ishlab chiqarish hamkorligini qo'llab quvvatlashning umumiy sharoitlari va tuzilishi to'g'risidagi bitim katta ahamiyatga egadir.

Unga ko'ra quyidagilar ishlab chiqarish hamkorligi va ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish darajasidagi tovar va xizmatlar olib borilishida qo'llanilmaydi:

- olib kirish va olib chiqish bojlari;
- soliqlar;
- aktsizlar;
- miqdoriy cheklamalar.

TIF davlat tomonidan boshqarilishini faqat qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishni emas, balki milliy manfaatlarga rioya qilishni nazorat etish iqtisodiy xavsizlik ta'minlanishini bildiradi.

Evropa Iqtisodiy komissiyasining 1997 yil 27 maydagi qaroriga ko'ra, 1 iyuldan yelga a'zo-mamlakatlarda temir va po'latdan cheksiz quvurlarning olib kirilishiga vaqtinchalik dempingga qarshi bojlar o'rnatildi. Boj miqdori juda baland, bojxona qiymatining 32,9% ni tashkil etadi.

Valyutani tartibga solish - davlatning milliy manfaatlarini himoya qilish maqsadida TIF qatnashchilariga ta'sir qilishning ko'rinishlaridan biridir. Bu ta'sir O'zbekiston Respublikasining "Valyuta operatsiyalarining tartibga solish va valyuta nazorati to'g'risida"gi qonuni asosida amalga oshiriladi.

Tashqi savdoni valyutani tartibga solishning eng ko'p tarqalgan usullaridan biri – bu valyuta tushumlarining bir qismini milliy valyuta evaziga sotish majburiyatidir. "Valyuta cheklamalari" deb atalmish vositalar valyuta jihatidan tartibga solish usullaridir: valyuta operatsiyalarining davlat tomonidan nazorat qilinishi, valyuta operatsiyalarini vakolatli banklarda jamlash, kapitalni olib chiqishni cheklash va boshqalar.

13-MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SAVDOSI VA UNI BOSHQARISH

Reja:

- 1. Tashqi iqtisodiy faoliyat shart-sharoitlari**
- 2. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy siyosatning rivojlanishi**
- 3. Tashqi iqtisodiy faoliyatning investitsiyaviy va huquqiy bazasi**
- 4. O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyati rivojlanishining asosiy yo'nalishlari**

1. Tashqi iqtisodiy faoliyat shart-sharoitlari

O'zbekistonning ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan o'z bozor iqtisodiyoti modelida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish va mustahkamlash, respublikaning jahon xo'jalik aloqalariga birlashish yo'llarini belgilash, ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining rivojlanishi va respublika integratsiyasi yo'nalishlarining jahon xo'jalik aloqalarida mustahkamlanishi asosiy o'rin egallaydi.

«Ochiq» turdagi iqtisodiyoponing shakllanishi sharoitida rivojlangan tashqi iqtisodiy aloqalar tizimida bo'lgan har bir davlatning xalqaro mehnat taqsimotida o'z o'rniga, dunyo xo'jalik tizimida o'z «javoniga» ega bo'lishi muhimdir. Chunki, faqat o'z kuchiga ishonish davri o'tmishda kolmokka. Bunday yo'nalish pirovard natijada milliy va ijtimoiy rivojlanish tormoziga aylanadi, resurslarni noratsional ishlatadigan aloqalar bozor iqtisodiyotiga o'tish harakatini qiyinlashtiradi. Xatto, katta xududga, ko'p millionli aholiga, xilma-xil resurslarga ega bo'lgan mamlakatni bugungi kunda boshqa mamlakatlar bilan doimiy va keng iqtisodiy aloqalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi ham bundan mustasno emas. Davlat o'z suverenligiga ega bo'lgan paytdan boshlab, o'zi tanlagan tashqi iqtisodiyot siyosatini mustaqil xalqaro huquqiy sub'ekt sifatida olib bormoqda. Bu siyosatning asosiy maqsadi - O'zbekistonning xaqiqiy ochiq iqtisodiyotini va jahon iqtisodiyoti tizimi integratsiyasini izchil ruyobga chiqarishdir.

Respublikaning xalqaro hamkorlikda va jahon mehnat taqsimotida ishtirok etishi uning tabiiy - iqtisodiy, transport, geografik va madaniy-tarixiy merosga xos bo'lgan imkoniyatlaridan kelib chiqadi.

O'zbekiston ulkan resurslar potentsialiga ega bo'lib, birinchi navbatda, mineral xom-ashyo resurslariga, iqtisodiy ishlab chiqarish va aholi potentsialiga, geopolitik yondashish jihatidan faqat yevrosiyo qit'asi emas, hozirgi kunda tiklanayotgan «Buyuk ipak yo'li»da ham muhim strategik o'rin tutadi.

O'zbekistonning xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish rolini ham aynan shu pozitsiyalardan ko'rib chiqish zarur. O'zbekiston oltin ishlab chiqarish umumiy hajmi bo'yicha dunyoda sakkizinchi va uning aholi jon boshiga belgilangan ishlab chiqarishi bo'yicha beshinchi o'rin egallaydi; respublikada oltin bor 30 ta qazilma topilgan bo'lib, hozircha ularning faqat o'ntasi ishga tushirilgan. O'zbekiston oltinining sifati jahon oliy standartlariga to'liq javob beradi, oxirgi 20 yil davomida reklamatsiyalar olmagan, oxirgi yillarda uch marotaba xalqaro sifat mukofotlariga erishdi.

Muruntovdagi (Navoiy viloyati) oltini bor qazilmalarning (olinayotgan miqdori va sifati jihatidan) jahonning eng katta oltin konlari Klondayk (AQSH), Vitvaterrand (YUAR), Kolar (Hindiston)lar bilan bir qatarga qo'yish mumkin. YUqori probali qimmatbaho metal bu yerda chorak asrdan beri qazib olinmokda. Uni qazib olish arzon, ochiq yo'l bilan olib borilayapti. SHunday qilib, davlat suveriniteti sharoitida respublika o'z oltiniga o'zi xo'jayin bo'lib, jahon oltin bozorida teng huquqli hamkor bo'lishi mumkin. Lekin oxirgi paytda jahon bozorining oltin bilan o'ta to'yintirilish tendentsiyalari ro'yobga chiqishi munosabati bilan qimmatbaho metalning sifatiga bo'lgan talab ancha muncha yuqori bo'ldi.

Masalan, 1991 yilda Jahon bankining ko'rsatkichlariga ko'ra, bu farq 220-320 tonnaga yetdi. Bunday sharoitlarda oltinga bo'lgan narx-navoni barqaror ushlab turish mushkul bo'lib qoldi. CHunki, sobiq ittifoq parchalanib, uning o'rniga yangi mustaqil davlatlarning tashkil topishi G'arb mamlakatlari va YAponiyani juda bezovta qilib qo'ydi. Binobarin, ular dunyoda eng katta oltin importyori va istemolchisi edilar. SHuning uchun jahon bozorida O'zbekiston oltinini sotishda g'oyatda omilkorlik zarur.

O'zbekistonda 370 ta kon ishlab turibdi. Ulardan har yili 200mln. tonna turli mineral xom-ashyolar qazib olinadi, yiliga 80 ming tonna mis ishlab chiqarayotgan O'zbekiston ulkan zaxiralarga boy, yana ko'plab qo'rg'oshin, rux, volfram, litiy va boshqa noyob metallarning katta -katta konlari mavjud.

Respublika rivojlangan qudratli yoqilg'i-energetika bazasiga ega. Tabiiy gaz topilmalari taxminan 2 trillion kub, ko'mir 2 mlrd.tonnadan ortiq, neft 350 mln. tonnani tashkil qiladi. Oxirgi 2 yilda ochilgan yangi neft va gaz konlari nafaqat o'z ehtiyojlarimizni qondirishga, balki energiya beruvchilarning eksporti xaqida ham gap yuritishga imkon beradi. O'zbekiston neft konlaridagi qora oltinni qayta tayyorlash to'g'risida «Elfakiten» frantsuz kompaniyasi bilan bitim tuzilgan.

O'zbekiston - Markaziy Osiyo va MDXda asosiy paxta yetishtiruvchi va bu borada jahonda 4 o'rinda. endilikda jahon va MDX davlatlari bilan asosiy hamkorlik yo'nalishlaridan respublikada paxtani chuqurroq qayta ishlab, tashqi bozorga yakunlangan qimmatbaho mahsulot sifatida chiqarish mo'ljallangan.

Respublikada har yili 1,7 mln tonna paxta tolasi tayyorlanadi. Buni jahonda chiqarilayotgan paxta bilan solishtirish mumkin. MDX da umumiy 2,75 mln. tonna, Xitoyda 4,2 mln. tonna, AQSHda 3,4 mln. tonna paxta ishlab chiqariladi. Ishlab chiqarish hajmiga ko'ra, O'zbekiston jahon paxta bozorida teng huquqli hamkor bo'lishi mumkin, lekin bizning paxtamiz sifati chet el paxtasi sifatidan ancha past. Uning sifatini yaxshilash uchun ancha-muncha ishlar olib borish va fursat darkor. Xuddi shunday vaziyat qorako'l terilari va ipak xomashyosi bo'yicha ham xukm surmoqda.

Meva va sabzavotlar yetishtirishda – Sobiq Ittifoq davrida O'zbekiston Respublikasi asosiy ta'minlovchi bo'lgan, Ittifoqda har yili yetishtiriladigan yalpi meva sabzavotning 60% ini yetqazib berishni o'z zimmasiga olgan edi. Bugungi kunda ham respublikada har yili 5 mln tonnagacha meva va sabzavot yetishtiriladi, ularning ko'pi noyob taamga ega. O'zbekiston bu borada hamkorlikka tayyor. Respublikaning bu tarmoqqa bo'lgan asosiy e'tibori - mahsulotlarni qayta ishlash; saqlash; jo'natish; qadoqlash korxonalarini barpo etishga qaratilgan.

O'zbekiston o'zida va xorijda, turizm sanoati rivojlantirish uchun ham ko'pgina imkoniyatlarga ega . Uning xududida dunyo miqyosida tanilgan tarixiy va arxitektura markazlari- Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari joylashgan, bulardan tashqari 4000dan ortiq maxobatli me'morlik obidalar bor, ularning ko'plari YUNESKO himoyasida.

O'zbekistonning potentsial imkoniyatlari kafolatli bo'lib, bir tomondan, bozor iqtisodiyoti islohatlashtirish,boshqa tomondan esa, sobiq Ittifoq o'rnida shakllangan yangi iqtisodiy makon integratsiyasi teng huquqli hamkorlik asosida xalqaro mehnat taqsimotida va jahon xo'jalik aloqalarida babbarovar ishtirok etish hisoblanadi.

O'zbekistonda xalqaro bozorga chiqish yo'li va rivojlanish uchun ko'plab imkoniyatlar mavjud. Respublika tashqi iqtisodiy aloqalari intensivatsiyasining kelib chiqish shart-sharoitlari quyidagilardir :

- yer boyliklari, mineral xomashyo va o'simliklar resurslari, shuningdek, ajoyib tuproq-iqlim sharoitlari, qishloq xo'jaligini rivojlantirish xamda uning mahsulotlarini qayta tayyorlaydigan sanoat ishlab chiqarish kompleksi bazasini yaratish uchun cheksiz imkoniyatlar mavjudligi ;

- milliy xalq xo'jaligi majmui infratuzilmasining yuzaga kelishi, respublikani jahon xo'jaligi aloqalariga keng miqyosda jalb eta oladigan yirik ilmiy potentsial mavjudligi;


- eksport potentsialining yuqori darajada ekanligi;

- tegishli kooperatsiya va hamkorlikdagi sarmoyalar yordamida raqobat bardosh mahsulotlarini yuqori darajada tayyorlay oladigan ishlab chiqarishni qisqa vaqt ichida yaratish potentsialining mavjudligi;

- nisbatan olganda (jahon miqyosida baholaganda) arzon ishchi kuchiga ega bo'lish mumkinligi;

- xorijiy kapital sarmoyasi va o'zaro manfaatdorlik asosida hamkorlik o'rnatish uchun respublikada barqaror siyosiy muhitning yaratilganligi .

2011yilda eksport mahsulotlari hajmi 2010yilga nisbatan qariyb 15,4 foizga ko'paydi va 15 milliard dollardan ko'proqni tashkil etdi. Bu 2000yilga nisbatan 4,6 barobar ziyoddir. Tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldos 4 milliard 500 million dollardan oshdi (13.1-rasm).



13.1-rasm.O'zbekistonda tashqi savdoning dinamikasi, milliard AQSH doll. hisobida.

Tashqi savdo aylanmasi tarkibidagi bunday ijobiy o'zgarishlar mustaqillik yillarida mazkur sohaga qaratilgan e'tibor, xususan eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni har tomonlama rag'batlantirish hamda import o'rnini bosadigan mahsulotlarni ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosat natijalari hisoblanadi. "O'zbekiston mustaqillikkacha bo'lgan davrdagi chetga xomashyo chiqaradigan va tayyor mahsulotlar, asosan iste'mol tovarlarini olib kiradigan mamlakatdan bugungi kunda tobora qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan tayyor mahsulotlarni eksport qiladigan va ko'proq ishlab chiqarishni texnik hamda texnologik modernizatsiya qilish uchun mo'ljallangan yuqori texnologiyalar asosidagi uskunalarni import qiladigan mamlakatga aylanib bormoqda.

Eksportning tovar tarkibini diversifikatsiya qilish natijasida mamlakatimiz paxta yakkahokimligi oqibati bo'lgan paxta tolasi eksportiga qaramlikdan xalos bo'ldi. Uning eksportdagi ulushi kamayib, 1990 yildagi 59,7 foizdan 2010 yilda 11,3 foizga tushdi"⁴. 2011 yilda eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushi 60 foizni tashkil etdi, holbuki, 2000 yilda bu ko'rsatkich qariyb 46 foizni tashkil etgan edi.

Prezidentimiz o'z ma'ruzasida O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror va mutanosib rivojlanib borayotganini 2005yildan boshlab Davlat byudjeti profitsit bilan bajarilayotgani ham yaqqol tasdiqlab turganini ta'kidlab o'tdi (13.1-rasm).


Respublikamizning tashqi savdo aylanmasi 1990-2011 yillar davomida 31,7 marta, jumladan, eksport - 33,9 marta, import - qariyb 29 marta oshdi. Natijada tashqi savdoning ijobiy saldosi 56,6 marta ortdi. Birgina "2011 yilda eksport mahsulotlari hajmi 2010 yilga nisbatan qariyb 15,4 foizga ko'paydi va 15 milliard dollardan ko'proqni tashkil etdi. Bu 2000 yilga nisbatan 4,6 barobar ziyoddir. Tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosi 4 milliard 500 million dollardan oshdi"⁵.

Tashqi savdo balansida muttasil ijobiy saldoga erishish mamlakatimiz oltin-valyuta zaxiralarining ortishiga va milliy valyutamiz barqarorligining ta'minlanishiga olib keldi, xorijiy valyuta talab etadigan yirik investitsiya dasturlarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirdi. Xususan, investitsiya dasturlarini moliyalashtirishda roli o'sib borayotgan O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi kapitalining 2012 yil boshiga kelib 9 millird dollardan oshib ketishida tashqi savdoda ijobiy saldoga erishilayotgani asosiy rol o'ynadi.

Hukumatimiz tomonidan tashqi savdo geografiyasini diversifikatsiya qilish, yangi bozorlarga kirib borish, bu bozorlarda mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning raqobatdoshligini ta'minlash borasida aniq chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2012 yilda Afg'oniston Islom Respublikasining Hayraton aholi punktidan Mozori SHarif shahrigacha bo'lgan temir yo'lining qurilishi, ushbu mamlakatga elektr energiyasi eksportining ko'paytirilishi, Osiyo mintaqasi davlatlariga paxta tolasini sotish hajmining ko'paytirilishi bularga misol bo'ladi.

⁴ Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидаги (1990-2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011-2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари: статистик тўплам. – Т.: "Ўзбекистон", 2011, 59-61-б.

⁵ Ислом Каримов. 2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади /Халқ сўзи, 2012 й., 21январь.



13.2-rasm. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdosi ko'rsatkichlari (million AQSH doll.).

13.2-jadval

**O'zbekiston Respublikasi eksportining tovar tarkibi
(umumiy hajmga nisbatan foizda)**

	1990	1995	2000	2005	2008	2009	2010	2011
Jami	100	100	100	100	100	100	100	100
Paxta tolasi	59,7	48,4	27,5	19,1	9,2	8,6	11,3	9,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	3,9	1,7	5,4	3,8	4,4	6,0	9,7	13,2
Kimyoviy mahsulot va undan tayyorlangan mahsulotlar	2,3	2,5	2,9	5,3	5,6	5,0	5,1	5,6
Energiya va neft mahsulotlari	17,1	11,7	10,3	11,5	25,2	34,2	24,8	18,5
Qora va rangli metallar	4,6	4,7	6,6	9,2	7,0	5,0	6,8	7,4
Mashina va uskunalar	1,7	2,0	3,4	8,4	7,5	2,9	5,5	6,7
Xizmatlar	1,3	7,7	13,7	12,2	10,4	8,8	9,1	11,8
Boshqalar	9,4	21,3	30,2	30,5	30,7	29,5	27,7	27,8

Manba: *stat.uz/ dok_ru_2012.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirish, eksportning tovar tarkibini diversifikatsiya qilish borasida izchillik bilan amalga oshirilgan chora-tadbirlar samarasi tashqi savdo, xususan, eksport hajmining oshishi va uning tovar tarkibida ijobiy siljishlar ro'y berganida o'z aksini topdi. eksport tarkibida qo'shilgan qiymat ulushi katta bo'lgan tayyor mahsulotlar salmog'i o'sib bormoqda. 1990 yilda eksportning umumiy hajmida xomashyo hisoblanmaydigan tovarlar ulushi 30 foizdan kamroq bo'lgan bo'lsa, 2011 yilga kelib bu ko'rsatkich 70 foizdan ziyodni tashkil etdi. 2000-2010 yillar davomida respublikamizda yengil avtomobillar eksporti 7,6

marta, paxta kalavasi eksporti 4,7 marta, trikotaj matolar eksporti 156 marta, mineral o'g'itlar eksporti 11,7 marta, neft mahsulotlari eksporti 67,5 marta, tsement eksporti esa 6,3 marta ko'paydi.

YAlpi eksportning tovar tarkibida paxta tolasining ulushi 1990 yilda 59,7 foizni, 1995 yilda esa 48,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2010 yilda 11,3 foizga, 2011 yilda esa 9 foizgacha pasaydi. Mashina va uskunalarning yalpi eksportdagi ulushi mustaqillik yillarida o'sdi va 2011 yilda 6,7 foizni tashkil qildi (1990 yilda 1,7 foiz).

Agar mamlakatimiz eksporti 1990 yilda (sobiq ittifoqdosh respublikalar bilan hisobga olinganda) 442,7 million dollarga (jumladan, mashina va uskunar eksporti 7,53 milliondoll.), 2011 yilda esa 15027,2 million dollarga (mashina va uskunar eksporti 1006,8 million dollar) teng bo'lganini e'tiborga olinsa, shu davrda eksport hajmi 33,9 martaga oshgani holda, mashina va uskunalarining eksport hajmi 133 marta ko'payganini ko'rish mumkin. SHuningdek, mashina va uskunar eksporti 2000-2011 yillar davomida 9 marta, 2005-2011 yillar davomida esa 2,2 marta ko'paydi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sababli tashqi bozorda mamlakatimiz korxonalari eksport qiladigan asosiy mahsulotlarga talab kamayganiga qaramasdan 2009-2012 yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi chora-tadbirlar dasturiga ko'ra eksport qiluvchi korxonalarini qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida keyingi yillarda mamlakatimiz eksport hajmi barqaror o'sib bormoqda. 2011 yilda "Eksport taribida tayyor mahsulotlar ulushi 60 foizni tashkil etdi, holbuki, 2000 yilda bu ko'rsatkich qariyb 46 foizni tashkil etgan edi".⁶

Mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash vazifasi 2012 yilda ham eksport hajmini o'stirish va diversifikatsiya qilish bo'yicha ishlarni davom ettirishni talab etadi. Mahsulot eksport qiluvchi korxonalarga beriladigan imtiyozlar doirasini kengaytirish, ularni takomillashtirish, raqobatdosh mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish bunga zamin yaratadi.

1. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy siyosatning rivojlanishi

O'zbekistonning dunyo mamlakatlari bilan xalqaro savdo-iqtisodiy munosabatlari tarixi o'rta asrlardan boshlanadi. G'arb va SHarq o'rtasidagi savdo, katta bozor uchun kurash va mehnat resurslari hamda vaqt O'zbekistonning hozirgi xududiga dahldor bo'lgan.

CHunki, uning geografik jihatdan savdo-iqtisodiy potentsiali ko'plab mamlakatlarning qiziqishiga sabab bo'lgan.

O'zbekiston asosan agrotexnika xomashyosi (paxta, ipak, qorako'l), mashinasozlik va asbobsozlik tarmoqlari uchun komplektlash mahsulotlari, oltin, uran ishlab chiqarish mo'ljallangan. Ikkinchi jahon urushi davrida ko'pgina zavotlar O'zbekistonga evakuatsiya qilingani tufayli respublikada konchilik, samolyotsozlik, traktorsozlik, elektrotexnika, kimyo, to'qimachilik, og'ir sanoat tarmoqlari paydo bo'ldi. Biroq texnik, texnologik va tarif standartlari O'zbekistondan tashqarida

⁶ Ислом Каримов. 2012 йил Ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади./Халқ сўзи, 2012 й., 21 январь.

(asosan Rossiyada) ishlab chiqariladi, respublikada sanoatning rivojlanishi muayyan darajada tashqi qaramlikka bog'liq edi.

1991 yil 1-sentyabrdan boshlab O'zbekiston mustaqil davlat bo'ldi. Iqtisodiy va davlatchilik taraqqiyotining birinchi bosqichida (1991-1995 y.) iqtisodni boshqaradigan o'z infratuzilmasini yaratish va jahon hamjamiyatiga savdo aloqalarini intensiv rivojlantirishga bog'liq edi. SHu bois, bu borada muayyan tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, yagona iqtisodiy siyosatni o'tkazish va shakllantirish, taraqqiyot strategiyasini belgilash, ichki va tashqi bozorlarda umumdavlat manfaatlarini ta'minlash, iqtisodiy, fan-texnik, savdo, madaniy va sport sohalarida hamkorlik o'rnatish, turizmni rivojlantirish va boshqa aloqalarni samarali boshqaradigan Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi (MVES) barpo etildi. 1992 yil 26 martda qabul qilingan hukumat qaroriga ko'ra, vazirlik davlat organi bo'lib, u O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalarini boshqarish, nazorat qilish, tartibga solish, va muvofiqlashtirish ishlarini olib boradi.

Vazirlik O'zbekiston Respublikasini uning tashqarisida namoyish etadi; barcha tashqi iqtisodiy masalalar bo'yicha davlat manfaatlarini xamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro bitimlaridan kelib chiqadigan majburiyatlarini mamlakat nomidan himoya qiladi. Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi o'z faoliyatida xalqaro huquqiy me'yorlarga, O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan tuzgan bitim, qonun va me'yoriy qaydnomalariga amal qiladi. O'z taraqqiyotidagi I-bosqichning yakuniy davrida (1995 yilning oxiri) O'zbekiston davlat boshqaruvida, iqtisodiyotda, tashqi savdo aloqalarida hamda ishlab chiqarish doirasida barqarorligi bilan ko'zga tashlandi. 1995 yilda MDX, orasida savdoda ijobiy saldo olgan ikki davlatning biri bo'ldi.

Oltin qazib olish, energetika, qurilish, tuqimachilik sanoati va neft ishlab chiqarish sohalarida dastlabki sanoat investitsiyalarning loyihalari tugallandi. Hissadorlik asosida, shu jumladan, xorijiy kapitalning qatnashuvi bilan agrar hamda sanoat korxonalarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish uchun qonuniy va amaliy sharoitlar yaratildi.

EH, iqtisodiy komissiyasi ko'rsatmalariga ko'ra, milliy mahsulotning salmog'i 1991 yildagiga nisbatan 1995 yilda O'zbekistonda 82,2%ni, Rossiyada 49%ni, Qozog'istonda 43%ni, Belorussiyada 41%ni tashkil etdi.

Iqtisodiy rivojlanishning ikkinchi bosqichi (1995-1998y) negizlaridan biri – mamlakatning o'z sanoatiga asoslanib, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, makroiqtisodiy investitsiyaviy infratuzilmasini ta'minlaydigan bir qator institutlar barpo etish.

Bu bosqichda tashqi bozorni ta'minlash, bir tomondan, ichki (import o'rniga) va tashqi bozorlar uchun (eksportga) raqobatbardosh mollar ishlab chiqarish bo'lsa, ikkinchi tomondan, O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlariga ko'plab xorijiy texnologik sarmoyalar kirishi bilan chambarchas bog'liqdir:

- aviatsiya mashinasozligi va avtomobilsozligi;
- kon qazilmalari va kimyo sanoati;
- qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlash va qadoqlash;
- qurilish materiallari ishlab chiqarish;

- to'qimachilik sanoati;
- telekommunikatsiya va aloqa;
- transport va uning xizmati.

SHuning uchun asosiy e'tibor O'zbekistonning aviatsion portlarini kompleks ravishda qayta ko'rishga; energetika, transport, aloqa va mashinasozlik sohalarida yirik sanoat komplekslarini barpo etishga qaratildi.

O'zbekiston Respublikasining eksport-import tarkibi shuni ko'rsatdiki, 1998 yil natijalariga ko'ra, tashqi savdo aylanmasi 6 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. Tashqi savdoda 216 mln. AQSH dollari miqdorida qo'shimcha saldo ta'minlandi. MD davlatlarining tovar aylanmasi 24%ga tushib ketdi.

Bu parallel ravishda erkin konvertatsiya qilinadigan valyuta vositasidagi savdo hajmining ortishiga olib keldi.

1998 yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining asosiy hamkori SHveytsariya bo'ldi. SHuningdek, tashqi savdo olib borilgan birinchi besh mamlakat qatorida Janubiy Koreya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Turkiya bo'ldiki, bu borada ancha salohiyatga erishildi.

O'zbekistonning asosiy tovar aylanmasi yevropa iqtisodiy Hamjamiyatining sanoati rivojlangan mamlakatlariga 30,6%, Janubiy Koreyaga 16,2%, Turkiyaga 6,2%, Birlashgan Arab Amir-liklariga 2,2%, Xitoyga, 8%, AQSHga 1,2%, MDX, mamlakatlari bilan tovar aylanmasi Rossiyaga 49,1%, Qozog'istonga 18%, Tojikistonga 8,9%, Ukrainaga 4,0%, Qirg'izistonga 3,9% to'g'ri keldi.

Uzoq xorijiy mamlakatlarga yetqazib beriladigan mahsulotning ko'payishiga eksport tovarlarini sotish bozorining geografik kengayishi hamda tabiiy ko'lamning o'sishi, shuningdek, xom-ashyo mahsulotlariga, birinchi navbatda, paxta tolasi va misga jahon kon'yunktura baholarining yaxshilanishi sabab bo'ldi.

Erkin konvertatsiyalanadigan valyutaning eksport hajmi yaqin xorijiy mamlakatlar bilan 27,2 marta, dunyodagi boshqa mamlakatlar bilan esa 2 baravar o'sdi. 1998 yilda eksport tuzshshshi baholangan narxga ko'ra, xomashyo tovarlari, avvalo, paxta tolasi qisman darajada salmoqdi 57,8% o'rin tutdi. energiya yetkazgichlar ulushiga 14%, qora va rangli metallarga 5,4% to'g'ri keladi. 1998 yilda umumiy import hajmi 2,9 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. MDH va Boltiq bo'yi mamlakatlaridan keltiriladigan import tovarlar oqimi 8,8%ga qisqardi va 1,3 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. Natijada mazkur mamlakatlarning umumiy importdagi ulushi kamayib, 44,7%ga tushdi. YAqin xorijiy mamlakatlardan keltiriladigan import esa ancha ko'payib, 1994 yildagiga nisbatan 2,1 marta o'sdi.

Uzoq, xorijiy mamlakatlardan import tovarlarining keltirish 1,6 mlrd. AQSH dollari tashkil etdi. Natijada bu mamlakatlarning salmog'i baholangan narxga ko'ra, import hajmining 2005 yilda 45,7%idan 55,3%ga ko'paydi. O'zbekiston uchun importdagi salmoqli o'rinni Janubiy Koreya (12,5%), Germaniya (5,9%), Vengriya (9,2%), SHveytsariya (7,5%), Turkiya (5,7%), YAponiya (4,4%) egalladi. Ularning importdagi o'rni 80%ga to'g'ri keldi.

YAqin va uzoq xorij mamlakatlardan import qilinadigan tovarlar orasida mashinalar va asbob-uskunalar salmog'i ortib bormoqda. Ular yalpi import tovarlarining 10,4% ini tashkil etadi.

Vatanimizda yoqilg'i-energetika majmui jadal sur'atlar bilan rivojlanganligi tufayli respublikamizga chet mamlakatlardan keltiriladigan neft va neft mahsulotlari umumiy salmog'ida ancha qisqardi.

Import tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonga bozorda tezda sotilib ketadigan iste'mol tovarlarini ko'plab keltirish davom etmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda transport aloqalari muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonning yirik xalqaro temir yo'l, dengiz va avtomobil portlaridan yiroq. joylashganligi import va eksport tovarlarini yetkazishda transport xizmati bahosiga jiddiy ta'sir o'tkazmoqda. YUklarning 90%i temir yo'l transporti orqali tashilmoqda. O'zbekiston ichkarisida temir yo'l aloqalari tizimi yetarli darajada rivojlanmagan va zich joylashgan (50 km. dan 100 kv. km. gacha), ular orqali Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'izistonga chiqish mumkin. 180 ta stantsiyadan 11 tasi yirik gabaritli konteynerlarni qayta ishlash uchun zaruriy vositalar bilan jihozlangan. Har kuni O'zbekistonda 8000 vagon qayta ishlanadi.

YUk tashishda tovarlarning anchagina qismi avtomobil transporti orqali yetkaziladi. Tezkor yo'llar 42 ming km. ni, mahaliy yo'llar 90 ming km. ni tashkil etadi.

«O'zbekiston havo yo'llari» hamda yonma-yon bo'lgan xalqaro aviatsiya kompaniyasi xizmatidagi tranzitmagistrali g'oyatda katta ahamiyatga egadir. MDX mamlakatlari va uzoq, xorijiy yurtlardan 15 tasiga samolyotlar tug'ridan-to'g'ri parvoz qilmoqda. Toshkent, Samarqand, Termiz va Fargona shaharlari xalqaro aeroportlar maqomiga ega.

13.1– jadval

Tashqi savdo balansi (mln. AQSH dollari)

Yillar	Eksport	Import	Tashqi savdo balansi	Savdo saldosi
2004	869,3	320,2	1189,5	549,1
2005	4598,2	3284,1	7882,3	1314,1
2006	3264,7	2947,4	6212,1	317,3
2007	5408,8	4091,3	9500,1	1317,5
2008	6986,4	6034,2	13020,6	952,2
2009	8991,5	6728,1	15719,6	2263,4
2010	11572,9	7504,1	19077,0	4068,8
2011	11771,3	9438,3	21209,6	2333,0
2012	13044,5	8797,9	21842,4	4246,6
2013	15027,2	10509,9	25537,1	4517,3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi

2013 yilda tovarlar va xizmatlar eksporti 13044,5 mln. dollarni tashkil qildi va u 2012 yildagidan 110,8%ni tashkil etdi, shuningdek import hajmi ham 2012 yildagidan 93,2%ni tashkil etib 8797,9 mln. dollarni tashkil qildi. Natijada tashqi savdo balansi 2012 yildagi 21209,6 mln. dollardan 2010 yilda 21842,4 mln. dollarga etdi. Tashqi savdoda ijobiy saldo ham 2303,0 mln. dollarni 4246,6 mln. dollarga

o'sganini kuzatishimiz mumkin. Bu esa iqtisodiyotimiz barqarorligining muhim ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Hamon davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ham eksportning hajmi 10,8 %ga oshgani, tashqi savdo saldosi esa 1,8 barobar oshib 4mlrd. 246 mln. dollarni tashkil etgani mamlakatimiz tashqi savdo balansining mustahkamlanib borayotganidan darak beradi.

3. Tashqi iqtisodiy faoliyatning investitsiyaviy va huquqiy bazasi

O'zbekiston Respublikasida hozirgi davrda iqtisodiy faoliyatning barcha sohalariga aloqador qonunlar va me'yoriy huquqiy aktlarga har tomonlama asoslangan tizim vujudga keltirildi. Tashqi iqtisodiy aloqalar va savdo munosabatlaridagi huquqiy baza xalqaro huquqlar hamda me'yorlar darajasida asoslab berildi. CHunonchi, Respublika Prezidentining "Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulkni himoya qilishni ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlan-tirish to'g'risidagi farmoniga ko'ra, keng iste'mol mollarini ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalar xorijiy valyuta topshirish va uni Markaziy Bankka majburiy sotish bo'yicha besh yil muddat davomida soliq to'lashdan ozod qilish.

SHu farmonga ko'ra, eksport mahsulotining hajmi 30%dan oshgan korxonalar belgilangan me'yorlardan ikki baravar kam miqdordagi stavkalar bo'yicha soliq to'lash huquqiga ega. SHu bilan birga, respublikada xorijiy sarmoyalarni jalb etish uchun imtiyozlarning keng tizimi vujudga keltirilgan, xorijiy sarmoyadorlar uchun imtiyozli soliq joriy etilgan. Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari tug'risidagi farmonga binoan, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qo'shma korxonalarni ro'yxatga olingan paytdan boshlab, besh yil, muddatga xorijiy valyutadagi tushumdan soliq to'lashdan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankiga valyutani majburiy sotishdan ozod qilish ko'zda tutilgan.

Eksportga mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi farmonga ko'ra, korxonalar ishlab chiqargan mahsuloti tarkibida eksportga ishlab chiqarilgan mahsulot bo'lsa, ular muayyan imtiyozlarga ega.

Amaldagi imtiyozlar va rag'batlantirish omillari tizimi quyidagilardir:

- ishlab chiqarilgan tovarlarning (ishlar, xizmatlar)

- eksporta kamida 30%ni tashkil etadigan korxonalarga, mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, foyda solig'ini amaldagi stavkalardan ikki baravar kamroq, to'lash huquqini berish;

- respublika davlat investitsiya dasturiga kiritilgan loyihalar bo'yicha soliqlar to'lashdan besh yil muddatga ozod etish;

- o'zi ishlab chiqargan mahsulotni ruxsatnomasiz bemaol chetga olib ketish;

- O'zbekiston xududida qo'shma korxonalarning va faqat xorijiy sarmoya bilan ishlaydigan korxonalarning ustav fondiga hissa qo'shish uchun mol-mulkni chetdan boj soliqlarisiz olib kirish;

-investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun yer maydonlaridan foydalanish va ularni tasarruf etish huquqini tanlov asosida sotib olish ko'zda tutilgan.

«Xorijiy sarmoyalar to'g'risida»gi qonunga muvofiq; chet ellik sheriklar uchun ularning mol-mulkini davlat ixtiyoriga olish va musodara qilishdan ozod etish uchun kafolatlar belgilab qo'yilgan. Ularning o'z faoliyati natijasida olgan foydasi va boshqa pullarni chet elga o'tkazishga, olingan foydani respublika xududida qayta sarmoya tarzida ishlatish, respublika banklarida hisob raqamiga va unda cheklanmagan miqdorda har qanday valyuta mablag'iga ega bo'lish kafolatlanadi. Xorijiy sarmoyadorlarga nisbatan investitsiyalar amalga oshirilgan paytda amalda bo'lgan qonun me'yorlari (normalari) 10 yil mobaynida qo'llanishi ko'zda to'tilgan qonun hujjatlari o'zgartirilmasligiga kafolat mavjud.

SHunday qilib, vujudga keltirilgan huquqiy normalar (me'yorlar) xorijiy sheriklarning keng investitsiya faoliyati uchun qo'lay imkoniyatlar yaratib, ularning huquqlari va sarflagan sarmoyasini himoya qiladi.

O'zbekiston sarmoyalarni o'zaro himoya qilish to'g'risida Germaniya, Turkiya, Misr, Indoneziya, Malayziya, Pokiston, Finlyandiya, Koreya, AQSH, Frantsiya bilan bitimlar imzoladi, boshqa bir qancha mamlakatlar bilan ham mana shunday bitimlar tuzish davom ettirilmoqda.

Kanada, Xitoy Xalq, Respublikasi, Turkiya, Gollandiya, Germaniya, SHveytsariyaning banklari va firmalari bilan 3,3 mlrd. AQSH dollariga yaqin miqdorda xukumatlararo 32 ta yirik kredit bitimi tuzildi va hozir bu bitimlar amalda qo'llanilmokda. O'zbekiston 30 dan ortiq, savdo va iqtisodiy bitimlar tuzgan, ulardan 20 tasi uzoq, xorij mamlakatlari bilan tuzilgan. Birgina 2001 yilda respublikada chet el investitsiyasi kiritilgan korxonalar soni 9001, shu jumladan ishlab turgan yuridik korxonalar soni 11958 ga yetdi. Umuman, mustaqillikka erishilgandan so'ng respublikaga 5 mlrd. AQSH dollari kirib keldi.

14-jadval

2005 – 2011 yillarda investitsiyalar tarkibining o'zgarishi, foizda

Moliyalashtirish manbalari	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013
Davlat byudjeti	12,7	10,7	9,0	9,0	8,2	7,4	6,5
CHet el investitsiyalari	19,2	19,0	22,8	25,8	32,4	28,8	25,1
Korxonalar va aholi mablag'lari	60,3	60,0	59,0	53,9	46,9	47,3	50,2
Boshqa manbalar	7,8	10,3	9,2	11,3	12,6	16,9	18,2

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi.

4. O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyati rivojlanishining asosiy yo'nalishlari

Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi respublikaning TIF Milliy banki va O'zbekistonning boshqa tashqi iqtisodiyot institutlari bilan birgalikda tashqi savdo siyosatini ishlab chiqadi va milliy investitsiya loyihalarini muvofiqlashtirishni amaliy hal etadi. YUqorida qayd qilinganidek, iqtisodiy taraqqiyotning ikkinchi bosqichida asosiy diqqat e'tibor ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratildi. SHu

sababli ham yuqori sifatli tovarlarni yaratishga yo'naltirilgan va raqobatli bahodagi sarmoyalar keyingi me'yoriy huquqiy aktlarda ko'zda to'tilgan afzalliklar hamda imtiyozlardan foydalanishga imkon beradi.

O'zbekiston hukumati tomonidan iqtisodiyotning har xil sohalari bo'yicha va mamlakatning turli xududlari uchun afzal bo'lgan investitsiya loyihalari tizimi ishlab chiqilgan. Xususan, Tashqi iqtisodiy aloqalar Vazirligi va Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki (MB) ixtiyorida mukammal analitik bazaga ega bo'lgan 177 loyiha mavjud. Ulardan ayrimlari hozirdanoq, joriy qilinmoqda. Masalan, yagona zamonaviy navigatsiya tizimini yaratish ikkinchi bosqichda amalga oshirilmoqda; traktor, samolyot, avtomobillar ishlab chiqarish uchun mashinasozlik bazasini yaratishga ham allaqachon kirishilgan.

O'zaro foyda keltiradigan savdo va pragmatik tamoyillarga rioya qilgan holda O'zbekiston sheriklar bilan hamkorlikni yanada kengaytirib bormoqda va ular taklif qilgan zamonaviy yuqori sifatli texnologiya o'zlashtirilib, o'z sanoatimizda qo'shma korxonalarining yakuniy mahsuloti ishlab chiqarilmoqda. Bunday yondashish o'zaro foydali hamkorlik va savdoning adekvat tamoyili bo'ladi. Jahon bozori bilan bunday hamkorlikni jadal rivojlantirish sharoitlari O'zbekiston Respublikasining barqaror va izchillik siyosati bilan kafolatlanadi: islohot yo'llarida ularning amalga oshishi qator ijobiy natijalar bermoqda.

Birinchidan, jami tashqi savdo aylanmasi 2001 yilda bir muncha oshib, 6001,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. SHu jumladan, yaqin xorij (MDX,) mamlakatlari bilan savdo — 2609,0 mln. AQSH dollariga va uzoq xorij mamlakatlari bilan savdo 3392,7 mln. AQSH dollariga yetdi. Jami tashqi savdo aylanmasida xorijiy mamlakatlar bilan savdo-sotiq salmog'i anchagina ko'paydi. Respublikaning erkin konvertatsiya qilingan valyutada eksport operatsiyalari hajmi ortdi: 1998 yilgi 51,2%dan 2001 yil 91,9%ga oshdi. Barter operatsiyalari 1996 yilgi 48,8%dan 2001 yilda 8,1 %ga kamaydi.

Ikkinchidan, Vazirlar Mahkamasining TIABni qayta tuzish xaqidagi qaroridan keyin ko'pgina xo'jalik sub'ektlarining tashqi bozorga chiqishi ortdi. Bu esa respublikada iqtisod elementlarining jahon xo'jalik munosabatlari tizimiga moslashishiga olib keldi va bozor iqtisodiyotining shakllanishiga yordam beradi.

Uchinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyatni respublika mustaqilligi sharoitida olib borish ko'pgina yangi boshqaruv va tashkiliy xo'jalik tuzilmalarini yaratishga imkon beradi: huquqiy va normativ bazalar ishlab chiqarilmoqda, ular respublikaning tashqi iqtisodiy faoliyatini boshqarishda muhim rol o'ynaydi, tashqi iqtisodiy kompleks infratuzulmaning keng tarmog'i shakllanmoqda hamda tashqi savdo, elchixona, xalqaro iqtisodchilikda kasbiy mahoratga ega bo'lgan xodimlar tayyorlanmoqda.

Biroq tashqi alohalarda salmoqli yutuqlarga erishgan bo'lsakda, bozor iqtisodiyotiga o'tish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida uchrayotgan muhim va dolzarb muammolar hali yechimini topgani yo'q. Bunga bir necha sabablar bor:

Birinchidan, tashqi tuzilmalardagi eksport ishlab chiqarishida tubdan o'zgarishlar ro'y bermaguncha, xom-ashyo maxsulotlari, avvalo, paxta salmoqli o'rinda turaveradi, shuningdek, boy turistik imkoniyatlardan ham yetarli darajada foydalanilayotgani yo'q

Ikkinchidan, qoloq, (jahon standartlariga nisbatan olganda) texnologiyadan va past darajada ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish davom etmoqda, ayniqsa, respublikaning

xom-ashyo mahsulotlarini qayta tayyorlaydigan sohalari bo'iicha ishlab chiqarish yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Raqobatbardosh mahsulotlar kam ishlab chiqarilayotganligi eksport bazasi tarravdiyotini cheklab qo'yishda asosiy to'siq bo'lmoqda;

Uchinchidan, tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirishga oid qarorlar ma'muriy-tashkiliy tadbirlar miqyosida o'z ijrosini topmayapti hamda iqtisodiy va amaliy choralarni hal etishda qddiyatlilik yetishmayapti;

To'rtinchidan, vazirliklar, idoralar, kontsermlar, hissa-dorlik jamiyatlari, barcha xususiy korxonalar hamda matlubot tashkilotlari respublika qonunchiligi asosida o'z zimmalariga yuklangan tashqi iqtisodiy faoliyatdagi vazifalarini mukammal bajarmayaptilar, bunga qisman iqtisodiy rag'batlantirish choralaridan samarali foydalana olmaslik ham sabab bo'lmoqda. Jahon bozori qonunlari va talablarini yaxshi bilmaslik, tegishli chora-tadbirlarni o'z vaqtida amalga oshirmaslik, munosib xodimlar tayyorlash ishida mas'uliyatsizlik holatlari namoyon bo'lmoqda.

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasining "Korxonalar to'g'risida"gi Qonuni-T.: "Adolat", 1992.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - "O'zbekiston", 1994.
3. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi – T.: "Adolat", 1996.
4. O'zbekiston Respublikasining "Aholini ish bilan ta'minlash tug'risida"gi Qonuni (YAngi tahrir) - T.: "Adolat", 1998.
5. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlarni tayyorlash milliy dasturi" -T.: "O'zbekiston", 1998.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi to'g'risida. 2010 yil 27 yanvar.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 2009 yil 20 yanvar, PQ-1041-son.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va

eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida. 2008 yil 28 noyabr, PF-4058-son.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2008 yil 18 noyabr, PF-4053-son.
10. "Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 iyundagi PF—3618-son Farmoni Uzbekiston respublikasi qonun hujjatlari to'plami 23-24-son (159-160) 2005 y. Iyun
11. "Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish hamda modernizatsiyalash maqsad va vazifalarini amalga oshirish Dasturi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 10 martdagi PQ-24-son qarori- O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to'plami 10-11-son (146-147) 2005 y. Mart
12. "2005-2006 yillarda korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish dasturi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 martdagi PQ-29-son qarori- O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to'plami 10-11-son (146-147) 2005 y. Mart
13. "O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 2001 yil 13 fevral 75-sonli Qaror.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari

14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining Qarori "Boshqaruv xodimlari sonini tartibga solish va ularga sarflanadigan xarajatlarni maqbullashtirish chora-tadbirlari to'g'risida". "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2003 y., № 15-16, 134-modda.
15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining Qarori "Aholini ish bilan ta'minlanganligini hisobga olish tizimini takomillashtirish to'g'risida". "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2002 y., № 2 (Mazkur Qaror O'zR VM 24.05.2007 y. № 106 Qaroriga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

16. Islom Karimov. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. – T.: "O'zbekiston", 2012. – 36 b.
17. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir/I.A.Karimov. – Toshkent: «O'zbekiston», 2010. – 34-50 b.
18. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2010 yil 28 yanvar.
19. O'zbekiston Konstitutsiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 17

- yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2009 yil 6 dekabr.
20. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.:O'zbekiston, 2009 y. – 33 b.
 21. Karimov I.A. eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O'zbekiston, 2009. – 24 b.
 22. «O'zbekistonning 16 yillik taraqqiyot yo'li». Prizedent I.A. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Maxkamasi va prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruzasi “Xalq so'zi” gazetasi 2007 yil, 31 avgust.
 23. Karimov I.A. Bizning bosh maksadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islox etishdir. T.: “Uzbekiston”, 2005.
 24. Karimov I.A. O'zbekistonda demokratik uzgarishlarni yanada chukurlashtirish va fukarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yunalishlari. Ikkinchi chakirik O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 9-sessiyasidagi ma'ruza, 2002 yil 29 avgust
 25. Karimov I.A. “O'zbekiston XXI asrga intilmokda” T. O'zbekiston, 1999
 26. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2011 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2011. – 377 b.

Darsliklar

27. Avdokushin ye.F. Mejdunarodnye ekonomicheskie otnosheniya. Uchebnik. – M., 2008, 19-23 s
28. Nazarova G.G., Xalilov X., eshtaev A., Xakimov N.Z., Salixova N., Bobojonov B.R. “Jahon iqtisodiyoti va XIM”. – T., 2006. - 216 b.
29. SHodiev R.X. “Jahon iqtisodiyoti”. – T.: “G'ofur G'ulom”, 2005.- 215 b.
30. Nazarova G.G., Xalilov X., eshtaev A., Axmedov I.A., Xakimov N.Z., Muxammedraximov U.X. “Jahon iqtisodiyoti” – T., 2005. - 220 b.
31. Kolesov V.P., Kulakov M.V. Mejdunarodnaya ekonomika: Uchebnik. - M.: INFRA-M, 2008. - 474 s.
32. Mirovaya ekonomika i mejdunarodnyy biznes: uchebnik / kol. avtorov ; pod общ. Red. d-ra ekon. Nauk, prof. V.V.Polyakova i d-ra ekon. Nauk, prof.r.k.IIçenina.- 5-e izd., ster.- M.:KNORUS, 2008.-688 s.
33. Lomakin V.K. Mirovaya ekonomika: uchebnik dlya studentov vuzov, obuchayuyixsya po ekonomicheskim spetsialnostyam i napravleniyam / V.K. Lomakin. – 3-e izd., pererab. i dop. – M.: YUNITI-DANA, 2007. – 671 s.
34. Mirovaya ekonomika: prognoz do 2020 goda / pod red. akad. A.A. Dыnkina / IMEMO RAN. – M.: Magistr, 2007. – 429 s.

35. Международные валютно-кредитные и финансовые отношения: учебник /Под ред. Л.Н. Красавиной. - 3-е изд., перераб. и доп. - М.: Финансы и статистика, 2007. - 576 с.
36. Внeshнеэкономическая деятельность: учеб. для студ. сред. проф. учеб. заведений / [Б. М. Смитенко, В. К. Пospelov, С. В. Карпова и др.]; под ред. Б. М. Смитенко, В. К. Пospelova. — 4-е изд., перераб. и доп. — М.: «Академия», 2007. — 304 с.
37. Устойчивое экономическое развитие в условиях глобализации и экономики знаний: концептуальные основы теории и практики управления / Под ред. В.В. Попкова. М.: ЗАО «Издательство «Экономика», 2007. — 295 с.

O'quv qo'llanmalar

38. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010. – 340 b.
39. Jaxon iqtisodiyoti. Nazarova G.G., Xalilov X.X., Xanova I.M., Xakimov N.Z., Bobojonov B.R. T.: MCHJ “RAM-S”, 2007 y
40. Экономика зарубежных стран. Nazarova G.G., Adilova Z.D., Muxamedjanova G.A. T.: TGEU, 2007 y
41. Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti. Nazarova G.G., Xakimov N.Z., Bobojonov B.R., ergashev D.R., Sultanova N.A. T.: TGEU, 2007 y
42. O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy munosabatlari. Xaydarov N.X. T.: TGEU, 2007 y
43. Mualliflar guruhi. O'zbekistonda biznes keyslar: O'zbekiston Respublikasidagi biznes ta'limotida “Keys - Stadi” uslubining qo'llanilishi. – T.: Akademiya, 2006. – 645 b.
44. Nazarova G.G., Xaydarov N.X. Xalkaro iqtisodiy munosabatlar. – T.: TDIU, 2005.-273 b.
45. Spiridonov I.A. Mirovaya ekonomika: Ucheb. Posobie. – M.: RIOR, 2007. – 128 s.
46. Lomakin V.K. Mirovaya ekonomika. Praktikum: ucheb. posobie dlya studentov vuzov, obuchayushixsya po ekonomicheskim spetsialnostyam i napravleniyam / V.K. Lomakin. – M.: YUNITI-DANA, 2007. – 223 s.
47. Mirovaya ekonomika i mejdunarodnyy biznes : uchebnyk / kol. avtorov; pod obsh. red. d-ra ekon. nauk, prof. V.V. Polyakova i d-ra ekon. nauk, prof. R.K. Shchennina. — 5-e izd., ster. — M. : KNORUS, 2008. — 688 s.
48. Shevchuk V.A., Shevchuk D.A. Mejdunarodnye ekonomicheskie otnosheniya: Ucheb. posobie.- M.: Izdatelstvo RIOR, 2006.-192 s.
49. Figurnova, N. P. Mejdunarodnaya ekonomika: ucheb. posobie / N.P. Figurnova. — Moskva: Izdatelstvo «Omega-L», 2007. — 304 s.
50. Globalizatsiya mirovogo xozyaystva: Ucheb. posobie / Pod red. d-ra ekon. nauk, prof. M.N. Osmovoi, kand. ekon. nauk, dots. A.V. Boychenko. - M.: INFRA-M, 2006. - VIII, 376 s.

51. Savvina O. V. Mejdunarodnyye finansovyye organizatsii: Uchebnoe posobie. — M.: Rossiyskaya Akademiya predprinimatelstva, 2006. — 146 s.
52. Smirnov ye.N. Vvedenie v kurs mirovoy ekonomiki (ekonomicheskaya geografiya zarubejnyx stran): ucheb. posob. — M.: Knorus, 2008. — 416s.
53. Mejdunarodnyy finansovy ryнок: ucheb. posobie / pod red. d-ra ekon. Nauk, prof. V.A. Slepova, d-ra ekon. Nauk, prof. ye.A. Zvonovoy. — M.: Magistr, 2007. — 543 s.
54. Mejdunarodnyye strategii ekonomicheskogo razvitiya: Ucheb. posobie / Pod red. YU.V. Makogona. — K.: Znanya, 2007. — 461 s.

Statistika to'plamlari ma'lumotlari

55. “Jamiyat va boshkaruv” jurnali, 4-soni, 2009yil
56. “Iqtisodiyot va ta’lim” jurnali, 2-son, 2009 yil
57. “Kadrlar masalari bo'yicha ma'lumotnoma” jurnali 8-son, 2009 yil
58. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining tegishli yillar bo'yicha statistik to'plamlari.

Internet saytlari

59. www.cfin.ru
60. www.devbusiness.ru
61. www.gov.uz — Ofitsialnyy sayt Pravitelstva Respubliki Uzbekistan
62. www.mfer.uz. — sayt Ministerstva vneshnix ekonomicheskix svyazey, investitsiy i trgovli Respubliki Uzbekistan
63. www.jahon.mfa.uz — sayt Ministerstva inostrannyx del Respubliki Uzbekistan
64. www.edu.uz. — sayt Ministerstva Vysshego i srednego spetsialnogo obrazovaniya Respubliki Uzbekistan
65. www.unctad.org — sayt UNCTAD (United Nations Conference on Trade and Development)
66. www.mgimo.ru — sayt MGIMO
67. www.tseu.uz — sayt TGEU
68. www.cer.uz — sayt TSentra ekonomicheskix issledovaniy
69. www.review.uz — sayt jurnala “Ekonomicheskoe obozrenie”
70. www.businesspress.ru — Portal elektronnyx sredstv massovoy informatsii dlya predprinimateley “Delovaya pressa”